ISBN 978-9910-9211-4-8

O‘ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI
UNIVERSITETI

“IJTIMOIY
JARAYONLARNI
O‘RGANISH” ILMIY
TADQIQOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO‘PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami

«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Toshkent – 2025

UDK: 341.129.81
KBK: 896.027.35
A 204

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy tendensiyalari [Matn] : To‘plam: S.Saidov, D.Muitov, Sh.Agabaev, F.Davronova. –Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2025. 168 b.

Mas’ul muharrir:
Saidov Sanjar Shavkatovich siyosiy fanlar doktori, professor
Davronova Feruza Raxmonovna siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
Sh.Jo‘rayeva, M.Matnazarova, I.Yarmuhammedova, A.Temirbayeva, M.Nizamova, Sh.Axmedova, A.Mirzaaliyeva, M.Haitova

Ushbu to‘plamda “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy tendensiyalari” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish”ga oid bo’lgan Davlat dasturida belgilangan “Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillati asosida tashkil etish” vazifalaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasini tasdiqlashto‘g‘risida”gi 490-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2025-yil 29-yanvardagi “Universitetda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarto‘g‘risida”gi 4/D-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida belgilangan vazifalardan kelib chiqib tayyorlandi.

To‘plam xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik, sotsiologiya ta’lim yo‘nalishilari mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9910-9211-4-8

© S.Saidov, D.Muitov, Sh.Agabaev, F.Davronova. 2025 y.
© «Ilm ziyo zakovat» 2025 y.

KIRISH
(*Rektor nutqi*)

HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, MEHMONLAR, AZIZ HAMKASBLAR!

Avvalo, sizlarni bugungi dolzarb mavzuga bag‘ishlangan konferensiyada ko‘rib turganimdan mamnunman. “O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI” —mavzusi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining eng dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy hamjihatligi va inson qadr-qimmatining ustuvorligi aynan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Uchinchi Renessans” va “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyalari asosida mamlakatimizda fuqarolik jamiyati, ochiqlik va xalq bilan muloqot siyosati tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

2021-yilda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, shuningdek, 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolik jamiyatining siyosiy-huquqiy poydevorini yanada mustahkamladi. Bu o‘zgarishlar – fuqarolik jamiyati O‘zbekistonda endi davlatning hamkori va ijtimoiy transformatsiya katalizatori sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fuqarolik jamiyatining kuchayishi nafaqat siyosiy tizimni demokratlashtiradi, balki iqtisodiy va ekologik islohotlarning samaradorligini ham oshiradi. Ta’lim va yoshlar siyosatida esa faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda talabalar klublari, yosh siyosatchilar va volontyorlik faoliyatlarini doimiy rivojlantirib borish davlat oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi.

Xalqaro maydonda O‘zbekiston BMT Inson huquqlari kengashi, Yevropa Ittifoqi va ko‘plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirib, jamiyatda ijtimoiy adolat va inson huquqlari sohasida yangidan yangi siyosiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bularning barchasi fuqarolik jamiyatining davlat siyosati bilan konstruktiv dialogga kirishganligidan dalolat beradi.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Fuqarolik jamiyatining rivoji – bu davlatning emas, balki butun xalqning siyosiy o‘sish darajasidir. O‘zbekiston bugun bu borada Markaziy Osiyoda eng ochiq, ijtimoiy sheriklikka asoslangan siyosiy modelni yaratmoqda. Shu bois, bizning burchimiz – bu jarayonni nafaqat kuzatish, balki ilmiy tahlil, amaliy taklif va innovatsion g‘oyalar bilan boyitishdir.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari!” g‘oyasi bugun faqat siyosiy shior emas, balki fuqaro faolligi, ilmiy tafakkur va ijtimoiy birdamlik orqali hayotga tatbiq etilayotgan milliy konsepsiyadir. Men ishonamanki, bugungi anjumanimiz natijalari fuqarolik jamiyati rivojiga, demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga va O‘zbekistonning siyosiy modernizatsiyasi jarayoniga munosib hissa qo‘shadi.

Anjumanda quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

1-sho‘ba. Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy mezonlari: ijtimoiy-siyosiy tahlil;

2-sho‘ba. Fuqarolik jamiyatini shakllanishida fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning dolzarb masalalari: xalqaro tajriba va istiqbol;

3-sho‘ba. O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari: muammo va yechimlar;

4-sho‘ba. Uchinchi sektorning jamiyat ijtimoiy modernizatsiyasidagi ishtiroki, ko‘ppartiyaviylik va ijtimoiy sheriklik.

Mazkur anjumanimizda 10dan ortiq o‘z sohasining mutaxassis olimlari o‘z nutqlari bilan ishtirok etadilar. Shu bilan birga qatorda davlat va nodavlat tashkilot hamda muassasalardan mehmonlar tashrif buyurishgan. Jumladan, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi, Taraqqiyot strategiyasi markazidan, Renessans ta’lim universitetidan, partiyalardan sohaga oid mutaxassislar kelishgan. Anjumanga 60 ga yaqin ilmiy maqolalar kelib tushgan.

So‘zimning yakunida bugungi konferensiyaning barcha ishtirokchilariga universitetimiz jamoasi nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman va barchangizni samarali ilmiy muhokamalar, amaliy natijalar hamda yangi hamkorlik tashabbuslari bilan tabriklayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

1-SHO‘BA. KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHINING ASOSIY MEZONLARI: IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLIL

FUQAROLIK JAMIYATI TUZILMALARINING SUBSTANSIONAL MEZONLARI

Abduxalikov S.,
falsafa fanlari doktori, professor (O‘zR IIV Akademiyasi)

Annotatsiya. Maqolada ilk bora fuqarolik jamiyati institutlari substansional va korrelyatsion-funksional mezonlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, madaniyat, substansional qonunlar, korrelyatsion-funksional qonunlar.

Biz e’tiborni, birinchi navbatda, jamiyat, jumladan fuqarolik jamiyati institutlarining umumsubstansional asos - mezonlariga qaratmoqchimiz. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, biz demokratik fuqarolik jamiyati, ya’ni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish sari ketmoqdamiz. “Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati, - degan edi Birinchi Prezident I.A.Karimov, - demokratiyaning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki jihati, ikki qanoatidir“. [3.108.] Mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyati qurishdan asosiy maqsad jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ta’minlashdan iborat. Demokratik fuqarolik jamiyati kishilik jamiyatining o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Tarixni dialektik madaniy tushunishga muvofiq, jamiyatning yadrosi – asosini madaniy borliq tashkil etadi. Madaniy borliq – bu insonlar va ular tomonidan o‘zlarining mavjudligini ta’minlash maqsadida borliqning ishlov berib yaratilgan qismidir. [1.] X.T.Odilqoriev va Sh.F. G‘oipnazarovlar ushbu falsafiy g‘oyalarni tasdiqlab, “Insoniyat ... moddiy madaniyatning ilk na’munasi bo‘lgan ”oddiy tosh cho‘qmor”dan hozirgi zamonning mo‘jizaviy o‘ta murakkab texnik qurilmalarigacha bo‘lgan davrda yaratilgan barcha narsalarni qamrab oluvchi va madaniy borliq deb ataluvchi tizimni yaratdi,” deyishadi. [5,9.] Bu haqda ko‘plab ilmiy chiqishlar bo‘lgan. Bu borada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatining ikkinchi punktiga qarang. [2.] “Madaniy borliq” tushunchasi “madaniyat” iborasining “kultura” ma’nosidagi o‘zgartirilgan ko‘rinishidir. Shuning uchun “madaniy borliq” tushunchasining mazmuni yunonchadan “kultura” so‘zi mazmunining sinonimidir. Madaniyat - bu inson va ular tomonidan voqealikning “ishlov berib” o‘zgartirgan va yaratgan qismi, yangi sifatga ega bo‘lgan borliq, ya’ni madaniy borlikdir.” [1,8.]

“Tabiatdan farqli o‘laroq, - deyishadi Rostov- Don shahrida “Falsafa” bo‘yicha darsliklardan birining mualliflar jamoasi, - madaniyat - bu insonlar

yaratgan va yaratayotgan ham moddiylik, ham ma’naviylikdir. Madaniyat bu u yoki bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida maxsus ishlov berilgan, insoniylashgan tabiat.” [6,312.] Bu tavsifdan ham ko‘rinib turibdiki, madaniyat o‘ziga xos mavjudlik. U insonlarsiz yuz bermaydi.

Sovetlar davrida tarixni materialistik tushunish bo‘yicha, jamiyatning asosini moddiy ishlab chiqarish belgilaydi, deb tushuntirilar edi. Holbuki, moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish madaniy borliqning bir qismini tashkil etadi. Bu tarkib “xo‘jalik madaniyati”, ba’zan yanada keng ma’noda “moddiy madaniyat” ham deyiladi.

Madaniy borliq jamiyatning yadrosi sifatida quyidagi to‘rtta tarkibiy qismlardan iborat: moddiy madaniyat, sotsial madaniyat, jamiyatning siyosiy - huquqiy madaniyatlari va jamiyatning ma’naviy madaniyati. Majoziy ma’noda qaraydigan bo‘lsak, teri, paylar, nerv tizimi va qon tomirlari tizimi inson tanasini birlashtirib turganidek, madaniy borliqning bu to‘rtala qismlarini ham sistema sifatida birlashtirib turadigan tomonlar mavjud. Bulardan birinchisi insonlardir. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining sub’ektlaridir. Bu tomonlardan tomonlardan ikkinchisi xo‘jalikka oid, sotsial sohaga oid, siyosiy-huquqiy sohalarga oid va ma’naviy hayot sohalariga oid ehtiyojlardir. Bu tomonlardan uchinchisi ularni anglashdir, ya’ni ongdir. Bu tomonlardan to‘rtinchisi insonlarning ushbu ehtiyojlarini anglashlari asosidagi yaratuvchilik faoliyatlaridir. O‘ziga xos bu sifat holati huquqiy hayot sohasida huquq ijodkorligi deyiladi. Bu tomonlardan beshinchisi insonlarning yaratuvchilik faoliyatlari natijalaridir. Bu natijalar buyum – mahsulot, norma, muassasa kabilarni tashkil etadi. Bu tomonlardan oltinchisi yaratuvchilik faoliyati natijalarining o‘zlashtirilishi , jumladan, iste’mol qilinishi va hayotga tatbiq etilishlaridir.

Bir – birlarini genetik ravishda keltirib chiqaruvchi bu tomonlarning so‘nggi oltinchisi - yaratuvchilik faoliyati natijalarining o‘zlashtirilishi ikkinchi substansional tomon - inson ehtiyoj va manfaatlarining qondirilishi bilan birinchi substansional tomon - inson va uning birliklari, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudliklari ta’minlanadi. Bu bilan jamiyat yadrosi – madaniy borliqning quyidagi uchta sistema tashkil etuvchi umumsubstansional qonunlari kelib chiqadi: jamiyat yadrosi – madaniy borliqning substansional bir butunligi qonuni, jamiyat yadrosi – madaniy borliqning substansional ilgarilama doiraviy aylanishi qonuni va ehtiyojlarning oshib borishi qonuni. Bu qonunlar ham ayni vaqtda umumijtimoiy qonunlardir. [1.] Bu substansional qonunlardan birinchisi jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va rivojlanishining mexanizmini, ikkinchisi jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va rivojlanishining manbaini va uchinchisi jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va rivojlanishining yo‘nalishini tashkil etadi. Bu qonunlardan birinchisida

dialektikaning miqdor va sifat o‘zgarishlarining biriga o‘tishi qonuni namoyon bo‘ladi. Bir – birlarini genetik ravishda keltirib chiqaruvchi bu tomonlarning so‘nggi oltinchisi - yaratuvchilik faoliyati natijalarining o‘zlashtirilishi ikkinchi substansional tomon - inson ehtiyoj va manfaatlarining qondirilishi yuz bersa, jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining amal qilishi normal holatda yuz beradi. Aksincha, madaniy borliqning so‘nggi oltinchi tomoni - yaratuvchilik faoliyati natijalarining o‘zlashtirilishi ikkinchi substansional tomon - inson ehtiyoj va manfaatlariga mos kelmasa, nizolar kelib chiqadi. Ularni hal qilish yangi-yangi sifat o‘zgarishlariga olib keladi. Shuninguchun dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni madaniy borliqning substansional ilgarilama doiraviy aylanishi qonunida namoyon bo‘lib, jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va rivojlanishining manbaini tashkil qiladi. Inson ehtiyojlarining oshib borishi jamiyat yadrosi – madaniy borliqning uchinchi substansional qonunidir. Bu qonun jamiyat, jumladan, fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi va rivojlanishining yo‘nalishini tashkil qiladi. Shunday ekan, ijtimoiy rivojlanishining bu uchala umumsubstansional qonunlari jamiyat, jumladan,huquqiy davlatva fuqarolik jamiyati institutlarining tarkib topishi va rivojlanishining birinchi tartibdagi eng umumiy substansional mezonini tashkil etadi.

Maqolani tayyorlashdan asosiy maqsad, fuqarolik jamiyati shakllanishining substansional mezonlarini aniqlash ekan, e’tiborni, ikkinchidan, tadqiqotchi N.B.Nishanbaeva tomonidan aniqlangan fuqarolik jamiyati institutlarining genezisiga va qo‘shimcha ravishda asoslariga qaratamiz. [4.]

Madaniy borliq jamiyat mavjudigi va rivojlanishining asosi ekan, madaniy borliqning tarkibiy qismlaridan biri - moddiy madaniyat negizida jamiyatning moddiy hayoti kelib chiqqan. Boshqacha so‘z bilan aytganda, moddiy madaniyat jamiyat moddiy hayotining ishlov berib yaratilgan qismidir. Moddiy madaniyat xo‘jalik va ekomadaniy qismlar birligidan iborat. Xo‘jalik madaniyati o‘z navbatida texnologik va iqtisodiy madaniyatlar birligidan tashkil topgan. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlaganidek, jamiyatning xo‘jalik madaniyati va ekomadaniyatlar negizi va tarkibida shu sohaga oid fuqarolik jamiyatining tuzilmalari ham kelib chiqqan. Jamiyatning yuqorida ko‘rsatilgan uchta umumsubstansional qonunlari moddiy hayot sohasida moddiy madaniyat, xususan xo‘jalik madaniyatining substansional qonunlari ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladilar. Va ular fuqarolik jamiyatining xususiy mulk asosida kelib chiqadigan nodavlat tashkilotlari, shirkat, ijara, moliyaviy jamg‘arma va hissadorrlik jamiyatlari, konsern, ekouyushmalar kabi tuzilmalar mavjudligi va rivojlanishining ikkinchi tartibdagi mezonini tashkil etadi.

Madaniy borliq jamiyat mavjudigi va rivojlanishining asosi ekan, madaniy borliqning tarkibiy qismlaridan yana biri - sotsial madaniyat negizida

jamiyatning sotsial hayoti kelib chiqqan. Jamiyatning sotsial hayoti yadrosi inson, oila, millat va ularning maishiy madaniyati, savdo, transport, uy-joy, kommunal xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va sport kabi madaniy qismlardan iborat. Tadqiqotchi N.B.Nishanbaeva ta’kidlaganidek, fuqarolik jamiyatining oila, sotsial sohaga oid jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari kabi tuzilmalar shakllangan. [4.] Ularga xos ichki munosabatlar negizida o‘ziga xos hayot tarzlari yuz beradi. “Sotsial hayot” so‘zi esa ijtimoiy hayotning bitta sohasini ifodalaydi.

Jamiyatning yuqorida ko‘rsatilgan uchta umumsubstansional qonunlari sotsial hayot sohasida sotsial madaniyat, xususan uning har bir sohalariga xos madaniy asoslarida namoyon bo‘ladilar. Va bu o‘ziga xos substansional qonunlar fuqarolik jamiyatining oila va sotsial sohaga oid jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari kabi tuzilmalar mavjudligi va rivojlanishining ikkinchi tartibdagi mezonini tashkil etadi.

Jamiyatning siyosiy va huquqiy hayotilari sohalarini olaylik. Jamiyatning siyosiy va huquqiy hayotlari birgalikda keladi. Chunki huquq davlat hokimiyati orqali amalga oshadi. Ammo ular o‘ziga xosliklarga ham egadirlar. Madaniy borliq jamiyat mavjudigi va rivojlanishining asosi ekan, siyosiy hayotning yadrosini jamiyatning siyosiy madaniyati, huquqiy hayotining yadrosini jamiyatning huquqiy madaniyati tashkil etadi. Davlat hokimiyati va uning muassasalari, siyosiy partiya va harakatlar, siyosiy normalar ham jamiyatning siyosiy madaniyati tarkibiy qismlaridir. Qo‘shimcha qilib aytamiz: siyosiy partiya va harakatlar esa ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining siyosiy hayot sohasidagi tuzilmalaridir. Jamiyatning yuqorida ko‘rsatilgan uchta umumsubstansional qonunlari siyosiy hayot sohasida jamiyat siyosiy madaniyatining substansional qonunlari ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladilar. Va ular fuqarolik jamiyatining siyosiy hayot sohasida siyosiy partiya va harakatlar kabi tuzilmalar mavjudligi va rivojlanishining ikkinchi tartibdagi mezonini tashkil etadi.

Huquqiy hayotning yadrosini jamiyatning huquqiy madaniyati tashkil etadi. Huquqni muhofaza qilish organlari ham jamiyat huquqiy madaniyatining tarkibiy qismlaridir. Qo‘shimcha qilib aytamiz: inson huquqlarini himoya qiluvchi jamoatchilik asosida yuzaga keladigan komissiyalar, advokatlar kengashlari kabilar ham jamiyat huquqiy madaniyati tarkibidan joy olgan bo‘lib, ular ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining ushbu hayot sohasiga oid tuzilmalaridir. Jamiyatning yuqorida ko‘rsatilgan uchta umumsubstansional qonunlari huquqiy hayot sohasida jamiyat huquqiy madaniyatining substansional qonunlari ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladilar. Va ular fuqarolik jamiyatining huquqiy hayot sohasida inson huquqlarini himoya qiluvchi jamoatchilik asosida yuzaga keladigan komissiyalar, advokatlar kengashlari

kabi tuzilmalar mavjudligi va rivojlanishining ikkinchi tartibdagi mezonini tashkil etadi.

Madaniy borliq jamiyat mavjudigi va rivojlanishining asosi ekan, ma'naviy hayot yadrosini uning ishlov berib yaratilgan qismi – jamiyatning ma'naviy madaniyati tashkil etadi. Nodavlat ta'lim-tarbiya muassasalari, diniy tashkilotlar, estetik uyushmalar, ilmiy to'garaklar, nodavlat ommaviy axborot vositalari muassasalari ham jamiyat ma'naviy madaniyati tizimida joylashgan bo'lib, ular ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining shu hayot sohasidagi tuzilmalaridir. Jamiyatning yuqorida ko'rsatilgan uchta umumsubstansional qonunlari ma'naviy hayot sohasida jamiyat ma'naviy madaniyatining substansional qonunlari ko'rinishlarida namoyon bo'ladilar. Va ular fuqarolik jamiyatining ma'naviy hayot sohasida nodavlat ta'lim-tarbiya muassasalari, diniy tashkilotlar, estetik uyushmalar, ilmiy to'garaklar, nodavlat ommaviy axborot vositalari muassasalari kabi tuzilmalar mavjudligi va rivojlanishining ikkinchi tartibdagi mezonini tashkil etadi.

E'tiborni, uchinchidlan, jamiyat, jumladan fuqarolik jamiyati institutlari amal qilishi samaradorligining negizlari – jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlari tizimiga qaratmoqchimiz. Moddiy madaniyat jamiyat moddiy hayotining asosidir, dedik. Nafaqat bu, balki u shu bilan birga sotsial madaniyat, ma'naviy madaniyat, siyosiy va huquqiy madaniyatlar va ular asosida yuzaga keladigan sotsial, ma'naviy va siyosiy-huquqiy hayotlarga nisbatan moddiy asos qonunini bajaradi. Fuqarolik jamiyatining xususiy mulk asosida kelib chiqadigan nodavlat tashkilotlari, shirkat, ijara, moliyaviy jamg'arma va hissadorrlik jamiyatlari, konsern kabi tuzilmalari jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlaridan biri – ushbu moddiy asos qonuni tarkibida amal qiladi.

Sotsial madaniyat jamiyat sotsial hayotining asosidir. Sotsial madaniyat esa moddiy, ma'naviy, siyosiy va huquqiy madaniyatlar va ular asosida yuzaga keladigan moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy hayotlarga nisbatan sotsial asos qonunini bajaradi. Jamiyatning sotsial hayoti yadrosi tomonlari - inson, oila, millat va ularning maishiy madaniyati, savdo, transport, uy-joy, kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash va sport kabilar jamiyatning sotsial asosi qonuni tarkibida amal qiladi. Inson va uning birliklari sotsial madaniyatning birinchi tarkibiy qismidir. Shuning uchun ular jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy hayotning barcha sohalariga nisbatan sub'ektning belgilovchilik roli qonunini bajaradi.

Jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlari jamiyat siyosiy – huquqiy hayotlarining asosidir. Nafaqat bu, balki shu bilan birga jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlari sotsial, moddiy va ma'naviy madaniyatlar va ular asosida yuzaga keladigan sotsial, moddiy va ma'naviy hayotlarga nisbatan boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonunlarini bajaradi

Jamiyat ma’naviy madaniyat jamiyat ma’naviy hayotining asosidir. Nafaqat bu, balki shu bilan birga jamiyat ma’naviy madaniyati sotsial, moddiy, siyosiy va huquqiy madaniyatlar va ular asosida yuzaga keladigan sotsial, moddiy va siyosiy-huquqiy hayotlarga nisbatan ma’naviy asos qonunini bajaradi.

Sotsial madaniyat, jumladan, insonlar, jamiyatning moddiy, ma’naviy, siyosiy – huquqiy madaniyatlari funksional holatlariga ko‘ra bir – birlarini taqoza qiladilar, ya’ni korrelyatsiyada bo‘ladilar. Shuning uchun ular bir – birlariga nisbatan o‘zaro aloqadorlik tizimida sotsial madaniyat, jumladan inson va uning birliklari sotsial asos, jamiyat moddiy madaniyati moddiy asos, jamiyat ma’naviy madaniyati ma’naviy asos, jamiyat siyosiy – huquqiy madaniyatlari boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonunlarini bajarar ekanlar, ular jamiyatning korrelyatsion – funksional qonunlari deyiladi. Ular umumijtimoiy qonunlarning bir turkumidir. Bu qonunlarning amal qilishi ijtimoiy hayotning to‘rtala sohalariga oid fuqarolik jamiyati institutlarining samaradorligini belgilovchi uchinchi tartibdagi mezonlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduxoliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. -T.: ”Fan”, 1992; uning: Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. –T.:”Fan”, 1997. 190-bet.

2.Abduxoliqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. -T.: ”Fan”, 1992.

3.Vohidov H.P. Siyosiy va huquqiy ta’limotlarni o‘rganish metodologiyasi.// Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi. Darslik. -T.: TDYuI nashriyoti, 2003. 8-bet.

4.Abduxalikov S. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligining metodologik muammolari. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent-2002.

5.X.T., G‘oyibnazarov Sh.G‘. Siyosiy madaniyat: nazariy-siyosiy tadqiqot.-T.:O‘zR IIV Akademiyasi, 2004. 9-bet.

6.Otamuratov S. O‘zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda o‘tish davrining zarurligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari.// O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazarisi va amaliyoti. Darslik. –T.: 2005. 102-bet.

7.Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. -T. “Adolat”, 2007. 18-bet.

8.Rustambaev M.H., Abduxoliqov S.O. Huquq metodologiyasi: huquqni falsafiy tushunish bo‘yicha izlanishlar (jinoyat huquqi fani va vijdon erkinligi huquqi asosida). 1-kitob. –T.: TDYuI nashriyoti, 2006. -314 bet 269 bet.

9.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.

10.Nishanbaeva N.B. Ta’lim-tarbiya tizimining fuqarolik jamiyati tuzilmasi sifatidagi substansional asoslari (qo‘lyozma).

FUQARO SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING SIYOSIY ONG BILAN BOG’LIQ AYRIM XUSUSIYATLARI

Muitov Davron Sobirovich,
O‘zDJTU “Siyosiy fanlar” kafedrasi professor v. b., siyosiy fanlar nomzodi

Annotasiya. Maqolada siyosiy madaniyat transformasiyalashuvida siyosiy piarning ayrim dolzarb tendensiyalari tadqiq etilgan. Unda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining mustaqillikni qo‘lga kiritishi bilan siyosiy piar institutiga ta’sir qiluvchi tashqi axboriy mafkuraviy omillar xaqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Jamiyat siyosiy madaniyati, siyosiy piar, jamoatchilik bilan aloqalar, siyosiy piarning shakllanishi va ko‘rinishlari, siyosiy sohada piar vazifalari, Piar va tashviqot madaniyati.

Ma’lumki, siyosiy ongning tarkibiy qismi bo‘luvchi siyosiy psixologik fenomenlar jamiyat siyosiy xayoti bilan bog‘liq turfa xil emotsiyalar, his-tuyg‘ular, qarashlar va siyosatga ehtiyojlilik darajasida gavdalanadi. Fuqoro faolligini oshirishda ular bir birlari bilan ko‘pincha uyg‘unlikni namoyon qiluvchi siyosiy ehtiyoj, maslak va his-tuyg‘ular rag‘batlantiruvchi elementlarining tarkibiga kirib ketadi. Fuqoroni faollashtiruvchi Siyosiy bilimlar esa axborotga ega bo‘lish, siyosatga qiziqish, ishontirish bilan bog‘liq jarayonlarda aks etadi.

Ayniqsa EI siyosiy saylovlar tajribasi siyosiy mafkuraviy yo‘nalishlarda ko‘proq konservativ, sosialistik va liberal ong liberal, o‘ng radikal, chap radikal va hokazo ko‘rinishlarga egaligi namoyon qilmoqda. Shuningdek, siyosiy rejim va partiyaviy pozisiyalardan kelib chiqqan holda demokratik, avtoritar, totalitar va boshqa shakllarni ham misol keltirish mumkinligini tasdiqlamoqda.

Siyosiy ongning milliy va diniy xususiyatlari bugungi kun siyosat olamining dolzarb mavzusidir. Siyosiy ong insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar negizida shakllanadi. Har holda mazkur shart-sharoitlar mavjud bo‘lmas ekan, insonda siyosiy ong shakllanishi qiyin. U siyosatning obyektligicha qolaveradi. Demak, fuqoroni faollashtiruvchi siyosiy ongning shakllanishi – murakkab jarayondir. Xususan, jamiyatda avtoritar, ma’muriy-buyruqbozlik siyosiy tizimi hukmron bo‘lsa, u inson siyosiy ongining shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim insonni qullikka mahkum etadi, uni hokimiyatdan begonalashtiradi, biqiqlik, befarqlik va loqaydlikni kuchaytiradi.

Siyosiy ongning shakllanishi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Ma’naviy qashshoq, savodsiz bo‘lgan inson jamiyat va xalqaro siyosatdan yiroq bo‘ladi. Tarixiy tajriba shuni tasdiqlamoqdaki, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy sohasi, insonning ma’lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon va siyosiy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Eng asosiysi, demokratik yo‘l, ko‘rsatmalar, xatti-harakatlarga moyil bo‘ladi. Xususan, mukammal ta’lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr-toqatli, mehr-oqibatli bo‘lishga yordam beradi, ekstremistik g‘oyalarga aloqador bo‘lishdan saqlaydi, saylov kompaniyalari davrida uning odil va oqilona yo‘lni tanlash qobiliyatini oshiradi. Siyosiy savodxon shaxs hukumatning qarorlarini, ko‘rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarni chuqur biladi, keng doiradagi masalalar bo‘yicha o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘ladi. Inson qanchalik ma’lumotli bo‘lsa, uning siyosiy bahs-munozaralarda ishtirok etish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Shaxsda muayyan jamoat tashkilotlarining faol a’zosi bo‘lishlik, o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitga ishonch bildirishi ehtimolini kuchaytiradi. Siyosiy ongda milliy g‘oya muhim rol o‘ynaydi. Zero u muayyan jamiyatning mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiruvchi hodisadir. Siyosiy ongning turfa xilligi siyosiy jarayonlarning konkret obyekt va subyektlarga nisbatan olib qaraganda yanada ko‘payadi. Urush, tinchlik, atrof muhitni asrab avaylash kabi global muammolar yangicha siyosiy tafakkurni talab etmoqda.

Siyosiy hayot to‘g‘risida biz ko‘p narsalarni bilamizmi? Aytish joizki, jamiyatda siyosiy hayotida faol ishtirok etish imkoniyati hamisha mavjuddir. Jumladan mazkur imkoniyatning siyosiy rejimlarga bog‘liq ekanligi siyosatshunoslikda qayd etiladi. Har qalay jamiyat hayotida ishtirok etish faqat siyosiy jihatdan emas, balki muayyan manfaatlarni himoya qilish va amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiluvchi odamlarning ishtirokidir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda qarorlarning qabul qilinishi davlat-jamiyat munosabatlarida o‘ziga xos ohangga ega bo‘la boshlaydi.

Demak, jamiyatning siyosiy hayoti jamiyat a’zolarining jamiyat siyosiy tizimida faol yohud passiv ishtirok etishdagi munosabatlar bilan o‘zgarib turadi. Uning o‘zgaruvchanligi, barqarorligi, davomiyligi odamlarning turli xil siyosiy partiyalar atrofida birlashuvi bilan, kimningdir OAV orqali o‘z nomzodligini deputatlikka yoki prezidentlikka olib chiqishi bilan, yoki turli davlatlar o‘rtasidagi turli kelishuvlar, shartnomalar va aloqalar mazmunini anglash,ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq intilishlarida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa hokimiyat uchun kurash va uni ushlab qolish mexanizmi orasidagi jarayonlar *siyosiy hayot* deb atalmish sohaning kulminasion nuqtasi bo‘lib qoladi. Shu tarika siyosiy saylovlarda oddiy fuqarolar o‘z ovozlarini berish yoki bermaslik orqali muayyan siyosiy hayotning turli qirralarini aks ettira boshlaydi. Siyosiy hayotdagi aks-sado har birimizga tegishlidir va uning ko‘rinishlari, ta’riflari

ham ayni shu holatdan kelib chiqadi. Xususan turli xil siyosiy harakatlar, partiyalar orqali oddiy fuqarolar faol siyosatga jalb qilinadilar.Ular vazirlik va yirik mansabdorlar qatorida siyosatga ta’sir o‘tkaza boshlaydilar. Ayni paytda oddiy fuqarolar tomonidan shakllangan manfaatlarni

byurokratik struktura tarkibidagi bosim guruhlardagi vaziyatlar bilan farqlay olish kerak. Zero siyosiy jarayon *siyosiy hayotning yaxlit* funksional tasnifi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda hokimiyat subyektlari tomonidan vazifalarning bajarilishi belgilab beriladi. Har xolda siyosiy jarayon siyosiy hokimiyatning o‘z burchlarini ado etish mohiyatini ochib berish orqali uning ichidagi tub o‘zgarishlarni ifodalay boshlaydi. Siyosiy jarayon siyosiy tizim evolyusiyasining harakatlar tasnifidir. U muayyan jamiyatning siyosiy tizimidagi taraqqiyot yoki tanazzulga olib keluvchi hokimiyat sohasidagi asosiy siyosat subyektlarining harakatini namoyon qilib keladi. Saylov, referendumlar, siyosiy partiyalarga a’zolik va ularda ishtirok etish orqali o‘z manfaatlarini ifodalashi, siyosiy liderlar va elita tomonidan boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi turli ko‘rinishlarda *siyosiy jarayonni* anglashga zaruratni kuchaytirmokda.

Jamiyat ichki hayotida siyosiy jarayon biror yo‘nalishga ega harakat, biror natijaga erishishga qaratilgan siyosiy faoliyatlar birligini anglatadi. Xususan siyosiy jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarda amal qiladi:

1.Jamiyatda siyosiy tashkilotlarni shakllantirish va shu orqali siyosiy tizimni takomillashtirish;

2.Siyosiy tizimni qo‘llab-quvvatlash va uning barqarorligini an’analar, tadbirlar, huquqiy va mafkuraviy ko‘rsatmalar vositasida ta’minlash;

3.Siyosiy qarorlarni qabul qilish va ijro etish.

Siyosiy jarayon hokimiyatni harakatda, o‘zgarishda o‘rganadi. Siyosiy hokimiyat subyektlaridagi munosabatlar va funksiyalarning belgilanishi nuqtayi nazaridan uni barqaror va beqaror siyosiy jarayonlarga ajratish mumkin. Barqaror siyosiy jarayonlar fuqarolarning hatti-harakatlari va siyosiy yakdilligidagi mustahkam shakllari bilan harakterlanadi, unda siyosiy qarorlar qabul qilishning oldindan belgilangan mexanizmlari mavjuddir. Bunday jarayonlar asosan boshqaruvni legitim rejimidagi siyosiy, madaniy, huquqiy normalarning jamiyat hayotida yuksak samaradorligiga asoslanadi. Beqaror siyosiy jarayon esa hokimiyat inqirozi sharoitida yuzaga keladi, bunga misol qilib xalqaro munosabatlarning murakkablashuvi, ishlab chiqarishning pasayishi va boshqa ijtimoiy mojarolarni keltirish mumkin. Rejimning jamiyat yangi ehtiyojlarini xisobga olmasligi beqaror siyosiy jarayonning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Jamiyatdagi siyosiy konfliktlar mavzuiga zamonaviy siyosatshunoslikda katta ahamiyat berilmoqda. Siyosiy tizim yo‘nalishlarining ijobiyligi ko‘p jihatdan ommaviy mafkuradagi stereotiplar va psixologiya hamda mamlakatda shakllangan turmush tarzi bilan belgilanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston tarraqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri.T:O‘zbekiston nashriyoti.2022 yil 41 bet.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 27 iyundagi PQ-4366-son Qarori. // www.lex.uz

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. // www.lex.uz (17.02.2018 y)

4.Alimov B. Media muhitida O‘zbekiston imiji. –T: Ta'lim-media.2020.3-10 bet.

5.D.Muitov Siyosiy madaniyat. O‘quv qo‘llanma. –T: City of book.2023 yil 74 bet.

6.D.Muitov Aborot asri siyosiy texnologiyalari va propaganda. Jurnal. O‘zbekiston sud ekstpertizasi 2023 yil. 1-son. 52-57 betlar.

7.D.Muitov Siyosiy piar. O‘quv qo‘llanma. –T: City of book. 2025-yil 64-bet.

8.С.Саидов Феномен мягкой силы и некоторые аспекты во внешноей политике. Журнал Вестник высшей школы. Международные отношение. – М.:2022, №4, 194-108 стр.

9.N.Qalqonov. Siyosiy yetakshi imijini ximoyalash texnologiyalari. Ma’naviy xavfsizlik jadal tarraqiyot strategiyasinong muhim omili-Respublika ilmiy Anjuman materiallari to‘plami. –T: O‘ZDJTU nashriyoti 42-bet.

10.F.Muminov,N.Toshpulotova. Jurnalistik sotsiologiyasi va psixologiyasi.T: O‘zbekiston,2019-yil 191-bet.

11.Sh.Agabayev. Globallashuv va barqarror taraqqiyot. O‘quv qo‘llanma. –T: O‘zDJTU nashriyoti. 2024-yil 106-bet.

12.Профессиональный портал для специалистов по связам с общественностью http://www.sovetnik.ru.

FASILITATIV JAMOANI SHAKLLANTIRISH – DEMOKRATIK QADRIYATLARNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Karimov Bobir Sharopovich,

sots.f.d., professor v.b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston e-mail: bkarimov73@umail.uz

Ma’lumki, kompetensiya bilim olish, tajriba, qadriyatlar, moyillikka asoslangan umumiy qobiliyat bo‘lib, faqat bilim yoki ko‘nikma bilan

chegaralanmaydi. Muayyan bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyati sifatida ajralib turadi. Vakolatli bo‘lish, o‘rganish yoki o‘qishni anglatmaydi. Qobiliyat esa mutaxassisning ma’lum bir kasbiy muammolarni hal qilishdagi shaxsiy imkoniyatlaridir. Qobiliyat rasmiy, shaxsiy, kasbiy va hokazolarning talablari sifatida tushuniladi.

Har bir jamiyat o‘ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o‘z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, huquqiy, e’tiqodiy, kasbiy, professional va boshqa qator talablar qo‘yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Ta’lim, madaniyat, ilm-fan sohalaridagi integratsiya zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. So‘nggi yillar ichida jahonda ta’limning Yevropa, Janubiy Osiyo, Amerika qo‘shma shtatlarining ta’lim modellari asosida akademik infratuzilma shakllangan bo‘lib, nufuzli universitetlar mana shu ta’lim andozalari yordamida pedagogik faoliyatlarini olib bormoqdalar. Fasilitativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fasilitativ jamoani shakllantirish bu avvalo rahbar yoki liderning muhim vazifasi hisoblanadi. Jamoada demokratik qadriyatlarni qaror toptirish uchun rahbar shunchaki menejer emas, balki hamkorlik uchun xavfsiz va samarali maydon yaratish orqali jamoaga maqsadga erishishga yordam berishi lozim. Yechimlarni aytib berish o‘rniga, u asosiy e’tiborni jarayonga qaratadi, jamoa a’zolarini yechim topishda faol ishtirok etishga undaydi, ularni mustaqil ishlashga va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Fasilativ rahbarlikning asosiy tamoyillari sifatida tinglash va empatiyani kiritish mumkin. Fasilitativ rahbar jamoa a’zolarini diqqat bilan tinglaydi, ularning ehtiyojlari, g‘oyalari va tashvishlarini tushunadi.

Shuningdek, jarayonga e’tibor, ya’ni aniq natijaga emas, balki maqsadga erishish jarayoniga qaratilgan. Yana bir tamiyl sifatida xavfsiz maydonni yaratishni kiritish mumkin. Rahbar ishonch muhitini yaratadi, bu yerda har bir jamoa a’zosi o‘z fikrini erkin ifoda etadi. Shu bilan birga, hamkorlik uchun motivatsiyani anglatadi. Rahbar bilim va g‘oyalar almashinuvini rag‘batlantirish orqali jamoani birgalikda ishlashga undaydi. Yetakchilikni rivojlantirish ham shunga misol bo‘la oladi. Fasiliativ lider nafaqat yetakchilik qiladi, balki jamoa a’zolarida yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Turli metodologik yondashuvlarga ko‘ra fasilitativ yetakchilik bir qator afzalliklarga:

- ishtirok etish va ishtirokchilarning ortishi. Bunda jamoa o‘zini qadrli va mas’uliyatli his qiladi va jarayonda faol ishtirok etadi;

- yaxshiroq qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Turli g‘oyalar va istiqbollar yaxshiroq qarorlar qabul qilishga olib keladi;

- yaxshilangan muloqot. Ochiq muloqot va fikr almashish yanada samarali hamkorlikka olib keladi;

- ijodkorlikni oshirish. Bunda hamkorlik ijodkorlikni va noan’anaviy echimlarni izlashni rag‘batlantiradi;

- jamoa ruhini mustahkamlash. Maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash jamoa ruhini va birlik hissini mustahkamlaydi.

Turli metodologik va metodie yondashuvlar asosida fasilitativ yetakchilikdan foydalanishga misollarni ko‘rib chiqish mumkin:

- muammoni hal qilishda: yordam berish jamoaga muammolarni samarali tahlil qilish, g‘oyalar yaratish va echimlarni topishga yordam beradi;

- strategiyani ishlab chiqishda: rahbar jamoaga maqsadlarni belgilashda, harakatlar strategiyasini ishlab chiqishda va rollarni belgilashda yordam berishi mumkin;

- o‘zgarishlarni amalga oshirish: yordam berish jamoaga o‘zgarishlarga moslashishga, muammolarni muhokama qilishga va echimlarni topishga yordam beradi;

- hosildorlikni oshirish: Rahbar tajriba almashish, o‘rganish va ko‘nikmalarni oshirish uchun joy yaratishi mumkin.

Fasilitativ yetakchilik nafaqat yetakchilik uslubi, balki hamkorlik va o‘zaro hurmat orqali ajoyib natijalarga erisha oladigan jamoani yaratishga imkon beruvchi boshqaruv falsafasidir.

Fasilitativ yetakchilik ayni paytda jamoa a’zolari o‘rtasida hamkorlik, faol ishtirok etish, umumiy mas’uliyat va muloqotni rag‘batlantiradigan yetakchilik uslubi. Bu yetakchilikka jarayonga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, unda rahbar jamoa a’zolariga o‘z maqsadlariga erishishda yordam berish uchun yordamchi sifatida ishlaydi.

Fasilitativ yetakchilik treningi davomida liderlar samarali suhbatlar, ochiq muloqot va boshqalarni tinglash va nizolarni hal qilishga yordam beradigan muhitni yaratishni o‘rganadilar.

Fasilitativ yetakchilik uslubiy xususiyatlari guruh ichida hamkorlikni va jamoani shakllantirishni rivojlantirishga qaratilgan. Ko‘proq an’anaviy yetakchilik uslublaridan farqli o‘laroq, yordamchi rahbar vazifalarni bajarishda yetakchilik qilishdan ko‘ra, birinchi navbatda yordamchi rolda ishlaydi. Fasilitatsiya jarayoni jamoaga o‘z xulosalariga kelish va loyihaga egalik qilish huquqini berishdan iborat.

Eng muhim yordam beruvchi yetakchilik fazilatlariga quyidagilar kiradi:

Hamkorlikdagi muloqot jarayonida fasilitativ rahbarlar, shuningdek, xodimlar bilan aniq, og‘zaki va yozma ravishda ma’lumot almashishni tushunadilar. Ular munozaralarni mo‘tadil qilish uchun o‘zlarining muloqot

qobiliyatlaridan foydalanadilar va o‘zlarining muloqot uslublarini turli vaziyatlarga moslashtirishga tayyorlash.

Samarali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishda fasilitativ rahbarlar jamoa a’zolariga aniq ko‘rsatmalar berish muhimligini tushunishadi. Ular vazifalarga qanday yondashishni ko‘rsata oladi va hamma bir sahifada bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi.

Muammolarni hamkorlikda hal qilish bilan bog‘liq jarayonlarda, fasilitativ rahbarlar muammolarni hal qilishda ham mohir. Ular o‘z g‘oyalarini taqdim etishdan ko‘ra, yechimlarga olib keladigan suhbatlarni qanday osonlashtirishni tushunishadi. Ular jamoa a’zolarini aqliy hujumga va yechimlar ustida hamkorlik qilishga qanday jalb qilishni bilishadi.

FASILTATIV BOSHQARUV USLUBI:

- Hamkorlikdagi muloqot:

Rahbarlar ma’lumotni aniq va ravshan tarzda xodimlar bilan ulashadilar.

- Hamkorlikda muammolarni hal qilish:

Rahbarlar yechimlarga olib keluvchi suhbatlarni osonlashtiradilar.

- Samarali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish:

Rahbarlar jamoa a’zolariga aniq ko‘rsatmalar beradilar.

Fasilitativ yetakchilikning boshqa yetakchilik shakllaridan afzalliklarini bir qator jihatlarda ko‘rish mumkin. jumladan, fasilitativ yetakchilik yondashuvi korxonalar va jamoalar uchun bir qator afzalliklarga ega, jumladan:

- hamkorlikning kuchayishi: fasilativ yetakchilikning birgalikdagi tabiati jamoa a’zolarini yanada yaqinroq hamkorlik qilishga undaydi. Bu yaxshi muloqotga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida yanada samarali natijalarga olib keladi;

- xodimlarni ko‘proq jalb qilish: qarorlar qabul qilishda jamoaning barcha a’zolarini jalb qilish orqali yordam beruvchi rahbarlar xodimlarga o‘z ishlariga ko‘proq sarmoya kiritilishiga yordam beradi. Bu ishdan qoniqish va ruhiy holatni yaxshilashga olib keladi;

- muammolarni hal qilishning yaxshilanganligi: fasilitativ yetakchilik jamoalarga hamkorlik va aqliy hujumni rag‘batlantirish orqali muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu tashkilotning vaqtini va pulini tejaydigan yanada samarali echimlarga olib kelishi mumkin;

- hosildorlikni oshirish: fasilitativ rahbarlar hamkorlik muhitini yaratish orqali jamoalarga yanada samaraliroq bo‘lishga yordam beradi. Bu yaxshi

natijalarga olib kelishi mumkin, chunki xodimlar umumiy maqsad sari birgalikda ishlashga koʻproq ragʻbatlantiriladi;

- faollashtirilgan oʻz-oʻzini yetakchilik: fasilitativ yetakchilik xodimlarga oʻz-oʻzini ishontirishga va oʻz ishlariga egalik qilishga yordam beradi. Bu koʻproq avtonomiyaga va ishdan qoniqishning yuqori darajalariga olib keladi;

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fasilitativ munosabatlar boʻyicha metodologik yondashuvlar turlicha boʻlib, u barcha a'zolar oʻrtasida hamkorlik, ishtirok etish va konsensusni ragʻbatlantirish orqali oʻz maqsadlariga erishish uchun guruhni boshqarish va qoʻllab-quvvatlashni oʻz ichiga oladi. Bu usul qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish, ularning ovozi eshitilishini ta'minlash va birgalikda samarali ishlashga yordam berish orqali shaxslarni kuchaytirishga qaratilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev, Sh. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toʻldirilgan ikkinchi nashri. —T.: "Oʻzbekiston" nashriyoti, 2022. – B.56.

2.Asadov Yu.M., Turdiyev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. Oʻquvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari. – T.: T.N.Qori Nièziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2016 yil 160 b.

3.Шарден П.Д. Феномен человека. –М.: Наука,1987. 240-стр.

4.Shermuxamedov S. Inson falsafasi. –T.: Fan, 2009.

5.Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. –T.: Akademiya, 2000. 112-bet.

CIVIL SOCIETY'S ROLE IN ELIMINATING CHEMICAL WEAPONS

By ***Nivedita Das Kundu,***

Ph.D, Associate Professor, International Relations and Political Science, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent and civil society member of CWCC

Abstract. The growing access of transnational criminal and terrorist networks to hazardous and dual-use chemical materials poses a serious threat to global peace and security. Despite progress under the Chemical Weapons Convention (CWC) and the Organisation for the Prohibition of Chemical Weapons (OPCW), weak legal frameworks and inadequate enforcement persist, leaving gaps that non-state actors can exploit. Civil Society Organizations (CSOs), particularly the Chemical Weapons Convention Coalition (CWCC), play a crucial role in bridging these gaps by raising awareness, offering technical expertise, and promoting chemical security. Through education and outreach, CSOs advocate for peaceful uses of chemistry and contribute to

disarmament, non-proliferation, and sustainable development. Strengthening cooperation among governments, international institutions, and CSOs remains vital to preventing chemical terrorism and realizing the CWC's goal of a world free of chemical weapons.

Introduction. In recent years, transnational criminal organizations and their supporters have gained reasonable access to hazardous and dual-use chemical materials, which remain a significant threat to international peace and security. Civil Society groups like CWCC (Chemical Weapons Convention Coalition), working jointly with the Organisation for the Prohibition of Chemical Weapons (OPCW), share a common goal of preventing the misuse or malicious use of chemical materials as weapons.

OPCW's Civil Society group highlights that the threat is real, legal frameworks are lacking, and civil society can strengthen chemical security. Ensuring that non-state actors cannot easily obtain the chemicals they seek to spread chemical threat. CSO activities clearly demonstrate how CSOs can complement and support governments and international organizations to strengthen global chemical security.

By raising awareness of the threats and risks posed by chemical weapons and providing technical expertise and training. CSOs have also served as implementing partners for projects supported by member states and international bodies, linking local knowledge into national and international chemical security activities and generating innovative policy ideas and practical tools to help states implement their CWC obligations.

The CSOs also contribute through education to emphasize the positive role that chemistry can play in disarmament, non-proliferation, and Science for Peace, as well as promoting peaceful uses of chemicals. CSOs ensure that non-state actors cannot easily access the chemicals they seek to spread a chemical threat. CSO activities clearly demonstrate how CSOs can complement and support governments and international organizations to strengthen global chemical security.

The prospects of terrorist groups, transnational criminal organizations, and their supporters gaining access to hazardous and dual-use chemical materials remain a significant threat to international peace and security. Over the years, terrorist groups have tested new ways and means to acquire and use more dangerous weapons, including weapons incorporating chemical materials. In recent years, the growing chemical industry, technological advancement, and expanding legal and illegal commercial channels have further lowered the bar for terrorists to access materials and knowledge to produce these weapons in simple laboratories. CSOs share a common goal of preventing the misuse or malicious use of chemical materials as weapons. CSOs highlight the following

issues for attention: the chemical terrorism threat is real, legal frameworks are lacking, and civil society can strengthen chemical security.

Chemical Terrorism Threat. A look at past terrorist events can provide important insights. In one study of the 517 terrorist events involving CBRN (Chemical, biological, radiological, and nuclear) between 1990 and 2017, more than 75 percent were chemical weapons events occurring in nearly sixty countries. [1] The OPCW has long recognised the threat of Chemical weapons, as highly toxic liquid and gaseous substances that can be dispersed in bombs, rockets, missiles, artillery, mines, grenades, or in spray tanks. A lax security environment and political instability make the misuse of chemical agents more likely. To this end, it is essential to secure precursor chemicals properly to prevent unauthorized access.

Weak Legal Frameworks. For years, the OPCW has worked to address various aspects of chemical terrorism. However, CWC Member States have made considerable progress in accounting for scheduled chemicals in production, use, and transfers. However, fewer than three dozen countries have laws or regulations that require the secure storage of such substances. [2] Threats posed by chemical materials have been left largely unaddressed in many countries due to low awareness, limited resources, and the pressing nature of other acute economic and political issues. This inaction, along with weak or nonexistent regulations, created security challenges for the international trade of dual-use, sensitive chemical materials. They took considerable financial and political tolls on states that, in turn, weakened global efforts to combat chemical terrorism. Further, robust legal frameworks for chemical security will be needed to ensure that technological advances will create new opportunities for peaceful uses while limiting abuses by terrorists and criminals.

Civil Society Role. Knowing the contemporary threat, the discourse on ensuring chemical security and preventing chemical terrorism should not limit itself to an issue addressed among states alone. Civil society needs to become more actively involved. Civil society organizations (CSOs) have contributed to efforts to assist States in securing chemical materials. CSO's efforts have included raising awareness of the threats and risks posed by chemical weapons and providing technical expertise and training. CSOs have also served as implementing partners for projects supported by Member States and international bodies; linking local knowledge into national and international chemical security activities; and generating innovative policy ideas and practical tools to help States implement their CWC obligations. CSOs also contribute through education to emphasize the positive role that chemistry can play in disarmament, non-proliferation, and Science for Peace, as well as in promoting peaceful uses.

Furthermore, CSOs are well placed to link national chemical security measures and national CWC implementation efforts, given the hazardous and dual-use nature of many scheduled chemicals. This is particularly important given that chemistry plays an essential role in helping society achieve the Sustainable Development Goals (SDGs). [3] The chemistry enterprise has a broad reach into technology, the economy, and human health, and there are already many ways chemists are working to support global sustainable development. Chemical security is therefore part of broader efforts to address SDG indicators.

Conclusion. Ensuring that terrorists cannot easily access the chemicals they seek is key to preventing chemical terrorism. CSOs hope their activities clearly demonstrate how they can complement and support governments and international organizations to strengthen global chemical security. CWC's mandate is to make the future generation safe and the world free of chemical weapons.

References:

1. Markus K. Binder and Gary A. Ackerman, "Pick Your POICN: Introducing the Profiles of Incidents Involving CBRN and Non-State Actors (POICN) Database," Studies in Conflict & Terrorism, 2019, https://doi.org/10.1080/1057610X.2019.1577541

2. Richard T. Cupitt and Mary Vecellio, "Missing: Legal Frameworks for Chemical Security," Strategic Studies Quarterly, Winter 2020, pp. 103 – 121.

3. https://www.acs.org/content/acs/en/sustainability/chemistry-sustainable-development-goals.html

ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН

Бафаев Шухрат Гафурович

Доктор философии (PhD) по юридическим наукам, руководитель Ташкентского городского отделения Центра анализа демократических процессов

(+99897 400-27-10, shuhrat.bafayev@ mail.ru)

Аннотация: В статье раскрываются вопросы повышения активности участия институтов гражданского общества в государственном управлении посредством осуществления общественного контроля. Приводятся нормативно-правовые акты, в которых указаны организационно-правовые механизмы содействующие активизации гражданского общества в Узбекистане, а также приведен международный опыт.

Ключевые слова: общественный контроль, государственное управление, институты гражданского общества, субъекты общественного контроля, общественный совет, законотворческая деятельность.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзияев в своей книге Стратегия развития Нового Узбекистана размышляя о свободном и открытом гражданском обществе отмечает, что “Всестороннего процветания страна может достичь только в условиях сильного и справедливого гражданского общества. При этом имеется в виду необходимость учета мнений граждан и их объединений при принятии решений.”[1]

В этой связи повышение общественно-политической активности граждан осуществляется посредством их вовлечения процесс управления делами общества и государства.

Так, согласно статьи 36 новой Конституции Республики Узбекистан граждане Республики Узбекистан имеют право участвовать в управлении делами общества и государства как непосредственно, так и через своих представителей. Такое участие осуществляется посредством самоуправления, проведения референдумов и демократического формирования государственных органов, а также общественного контроля над деятельностью государственных органов.[2]

Именно поэтому суть проводимой в нашей стране политики направлена на совершенствование организационно-правовых и экономических основ деятельности институтов гражданского общества, реализации социального партнерства и общественого контроля, а также создания условий для расширенного участия институтов гражданского общества в общественном управлении. В этой связи за последние годы в нашей стране созданы политико-правовые предпосылки активизации деятельности институтов гражданского общества.

Началом такой активизации стал Указ Президента Республики Узбекистан 07 февраля 2017 года № УП-4947 которым была утверждена Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах.[3]

В контексте совершенствования системы общественного управления указ предусматривал развитие современных форм осуществления общественного контроля, повышение эффективности социального партнерства, повышение общественной и политической активности институтов гражданского общества и т.д.

В этой части вопроса основные положения этого документа нашли свое отражение в нормативно-правовых актах. Так, уже в апреле 2018 года в Узбекистане был принят, причем впервые Закон Республики Узбекистан «Об общественном контроле».[4]

Согласно статьи 3 субъектами общественного контроля являются граждане Республики Узбекистан, органы самоуправления граждан, а также негосударственные некоммерческие организации, средства массовой информации, зарегистрированные в установленном законодательством порядке.[5]

Следует отметить, что суть общественного контроля заключается в предоставлении гражданам страны и в целом институтам гражданского общества условий для участия в принятии государственными органами решений касающихся прав, свобод и законных интересов граждан страны.

К примеру, Указом Президента Республики Узбекистан 08 сентября 2017 года № УП-5185 была утверждена Концепция административной реформы в Республике Узбекистан. [6]

Суть этого документа заключалось в том, чтобы на деле обеспечить реализацию принципа “Не народ служит государству, а государственные органы должны служить народу”. В этой связи концепция не только кардинально реформировала всю систему управления, но и заложила организационно-правовые основы установления прямого диалога между народом и государства.

Эффективным инструментом установления такого диалога стало принятие Постановления Президента Республики Узбекистан от 04 июля 2018 года № ПП-3837 “О мерах по организации деятельности общественных советов при государственных органах”, которым утверждено Типовое положение об общественном совете при государственном органе.[7]

В соответствии с этим положением по своему статусу общественный совет является постоянно действующим консультативно-совещательным органом, осуществляющим свою деятельность на общественных началах.

К числу задач общественного совета относится осуществление общественного контроля над деятельностью государственного органа и его должностных лиц по учету общественных интересов, обеспечению исполнения требований законодательства в сфере защиты прав и законных интересов граждан, интересов общества. В этой связи общественный совет выполняет роль «моста», связывающего государственный орган с гражданами, для осуществления совместного диалога с негосударственными некоммерческими организациями, средствами массовой информации и другими институтами гражданского общества. В настоящее время во всех государственных органах созданы и действуют общественные советы.

В контексте повышения активизации деятельности институтов гражданского общества в реализации политико-правовых реформ в

Узбекистане созданы условия для участия институтов гражданского общества в законотворческой деятельности государства.

К примеру, Указом Президента Республики Узбекистан от 08 августа 2018 года № УП-5505 была утверждена «Концепция совершенствования нормотворческой деятельности».[8]

В контексте участия институтов гражданского общества в разработке и принятия нормативно-правовых актов указ направлен на повышение уровня влияния общественных обсуждений на нормотворческий процесс путем организации эффективной работы по вовлечению граждан, институтов гражданского общества, средств массовой информации в данный процесс.

Отметим, что в этой части вопроса механизмы участия институтов гражданского общества в законотворческой деятельности нашли свое отражение в Законе Республики Узбекистан «О регламенте Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан».[9]

Согласно этому закону в целях оказания содействия в разработке и обсуждении законопроектов, подготовке и проведении контрольно-аналитических мероприятий при комитетах Законодательной палаты образуются экспертные группы не только из числеа специалистов государственных органов, но и негосударственных некоммерческих организаций.

В США и государствах Европы накоплен большой опыт по вовлечению граждан и институтов гражданского общества в процесс принятия решений.

Так, в США участие гражданского общества в государственном управлении проявляется через различные механизмы, включая волонтёрство, а также через активное взаимодействие с государственными структурами.

Европейские правительства проводят регулярные консультации с представителями гражданского общества при разработке новых законопроектов. К примеру, в Норвегии существует система консультаций с институтами гражданского общества при разработке новых законопроектов, что позволяет учитывать мнения различных групп населения.

А в таких странах как Швеция и Нидерланды, гражданское общество активно вовлечено в реализацию государственных программ, что включает совместные проекты, финансируемые как государством. В некоторых случаях гражданские организации имеют право участвовать в принятии решений на уровне местного и регионального управления. В Германии существуют советы, в которые входят представители НПО и

граждан, что позволяет учитывать их мнение при разработке местных инициатив [8].

В целом следует отметить, что в Новом Узбекистане поэтапно осуществляются реформы, направленные на демократизацию государственного и общественного управления. При этом институты гражданского общества заняли активную позицию способствующую установлению конструктивного диалога между человеком, государством и гражданским обществом.

Использованная литература:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон – тараққиет стратегияси “Ўзбекистон” Тошкент -2023 Б. 93
2. Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241
3. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70, № 20, ст. 354, № 23, ст. 448, № 29, ст. 683, ст. 685, № 34, ст. 874, № 37, ст. 982; Национальная база данных законодательства, 16.10.2017 г., № 06/17/5204/0114, 31.07.2018 г., № 06/18/5483/1594; 11.12.2019 г., № 06/19/5892/4134; 17.03.2021 г., № 06/21/6188/0216, 01.05.2021 г., № 06/21/6217/0409
4. Национальная база данных законодательства, 13.04.2018 г., № 03/18/474/1062
5. Там же.
6. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 37, ст. 979; Национальная база данных законодательства, 19.01.2018 г., № 06/18/5304/0591; 03.03.2018 г., № 06/18/5329/0846; 04.05.2018 г., № 06/18/5428/1158; 25.05.2018 г., № 06/18/5447/1269; 07.06.2018 г., № 06/18/5456/1316, 08.06.2018 г., № 06/18/5457/1324, 11.07.2018 г., № 06/18/5475/1489, 14.07.2018 г., № 06/18/5477/1505, 01.08.2018 г., № 06/18/5496/1603, 01.08.2018 г., № 06/18/5497/1604, 28.08.2018 г., № 06/20/5526/0983; 11.12.2019 г., № 06/19/5892/4134; 19.03.2020 г., № 06/20/5968/0331; 17.03.2021 г., № 06/21/6188/0216
7. Национальная база данных законодательства, 05.07.2018 г., № 07/18/3827/1454; 30.05.2019 г., № 06/19/5733/3216; 15.06.2022 г., № 06/22/154/0524; 13.04.2023 г., № 06/23/49/0210
8. Национальная база данных законодательства, 09.08.2018 г., № 06/18/5505/1639; Национальная база данных законодательства, 09.11.2019 г., № 06/19/5870/4010, 30.04.2021 г., № 06/21/6218/0398
9. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2003 г., № 9-10, ст.136; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2007 г., № 15, ст. 153, № 29-30, ст. 298; 2008 г., № 52, ст. 510; 2009 г., №15, ст.

179; 2011 г., № 16, ст. 160; 2013 г., № 16, ст. 215; 2014 г., № 16, ст. 177, № 20, ст. 222; 2015 г., № 52, ст. 645; 2016 г., № 39, ст. 457; 2017 г., № 24, ст. 487, № 37, ст. 978; Национальная база данных законодательства, 10.01.2018 г., № 03/18/459/0536, 19.04.2018 г., № 03/18/476/1087, 24.07.2018 г., № 03/18/486/1559, 09.01.2019 г., № 03/19/512/2435, 06.03.2019 г., № 03/19/527/2706; 11.05.2019 г., № 03/19/536/3114, 23.05.2019 г., № 03/19/540/3167, 28.08.2019 г., № 03/19/557/3657, 05.09.2019 г., № 03/19/563/3685; 10.12.2019 г., № 03/19/590/4129; 10.08.2020 г., № 03/20/631/1153; 19.11.2021 г., № 03/21/729/1064; 27.10.2022 г., № 03/22/796/0966; 19.12.2023 г., № 03/23/883/0949; 19.02.2024 г., № 03/24/909/0133; 18.11.2024 г., № 03/24/1002/0936; 10.04.2025 г., № 03/25/1054/0329

10.Яжук Д. В. Неправительственные организации Германии: Формирование гражданского общества // АПЕ. 2005. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nepravitelstvennye organizatsii-germanii-formirovanie-grazhdanskogo-obschestva

FUQAROLIK JAMIYATIDA KO‘PPARTIYAVIYLIK: KECHA VA BUGUN

Abdukamol Shodiyevich Raxmonov,

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari

Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.
(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasi).

Xalqimizning xohish-irodasi bilan 1990-yilda Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Izchillik bilan amalga oshirilgan harakatlar natijasida 1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi e’lon qilindi. Shu tariqa joriy yil bu tarixiy sanaga o‘ttiz to‘rt yil to‘ldi. Mustaqillikka erishishning o‘zi bo‘lmadi. *“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi*”, degan da’vat bilan boshlangan xalq harakati yurtimizni istiqlolga yetakladi.

Mustaqillikning huquqiy poydevori, fuqarolik jamiyatining kafolati sifatida 1992 yil 8 dekabr kuni jamiyat farovonligini bosh maqsad qilib olgan, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida qurilgan, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘targan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Ana shunday ulkan huquqiy asoslar negizida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalari singari davlat hokimiyati boshqaruvi sohasi ham izchillik bilan bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Mamlakatimiz o‘tish davrida duch kelgan barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tib, Yangi O‘zbekiston poydevoriga tamal toshi qo‘ydi.

Bugun mamlakatimizning iqtisodiy qudrati yuksalib, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari keng quloch yoyib borayotgani, bu ishlar zamirida insonparvarlik va ezgulik g‘oyalari qaror topgani barchamizni quvontiradi.

Ayni vaqtda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan xunrezliklar, qonli to‘qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avjiga chiqayotgani mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik o‘z o‘zidan bo‘lmayotganligini ko‘rsatib turibdi. Bundan xulosa shundan iboratki, barcha sa’y-harakatlar xalq tinchligi va xotirjamligi yo‘liga safarbar qilinayotganligidan dalolatdir.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakat umume’tirof etilgan xalqaro huquq va demokratik talablar darajasida rivojlanmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoevning “*Davrimizning da’vati sifatida paydo bo‘lgan “O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak” degan teran ma’noli so‘zlarni biz hamisha yodimizda saqlashimiz kerak*”, kabi so‘zlari hayotimiz dasturiga aylandi. Pirovardida, xalq osoyishtaligi ta’minlanmoqda, har bir insonning shaxsiy, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy huquqlari ro‘yob topmoqda. Boshqaruvda ochiqlik va oshkoralik, so‘z erkinligiga erishilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakat kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari yuz tutmoqda.

Shunday ekan, mamlakat taraqqiyotida fuqarolik jamiyatining muhim institutlari sifatida siyosiy partiyalarning o‘rni qay darajada?, degan savol tug‘iladi. Darvoqe, Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq sobiq tuzumning partiyaviy yakka hokimligiga, o‘sha zo‘rovon kompartiya tizimiga barham berildi. 1991 yil 1 noyabr kuni O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining I Ta’sis Qurultoyi tashkil etildi va partiya Ustavi hamda Dasturi qabul qilindi.

1991-yil dekabr oyida partiya O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olindi. Oy oxiriga kelib partiyani tashkiliy rasmiylashtirish va uning hududiy tashkilotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida hamda mamlakatdagi barcha tuman va shaharlarda tashkil etish jarayoni yakunlandi.

O‘zbekistonda sotsial-demokratik partiyasini tuzish g‘oyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 44 deputatni tashabbuskorlar guruhiga birlashtirdi. Dastlab 6000 dan ortiq yangicha qarashlar va tafakkurdagi insonlarning qo‘llab-quvvatlashiga erishildi. Pirovardida, 1995 yil 18 fevralda O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining birinchi ta’sis Qurultoyi chaqirildi va unda

partiya Nizomi va Dasturi, shuningdek, o‘zbek xalqiga murojaatnomasi qabul qilindi.

Dasturda partiyaning bosh maqsadi mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarning borishiga, huquqiy-demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishga va pirovardida O‘zbekistonning jahonda rivojlangan mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin olishiga munosib hissa qo‘shishdan iborat deb, belgilab berildi.

Shu bilan birga, Qurultoyda 51 kishidan iborat partiya Siyosiy Kengashi va 5 kishidan iborat Markaziy Taftish komissiyasi saylandi.

Bu davrda Respublikamizning barcha viloyatlarida, shaharlarida va deyarli hamma tumanlarida partiya Kengashlari faoliyat ko‘rsata boshladi.

1995 yil 3 iyunda tashkil topgan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi siyosiy partiyalar sonini yana bittaga oshirdi.

Shu tariqa, mamlakatimiz siyosiy maydonida demokratik qadriyatlarga asoslangan ko‘ppartiyaviylik qaror topa boshladi. Va albatta, bugun mamlakatimizda beshta siyosiy partiya o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi, «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi, «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlarida davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining, shu jumladan siyosiy partiyalarning ishtiroki mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”, deb belgilab qo‘yildi.

Ushbu qonunlar o‘z maqsadiga ko‘ra davlat boshqaruvini mazmunan yangilash, bunda mavjud demokratik tamoyillarni kengroq joriy etish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga omil bo‘lmoqda. Pirovardida, siyosiy partiyalar rolini oshirishga, yangidan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li (kursi) va dasturi yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlament ko‘pchiligi tomonidan kamsitilishi uchun yo‘l qo‘yilmasligiga, o‘zini parlamentdagi muxolifat deb e’lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasining

huquqlari himoya qilinishiga, bir so‘z bilan aytganda parlamentda siyosiy partiyalarning faolligini oshirishga, siyosiy tizimdagi barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Qonunchilikka bunday normalarning kiritilishidan ko‘zlangan maqsad, avvalo, parlamentda siyosiy partiyalar va shu partiyalar fraksiyalarining parlamant ishiga yaqindan kirishishi, mas’uliyatini oshirishi, tashabbuskorligini kuchaytirishi, ular orqali saylovchilarning hukumat faoliyati ustidan nazoratini kengaytirishi, fuqarolarning siyosiy faolligining o‘sishi uchun xizmat qilishiga qaratilgan.

Ko‘ppartiyaviylikka asos soluvchi mamlakat qonunlari o‘zbek davlatchiligining tarixiy an’analariga, zamonaviy davlatchilik va parlamentarizm borasida to‘plangan tajribalarga, rivojlangan davlatlar amaliyotiga to‘liq mos kelishi barobarida, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning mantiqiy davomi, mamlakatning davlat-huquqiy va siyosiy tizimini bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlantirishning natijasi sifatida kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tashlangan muhim qadam bo‘ldi.

Ko‘p partiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi natijasida jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish, siyosiy partiyalarga uyushish kabi konstitutsiyaviy huquqlari emin-erkin ta’minlanmoqda.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Eng asosiysi, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirilmoqda”.

Mamlakatimiz qonunchiligiga davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan yangi-yangi normalarning mamlakat taraqqiyotiga mos ravishda kiritib borilishi kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurish yo‘limiz demokratik tamoyillarga muvofiqligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyamizga bosqichma-bosqich kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar, ayniqsa, 2023 yilda umumxalq referendumi asosida yangi tahrirda qabul qilinishi barqaror rivojlanib borayotgan mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda, fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rnini yanada kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Eng rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga mos keladigan xalqaro tamoyillar Bosh qomusimizda o‘z ifodasini topgani siyosiy partiyalar uchun ham muhimdir. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari

saylangandan va organlari shakllangandan so‘ng bir oy ichida yoki Bosh vazir lavozimidan ozod etilganidan keyin yoxud Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi iste’foga chiqqanidan keyin bir oy ichida Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taqdim etilishi; Bosh vazir lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida uning nomzodi ko‘rib chiqilayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini taqdim etishi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zosining o‘z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan hisobotini eshitishga haqli ekanligi; Vazirlar Mahkamasi a’zosining hisobotini eshitish yakunlariga ko‘ra Qonunchilik palatasi uni iste’foga chiqarish to‘g‘risidagi taklifni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko‘rib chiqish uchun kiritishga haqliligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishga haqli ekanligi haqidagi konstitutsiyaviy me’yorlar siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamladi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan bu kabi o‘zgartish va qo‘shimchalar hayotga izchillik bilan tadbiq etilayotgani siyosiy partiyalarning yanada faollashuviga turtki bo‘lmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda ko‘ppartiyaviylik va siyosiy xilma-xillikning amal qilishi uchun zarur qonunchilik asoslarini yaratish bilan bir vaqtda siyosiy islohotlar va jamiyatni demokratlashtirishni chuqurlashtirishning muhim vazifalaridan biri – yangi siyosiy madaniyatni shakllantirish, aholi keng qatlamlari ijtimoiy faolligini oshirish masalalariga xizmat qiladi. Pirovardida, mamlakatda haqiqiy ko‘ppartiyaviylikning qaror topishiga xizmat qiluvchi qudratli mexanizm bo‘lib ishlaydi.

Zero, “Boyish darajasi o‘rtacha bo‘lgan jamiyatni har tomonlama barpo etish ishining hal qiluvchi bosqichida buyuk g‘alabaga erishish bevosita partiyaga bog‘liq” ekanligini bugun Xitoy tajribasi ko‘rsatib turibdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari to‘g‘risida g‘ap yuritilganida, albatta demokratik jarayonlarning xalqaro tan olingan instituti sifatida saylovni tushunamiz. Mamlakatimizda saylovga oid qonunchilikning takomillashtirilishi va yagona Saylov kodeksining qabul qilinishi, saylov jarayonlarida siyosiy partiyalarning ishtirokiga oid normalarning yanada demokratlashuviga sabab bo‘ldi. Bu ilg‘or amaliyot demokratik jarayonlarning muhim qismi sifatida

erkinlik, adolatlilik, oshkoralik kabi umume'tirof etilgan tamoyillarni ro'yobi uchun xizmat qiladi.

Pirovardida, O'zbekiston fuqarolari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar orasidan munosib nomzodga ovoz berib, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish kabi konstitutsiyaviy huquqlarini yuksak siyosiy madaniyat bilan amalga oshirishga erishadi.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makon O'zbekiston – katta oila. Unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Shu oilaning rivoji uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi 6-bandida Vazirlar Mahkamasi mas'ul etib belgilanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya Vazirlar Mahkamasiga *"Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlaydi*", degan katta mas'uliyatni yuklaydi.

Yana shunga e'tibor qaratish lozimki, fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida alohida belgilangan. Jumladan, Konstitutsiyaning 148-moddasida shunday deyiladi: *"Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi".* Bu konstitutsiyaviy me'yor albatta fuqarolik jamiyati institutlarining roli yuksalib borishiga, jamoatchilikning kuchi kengayishiga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasiga e'tibor qarataylik: "Davlat hokimiyati organlari, jumladan, iqtisodiyot, bank-moliya sohasi idoralari, kommunal xizmat, ichki ishlar, tashqi ishlar, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, sud-huquq tizimining parlament va mahalliy kengashlarda hisobot va axborot berish tartibi yo'lga qo'yilib, xalq nazorati amalda joriy etilmoqda. Bunday o'ta muhim jarayonlarda, hech shubhasiz, siyosiy partiyalarning vakillari, hurmatli deputat va senatorlarning o'rni va mas'uliyati naqadar beqiyos ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz. Biz milliy parlamentimiz timsolida, avvalo, jamiyatimizning haqiqiy ko'zgusini, odamlarni o'z ortidan ergashtirib, ezgu maqsadlar sari boshlashga qodir bo'lgan katta bir kuchni ko'ramiz".

Xullas, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati institutlarining faol vakillari sifatida Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlaydigan, qonun ijodkorligi bilan uyg'un ravishda jamoatchilik nazoratini o'rnatadigan, davlat organlari bilan uzviy hamkorlikda mamlakat taraqqiyoti uchun hissa

qo‘shadigan, va bunda albatta, inson qadr-qimmatiga alohida e’tibor qaratadigan siyosiy kuch bo‘lib shakllanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. https://lex.uz/uz/docs/6445145.

2.O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi materiallari. 1991 yil 31 avgust.

3.I.Karimov. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg‘ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan Kengashida so‘zlagan nutqidan. 1989 yil 24 iyun.

4.O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasi materiallari. 1992 yil 8 dekabr.

5.Sh.Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. “O‘zbekiston” NMIU - 2018. 1-tom. 46-bet.

6.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. «Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2021. 10-bet.

7.Si Szin Pin Davlat boshqaruvi to‘g‘risida. “O’zbekiston@” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024.237-bet.

8. Saylov kodeksi. https://lex.uz/uz/docs/4386848

9. UzA. Siyosat bo‘limi. 23:35 / 12.07.2017

PARLAMENT VAKILLIGI DOIRASIDA SAYLOV TIZIMI VA PARTIYASIZ NOMZODLIK MASALALARI

Maqsad Isabayev Bahodirovich,

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tadqiqotchisi, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent., (+998944229925, Maksfind_22@mail.ru)

Annotatsiya. Mazkur maqolada parlament vakilligi tamoyili doirasida saylov tizimining o‘ziga xos jihatlari hamda partiyasiz nomzodlik masalalari tahlil qilinib, majoritar va proporsional saylov tizimining amaliy natijalari hamda deputatlarning hududlardagi vakillik faoliyati yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasida proporsional saylov tizimi va partiyasiz nomzodlarning huquqiy maqomi qiyosiy tahlil qilinib, partiyasiz nomzodlarni saylovlarda qatnashish tartibini takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. parlament, vakillik, saylov tizimi, majoritar, proporsional, partiyasiz nomzod, siyosiy partiya, aralash saylov tizimi.

Parlament demokratik boshqaruv tizimining muhim institutlaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi xalq vakilligi tamoyilini ro‘yobga chiqarishdan iboratdir. Parlament a’zolari mamlakat fuqarolari tomonidan saylanishi va

ularning manfaatlarini ifodalashi bilan hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan ajralib turadi. Shu jihatdan saylov tizimi parlament vakilligining sifat darajasini belgilovchi eng muhim omillardan sanaladi.

Bugungi dunyo parlamentarizmining rivojlanish tendensiyalariga qaraydigan bo‘lsak, dunyodagi 188 ta milliy parlamentdan 81 tasi ikki palatali va 107 tasi bir palatali bo‘lib, 44 mingga yaqin parlament a’zolaridan iborat jami 269 ta parlament palatasini tashkil etadi[5]. Ya’ni ikki palatali parlametdan ko‘ra, bir palatali parlamentlar ko‘proq tashkil etayotganini kuzatish mumkin.

Ularni shakllantirishda esa turli xil saylov tizimlari qo‘llanilib kelinmoqda. Jumladan, bir palatali va ikki palatali parlamentlar faoliyati, majoritar va proporsional tizimlarning qo‘llanishi hamda aralash tizimning joriy etilishi turli mamlakatlarda turlicha natijalarni bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida 2024-yilgi parlament saylovlari ilk bor aralash saylov tizimi asosida o‘tkazilgani mamlakat parlamentarizmi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Xususan, 2024-yil 27-oktabr kuni O‘zbekiston tarixida ilk bor o‘tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylovda 150 nafar deputatning 75 nafari majoritar (bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha), qolgan 75 nafari esa proporsional (yagona saylov okrugi, partiya ro‘yxati) saylov tizimi asosida saylandi.

Mazkur tizimda deputatlarning bir qismi bir mandatli saylov okruglari orqali, yana bir qismi esa siyosiy partiyalar ro‘yxati asosida saylandi. Bu esa deputatlarning vakillik faoliyatini tashkil etishda turli mexanizmlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, partiyasiz nomzodlarning partiya ro‘yxatlarida ko‘rsatilishi va ularning huquqiy maqomi masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab davlatlarda partiyaviy tizim siyosiy jarayonning markaziy elementi hisoblanadi va partiyasiz nomzodlarning ishtiroki cheklangan. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida ham saylov tizimi va nomzodlik institutini takomillashtirish, parlament vakilligi samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muhokamalarni talab etadi.

2024-yil bo‘lib o‘tgan saylovlarda majoritar tizim bo‘yicha saylangan 75 nafar deputat o‘z hududlari doirasida faoliyat yuritib, bu esa aniq tartibga solingan. Har bir deputat 3-4 ta tuman (yoki shahar) hududiga xizmat ko‘rsatadi, bu taxminan 260-270 ming saylovchini qamrab oladi. Majoritar saylov tizimiga ko‘ra, O‘zLiDeP – 37 ta, “Milliy tiklanish” DP – 60 ta, “Adolat” SDP – 66 ta, XDP – 68 ta va Ekopartiya – 69 ta saylov okrugida deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritmagan.

Bu holat mazkur partiyalarning ushbu saylov okruglarida ishlash imkoniyatlarini cheklab, saylovchilar muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarini qiyinlashtirishi mumkin. Partiyalarning hududdagi nufuzini

oshirish va saylovchilar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish imkoniyatlari sezilarli darajada kamaytiradi.

Proporsional tizim asosida saylangan qolgan 75 nafar deputat esa respublikaning butun hududini yagona saylov okrugi sifatida qamrab oladi. Ular faoliyat yuritishi kerak bo‘lgan saylovchilar soni qariyb 20 million kishini tashkil etadi.

Qonunchilikda, siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro‘yxati asosida saylangan deputatlarning saylovchilar bilan aloqasi tegishincha siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan [1].

Siyosiy partiyalar fraksiyalari va partiyalarning yuqori organlari qarorlariga muvofiq, majoritar saylov tizimiga ko‘ra egallanmagan saylov okruglariga partiya ro‘yxati asosida saylangan deputatlar biriktirilgan. Bunda bitta deputatga o‘rtacha 1-4 ta saylov okrugi to‘g‘ri kelgan bo‘lib, bu amaliyot barcha siyosiy partiyalarida qo‘llanilgan.

Xorij tajribasida siyosiy partiyalar ro‘yxati asosida saylangan deputatlarning saylovchilar bilan ishlash amaliyoti turli davlatlarda qonunchilik va siyosiy tizimlarga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchan bo‘lib, bir nechta umumiy yo‘nalishlar kuzatiladi. Masalan, Germaniya va Italiya kabi proporsional saylov tizimiga ega davlatlarda ro‘yxat asosida saylangan deputatlar muayyan hudud yoki okrugga biriktiriladi. Ular okrugdagi saylovchilar bilan muloqot qilish, muammolarni aniqlash va ularni yuqori organlarga yetkazish uchun mas’ul hisoblanadi.

Rossiyada partiya ro‘yxati asosida saylangan deputatlar o‘zlari mansub bo‘lgan hududiy guruhlarga kiruvchi hududlarda saylovchilar bilan aloqa o‘rnatadi. Masalan, agar deputat bir yoki bir nechta subyektlarni o‘z ichiga olgan hududiy guruh vakili sifatida saylangan bo‘lsa, u faqat shu hududlardagi saylovchilar bilan ishlaydi.

Agar muayyan hududlarda deputatlar yetishmasa, fraksiya boshqa deputatlarga bu hududlar bilan aloqa o‘rnatish vazifasini yuklaydi. Bir deputat faqat bitta hudud uchun mas’ul bo‘lishi mumkin va bir vaqtda uchtadan ortiq hududda ish yuritish imkoniga ega emas.

Umumrossiya qismi bo‘yicha saylangan deputatlar esa fraksiya tomonidan belgilangan va hududiy guruhlar qamrab olmagan hududlarda saylovchilar bilan aloqa o‘rnatadi. Bunday tartib deputatlarning saylovchilar bilan aloqasini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

2023-yil 18-dekabrdagi saylov qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra [2], O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha,

yetmish besh nafari yagona saylov okrugi bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda partiya ro‘yxati asosida saylanishi belgilangan.

Mazkur qoidani amaliyotdagi birinchi holatini 2024-yil 27-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlarda ham ko‘rish mumkin. Ushbu saylovda ko‘rsatilgan 29 323 nafar nomzodlarning 374 nafari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, 500 nafari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yagona saylov okrugi bo‘yicha, 3 618 nafari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashining saylov okruglari bo‘yicha, 24 831 nafari xalq deputatlari tuman (shahar) kengashining saylov okruglari bo‘yicha ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yagona saylov okrugi bo‘yicha (proporsional) ko‘rsatilgan 500 nafar nomzodlarning 10 nafari partiyasiz [3]. Ulardan 5 nafari O‘zLiDeP, 1 nafari Ekologiya partiyasi, 4 nafari esa ASDP ro‘yxatida ko‘rsatilgan. Milliy tiklanish demokratik partiyasi va Xalq demokratik partiyasi ro‘yxatlaridagi barcha nomzodlar partiya a’zolari hisoblanadi.

To‘g‘ri, deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 42^1-moddasida partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlarni partiya ro‘yxatidan chiqarish asoslari keltirilgan. Unga ko‘ra, “nomzod ixtiyoriy ravishda siyosiy partiya a’zoligidan chiqqan taqdirda” nomzod partiya ro‘yxatidan chiqariladi. Bundan shuni anglash mumkinki, partiya a’zosi bo’lmagan nomzod partiya ro’yhatida bo’lishi mumkin emas.

Shunga qaramay, amaldagi qonunchilikka ko‘ra [4], siyosiy partiyalar tomonidan ushbu siyosiy partiyaning a’zolari yoki partiyasizlarni ham deputatlikka nomzod sifatida ko‘rsatilishi belgilangan. Shuningdek, faqat siyosiy partiyalargina o‘z partiyasi a’zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatishga vakolatli etib belgilangan.

Yuqoridagi mazkur holat, aralash saylov tizimi orqali shakllanayotgan parlamentimizning quyi palatasi a’zolariga tenglik prinsipining tadbiq etilishi holatini o‘rganishga undadi.

Dunyo bo‘ylab davlatlar o‘rtasida partiya a’zolari bo‘lmagan nomzodlarni saylov ro‘yxatlarida ko‘rsatmaslik tartibi turlicha. Hozirgi kunda dunyo davlatlarning taxminan 60-70% qismida partiya a’zolari bo‘lmagan nomzodlarni ro‘yxatda ko‘rsatmaslik yoki ularni cheklovlar bilan kiritish tizimi amal qiladi. Umuman olganda, partiyaviy tizimlar keng tarqalgan, shuning uchun ko‘plab mamlakatlarda partiyalar saylov jarayonining markaziy qismidir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hududida ko‘plab davlatlar partiya tizimiga ega bo‘lib, saylovlarda nomzodlar asosan partiyalar orqali belgilanadi. Bu davlatlarda partiya a’zolari bo‘lmagan nomzodlar uchun cheklovlar mavjud.

Germaniyaning Bundestag saylovlarida partiya a’zolari bo‘lmagan nomzodlar ishtirok etishi mumkin emas. Partiyalar o‘z ichki tartib-qoidalariga ko‘ra nomzodlarni belgilaydi, shuningdek, har bir partiya o‘z a’zolarini va ularning ishtirokini belgilab olish uchun ichki saylovlar o‘tkazadi. Bu tizim shaffoflik va partiya intizomini ta’minlaydi. Italiyada har bir partiya o‘z a’zolari orasidan nomzodlarni belgilash orqali partiya a’zoligini talab qiladi.

Ispaniya saylovlarida partiyalardan tashqari nomzodlar uchun imkoniyatlar juda cheklangan bo‘lib, ko‘plab hollarda partiya a’zolari ro‘yxatga olinadi. Belgiyada saylovida qatnashish uchun partiyalarga a’zolik talab etilsa, Gretsiyada partiyasiz nomzodlarni ko‘rsatish imkoniyati yo‘q. Shuningdek, Iordaniya, Vetnam kabi davlatlarda ham faqat partiya a’zosi bo‘lgan nomzodgina ishtirok eta oladi. Turkiyada partiyalar o‘z nomzodlarini belgilasa-da, partiyalardan tashqari nomzodlarni ko‘rsatish juda kam uchraydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda siyosiy partiyalar siyosiy jarayonning asosiy elementi sifatida nomzodlarni belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois partiyasiz yoki mustaqil nomzodlarga qat’iy cheklovlar qo‘yilgan bo‘lib, bu holat siyosiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilsa-da, fuqarolik ishtirokini cheklashi mumkin; mintaqaviy farqlar nuqtayi nazaridan esa Yevropada partiyaviy tizim kuchliroq, Osiyo va Afrikada esa mustaqil nomzodlar uchun imkoniyatlar ancha toraygan.

Umuman olganda, siyosiy partiyalar va ularning nomzodlarni ko‘rsatish jarayoni mamlakatlar o‘rtasida farq qiladi, ammo ko‘plab davlatlarda partiyalar siyosiy jarayonda dominant rol o‘ynaydi. Bu holat, ayniqsa, saylov jarayonining shaffofligini va fuqarolarning ishtirokini cheklovchi omil sifatida ko‘riladi.

Odatda, siyosiy e’tiqodi va partiyaga a’zo bo‘lmagan nomzodni ushbu partiya ro‘yhatida deputatlikka nomzod sifatida ko‘rsatilishi mantiqsizlikdir. Chunki, proporsional saylov tizimida esa nomzod eng avvalo siyosiy partiya oldida hisobdor bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan yagona saylov okrugi bo‘yicha nomzod ko‘rsatilayotganda partiyasizlarni nomzod sifatida ko‘rsatish tartibini o‘zgartirish lozim deb hisoblaymiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 70-moddasiga partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlar faqatgina ushbu siyosiy partiyaning a’zolaridan bo‘lishi lozimligi tartibini joriy etishni taklif etamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston

Respublikasining Qonuni, 02.12.2004 yildagi 704-II-son, 9-moddasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2024-y., 03/24/934/0469-son.

2. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.12.2023 yil, O‘RQ-883-son // https://lex.uz/en/docs/-6697581

3. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksining 70-moddasi. 26.06.2019. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son.

4. https://e-saylov.uz/all-candidates

5. https://www.ipu.org/national-parliaments

MA’NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI TA’MINLASH – JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM SHARTI

Zamonov Zokir Turg‘inovich,
s.f.f.d.(PhD), dots.

Hozirda ma’naviy va mafkuraviy ishlarni tizimli tashkil etilishi, o’z navbatida, insonlarga jamiyatga bo’lgan oqilona munosabat va ijtimoiy faoliyat yuritishdan qoniqish va ishtiyoqmandlik kayfiyatini yuzaga keltiradi.

Ma’naviyat ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta’sir ko’rsatadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bundan istisno emas. Xususan, fuqarolarning hokimiyatga, siyosiy partiyalarga munosabatlari, jamoat tashkilotlarining o’zaro va davlat bilan munosabatlari, fuqarolar erkinliklari ma’lum huquqiy makonda kechadi. Lekin ularning qanday tamoyillarga asoslanishi, fuqarolik huquqlarining qay darajada ta’minlanishi nafaqat Konstitusiyaga, huquqiy me’yorlarning demokratik xarakteriga, ayni paytda, jamiyatning siyosiy madaniyatiga, undagi ma’naviy muhitga ham bog’liq[i].

Zero, ma’naviyatning mohiyatini «ma’naviy muhit» tushunchasisiz teran anglab olish mushkul. Sog’lom ma’naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo’nalishda tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarini yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta’sirlardan himoya qilishga urinadi. Chunki ma’naviy muhit har qanday yutuqlar va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilinganlarining ham) taqdirini belgilaydi, yo rivojlantiradi, yo unutilishga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o’ziga moslashtiradi. Aksincha, nosog’lom ma’naviy muhit odamlarni bir-biridan begonalashtiradi, o’zaro ishonchni, mehr-oqibatni susaytiradi, ijtimoiy qo’rquvni kuchaytiradi.

Agar jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshib borsa, ularning rivojlanishga bo’lgan munosabati o’zgarib, rivojlanib boradi. Bu jarayonda daxldorlik hissi birinchi etapga chiqadi. Daxldorlik hissi yuqori bo’lgan kishi ma’naviy muhitga ham, o’z navbatida, ijobiy ta’sir etib boradi.

Kelajak maqsadni to’g’ri belgilash, o’z faoliyatini rejalashtirib olib, “davlat menga nima berdi emas, men davlat nima berdim” degan qarashni o’zida shakllantirib oladi. Tinch va farovon jamiyatda yashab, ijtimoiy-siyosiy jihatdan daxldor bo’lmagan fuqaro ma’naviy muhitni o’zgartira olmaydi.

Bugun ma’naviy muhitni rivojlantirish va mamlakatni tom ma’noda ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, ularning ijtimoiy-ma’naviy va huquqiy ko’magi asosida barqaror rivojlantirish jarayoni kechmoqda.

Bundan sharoitda nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy-ma’rifiy muassasalar, ijtimoiy-iqtisodiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari bilan davlat nazorat organlari, xususan, ichki ishlar organlarining samarali hamkorligi, mushtarak maqsad yo’lida harakat olib borishi jamiyatda “ma’naviy muhit” maqomining oshishida yetakchi vosita ekanligi kundek ravshan.

Jamiyatdagi mavjud madaniy muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ichki ishlar organlarining samarali hamkoriligi masalalari jamiyatda ma’naviy makon va ma’naviy muhit omilining harakat vositasi bo’lishi muqarrar.

Zero, «bugungi kunda xalqimizga azaldan xos bo’lgan hamjihatlik va bag’rikenglik, odob-axloq, mehr-oqibat, mehmondo’stlik va sahovat kabi insoniy fazilatlar yanada erkin namoyon bo’lmoqda va bunday ma’navny muhit odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda»[ii].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida"gi Farmoniga muvofiq har bir mahallada «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etildi. Jamiyatda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to’laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko’maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirishda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o’rnatish muhim hisoblanadi[iii]. Qolaversa, mazkur farmon asosida hozirgi kunda har bir mahallada bir nafardan profilaktika inspektorlari mahalla raislarining huquqbuzarliklar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari sifatida ish olib bormoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlari va profilaktika inspektorlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yanada kuchaydi.

Mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta`minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlarining quyi bo‘g'inlari mustahkamlandi.

Eng muhimi, ichki ishlar organlari o‘z xizmat faoliyatini parlament va jamoatchilik nazorati ostida olib borishi qat`iyan belgilandi. Ya`ni, Ichki ishlar

vaziri Senatga yilda ikki marotaba axborot berishi, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlari Xalq deputatlarining viloyat, tuman va shahar kengashlariga har chorakda, tuman-shahar IIB boshliqlarining yoshlar bo‘yicha o‘rinbosarlari xalq deputatlari shahar-tuman kengashlariga, profilaktika inspektorlari esa mahalla aholisiga har oyda hisobot berib borishi yo‘lga qo‘yildi[iv].

Bugungi jadal islohotlar davrida O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning dolzarb masalalari oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, targ‘ibot-tashviqot hamda tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimining yo’lga qo’yilishi ham davlat va jamoat tashkilotlarining birgalikda ijtimoiy-ma’naviy hamkorlikdagi say-harakatlari natijadorligini ko’rsatib beradi.

Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo’yicha ta’sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektori ko’rib chiqadigan ma’muriy huquqbuzarliklar sonini oshirish zarurligi ta’kidlandi[v]. Bu jarayonlar, o’z navbatida, jamiyatda ma’naviy muhit shakllanganligi va uni takomillashtirshning samarali usullari deyish mumkin.

Zero, jamiyatda ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash uchun ajralish yoqasida turgan oilalarni saqlab qolish, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga “himoya orderi”ni berish va ularning buzilgan huquqlari tiklash, mahallalarda jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, jinoyatdan holi muhitni shakllantirish, jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida tizimli ishlarni amalga oshirishda bugun davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, o’zini o’zi bosharish organlarining o’rni va tashabbuskorligi muhim hisoblanadi.

Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu masalalarga alohida to‘xtalib, «Biz «Adolat – qonun ustuvorligida» degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e’tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma’suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko‘rishimiz darkor»[vi], ta’kidlab o’tgan edi. Shu asosda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyat va davlat tinhcligi va osoyishtaligini ta’minlashni nazarga tutgan holda insonlar sha’ni, qadr-qimmati va manfaatlarini to’la qonli ta’minlash maqsadi bilan mushtaraklik hosil qilmoqda.

Bugun biz ijtimoiy davlat asoslarini kuchaytirishda tizimli ravishda harakat qilar ekanmiz, unda jinoyatga jazo berish emas, jinoyatning barvaqt olini olish

choralarini ko’rib borishning ijtimoiy muhitini yaratishga katta urg’u berishimiz kerak bo’ladi. Bu xususda davlatimiz rahbari quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edilar: “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyat mazmuni butunlay o‘zgarmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Faqat jazolash bilan qo‘rqitib, huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki noqonuniy harakatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish eng dolzarb vazifaga aylandi”[vii].

O‘tgan yillar mobaynida mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimi takomillashtirilib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, davlat soliq inspektori va ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ularning vazifalari belgilab berildi.

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi davrda jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining hamkorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligi talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan yana muhim bir hujjat – Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 15 martdagi “Mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta’minlash hamda «Mahalla yettiligi» faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori qabul qilinadi. Qarorda belgilab qo’yilganidek, «Mahalla yettiligi» - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari namunaviy tuzilmasiga kiritilgan mahalla raisi rahbarligidagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori a’zolaridan iborat bo‘lgan guruhdir[viii]. Shuni ham ta’kidlash lozimki, «Mahalla yettiligi»ning funksiyalari va vazifalarini bajarishi jarayonida bevosita jamiyatda, shu hududda ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta’ninlashda o’ziga xos tarzda hissa qo’shib boradi. Buni «Mahalla yettiligi»ning quyidagi huquqlarb orqali ham aniqlab olish mumkin bo’ladi: ya’ni faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan belgilangan tartibda so‘rash va olish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi aniqlanganda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ijtimoiy yordam turlarini ko‘rsatish va subsidiyalar ajratish bo‘yicha qarorlar qabul qilish; jismoniy shaxslarga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish sohasiga bevosita aloqasi bo‘lgan davlat organlari va

tashkilotlarining vakillarini «Mahalla yettiligi» faoliyatiga jalb etish shular jumlasidan.

Shuni ham alohida qayd etish lozikmi, ma’naviyat muhit jamiyatda xavf bo’lib turgan turli shakl va maqsadda bo’lgan g’ayrima’naviy va g’ayrimafkuraviy kuchlar va harakatlarning kushandasi, uning aksil davosi bo’lib hisoblanadi. Insonlar demokratik jamiyatga bo’lgan ishonchi ortgan sari turli xil jamiyatlarning ularga bo’lgan munosabati va ta’sirchanligi oshishiga moyillik ham kuchayib borishini inobatga olganda, faqat oqilona mustahkam shakllangan ma’naviy muhit fuqarolarning sog’lom dunyoqarash va bunyodkorlik salohiyatini rivojlantirishga ko’makchi bo’ladi.

Ma’naviy muhit kategoriyasi bekorga axloq, ijtimoiy va huquqiy munosabatlarning majmui sifatida ko’ratib o’tilmaydiki, chunki jamiyatning ijtimoiy-huquqiy maqomi, fuqarolarning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va huquqiy ko’nikmalarini shakllantirib borishi axloq va ma’naviy mezonlar bilan o’lchanadi, bu o’z o’zidan ma’naviy muhitning asosini tashkil etadi. Bunda shaxslarning yagona maqsad va tashabbuslari, manfaatlari mushtakarligi tamoyilining o’rni nihoyatda muhim hisoblanadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi va xulq-atvorini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: shaxsning axloqiy bilimlari darajasi, shu bilimlar yordamida kundalik hayotda vujudga keladigan axloqiy muammolarni hal qilish ko’nikmasi, o’zining axloqiy xulq-atvor mazmunini anglash darajasi, o’z xulq-atvorining qadriyatga yo’naltirilganligi[ix].

Qolaversa, shaxsning ma’naviy muhiti tarixan iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, madaniy, maishiy hayot asosida rivojlangan odamlar birlashuvining barqarorligining ijtimoiy-psixologik omiliga bog’liq.

Qulay ma’naviy-axloqiy muhit shundan dalolat beradiki, u mustaqil faoliyatga moyil va ma’naviy-axloqiy me’yorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda tashabbuskorlikni namoyon etadi. Qolaversa, ijtimoiy yetuk, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.[x]

Bizning nazarimizda, ma’naviy muhit shaxsdagi xulq-atvorning, umuman, ma’naviy-axloqiy xarakterli jihatini o’ziga namoyon etib, nafaqat insonning ichki axloqiy-ijtimoiy qarashlari, o’z-fikrlari bilan, shuning bilan birgalikda, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy jarayonlar va faoliyat bilan takomillashib, ijtimoiy rivojlanish tamoyili sifatida o’sib boradi.

Bundan sharoitda ichki ishlar organlari homidlarining kasbiy malakasi, ma’naviy salohiyati va huquqiy ongi darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Negaki, ichki ishlar organlarining xodimlarida huquqiy ongning shakllanishi, qoida tariqasida, o‘z faoliyatini to‘la qonli amalga oshirishda qo‘l kelsa, uning ijtimoiy, individual va professional faoliyati ma’naviy asoslar bilan

uyg‘unlashgan holda kasbiy, axloqiy etikasiga ijtimoiy faol fuqaro pozitsiyasiga ega bo‘lishini bildiradi.

Jamiyat ijtimoiy qiyofasining shakllanish jarayoni ma’naviy-axloqiy muhit ta’siri doirasidagi axloqiy ong, axloqiy xatti-xarakat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy-siyosiy muloqot va axloqiy munosabat hamda huquqiy faoliyatni anglash bilan amalga oshiriladi. Zero, jamiyat ma’naviy qiyofasi ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk jamiyat a’zolari, xususan, shaxslar ma’naviy-axloqiy kamolotiga bog’liqdir. Bugungi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish shart-sharoitlari ildam kechayotgan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy asoslarni rivojlantirish tamoyili ma’naviy muhitni ham tizimli ravishda rivojlanitirish va uning shaxslararo kirib borish omiliga bo’lgan talabni oshirmoqda.

Yana bir jihatga e’tibor qaratish lozimki, jamiyatda ma’naviy muhitni ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli juda muhim, chunki bu organlar jamiyatda huquqiy tartibni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va odamlarning huquqlarini himoya qilishda, mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy asoslarni himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Qolaversa, bugungi kunda ichki ishlar organlari ma’naviy muhitni ta’minlash uchun bir qancha muhim vazifalarni bajarishi kerak. Birinchidan, soha xodimlari o’rtasida ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatni yanadaoshirish choralarini ko’rib boorish, jamiyat a’zolari ichki ishlar xodimlarini ko’rganda, ijtimoiy faoliyatida duch kelgan taqdirda ulardan cho’chishi emas, balki ularning tartibsa soluvchi va nazorat qiluvchi institute xodimi nuqtai nazardan ulardan najot sifatida ko’rishi va ularga ko’makchi bo’lishi lozim. Ichki ishlar organi xodimlarining ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyati, odamlarga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishi ularning ish faoliyatidagi ma’naviy muhitning ijobiy kechishiga sharoit yaratadi. Ikkinchidan, kasbiy etika va jamiyat orasida ishonch muhitini kuchaytirish lozim. Bunda o’z kasb faoliyatidan kelib chiqib axloq me’yorlarga amal qilishi jamiyat a’zolarining ularga bo’lgan ishonhi va hurmati ham cheksiz bo’lishiga, ijtimoiy hamkorlik masalalari samarali kechishiga erishiladi. Qolaversa, fuqarolar o’rtasida ishonchni mustahkamlash va ularning o‘zaro hurmatini ta’minlash, eng muhim mezon sifatida jamiyatda qadriyatish mezon to’la ma’noda ishlashiga sharoit yaratiladi va umumiy maqsad yo’lida safarbarlikka erishiladi.

Uchinchidan esa, faoliyatga nisbatan mas’uliyat va ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishga bo’lgan ijobiy harakatlar korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim mezoni sifatida ko’rinadi. Korrupsiyaviy holatlarning oldini olishning, bunday illatlarga qarashi kurashishning ijtimoiy profilaktik choralarini ko;rib boshning birdan-bir ishonchli yo’li fuqarolarga va soha vakilari o’rtasida o’zaro ishonch omilini yuzaga chiqarish bilan belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat jamiyat a’zolari va ichki ishlar xodimlari o’rtasida ijtimoiy muhitni yaxshilashga, shuning bilan birga, jamiyat ijtimoiy-

ma’naviy yuksalishi muhim burilish yasaydigan progmatik mezon sifatida ko’rilishini ham nazarga olish kerak bo’ladi.

Agar mazkur ishlar tizimli amalga oshirilib boriladigan bo’lsa, ma’naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish bilan bog’liq mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, jamiyatning har bir qatlami uchun “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish, o’z navbatida, jamiyatda sog‘lom ma’naviy asoslarni yo’lga qoyish umummilliy harakatga aylanadi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA UNI OLDINI OLISHDA ILMIY YONDASHISHNING AHAMIYATI

Abdulla Ruziqulov,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Navoiy hududiy bo‘limi rahbari.
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Elektron pochta manzili: abu.x2012@mail.ru
abu.x2014@umail.uz

Annotatsiya: Maqolada korrupsiya tushunchasi, turlari va uning shakllanish tarixi, dunyodagi hamda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarishi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda bu borada ilmiy yondashishning ahamiyati atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, islohot, vakolat, siyosiy va huquqiy mexanizmlar, qadriyat, jamoatchilik nazorati.

Respublikamizda so‘ngi yillarda korrupsiya qarshi kurashishda qat’iy choralar ko‘rishi va murosasiz unga qarshi turish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yil 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etishi ham bu borada qanchalik jiddiy yondashuv mavjudligini yana bir bor ko‘rsatib berdi. Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganlari dek *“...Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”[1].*

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu maqolamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda ilmiy yondashishning ahamiyati to‘g‘risida atroflicha to‘xtalmoqchimiz.

Eng avvalo korrupsiya o‘zi nima ekanligiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiya “...(lotincha *corrumpere*- buzg‘unchilik, razillashtirish,yoki lotincha *corruptio* yo‘ldan urish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma’naviy) buzilish; chirish; sotqinlik, tanazzul)) odatda mansabdor shaxslarning shaxsiy maqsadlarda xizmat mavqeyini suiiste’mol qilishni anglatuvchi atama - mansabdor shaxsning o‘z vakolatlari va unga ishonib topshirilgan huquqlardan foydalanishi, shuningdek, shaxsiy hokimiyat, imkoniyatlar va qonuniylik bilan bog‘liq bo‘lgan mansabdor shaxslarning maqomiga ega bo‘lish tamoyillari” deb ta’riflanadi [2].

Korrupsiya davlat va jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni yaratadi. Bu holat davlatlarning samarali boshqaruvini, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi eng katta g‘ovdir. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali va kompleks strategiyalar talab qilinadi.

Ilmiy yondashish korrupsiyaning sabablarini va oqibatlarini aniqlash, ularni o‘rganish va tahlil qilishga yordam beradi. Buning natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun aniq va samarali siyosatlar ishlab chiqiladi. Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarni (masalan, iqtisodiy tengsizlik, huquqiy tizimdagi kamchiliklar va h.k.) va undan qanday saqlanish mumkinligini tahlil qiladi. Shuningdek, amaliyotda samarali bo‘lgan choralarning yanada samaradorligini oshishiga yordam beradi.

Qisqacha aytadigan bo‘lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishda ilmiy yondashish faqat bir davlatning qonunlarini qo‘llashdan, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini ham inobatga olishni talab qiladi. Ilmiy tadqiqotlar bu muammoning kompleks tabiatiga e’tibor qaratadi va unga samarali yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiya insoniyatga qadim zamonlardan beri hamroh bo‘lib kelgan. Poraxo‘rlik uchun jazo Misr fir’avnlari tomonidan o‘rnatilgan Hammurapi (4 ming yil oldin) qonunlarida nazarda tutilgan. Ushbu antisosial hodisaning zararli ta’siri hukumat tuzilishi yoki an’analaridan qat’i nazar, har qanday mamlakatda sezilishi mumkin.

Bu borda ilmiy izlanishlarni dastlabki manba sifatida diniy adabiyotlarga e’tibor qaratsak.

Injilda "Siroch o‘g‘li Isoning donolik kitobi(Knige premudrosti Iisusa сына Siraxova)" da, ota o‘g‘liga o‘rgatadi: "Boshqalarning oldida ikkiyuzlamachi qilma va og‘zingga ehtiyot bo‘l ... Qo‘lingni qabul qilish uchun cho‘zma ... Yomonlik qilma va senga yomonlik yetmaydi, nohaqlikdan saqlan u sendan qochadi ...Hakam bo‘lishga intilma, toki nohaqlikni tor-mor etishga ojiz bo‘lib qolmaysan, toki hech qachon kuchli odamning yuzidan qo‘rqib, solihligingga soya solmasin...” [1].

Mashhur hanafiy olim Abu Bakr Jassos o‘zining "Ahkomul Qur’on" asarida jinoyat va jazo va boshqa bir qator fiqhiy masalalarni yoritgan.

O‘z o‘rnida uning asarlarida poraxo‘rlik haqida alohida to‘xtalib, qurondan dalil keltirgan: “(Ular) yolg‘on (to‘qish uchun Siz)ga quloq soladigan va haromni yeydiganlardir…” (Moida surasi, 42-oyat). Olim oyatdagi “harom” deb tarjima qilingan “suht” kalimasi ildizi bilan sug‘urib olmoq, yo‘qotmoq ma’nolarini anglatishini ta’kidlaydi va bunday yozadi: «“Suht” so‘zi porani anglatadi. Zero, pora barakani yo‘qotib, gunohkorni halok qiladi» [2].

Abu Bakr Jassos fikrini quvvatlab, sahoba va tobeinlarning “suht” so‘zi ma’nosi haqida aytgan fikrlarini keltiradi:

Bir rivoyatda Masruq roziyallohu anhu Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhudan suht haqida so‘raganida, u zot: “Suht poradir”, deb javob bergan. Ali karramallohu vajhahu ham suhtning pora ekanini ta’kidlagan. Tobeinlardan Ibrohim, Hasan, Mujohid, Qatoda, Masruq va Zahhok rahimahumullohlar ham “suht”ning ma’nosi pora ekanini aytganlar. Savbon rahimahulloh Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan qilgan rivoyatda bunday deyilgan: “Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam pora beruvchi, pora oluvchi va ularning o‘rtasida vosita bo‘luvchini la’natladilar” [3].

O‘z-o‘zidan biz bular bilan nima demoqchimiz korrupsiya insoniyat tarihida bugun paydo bo‘lib qolgani yo‘q.U asirlar mobaynida shakllanib o‘zining yangicha ko‘rinishlari va usullarini yaratib yashab qolishga harkat qilmoqda.Shu sababli ushbu mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish, uni paydo bo‘lishi, zamonaviy ko‘rinishlari, yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillar, sabbalar va yashab qolishiga hizmat qiluvchi vositalar nima ekanligini aniqlash har doim dolzab bo‘lgan va dolzarbligicha qoladi.Aynan bu kabi salbiy holatlarni oldini olish uchun ham ya’ni korrupsonerlardan bir qadam oldinda yuurish uchun ham ilmiy o‘rganish va unga qarshi keskin kurashish choralarin ishlab chiqish uchun ham ilmiy jihatdan tatqiqi etish zarur.

Ilmiy yondashish esa, bu kurashda bir qator muhim jihatlarni nazarda tutadi, ularga quyidagilar kiradi:

Korrupsiyaning sabablarini aniqlash: Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlashga yordam beradi. Bu omillar mamlakatning huquqiy tizimi, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy adolatsizlik va siyosiy barqarorlik yoki barqarorsizlik kabi sohalarda bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar bu sabablarni tahlil qilish va ularni tugatish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to‘rtta omilni ko‘rsatadilar:

Birinchisi - iqtisodiy sabablar. Bu haqda, muhtaram Prezidentimiz o‘zining chiqishlarida ko‘p marotaba so‘z yuritib keladi.

Korrupsiyaning bu ko‘rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma’muriy yo‘l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo‘lgan davlat sharoitida rivoj topadi.

Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yo ruxsat berish, yo taqiqlash vakolati poraxo‘rlikka zamin yaratadi.

Shu bilan bog‘liq holda, yirik mablag‘larga ega bo‘lgan ayrim ishbilarmonlar o‘z daromadlarini ko‘paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo‘lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o‘z ixtiyorlariga bo‘ysundirishga intiladilar.

Ikkinchisi - huquqiy sababar. Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog‘liqdir. Mukammal bo‘lmagan qonunlar ishlamaydi va poraxo‘rlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.

Uchinchisi - institutsional sabablar bo‘lib, ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.

To‘rtinchisi - ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma’naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir [4].

Korrupsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish: Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaning iqtisodiy o‘sishga, investitsiyalar va ishlab chiqarishga salbiy ta’sirini, shuningdek, ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirishini tadqiq qiladi. Bu tadqiqotlar korrupsiyaning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan xulosalarga olib keladi.

Samarali siyosiy va huquqiy mexanizmlar: Ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, huquqshunoslik va siyosatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali huquqiy va siyosiy mexanizmlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu mexanizmlar korrupsiyaga qarshi qonunlar, tadbirlar, monitoring va tahlil tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Birgina Prezident topshirig‘i bilan investitsiya dasturlari ustidan nazorat kuchaytirilganidan keyin o‘tgan yilni o‘zida 3 trillion so‘m iqtisod bo‘ldi. Yoki sog‘liqni saqlash tizimida “Situatsion markaz” ishga tushirilgani hisobiga 2024 yilda 1,2 trillion so‘mlik maqsadsiz xarajatlarning oldi olingan [6].

Ma’naviy va madaniy aspektlar: Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat huquqiy va iqtisodiy omillar emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar ham muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaga nisbatan insonlarning munosabatlarini, madaniy tuslarini va ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga yordam beradi, bu esa jamiyatda korrupsiyaga qarshi kuchli ma’naviy muqarrarlikni yaratadi.

Bu borada faqatgina ilmiy tadqiqotlar bilangina chegaralinib qolmasdan yosh avlodning bu boradagi taribyasi bilan shug‘ullanishi va ularga o‘rnak bo‘lishni ta’limning dastlabki bosqichlaridano boshlash va bu jihatlarini ham tadqiqi etish kerak.

Mazkur masalada perizdentimiz quydagi fikrlarni bildirdi “...Islohotlarimiz natijadorligi avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog‘liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart”. Shu maqsadda maktab direktorlari “Tarbiya” fani doirasida o‘g‘il-qizlarimizga halollik, birovni haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borishi kerak” [5].

Innovatsion texnologiyalarning ahamiyati: Ilmiy tadqiqotlar texnologiyalarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini ham o‘rganadi. Modern axborot tizimlari, ma’lumotlar tahlili va elektron hukumatning rivojlanishi korrupsiyani oldini olishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi bu borada kurashni yanada samarali va o‘z vaqtida amalga oshirishni ta’minlaydi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 06.07.2021 yildagi PF-6257-son Farmonida korrupsiyaga oid jinoyatlarni olidini olishga qaratilgan alohida choralar belgalanganligi ham sohada yangicha yondoshuvni boshlab berdi.

Shuningdek, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi doirasida davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar haqidagi statistik ma’lumotlar hamda hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyat ishlarining sohalar va hududlar kesimidagi elektron bazasini shakllantirish ham alohida belgilanga.

Xulosa. Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyat rivojining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu muammoga qarshi samarali kurashish uchun ilmiy yondashuv juda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaning sabablarini aniqlash, ularning oqibatlarini tahlil qilish va samarali siyosatlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat qonunlar va huquqiy choralardan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aspektlarni ham hisobga olishni talab qiladi.

Ma’naviy qadriyatlarni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va huquqiy tizimni takomillashtirish korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar bu jarayonni tezlashtirish va uni samarali qilishga ko‘maklashadi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashishda ilmiy yondashuvning ahamiyatini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyatning birgalikda harakat qilishi korrupsiyaning oldini olish va uni bartaraf etish uchun muvaffaqiyatga erishishga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qo‘yidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

-Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga davlat va jamiyat darajasida e’tiborni ko‘proq jalb qilish. Korrupsiyaga qarshi kurashishni samarali olib borish uchun, iqtisodiy va huquqiy sohalardagi ilmiy tadqiqotlarga moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashni ko‘paytirish zarur.

-Kuchaytirilgan jamoatchilik nazorati va mavjud huquqiy mexanizlarning ishlashini to‘liq ta’minlash. Jamoatchilik tashkilotlari va axborot vositalarini korrupsiyaga qarshi kurashishda ko‘proq faollashtirish, oliy davlat organlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish zarur.

-Ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish uchun ma’naviy va madaniy yordamni ko‘rsatish, yoshlarga huquqiy va axloqiy ma’rifiylikni kuchaytirish lozim.

-Iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni xal etish. Iqtisodiy faoliyatda korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni bartaraf etish, ish bilan ta’minlash va sotsial adolatni ta’minlashga yordam беради.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba].https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevningoliy-25-01-2020.
2. Shoraxmedov. “Korrupsiya darajasi mamlakat taraqqiyoti va demokratiyaning ko‘rsatkichi hisoblanadi”- Akmal Burhonov. Gazeta.uz
3. Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik. Monografiya // Mas’ul muharrir: D.B.Bazarova, yu.f.n., professor v.b. –T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020. – 120 bet.(Liability for corruption crimes. Monograph //Editor-in-Chief: D.B.Bazarova, Ph.D., Professor, etc. –T.:Tashkent State Law University, 2020. - 120 pages).
4. Зайцев А.В., Филиппова Д.Г. Методы борбы с коррупцией на современном этапе развития общества//Материалы VII Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» https://scienceforum.ru/2015/article/2015009978">https://scienceforum.ru/2015/article/2015009978 (дата обращения: 06.03.2025).
5. Schaupesteiner Wolfgang Wachsturnbsbranche Korruption. Kriminalistik. DRD, 2003 №1 pp.9-18.

6. Индекс восприятия коррупции, исследование. Автономная некоммерческая организация «Центр антикоррупционных исследований и инициатив «Трансперенции Интернешнл-Р». URL: https://transparency.org.ru/research/indeks-vospriyatiya-korruptsii/rossiya-v-indeksevospriyatiya-korruptsii-2018-28-ballov-iz-100-i-138-mesto.html (дата обращения: 04.10.2022).

7. Amundsen I. Political corruption: An introduction to the issues//Chr. Michelsen Institute – Working Paper. 1999. No 7.

8. Marquette H. and Peiffer C. Corruption and Collective Action// Developmental Leadership Program, University of Birmingham. 2015. Vol. 32.

9. Zekos G.I. Ethics versus corruption in globalization//Journal of Management Development. 2004. Vol. 23. No 7

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR ELEKTORAL XULQ-ATVORINI RIVOJLANTIRISH

Rasulov Bekzod Boymuratovich,
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD),
Telefon: +998998468625, E-mail: rasulov.bekzod@samdaqu.edu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda yoshlarning elektoral xulq-atvorini rivojlantirish omillari tahlil qilindi. Yoshlarning siyosiy xulq-atvori masalasi barcha demokratik jamiyatlarda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda yoshlar siyosiy xulq-atvorini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: siyosiy xulq-atvor, saylov, yoshlar ishtiroki, yoshlarning siyosiy faolligi, absenteizm.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining mustahkam huquqiy va institutsional asoslari yaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi yoshlarni huquqiy himoya qilish, jamiyatdagi o‘rni va rolini oshirish, ularga ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini kafolatlashdan iborat. Shu maqsadda qabul qilingan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi [1] O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda eng muhim hujjatlardan biri sanaladi. Ushbu konsepsiya yoshlarning huquqlarini himoya qilish, jamiyatdagi rolini oshirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy huquqlar va madaniy rivojlanish kabi keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi. Bu konsepsiya saylov jarayonlaridagi ishtirokni bilvosita qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fundamental zaminni yaratadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi ustuvor vazifalar

qatorida yoshlarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish, volontyorlik guruhlarini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirib borishning yagona tizimini shakllantirish; yoshlar jamoat tashkiloti, siyosiy partiyalarining yoshlar qanotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish; yoshlarning siyosiy ongini oshirish, ularning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash [1] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Biroq, konsepsiyaning ikkinchi darajali tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning keng doiradagi maqsadlari siyosiy savodxonlik va faollikni oshirishga qaratilgan aniq amaliy mexanizmlarni to‘liq qamrab olmasligi mumkin. Ya’ni, Konsepsiyada siyosiy partiyalarining yoshlar qanotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish va yoshlarning siyosiy ongini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lsa-da, hozirga qadar mamlakatimizda fuqarolik ta’limiga o‘xshash ta’lim dasturlari yoki partiyalar tomonidan yoshlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir amaliy chora-tadbirlari natijalari kundalik siyosiy hayotimizda o‘z ifodasini topmayapti. Rus olimi N.I.Snegireva ta’kidlaganidek, yoshlarning elektoral madaniyatini shakllantirish uchun mas’uliyat siyosiy partiyalar zimmasiga ham yuklanadi. Biroq, bu institut ko‘pincha yoshlarni faqat saylovlar arafasida eslaydi.[2]

Yoshlarning siyosiy faolligi, shuningdek, yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini belgilaydigan iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning shaxsiy muammolari ular o‘rtasidagi saylov xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pchilik yoshlar, agar iqtisodiy sharoitlari yaxshilansa, saylovda faol ishtirok etishga tayyor ekanliklarini bildiradilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning saylovlardagi ishtiroki bevosita ularning shaxsiy muammolarini qanchalik jiddiy qabul qilishlari bilan bog‘liq. Masalan, iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan yoshlar hukumatdan ushbu muammolarni hal qilishni talab qiladigan nomzodlarni faolroq qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Bu, shuningdek, yoshlarning siyosatga bo‘lgan ishonchini shakllantiradi. Agar yoshlar o‘z hayotlaridagi iqtisodiy sharoitlar siyosiy jarayonlar tufayli yaxshilanayotganini his qilsalar, ular saylovga borish va o‘z fikrlarini bildirish zarur deb hisoblashadi. Aksincha, agar siyosat ularning hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmayotgan bo‘lsa, yoshlar siyosatdan uzoqlashishi va ishtirok etmaslikni afzal ko‘rishi mumkin.

Siyosiy ishtirok etishga qarama-qarshi bo‘lgan “absenteizm” (siyosiy hayotdan chetlashish) hodisasi mavjud. Garchi bu turdagi xulq-atvor har qanday jamiyatda uchrasa-da, uning keng tarqalishi va befarq odamlar sonining ortishi siyosiy tizimning qonuniyligi, me’yorlari va qadriyatlaridagi jiddiy inqirozdan

dalolat beradi. Jamiyatda siyosiy absenteizmning kuchayishi ko‘pincha siyosiy tizimga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi bilan bog‘liq. Agar fuqarolar o‘z ovozlari yoki ishtiroklari hech narsani o‘zgartirmasligiga ishonsalar, ular saylov yoki boshqa siyosiy faoliyatda ishtirok etishdan voz kechishadi. Hukumat va siyosiy partiyalarning va’dalari bajarilmasa, fuqarolar o‘zlarini aldangan his qilib, siyosiy jarayonga nisbatan sovuq munosabatda bo‘lishi tabiiy hol.

Absenteizm siyosiy tizimning asosiy me’yorlari va qadriyatlarining zaiflashganidan dalolat beradi. Agar jamiyat a’zolari davlatning asosiy institutlari adolat, shaffoflik va xalq manfaati yo‘lida ishlamayotganini his qilsalar, ular bu tizimdan uzoqlashishni afzal ko‘rishadi. Bu nafaqat befarqlikni, balki chuqur norozilikni ham aks ettiradi. Absenteizmning kengayishi fuqarolik madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar fuqarolik burchi va faol ishtirok etish muhim qadriyat hisoblanmay qolsa, jamiyat o‘zini boshqarish va o‘z muammolarini hal qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Bu esa o‘z navbatida, siyosiy hokimiyatning mas’uliyatsizligiga va jamiyatning yanada parchalanib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Demokratik jamiyatlarda yoshlarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki masalasining chuqur tahlili bir qator muhim jihatlarni ochib berdi. Global miqyosdagi kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida saylovlarda faol ishtirok etish darajasi nisbatan past bo‘lsa-da, bu ularning siyosiy jarayonlarga nisbatan befarq ekanligini anglatmaydi. Aksincha, ushbu holatning asosiy sabablari institutsional va madaniy to‘siqlar, shuningdek, rasmiy siyosiy tuzilmalarda yoshlarning munosib vakillik qila olmasligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ayniqsa, O‘zbekiston kontekstida, yoshlar siyosati uchun mustahkam huquqiy baza yaratilganiga qaramay, bu sohada hali ham o‘z echimini kutayotgan vazifalar mavjud. Mavjud qonunchilik asosida yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish va ularni rasmiy jarayonlarga faol jalb etish bo‘yicha yanada aniq va maqsadli amaliy mexanizmlarni joriy etish zarur. Ushbu choralar yoshlarning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga, ularning siyosiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar va izlanishlarga asoslanib, O‘zbekistonda yoshlarning mazmunli va samarali siyosiy faolligini oshirish uchun quyidagi omillarga asoslangan strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O‘zbekistonda yoshlarning siyosiy ishtirokini kuchaytirish, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun faqatgina rasmiy tadbirlar o‘tkazish emas, balki chuqur o‘ylangan, tizimli va uzoq muddatli strategiyani amalga oshirish lozim.

2. Yoshlarni siyosatga jalb qilishning asosi huquqqa asoslangan yondashuv bo‘lishi kerak. Bu, yoshlarning ovozi va fikri haqiqatan ham inobatga olinishini anglatadi.

3. Strategiya yoshlar va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanishi kerak. Bu, yoshlar boshchiligidagi va birgalikdagi faoliyat usullarini o‘z ichiga oladi.

4. Yoshlarning siyosiy ishtiroki uchun minimal standartlar belgilanishi shart. Bu standartlar shaffoflik, hurmat, mas'uliyat va yoshlarga do‘stona munosabatni o‘z ichiga oladi. Har bir tashabbus inklyuziv, ixtiyoriy va xavfsiz bo‘lishi kerak.

5. Yoshlarning siyosiy ongi va ko‘nikmalarini oshirish uchun doimiy ta'lim dasturlarini joriy etish lozim. Bu nafaqat individual darajada, balki tashkilotlar darajasida ham amalga oshirilishi kerak. Eng muhimi, siyosiy institutlarning o‘zini isloh qilish orqali yoshlar uchun qulay va ishonchli tizim yaratish zarur.

Har qanday strategiya O‘zbekistondagi yoshlarning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishga asoslanishi kerak. Ularning qadriyatlari, ehtiyojlari va siyosatga bo‘lgan munosabatini aniqlash, samarali dasturlarni ishlab chiqishda asosiy omil hisoblanadi. Bu tahlil yoshlarni siyosatdan uzoqlashtirgan sabablarni (masalan, ishonchsizlik, siyosiy ongsizlik, va hokazo) aniqlash va ularni bartaraf etish uchun muhimdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, keng qamrovli va tizimli islohotlarni talab qiladi. Bu faqatgina saylov oldidan o‘tkaziladigan tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, yoshlarning ishonchini qozonishga va ularga o‘z kelajagini qurishda to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatini berishga qaratilgan uzoq muddatli jarayon bo‘lishi kerak. Ushbu tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan strategiya O‘zbekistonda yoshlarning nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan ham faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son, https://lex.uz/docs/5234746#5235224

2.Н.И. Снегирева Обособенностях формирования молодежного электоралного поведения. Вестник высшей школы. №11 (ноябр) 2021, DOI 10.20339/AM.11-21.110

AXBOROT-KUTUBXONA SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY-ME'YORIY BAZANI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

Raximova Shaxnoza Anvarovna,
s.f.b.f.d. PhD., Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Axborot-kutubxona tizimlari" kafedrasi dotsenti
(+99890 961 61 62 shaxnozaanvarovna11@gmail.com *)*

Annotatsiya: Tezisda axborot-kutubxona sohasida davlat siyosati va huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish masalalari yoritilgan. Kutubxona tizimining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va axborotga bo'lgan huquqni ta'minlash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kutubxona sohasi, davlat siyosati, huquqiy-me'yoriy baza, kutubxona tizimi, axborot texnologiyalari, qonunchilik, normativ hujjatlar, axborotga bo'lgan huquq, xalqaro standartlar, strategik rivojlanish.

Jamiyat taraqqiyotining mustahkam intellektual va madaniy poydevorini yaratishda axborot-kutubxona muassasalarining o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bilim olish, izlanish va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu bois, axborot-kutubxona faoliyatining samaradorligini oshirish, uning moddiy-texnik, tashkiliy va huquqiy asoslarini mustahkamlash davlat siyosati darajasida hal qilinishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

Olib borilayotgan islohotlar, jumladan, axborot sohasini raqamlashtirish, foydalanuvchilarning huquqiy va axborot madaniyatini yuksaltirish, kutubxona resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish, soha taraqqiyotini huquqiy jihatdan ta'minlashni talab etmoqda. Bu jarayonda davlat siyosati va huquqiy-me'yoriy baza mustahkam institutsional poydevor sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining nafaqat mazmuni va tashkiliy shakllarini, balki ularning an'anaviy ijtimoiy institut sifatidagi qiyofasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Mahalliy kutubxonalar faoliyatida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni zamonaviy axborot texnologiyalari kontekstida tahlil etish zarurati bugungi kunda o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, kutubxonaning zamonaviy jamiyatdagi axborot instituti sifatidagi o'rni, axborot jamiyati sharoitida uning asosiy funksiyalari, faoliyat yo'nalishlari hamda ularning yechimini talab etuvchi vazifalar majmuasini aniqlash masalasi ilmiy-tadqiqot va amaliy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat ijtimoiy tuzilmasida

kuzatilayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va fenomenlar kutubxonaning hozirgi va istiqboldagi institutsional maqomini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Huquqiy-me’yoriy baza – bu muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ichki me’yoriy aktlar va standartlar majmuidir. Axborot-kutubxona sohasida mazkur baza, avvalo, muassasaning tashkiliy-huquqiy maqomini belgilash, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish tartibi, axborot va ma’lumotlarni himoya qilish, shuningdek, axborotni erkin olish va saqlash bilan bog‘liq huquqiy normalarni qamrab oladi.

Respublikada axborot-kutubxona faoliyati holatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy talablardan kelib chiqib, axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish hamda aholining mazkur xizmatlardan samarali foydalanishini ta’minlash uchun me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sohada amalda bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni atroflicha tahlil etish zarurati yuzaga keladi.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarini kuchaytirish, ularning institutsional salohiyatini mustahkamlash va samarali faoliyatini ta’minlovchi mexanizmlarni shakllantirish aholining axborot resurslariga erkin va teng huquqli kirishini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonining [1] 1-ilovasida, mamlakatning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, madaniy merosni saqlash hamda keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha aniq maqsadli vazifalar belgilangan. Ushbu strategik hujjat doirasida axborot-kutubxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish**,** jamoatchilikda axborot madaniyatini shakllantirish**,** intellektual resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sotsiomadaniy muhitda kitobxonlik faoliyatini ommalashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar ko‘zda tutilgan.

Mazkur islohotlar doirasida 2030 yilgacha faol kitobxonlar sonini 5 million nafarga yetkazish, har yili 100 ta eng yaxshi badiiy asar va 50 ta bolalar-o‘smirlarga mo‘ljallangan adabiyotlarni yaratish, “O‘zbek adabiyoti xazinasi” hamda “Jahon bolalar adabiyoti durdonalari” turkumlaridan 100 jildlik nashrlarni o‘zbek tilida chop etish, shuningdek, 40 milliondan ortiq nusxadan iborat kutubxona fondlarini raqamlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bular soha rivoji uchun aniq va o‘lchanadigan indikatorlar sifatida belgilangan.

Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatdagi axborot-ma’rifiy infratuzilmani rivojlantirish**,** axborotdan foydalanishda tenglik tamoyillarini amalga oshirish**,** axborot resurslarining raqamli reprezentatsiyasini ta’minlash hamda axborot xulq-atvorining sotsiologik tahlilini amalga oshirishda katta ilmiy va amaliy

ahamiyatga ega. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari kutubxona fondlarini saqlashning zamonaviy modellarini joriy etish, ularning **s**ifrli arxivlashtirish**,** metama'lumotlar tizimi asosida kataloglashtirish va foydalanuvchi faolligini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirib, madaniyat sohasidagi islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi [2] O'RQ-280-son Qonuni qabul qilingan bo'lib, Qonuning maqsadi axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunda axborot-kutubxona faoliyati sohasiga oid axborot-kutubxona resursi, axborot-kutubxona faoliyati, axborot-kutubxona fondi, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Shu jumladan, axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari, sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi, axborot-kutubxona muassasalarining turlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi[3] PQ-4354-son Qarori qabul qilingan bo'lib, qarorning maqsadi aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonini[4] 1 ilovasida keltirilgan 72-maqsadi aynan aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda 89-maqsadi fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, fuqarolarning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish va axborotlardan erkin foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda axborot-kutubxona tizimlarini isloh qilish hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biriga aylantirildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining milliy model standarti "Националный моделный стандарт деятелности информационно-библиотеchных ychреждений Узбекистана" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining 2019 yil 15 iyuldagi 286-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Mazkur Milliy model standartida Axborot kutubxona muassasalari ishining samaradorligi va sifatini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar, axborot-kutubxona makonini tashkil etish, axborot-kutubxona muassasalarini joylashtirish me'yorlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

▪axborot-kutubxona faoliyatini tartibga soluvchi milliy huquqiy-me’yoriy baza IFLA va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar va tavsiyalarga muvofiqlashtirilishi lozim;

▪kutubxona sohasi xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish zamonaviy axborot muhitida samarali faoliyat uchun muhimdir. Shu bois axborot huquqi, intellektual mulk, litsenziyalash va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohalarida ixtisoslashgan kadrlar uchun muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur;

▪raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish uchun ularni tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va huquqiy kuchga ega qilish tavsiya etiladi. Jumladan, raqamli axborot resurslaridan foydalanish, ularni saqlash va tarqatish hamda elektron kutubxonalar faoliyatini tartibga soluvchi aniq va kompleks me’yoriy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur;

▪huquqiy-me’yoriy hujjatlar ijrosining samarali nazoratini ta’minlash uchun monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir. Shuningdek, kutubxonalarda qonunchilikning amaliy tatbiqini baholashga qaratilgan maxsus indikatorlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish lozim;

▪xalqaro kutubxona uyushmalari bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish, tajriba almashinuvi va ilmiy tadbirlarni tashkil etish orqali milliy kutubxona tajribasining xalqaro maydonda boyitilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni

2.O‘zbekiston Respublikasining 13 aprel 2011 yildagi “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-280-son Qonuni

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son Qarori

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-con Farmoni

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH VA INSON QADRINI OSHIRISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

Beshimov Xamidjon Sayidovich,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson qadrini oshirishda kasaba uyushmalarining o‘rni va roli to‘g‘risida Buxoro viloyati misolidagi tahliliy ma’lumotlar asosida ijtimoiy, falsafiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda qonunlarni amalda joriy etish ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamiyat a’zolarining dunyoqarashini o‘zgaritrish orqali har bir insonning qadrini yuksaltirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kasaba uyushmalari, inson qadri, jamoatchilik nazorati, kasanachilik, o‘zini o‘zi band qilish, norasmiy sektor, huquqiy himoya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev rahbarligida mamlakatimizda xalqni rozi qilish, har bir insonning qadr-qimmatini yuksaltirish yo‘lida olib borilgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimiz dovrug‘i Yangi O‘zbekiston nomi bilan butun dunyoga taralmoqda.

Yangilanishlar jarayonida mamlakatimizdagi eng yirik jamoat tashkilotlaridan biri bo‘lgan kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda. Barcha sohalar kabi “Yangi O‘zbekiston”ning “Yangi kasaba uyushmalari” ham shakllandi va islohotlarning faol ishtirokchisi bo‘ldi.

“Barcha harakatlarimiz inson qadri uchun” shiori kasaba uyushmalari uchun haqiqiy dasturulamal bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2020-yil 11-noyabrda o‘tkazilgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining VIII-Qurultoyida Qurultoy qatnashchilariga ilk bor tabrik yo‘llab, ushbu tabrikda Qurultoy o‘tkazilayogan sana -11-noyabr kunini kasaba uyushmalari kuni deb belgilash taklifini kiritishi va mazkur taklifdan kelib chiqib, 2020-yil 23-noyabrda O‘RQ-648-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq “11-noyabr - O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni” etib belgilanishi kasaba uyushmalari tashkilotlariga o‘z faoliyatilarini yanada kuchaytirishga turtki bo‘ldi.

Yurtboshimiz Qurultoy delegatlariga yo‘llagan murojaatida, jumladan shunday degan edilar: “Jonajon O‘zbekistonimiz yangi Uyg‘onish va taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan, ana shu yuksak maqsad yo‘lida buyuk ishlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunda xalqimizni yanada katta marralar sari safarbar

etishda kasaba uyushmalarining roli va ta’siri tobora ortib bormoqda. Aminmanki, o‘z hayotini sharafli vazifaga – mehnat va mehnat egalarining huquqlari muhofazasiga bag‘ishlagan yurtdoshlarimiz har qanday yuksak hurmat va ehtiromga munosibdir. Sizlarning timsolingizda biz ana shunday jonkuyar va fidoyi insonlarni ko‘ramiz, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini yanada ishonchli ta’minlashda sizlarni davlat idoralarining yaqin hamkori va ko‘makchisi, deb bilamiz”. Bu iboralar kasaba uyushmalarining faoliyatiga munosib baho, deb o‘ylayman.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub’ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy,-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy,. ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning milliy manfaatlariga to‘lap javob beradigan ob’ektiv zaruratdir [1].

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan 2021-yilda tashkil etilgan Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bo‘yicha respublika komissiyasini tarkibida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini ta’minlash yo‘nalishida kasaba uyushmalari asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida ishtirok etib kelmoqdalar.

Ehtiyojmand xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, ularni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik ishini boshlash uchun kredit berish va ish bilan ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlarni davlat boshqaruvi organlari tomonidan bekamu-ko‘st amalga oshirilishi ustidan kasaba uyushmalari tomonidan faol jamoatchilik nazoratini olib borilmoqda.

O‘tgan besh yilda Respublika bo‘yicha “Ayollar daftari” tizimining 5 bosqichida jami 3 mln 511 ming 586 nafar xotin-qizlarning muammolari hal etildi va buning uchun jami 6 trln. so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi.

Kasaba uyushmasi faollari tomonidan uyma-uy yurib berilgan yordamlarning haqqoniyligi o‘rganildi. Muammolarni tegishli tashkilotlar, mahalliy hokimliklar orqali hal etish, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga berilgan yordamlarning monitoringini olib borildi.

Kasaba uyushmalari viloyatda xotin-qizlar o‘rtasida 2023-yilda jinoyatchilik va huquqbuzarlikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha jamoatchilik monitoringi o‘tkazildi.

Bu tadbirdan asl maqsad jinoyatchilik va huquqbuzarlik qilishga moyil bo‘lgan har bir xotin-qizning o‘z qadr-qimmatini yuksaltirish orqali jamiyatdagi o‘rnini topishida ko‘maklashish edi. Kasaba uyushmalari tomonidan tadbir davomida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil va shu toifadan jabr ko‘rgan 5399 nafar xotin-qizlar orasida jinoyatchilik, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha anketa-so‘rovnoma o‘tkazildi.

Anketa-so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 5399 nafar xotin-qizlardan 3641 nafarining yoki 63 foizining 5782 ta muammolari qayd etildi.

Anketa-so‘rovnoma natijalari asosida xotin-qizlar jinoyatchiligiga oid tahlillardan kelib chiqib, viloyatni “Xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikdan xoli hudud”ga aylantirish yuzasidan 2023 - 2024-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Viloyat dasturiga asosan jami 5782 ta muammodan, 5757 ta muammolar hal qilinib, xotin-qizlarga amaliy yordamlar ko‘rsatilib, dastur ijrosi 99,6 foizga bajarildi. Olib borilgan ishlar natijasida, viloyatda xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik 25 foizga kamayishga erishildi.

Kasaba uyushmalarining asosiy maqsad va vazifalaridan biri, bu xodimlarning mehnat huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat hisoblanadi.

Mamlakatimizda bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari ham ayni shunga -inson manfaatlarini ta’minlash, uning qadrini ko‘tarishga qaratilgan [2].

2020-yilda 6893 ta yuridik shaxsning 274 ming 539 nafar xodimi jamoa-shartnomaviy munosabatlar bilan qamrab olingan bo‘lsa, 2024-yilda 8355 ta korxona va tashkilotda ishlovchi 354 ming 290 nafar (99,8 foiz) xodimlari jamoa-shartnomaviy munosabatlar bilan qamrab olindi.

Shu bilan bir qatorda jamoa shartnomasi tadbirlarini bajarish uchun viloyat bo‘yicha o‘rta hisobda bir xodimga yil davomida sarflangan mablag‘ 2020-yilda 3,2 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 7,2 mln. so‘mni tashkil etdi. Bu jamoa shartnomalari orqali xodimlarning moddiy himoyalanishi 2 baravardan ziyod oshganligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat kasaba uyushmasi kengashi tomonidan ijtimoiy-mehnat sohasiga doir 270 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga taklif berildi. Birgina Yangi Konstitutsiya va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi loyihalariga 100ga yaqin taklif va mulohazalar bildirildi. Kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan jami 2175 ta korxona va tashkilotlarda ishlovchi 200 mingdan ziyod xodimlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.

Viloyat sudi va viloyat kasaba uyushmalari kengashi ish beruvchilari va ularning vakillari mehnat qonunchiligi bo‘yicha bilim va tajribalarini oshirish bo‘yicha 2025-yil yanvarda viloyat Kengashi katta majlislar zalida, fevral oyida Buxoro davlat universitetida jami 600 nafardan ortiq xodimlar mehnat masalalari bo‘yicha kasaba uyushmalari va sud organlarining malakali mutaxassislari tomonidan o‘qitildi.

Mehnat inspeksiyasining normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirib, ish beruvchilarga kiritilgan 88 ta ko‘rsatma asosida 500 nafar xodimning huquqlari tiklandi, 9,4 mlrd. so‘m haq undirib berilishi ta’minlandi.

Protsessual tartibda sud va prokuratura organlariga mutaxassis sifatida 73 ta xulosa berilib, 581 nafar xodimning huquqlari tiklandi va jami 1 mlrd. so‘m mablag‘ undirilishi ta’minlandi.

Keyingi besh yilda jismoniy va yuridik shaxslarning 831 ta murojaatlari ko‘rib chiqildi, shundan 380 tasi qanoatlantirildi, 399 tasiga tushuntirish berildi, 26 tasi tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborildi.

Sudlarga 361 ta taqdimnoma kiritilib, qanoatlantirilishiga erishildi. Sudlarga kiritilgan 70 ta da’vo arizalaridan 66 tasi qanoatlantirildi. Natijada, 671 ta fuqaroning huquqlari tiklandi.

Kasaba uyushmalari tomonidan xodimlar uchun mehnat sharoitlarini yaratish, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun va qonunosti hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil qilish tizimli amalga oshirilmoqda. Hisobot davrida viloyat Kengashi tomonidan 194 ta korxona va tashkilotda mehnatni muhofaza qilish sohasida jamoatchilik nazorati o‘tkazilib, 2 ming 705 ta qonunbuzilish holatlari aniqlandi. Qonun buzilish holatlari yuzasidan ish beruvchilarga 194 ta taqdimnoma kiritilib, ularning 93 foizi bartaraf etishga erishildi.

Ishlab chiqarishda jarohat olgan xodimlar va boquvchisini yo‘qotgan oilalardan 292 nafariga huquqiy maslahatlar berildi. Xodimlar manfaatlari 68 marta sudlarda himoya qilinib, 2,5 mlrd. so‘m yetkazilgan zarar undirishga erishildi.

Korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan jamoa shartnomalarida ko‘zda tutilgan mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini bajarish uchun 2020-yilda 15,7 mlrd so‘m sarflangan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 29,4 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini bajarish uchun jami 114,9 mlrd so‘m ish beruvchilar mablag‘lari sarflandi. Bu esa har bir xodimga o‘rtacha sarflangan mablag‘ 1,1 mln so‘mni tashkil etdi. Ushbu mablag‘lar maxsus kiyim-bosh, maxsus poyafzal, shaxsiy himoya vositalari xarid qilish, xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sut mahsulotlari, davolash-profilaktika va oziq-ovqatlari berish va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun sarflandi. Mehnat muhofazasi masalasida kasaba uyushma faollarining bilim va malakalarini oshirish maqsadida viloyatdagi o‘quv markazlari bilan hamkorlikda tuman, shahar va yirik boshlang‘ich tashkilotlarda hisobot davrida 289 ta o‘quv tashkil etilib, ularga 13,4 ming nafar kasaba uyushmalari faollari va ish beruvchilar vakillari jalb etildi.

Mehnat muhofazasi bo‘yicha faoliyati namunali yo‘lga qo‘yilgan tashkilotlar o‘rtasida “Mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish” ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida 145 ta korxona, tashkilotlar ishtirok etgan bo‘lsa ularning 27 tasi Respublika miqyosida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Bosh kengashining *“O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi kasaba uyushmalari tashkilotlarida hisobot-saylovlarni o‘tkazish to‘g‘risida”*gi qaroriga asosan,

Fevral-aprel oylarida 2 ming 594 ta boshlang‘ich tashkilotning hisobot-saylov yig‘ilishlari (konferensiyalari) o‘tkazilib, mazkur yig‘ilishlarda korxonalarda faoliyat ko‘rsatayotgan 167 ming 705 nafar xodimlar ishtirok etdi.

Kasaba uyushmalari tomonidan xodimlar hamda ularning oila a’zolarining “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling!” dasturi doirasida diqqatga sazovor qadamjolarga, tarixiy shaharlarga, jamoa shartnomalari va tarmoq kelishuvlariga kiritish orqali sayohatlarini tashkil etish ishlari muvofiqlashtirib borildi. Respublikamizning tarixiy shaharlari, viloyatdagi tarixiy qadamjo va zamonaviy inshootlarga 2592 marta turli darajadagi sayohatlar tashkil etilib, 48691 nafari tarixiy shaharlarga, 56826 nafari viloyatimiz bo‘ylab sayohatlar tashkil etilib, jami 105517 nafar xodimlar va ularning oila a’zolari ishtirok etdilar.

Sport, sog‘lomlashtirish ishlari kasaba uyushmalari faoliyatining ajralmas qismi sifatida sport musobaqalarining asosiy tashkilotchisi hisoblanadi. Viloyat, tuman, shahar va boshlang‘ich kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan jami 3 ming 268 ta sport musobaqasi tashkil etilib, ularda 300 mingdan ortiq mehnatkashlar va ularning oila a’zolari jalb etildi.

Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan 2020-2025-yillar davomida turli mavzularda 4 ming 125 ta madaniy-ommaviy, dam olish va bayram tadbirlari o‘tkazilib, ularda 278 mingdan ortiq kasaba uyushma a’zolari ishtirok etdilar. Ularning 138 ming nafari ayollar, 166 ming nafarini yoshlar tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamiyatda har bir fuqaroning huquqiy savodxonligini oshirish, qonunchilik ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, pirovard natijada inson qadrini qaror topshirish fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun har bir korxona, tashkilotda kasaba uyushmasi boshlang‘ich tashkilotini tuzish, norasmiy sektorda band bo‘lgan xodimlarni rasmiy sektorga o‘tkazish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish jamiyatdagi ko‘pgina muammolarning hal bo‘lishiga olib keladi. Inson qadrini yuksaltirish orqali uning jamiyatdagi fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rnini mustahkamlash mumkin. Bu borada kasaba uyushmalari o‘ziga xos tajriba maktabi bo‘lib, bunday tajribalarni har bir sohada qo‘llash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” kitobi, 2021-yil, Toshkent.
3. Q.Rafikovning “Vatan va millat qayg‘usi” kitobi 2020-yil, Toshkent.
4. Q.Rafikovning “Mening prezidentim” kitobi 2023-yil, Toshkent
5. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 6-dekabr.

6. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025-yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
7. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025-yillardagi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar.

FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJIDA TIZIMLI YONDASHUVNING O’RNI

Zavqiddin Gadoyev,
O‘zDJTU, ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
(+998930055417 email:zavq0801@gmail.com)

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi turli ijtimoiy jarayonlarni tizimli tarzda tashkil etilishiga bog‘liq. Maqolada inson va jamiyat faoliyatining iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy sohalarini bir-biriga bo’lgan bog’liqligini asoslab, o’ziga xos tushuntirish bergan sotsiolog olimning yaratgan tizim nazariyasi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: tizimli yondashuv, fuqarolik jamiyati, tizimli tahlil, jamiyat barqarorligi, qadriyat va me’yorlar

Kirish. XX asrda ijtimoiy fanlarda yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi. Ulardan eng salmoqlilaridan biri – amerikalik yirik sotsiolog Talkott Parsonsning (1902–1979) tizim nazariyasidir. Parsons sotsiologiyada funksionalizm yo‘nalishini takomillashtirdi va jamiyatni bir butun tizim sifatida tahlil qilishga asos soldi. [1] Uning nazariyasi jamiyat barqarorligi va uyg‘unligini ta’minlaydigan omillarni tushuntirishga qaratilgan. Talkott Parsons 1902 yilda AQSHning Kolorado shtatida tug‘ilgan. U ilk ta’limni gumanitar maktablarda olgan va keyinchalik sotsiologiyaga qiziqish bildirgan. Yevropaga safarlari chog‘ida Veber, Dyurkgeym va Pareto kabi yirik olimlarning asarlari bilan tanishib, ularning g‘oyalarini o‘z nazariyasida qo‘lladi. 1930-yillardan boshlab Garvard universitetida dars berdi va Amerika sotsiologiya maktabining asoschilaridan biri sifatida tanildi. Uning asosiy asarlaridan biri «The Social System» (1951 yilda yozilgan, «Ijtimoiy tizim nazariyasi») hisoblanadi. Parsons tadqiqotlarida tabiiy fanlar, ayniqsa biologiya va kibernetikadan ilhomlanganligini ko‘rish mumkin. U jamiyatni tirik organizm sifatida qarab, uning barqarorligini saqlash va sog‘lomlashtirish mexanizmlarini izohlashga harakat qildi. Parsons nazariyasiga ko‘ra ijtimoiy tizim turli unsurlardan iborat bo‘lib, ular bir-biriga bog‘liq va o‘zaro uzviylikda faoliyat yuritadi. Tizimdagi har bir bo‘g‘in o‘z faoliyati mobaynida bevosita tizimning boshqa bo‘g‘iniga ta’sir ko‘rsatadi. Nazariyaning maqsadi – jamiyatdagi barqarorlik va uyg‘unlikni qanday qilib ta’minlash mumkinligini tushuntirish iborat bo‘lgan.

Parsons ijtimoiy tizimni jamiyat va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlar yig‘indisi sifatida talqin qiladi. Bunda tizimdagi norma va qadriyatlar asosiy rol o‘ynaydi. Ular jamiyatdagi faoliyatni muvofiqlashtiradi, tartib va barqarorlikni ta’minlaydi. Ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi asosiy unsurlar – shaxs, institut, qadriyatlar va me’yorlardir. [2]

AGIL modeli. Parsonsning eng mashhur nazariy modellaridan biri – AGIL sxemasidir. U jamiyatning barqaror faoliyat yuritishi uchun to‘rtta asosiy funksiyani belgilaydi:

1) Adaptation (Moslashuv) – tizim tashqi muhitga moslashishi va resurslardan foydalanishi lozim;

2) Goal Attainment (Maqsad qo‘yish) – tizim o‘z oldiga maqsad qo‘yib, unga erishishi kerak;

3) Integration (Integratsiya) – tizim unsurlari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash lozim;

4) Latent Pattern Maintenance (Qadriyatlarni saqlash) – tizim o‘z qadriyat va me’yorlarini asrab qolishi kerak.

AGIL modeli jamiyatning to‘liq ishlashi uchun zarur bo‘lgan strukturaviy va funksiyanollikni tushuntirib beruvchi nazariy asos hisoblanadi. Parsons jamiyatdagi ijtimoiy institutlarni AGIL funksiyalari asosida izohladi. Masalan:

- Oila – qadriyat va me’yorlarni saqlaydi (L funksiyasi).
- Iqtisodiy tizim – resurslardan foydalanib, moslashuvni ta’minlaydi (A funksiyasi).
- Siyosiy tizim – maqsad qo‘yish va ularga erishish bilan shug‘ullanadi (G funksiyasi).
- Huquq va din – jamiyatda uyg‘unlikni ta’minlaydi (I funksiyasi).

Shu tariqa, har bir ijtimoiy institut muayyan vazifani bajaradi va tizimning barqarorligini ta’minlaydi.

Parsons nazariyasining kuchli jihatlari quyidagilardan iborat:

1.Jamiyatni kompleks tizim sifatida tushuntirib bergan

2.Institutlar va shaxslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olgan

3.Jamiyatdagi barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydigan omillarni izohlagan

4.Sotsiologiyada funksional tahlilni o‘rnini mustahkamlashda hissa qo‘shgan.

Parsonsning tizim nazariyasi keyinchalik ko‘plab tanqidlarga ham uchradi. Markaziy tanqidchilardan biri Yurgen Xabermas bo‘lib, u Parsons nazariyasi jamiyatdagi kuch va hokimiyat munosabatlarini kam yoritadi, deb baholaydi. [3] Parsons nazariyasining asosiy kamchiliklari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. Ortiqcha abstraktlik – nazariyannig amaliyotda qo‘llash murakkabligi
2. Ijtimoiy o‘zgarishlarni yetarlicha izohlamasligi
3. Ziddiyat va adolatsizlikka yetarli e’tibor qaratmasligi.

Parsonsning g‘oyalari keyinchalik Niklas Luman, Robert Merton va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Luman ijtimoiy tizim nazariyasini kommunikatsiyaga asoslab qayta ishlab chiqdi. Merton esa funksionalizmda «o‘rta darajadagi nazariyalar» konsepsiyasini ilgari surdi. Shu tariqa, Parsons nazariyasi sotsiologiyada yangi tadqiqotlarga zamin yaratdi. Talkott Parsonsning tizim nazariyasi sotsiologiya tarixida muhim ahamiyatga egadir. U jamiyatni bir butun tizim sifatida tahlil qilib, uning barqarorligi va uyg‘unligini ta’minlaydigan funksiyalarni ilmiy asoslab berdi. AGIL modeli esa ijtimoiy tizimlarning ishlash mexanizmlarini tushunishda nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, nazariya ortiqcha abstraktligi va tanqidlarga qaramay, hali ham ijtimoiy fanlarda muhim o‘ringa ega.

Xulosa. O‘zbekistondagi ijtimoiy va iqtisodiy tizimni rivojlantirish bugungi kunda strategik ahamiyatga ega masalalardan biridir. Tizimnı rıvojlantırısh mamlakatning barqaror o‘sishi, aholi farovonligi va milliy raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki bugungi yangi O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni tizimli ravishda o‘rganishda va kerakli tavsiyalar berishda T.Parsons nazariyasi muhim ahamiyat kasb eta olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Parsons T. The Social System. –Glencoe: Free Press, 1951.

2. Parsons T. Toward a General Theory of Action. –Harvard University Press, 1951.

3. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. –М.: Наука, 2000.

4. Гидденс Э. Социология. –М.: Эдиториал УРСС, 2005.

5. Луман Н. Общество как социальная система. –М.: Логос, 2004.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARIGA TA’SIRI

Mirzaaliyeva Aziza,
O’ZDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish omillari hamda ularning yangi ishtirok shakllari yoritilgan. Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti asosida sun’iy intellektning fuqarolik institutlari faoliyatiga ko‘rsatayotgan ta’siri baholangan. Shuningdek, maqolada fuqarolik jamiyati va raqamli boshqaruv integratsiyasini chuqurlashtirish hamda “Raqamli jamoatchilik nazorati platformasi”ni joriy etish bo‘yicha konseptual

takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, raqamli transformatsiya, ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya, jamoatchilik nazorati, elektron hukumat, ochiq ma’lumotlar tizimi, fuqarolik faolligi, demokratik boshqaruv, raqamli fuqarolik, raqamli jamoatchilik nazorati platformasi.

Kirish. Siyosiy jarayonlarda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston sharoitida bu jarayon “inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan siyosiy modernizatsiya kursi bilan bevosita bog‘liqdir.“Biz raqamli texnologiyalar bilan ajablanarli darajada progress bosib o‘tayotgan davrda yashayapmiz … Biz ikkinchi mashina asriga kirib borayapmiz."[1]

So‘nggi yillarda mamlakatda “Elektron hukumat”, “Ochiq budjet”, “Mening fikrim”, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” kabi platformalar orqali fuqarolarning davlat siyosatida bevosita ishtiroki uchun yangi mexanizmlar yaratildi.“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklarining 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020-yilda va 2021-yil I choragi yakuniga qadar raqamli transformatsiya qilish loyihalarini maktabgacha va sog‘liqni saqlash muassasalarini raqamlashtirishni yakunlash bo‘yicha choralar ko‘rish …”[2] kabi masalalar dolzarb hisoblanmoqda.Ularning ijrosi ham nazorat qilinmoqda : “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[3] gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son qaror buning yaqqol isbotidir. Shu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari jamoatchilik murojaatlarini avtomatik tahlil qilish, fuqarolarning ehtiyoj va muammolarini aniqlash, hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga oid katta ma’lumotlar (big data)ni qayta ishlash orqali davlat qarorlarini asoslashda muhim vositaga aylanmoqda. Masalan, AI asosidagi sentiment-tahlil (jamiyat kayfiyatini o‘lchash), algoritmik prognozlash va so‘rov natijalarini intellektual tahlil qilish kabi vositalar siyosiy boshqaruvda yangicha yondashuvni shakllantirmoqda.

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy tizimdagi o‘rni va funksiyalari tahlil qilinadi, ularning raqamli transformatsiya sharoitidagi yangilanishi, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining fuqarolik faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ijtimoiy-siyosiy boshqaruvda ochiqlikni ta’minlashdagi roli aniq misollar asosida yoritiladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar jamiyatning barcha qatlamlarida fuqarolik faolligini oshirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan. Bu yo‘nalishda bir qator raqamli tashabbuslar mamlakatda yangi

siyosiy madaniyatni shakllantirmoqda.

Masalan, “Elektron parlament” tizimi qonunchilik jarayonida fuqarolarning bevosita ishtirokini ta’minlashga xizmat qilmoqda. U orqali aholiga qonun loyihalari bilan tanishish, taklif bildirish va ularni onlayn tarzda muhokama qilish imkoniyati yaratilgan. Bu jarayon parlament faoliyatini shaffoflashtiradi va fuqarolarning siyosiy ongini mustahkamlaydi.

“Ochiq budjet” platformasi esa davlat moliyasining sarflanishida jamoatchilik nazoratini kuchaytiruvchi vosita bo‘lib, unda fuqarolar mahalliy byudjet mablag‘larining taqsimlanishini ko‘rib chiqadi, ovoz beradi va o‘z hududining ustuvor ehtiyojlarini belgilashda ishtirok etadi. Natijada fuqarolik jamiyati moliyaviy ochiqlik orqali ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiruvchi subyekt sifatida maydonga chiqmoqda.

Shuningdek, “Mening fikrim” portali fuqarolarga normativ-huquqiy tashabbus bilan chiqish imkonini berib, davlat siyosatini “pastdan yuqoriga” yo‘nalishda shakllantirishning amaliy ko‘rinishiga aylangan. Bu platforma jamoaviy murojaatlarni yig‘ish, ularni elektron tahlil qilish va hukumat darajasiga yetkazish orqali fuqarolik faolligining real mexanizmini yaratdi.

Eng asosiy jihati shundaki, sun’iy intellektning fuqarolik jamiyatiga ta’sirini quyidagi yo‘nalishda ko’rib chiqishimiz mumkin:

1.Axborot oqimini demokratlashtirish. Sun’iy intellekt zamonaviy fuqarolik jamiyatida axborotning faqat hukumat yoki yirik media tuzilmalari tomonidan boshqarilmasligini ta’minlaydi. AI algoritmlari orqali ijtimoiy tarmoqlardagi millionlab post, izoh va fikrlarni semantik tahlil qilish natijasida fuqarolarning umumiy kayfiyati, muammolari va talablarini aniqlash mumkin bo‘lmoqda. Masalan, O‘zbekistonda “Mening fikrim” platformasida joylashtirilgan murojaatlarning tahlilini sun’iy intellekt yordamida amalga oshirish, takroriy yoki bir-biriga o‘xshash mavzularni avtomatik guruhlash imkonini beradi.

Bu esa tahlilchilarning o‘rnini bosmay, balki ularning faoliyatini kuchaytiradi: endilikda siyosatshunoslar, sotsiologlar yoki deputatlar millionlab fikrlar orasidan real muammolarni tezda aniqlab, siyosiy qarorlarni dalillangan ma’lumotlar asosida shakllantira oladi. Shu tarzda sun’iy intellekt fuqarolik jamiyatining “raqamli ovozini” kuchaytiruvchi mexanizmga aylanadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida “EU Voices AI” loyihasi jamoatchilik fikrini raqamli kuzatish orqali siyosiy qarorlar qabul qilishda axborot asosli yondashuvni yo‘lga qo‘ydi — O‘zbekiston ham shunga o‘xshash modelni sinov tariqasida tatbiq etmoqda.

Sun’iy intellekt ko’plab sohalar kabi jamoatchilikni nazorat qilish bosqichida ham hukumatga juda qo’l kelishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda sun’iy intellekt asosida “Raqamli Jamoatchilik Nazorati Platformasi”ni joriy etish bo’yicha tavsiya kiritiladi. O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektni

fuqarolik jamiyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan tarzda tatbiq etish uchun eng istiqbolli yo‘nalish — bu jamoatchilik nazorati tizimini raqamli va intellektual shaklga o‘tkazishdir. Shu maqsadda “Raqamli Jamoatchilik Nazorati Platformasi” (RJNP) loyihasini yaratish taklif etiladi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida fuqarolik jamiyatining kuchi nafaqat ijtimoiy faollikda, balki axborotdan ongli foydalanish, tahlil qilish va uni ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘naltira olish salohiyatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosiy islohotlar aynan shu jarayonni tezlashtirib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytiruvchi yangi mexanizmlarni yaratdi. “Elektron parlament”, “Ochiq budjet” va “Mening fikrim” kabi tashabbuslar davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirgan bo‘lsa, ularning samaradorligi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va qayta ishlash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu nuqtada sun’iy intellekt texnologiyalari fuqarolik jamiyati uchun yangi strategik resursga aylanmoqda. Sun’iy intellektning fuqarolik jarayonlariga ta’siri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: axborot oqimini demokratlashtirish, jamoatchilik nazoratini avtomatlashtirish va fuqarolik ongining intellektual transformatsiyasi. Ushbu yo‘nalishlar jamiyatda shaffoflik, ishonch va tahliliy fikrlash madaniyatini shakllantiradi. AI fuqarolik jamiyatini faqat norozilik bildiruvchi emas, balki yechim taklif qila oladigan ongli subyektlar tizimiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. –New York: W. W. Norton & Company, 2014.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ–6079-son Qarori. 2020-yil 5-oktabr.

3. https://lex.uz/docs/-7158604

SUN’IY INTELLEKT: FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISH DRAYVERI SIFATIDA

Rustamov A,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchalarining mohiyati, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt fuqarolik jamiyati inson erkinligi, huquqiy tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan

ijtimoiy tizim sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning o‘zaro uyg‘unligi demokratik boshqaruvning mustahkam poydevorini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, erkinlik, huquqiy ong, demokratiya, davlat suvereniteti, jamoat birlashmalari, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, ijtimoiy tizim, sun’iy intellekt.

Kirish. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat tushunchalari XIX asrda shakllanib, inson hayoti hamda faoliyatining ikki asosiy yo‘nalishini – shaxsiy manfaatlar asosidagi erkin tashabbus bilan davlat hokimiyati irodasiga bo‘ysunuvchi ijtimoiy boshqaruv tizimini ifodalovchi konseptual tamoyillarni o‘zida mujassam etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan hokimiyatning oqilona va adolatli faoliyat yuritishini, shaxs erkinligi va farovonligini ta’minlashni, huquq ustuvorligini, shuningdek, qonun bilan davlat hokimiyati o‘rtasidagi muvozanatni kafolatlaydigan ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida talqin etiladi. Huquqiy davlat esa, o‘z navbatida, fuqarolik jamiyatining rivojlanish mahsuli bo‘lib, uning takomillashuvini ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlatning shakllanish jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon fuqarolik jamiyati taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri natijasida demokratik boshqaruvning huquqiy poydevori mustahkamlanadi. Davlat suverenligi mamlakat ichida – barcha fuqarolar hamda jamoat tashkilotlari ustidan o‘z ustuvorligini ta’minlash, tashqi maydonda esa – mustaqil tashqi siyosat yuritish, xalqaro munosabatlarda teng huquqli subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi. Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlatni shakllantirish mumkin emas. Chunki faqat ongli, erkin va mas’uliyatli fuqarolargina jamiyatning mukammal va barqaror boshqaruv tizimini yaratishga qodirdirlar. Shu sababli fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat hokimiyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi, ularning o‘zaro hamkorligini tartibga soluvchi vositachi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Davlatning asosiy vazifasi – jamiyatda ijtimoiy tanglik, beqarorlik va inqiroz holatlarining oldini olish, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy davlat deganda, o‘z faoliyatini faqat qonun normalari asosida va ularning doirasida olib boruvchi, qonunlarni buzish yoki cheklashga yo‘l qo‘ymaydigan hamda insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini e’tirof etuvchi davlat tizimi tushuniladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat tarixining ma’lum bir bosqichida, xususan, Yevropa mamlakatlarida XVIII–XIX asrlar davrida shakllanib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha

dastlab falsafiy va siyosiy tafakkurda paydo bo‘lib, insonning shaxsiy manfaatlari, erkinligi va ijtimoiy faolligini davlat hokimiyati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirish g‘oyasiga asoslangan. Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni jamiyat a’zolarining huquqiy ongi, siyosiy madaniyati va mustaqil fikrlash salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi, avvalo, shaxsning erkinligini tan olish, uning tabiiy huquqlarini himoya qilish, shuningdek, davlatning fuqarolarga nisbatan cheklanmagan hokimiyatini huquqiy me’yorlar bilan tartibga solish zarurati natijasida yuzaga kelgan. Bu jarayon jamiyatda huquq ustuvorligi, qonun oldida tenglik, shaxs manfaatlarini himoya qilish kabi demokratik tamoyillarning qaror topishiga turtki bo‘lgan.

Tarixiy nuqtayi nazardan, fuqarolik jamiyati G. Gegel, J. Lokk, Sh. Monteske, I. Kant, J.-J. Russo kabi mutafakkirlarning nazariy qarashlarida chuqur tahlil etilgan. Ularning ta’kidlashicha, fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo‘lgan, biroq u bilan o‘zaro aloqador ijtimoiy tizim bo‘lib, unda inson erkinligi, huquqiy tenglik va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, fuqarolik jamiyatining shakllanishi davlatning demokratlashuvi, iqtisodiy erkinlikning kengayishi hamda jamoatchilik institutlarining faollashuvi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuni ta’kidlash lozimki, fuqarolik jamiyati nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa ijtimoiy institutlar faoliyati orqali ifodalanadi. Ularning samarali faoliyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi, ularni davlat boshqaruvida ishtirok etishga undaydi va shu orqali jamiyatda ochiqlik, shaffoflik hamda mas’uliyatli boshqaruv tamoyillarini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati shakllanishi – bu jamiyatning huquqiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanish jarayonidir. Fuqarolik jamiyati demokratik qadriyatlarning qaror topishiga, shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga hamda davlat va jamiyat o‘rtasida muvozanatli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida insoniyat hayotining barcha jabhalariga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotida fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi ham muhim o‘rin tutmoqda. Fuqarolik jamiyati va sun’iy intellekt o‘zaro aloqador bo‘lgan, bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy hodisalardir. Ularning uyg‘unligi jamiyatning barqaror taraqqiyoti va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt — bu inson aql-zakovati faoliyatini modellashtiruvchi, mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan

texnologiyalar majmuasidir. U raqamli iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport, xavfsizlik va boshqaruv sohalarida keng qo‘llanmoqda.

Bugungi kunda SI nafaqat texnik vosita, balki ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning yangi vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Davlat idoralarining faoliyatini raqamlashtirish, ochiq ma’lumotlar bazalarini yaratish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi jarayonlar sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati va sun’iy intellekt o‘rtasidagi munosabat ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: ijobiy jihatlariga to’xtaladigan bo’lsak u quyidagilardan iborat

Birinchidan, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish: SI asosida yaratilgan elektron hukumat tizimlari davlat idoralarining faoliyatini ochiq va nazorat qilinadigan shaklga keltiradi.

Ikkinchidan, fuqarolik faolligini oshirish: Sun’iy intellekt fuqarolarning onlayn ishtirokini kengaytiradi, ularning fikrini tahlil qiladi va ijtimoiy muammolarni tezroq aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, axborotga erkin kirish: Raqamli platformalar orqali fuqarolar qonunlar, qarorlar, byudjet ma’lumotlari bilan tanishib, o‘z fikrini bildirish imkoniga ega bo‘ladi.

Salbiy jihatlar:

Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlar xavfi: SI tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlaydi, bu esa maxfiylik va shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid tug‘diradi.

Ikkinchidan, nazorat mexanizmlarining kuchayishi: Ba’zi holatlarda sun’iy intellekt texnologiyalari insonlarni kuzatish, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali demokratik qadriyatlarga putur yetkazishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy tengsizlik xavfi: Texnologiyalardan foydalana olmaslik ayrim guruhlarning jamiyat hayotidan chetda qolishiga olib keladi.

Xulosa. Fuqarolik jamiyati va sun’iy intellektning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy taraqqiyotning ajralmas qismidir. Sun’iy intellekt insoniyatga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, biroq uni to‘g‘ri boshqarish, etik va huquqiy me’yorlarga amal qilish muhimdir. Fuqarolik jamiyati esa sun’iy intellektning inson manfaatlariga xizmat qilishini, texnologiyaning emas, balki insonning qadri ustuvor bo‘lishini ta’minlaydigan mexanizm sifatida harakat qiladi. Shunday qilib, O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt va fuqarolik jamiyati o‘zaro uyg‘un rivojlanib, davlat boshqaruvi ochiqligi, inson huquqlarining himoyasi va jamiyatning raqamli madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
2. Jalilov A boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
3. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi.
4. O‘tamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha vaatamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
5. Гегель Г.В.Ф. Философия права/ Пер. Б.Г.Стольфера, М.И.Левиной; Сост. Д.А.Керимов, В.С. Нерсесянс. –М.: Мысль, 1990.
6. Гоббс Т. Левиафан или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. –М.: «Образцовая», 1936.

AMIR TEMUR DAVLATCHILIK TIZIMIDA FUQAROLIK JAMIYATI VA IJTIMOIY-SIYOSIY MUNOSABATLAR TALQINI

Tog‘ayeva Dilnoza Miraxmatovna,
O’zDJTU tayanch doktorant

Annotatsiya: Sohibqiron Amir Temur tashkil qilgan davlatIning boshqaruv tizimi va undagi fuqarolik jamiyatida diniy va huquqiy normalarning shakillanish omillari bugungi kun miqyosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, diniy huquqiy omillar, adolat tamoyili, davlatchilik modeli, “Tuzuklar”, siyosiy strategiya.

Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatini to‘laligicha o‘rganish, tahlil qilish yurtimiz siyosatida, eng muhim dolzarb masaladir. Chunki, Amir Temur yurtimizning asl farzandi o‘laroq shuhrat qozongan podshoh hisoblanadi. O‘z–o‘zidan “Sohibqiron Amir Temur qaysi omillarga suyangan holda bunday saltanat qurish nasib etdi, ekan?” degan savol paydo bo‘ladi. Ma’lumki, podshoh bilan fuqaro orasidagi mustahkam aloqa va hamkorlik fuqarolik jamiyatining shakillantirish uchun mukammal ishlangan dasturi amal, strategiya lozim. O‘z fuqarolarining mehru–muhabbatini qozongan, ularning hurmat va e’zoziga sazovor bo‘lgan strategik podshohgina mustahkam va har tomonlama rivojlangan, qudratli saltanat qurishi mumkin. Shu bois, Amir Temur (1336–1405) — o‘rta asrlar Sharq tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan yirik sarkarda, siyosiy arbobdir. U barpo etgan Temuriylar davlati nafaqat harbiy kuchga tayanib, balki kuchli markazlashgan boshqaruv, qonun ustuvorligi va ijtimoiy-iqtisodiy tartibga asoslangan haqiqiy fuqarolik davlati edi. Uning siyosiy faoliyati, adolatga asoslangan boshqaruvi va kuchli qonunchilik tizimi o‘z davrida mislsiz bo‘lgan. Amir Temur davlatini bevosita adolat, qonun va

intizomga tayangan holda boshqargan. U “Tuzuklar” nomli asarida boshqaruv tamoyillarini ochiqlab bergan. Ushbu tamoyillar quyidagilarga asoslangan:

Adolat va qonun ustuvorligi – Temur har qanday hukmdor faqat adolatli bo‘lsa, xalq uni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlagan;

Tartibli boshqaruv tizimi – Amir Temur davlat boshqaruvida markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Har bir viloyat va shahar uchun alohida vakillarga tayinlab, ularning faoliyatini qat’iy nazorat ostida ushlagan;

Huquqiy asoslar va “Tuzuklar” – “Temur tuzuklari”da Amir Temur davlati qanday boshqarganini, qanday qonun va tartib-qoidalarni o‘rnatganini bayon qiluvchi muhim manbadir. Bu tuzuklarda harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’muriy boshqaruv masalalari aniq belgilab berilgan;

Ijtimoiy va iqtisodiy siyosati – Temur o‘z davlatining iqtisodiy barqarorligini ta’minlagan. Savdo yo‘llarini himoya qilgan, karvonsaroylar va bozorlarga sharoit yaratgan. Hunarmandchilik va dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlagan, aholini doimiy yashash joylariga joylashtirib, ularni ishlab chiqarishga jalb qilgan. Soliq tizimini tartibga solgan, har bir kishi imkoniyatiga qarab soliq to‘lagan. Bu bilan Amir Temur davlatning asosiy poydevori bo‘lgan — fuqarolik jamiyatida xalq farovonligini ta’minlashga intilgan;

Markazlashgan kuchli davlat modeli – Amir Temur yirik imperiya barpo qilgan bo‘lsa-da, bu imperiya beqaror urushlar emas, balki kuchli siyosiy boshqaruv tizimi orqali birlashtirilgan edi. U harbiy yurishlardan keyin har doim hududlarda mahalliy boshqaruvni tiklagan, mahalliy xalq bilan maslahatlashgan, ilm-fan, madaniyat va din sohalariga e’tibor bergan. Bu orqali u mustahkam fuqarolik jamiyatning poydevorini qo‘ygan. Sohibqiron Amir Temur davlatchilik modelida birgina din masalasida mukammalikni afzal ko‘radi va fuqarolar va amaldorlar o‘rtasida ham bu munosabatlarga jiddiy e’tibor qaratadi. Jumladan, “Amir Temur va uning jamiyatdagi islomiy aloqalari doimo hurmatga sazovar bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur islom dinini faqat shaxs bilan Alloh orasidagi yashirin aloqa deb qaramagan. Balki, u islom dini ijtimoiy aloqalarda hamma narsadan ustun turish lozim ekanligini yaxshi tushingan. Shuning uchun u o‘z yaqinlarini, fuqarolarini doimo islomni o‘rganishga, unga amal qilishga chaqirar edi” [1]. Amir Temurning jamiyat va fuqarolar bilan aloqasining asosiy qismi ulamolar orqali bo‘lar edi. U zod ulamolarni haddan ziyod hurmat qilar edi. Sohibqiron ilm ahli va ulamolarni qadirlar edi. Birgin misol keltirilganda, “Firdavsiyning “Shohnoma” asarini o‘qib uning yurtiga borganda qarovsiz qolib ketgan qabrni izlab topib ziyorat qiladi va obodonlashtiradi. Amir Temur islom dinini hamma dinlar va tuzumlardan ustun ekanligiga to‘la ishongan muxlis inson edi” [2]. Amir Temur barcha dinlarga hurmat ehtirom qilgan bo‘lsa-da, islom dinini saltanatining arkoni hisoblagan. Chunonchi, Amir Temur hukumronlik qilgan mintaqada islom arkonlarini targ‘ib qilgan.

Amir Temur: “Davlat va saltanatimga bog‘langan birinchi tuzugim – Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim” desa, boshqa o‘rinda “Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim. Saltanatim binosini dini islom va tuzuk asosida mustahkamladim. O‘z saltanatimni shariat bilan bezadim” [3] deydi. Sohibqiron Amir Temur barpo etgan saltanatida doimo adolat tarozisini o‘rnatgan va unga monand ish ko‘rgan. Shu tariqa, Amir Temur (1386–1404) – Oltin O‘rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindiston yerlariga uch yillik, besh yillik va yetti yillik harbiy yurishlarni amalga oshirar ekan albatta islom dini va uning arkonlariga itoat yetgan tarzda amalga oshirgan. Bu yurishlar, shubhasiz, murosasiz va shiddatli tarzda olib borilgan[4]. Bu makonlarda islom omiliga bo‘lgan munosabatlarni doimiy nazarda tutgan. Natija o‘laroq, bu davlatlarda doimiy siyosiy, diniy munosabatlarda o‘zgarishlar yuzaga kelib turgan.

Tadqiqotchi K.S.Gadjiyev shunday deydi: “Tarixdan ma’lumki, hamma davrlarda barcha urushlar g‘oyaviy xarakterga ega bo‘lgan. Chunki, tomonlarning har biri hayot tarziga va o‘z dushmanining qadriyatlariga tajovuz qilish orqali ustunlikka erishgan” [5]deb ta’kidlaydi.

Yuqoridagi siyosiy vaziyat holisona baholansa, o‘sha davrning ruhiga hamda siyosiy manzarasiga xos keladi.

Siyosatshunos olim V.Kvint tahlilida qo‘yidagicha tafsirlaydi Amir Temurning strategik yetakchiligi: “Tuzuklar”ga izohlar kitobida Sohibqiron bobomiz Amir Temurni “dinni tarqatuvchi” maqomi bilan e’zozlagan:

Birinchidan, islom olamini birlashtirish;

Ikkinchidan, yangi hududlar aholisini Muhammad alayhissalomning ummatiga aylantirish yo‘lidagi missiyasi[6]. Bu esa, Amir Temur fuqarolik davlatini boshqarishda islom dini homiysi, posboni va qahramoni bo‘lganini anglatadi.

“Tuzuklar”da keltirilgan jumlalarga ko‘ra: “O‘z tajribamdan ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosda qurilmas, to‘ra –tuzukk bog‘lanmas ekan, undan saltanatning shukug‘i, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalong‘och odamga o‘xshaydir-kim ko‘rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi” siyosatshunos V. Kvint izohlariga ko‘ra: Amir Temur din masalalariga o‘lkan ahamiyat berib, mohiyatan uni ko‘p jihatdan diniy mafkura deb biladi. U o‘zining bepayon hududlarini Islom arkonlaridan kelib chiqadigan qadriyatlarning yagona tizimi ostida, aholining haq – huquqlari mushtarak strategik manfaatlari asosida birlashtiradi. Haqiqiy strateg diniy muhit ham madaniy muhit ham strategiyaning muvaffaqiyatiga ko‘p jihatdan hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishni, din va madaniyatning o‘zi va ularni to‘g‘ri tushunish esa – potensial strategik muvaffaqiyatning muhim omili ekanlgini tushinish lozim [7] deb tahlil qiladi.

Amir Temurning olib borgan siyosatini bugun Yanigi O‘zbekiton siyosiy

hayotida ham namunalarini guvohi bo‘lamiz. Negaki, Yangi O‘zbekiston ijtimoiy hayotida diniy erkinlk va islom dining milliy qadiryat bayramlari keng ko‘lamda nishonlanadi. Darvoqe, Qurbon va Ramozon hayitlarida davlat rahbari tomonidan rasman bayram deb e’lon qilinadi. Shu asnoda, davlat amaldorlar, budjet tashkilotlarida faoliyat olib boradigan fuqorolariga dam olish kunlari e’lon qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarixiy jarayondan andoza olinib fuqarolik jamiyatini adolatli boshqarayotganligini va ajdodlar merosini davomiyligini ta’minlanayotgani ayni haqiqatdir. Binobarin, Amir Temurning eng oliy fazilat sifatida e’tirof etilgan dinlararo bag‘rikenglik xislati aynan bugungi kunda yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ham imkoniyat ochib bermoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda 138 dan ortiq millat vakillari va turli xil dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar doimiy tinch-totuvlikda yashaydi. Baxtimiz qomusi Konstitutsiyamizning 4 va 8-moddasiga nazar solsak, Sohibqiron bobomizning “Tuzuklari”da keltirilgan qonun-qoidalar namunasi sezilib turadi. “Yangi O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar”, deyilgan modda o‘z kuchi va mavqyiga ega. Darvoqe, Amir Temur “Tuzuklari”ga e’tibor bersak, unda ham xuddi shunday g‘oya mavjudligini ko‘ramiz. Masalan “Har bir o‘lka va shahar aholisining dini, urfidan qat’i nazar atrof ulug‘lari va buzruklari bilan oshna tutindim”, “Men o‘z saltanatimni dini islom, tura va tuzuk asosida mustahkamladim” deyilgan. Shulardan xulosa qilib aytish joizki, Amir Temur “Tuzuklari” sarchashmasidan bahramand bo‘la olish uni hayot va turmushga tatbiq etish g‘oyat ulug‘ vazifadir. Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki o‘z davrining ilg‘or davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirgan. Uning qurgan davlati harbiy kuchga emas, balki qonun, adolat, ijtimoiy barqarorlik va xalq manfaati asosida qurilgan edi. Shuning uchun ham uni fuqarolik davlatining asoschisi sifatida e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Marsel Brion. Menkim Sohibqiron –jahongir Temur. Tarjimonlar: F. Ro‘ziyev, F.Tilovatov. –Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2021. 35 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Amir Temur va islomiy hukm. Maqola. https://old.islamonline.uz/index.php/item/7009-amir-temur-va-islomiy-hukm.
3. Kvint V. Amir Temurning strategik yetakchiligi: “Tuzuklar”ga izohlar. Tashkent. Sankt-Peterburg, 2021.61, 62, 63, b.
4. Alimardonov T.T. Amir Temur imperiyasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2021. - 199 b.
5. Гаджиев, К.С. Введение в политическую философию: учебное пособие / –Москва.: Логос, 2011. – 405 с.

FUQAROLIK JAMIYATI INSONIYAT TARAQQIYOTINING – YUQORI BOSQICHI

Humoyiddin Yoqubov,
O’zDJTU tayanch doktoranti
humoyiddin9597@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyati, uning shakllanish jarayoni va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Muallif fuqarolik jamiyatini inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, demokratik qadriyatlarni qaror toptiruvchi ijtimoiy institutlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqolada fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining eng yuksak bosqichi ekani asoslab beriladi. Tarixiy va zamonaviy misollar orqali fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishdagi ahamiyati yoritiladi. Xulosa qismida esa O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, demokratik qadriyatlar, taraqqiyot, ijtimoiy institutlar, erkinlik, jamiyat rivoji, O‘zbekiston, fuqarolik faolligi, huquqiy davlat.

G‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishiningo‘ziga xos xususiyatlari. Fuqarolik jamiyati bir vaqtning o‘zida muayyan g‘oya vamafkura, aniq asosga ega bo‘lgan voqelikni qamrab olmasada uning amaliyxarakteri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki bunday o‘z-o‘zini institutsional boshqaruv shakli bir tomondan, shaxsiy erkinlik, o‘zaromunosabatning turi va predmetini erkin tanlashga imkon beruvchi ijtimoiy munosabatlarning aniq sohasi va qizqishlarni sub’ektiv qondirish usuli sifatidatalqin qilinsa, boshqa tomondan, yuzaga kelgan aniq voqea-hodisaga o‘ziga xos ―kuchli va mustaqil shaxs nuqtai nazaridan yondoshish imkonini beruvchi ijtimoiytizim sifatida rivojlanib boradi. Masalan, AQShda fuqarolik jamiyatining dastlabki rasmiy institutlari diniy uyushmalar, maktablar va turar joyi bo‘yicha havfsizlik vatartibni ta’minlovchi ijtimoiy guruhlar sifatida faoliyat olib borgan. G‘arbiyYevropada esa bundan farqli ravishda fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiysohada o‘z-o‘zini namoyon qilib, bu yangi va eski tipdagi, oldingi uyushmalar vakorporativ birlashmalar asosida tashkil topgan mustaqil bozor tashkilotlari sifatidafaoliyat yuritgan.

Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlarining o‘ziga xos faoliyati gildiyada o‘z aksini topib, o‘z vaqtida hunarmand va savdogarlarning o‘z-o‘zini himoya qilish va shaharlarni boshqarishga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazishningdastlabki shakli sifatida qaror topgan. O‘z navbatida Yevropaning Florensiya, Paduya va boshqa shaharlari o‘zini gildiya shahar (townsmen) sifatidashakllantirgan. Hozirgi davrda rivojlangan G‘arb davlatlarida faoliyat

olib borayotganfuqarolik jamiyati institutlari demokratik siyosiy faollikni nazarda tutgan holdadavlat ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunda siyosiy partiyalar ta’siri va o‘z- o‘zini boshqarish institutlari faolligi tobora ortib boraveradi. Ya’ni shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida baholanadi. Masalan, AQSh, Buyukbritaniya, Avstraliyadamazkur prinsip sabab davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi. Hozirgi davrda Germaniya va Buyuk Britaniyada NNTning faoliyati vaularni rasmiylashtirish tartiblari. Kuchli davlat an’anasi Sharq davlatlari kabi ko‘pgina G‘arb mamlakatlariga ham xos, ayniqsa Germaniya davlat boshqaruvtizimida bu holatga bevosita guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni Germaniyaijtimoiy-siyosiy hayotida davlatning roli jamiyat hayotini barqarorlashtirishdagi ahamiyati kuchli hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat tuzilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda milliy birdamlik g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuninguchun ham shaxsiy erkinlik davlat qudratiga bog‘lab talqin etiladi. Unga ko‘ra davlat kuchli bo‘lsagina, shaxs qiziqishlari va erkinligini himoya qila oladi. Ya’ni, davlat tartibi g‘oyasi, milliy birdamlik shaxs erkinligidan ham ustun qo‘yiladi. Bunday xokimiyat boshqaruv tizimi Germaniyadan tashqari Fransiya va Yaponiyaga mamlakatlariga xosdir. Shuningdek, Germaniyada fuqarolik jamiyati sohasida va uning faolligini oshirishda fuqaroga nodavlat sektorni rivojlantirishning muhim maqsadli ob’ekti sifatida e’tibor qaratiladi. Germaniyada muhim siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning hal etilishida hamda insonning qonuniy huquq va erkinliklari himoya qilinishida fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o‘ynaydi. Bunda davlat faoliyati ustidan jamoatchiliknazoratining ta’minlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining muhim vazifasi deb qaraladi.

Davlat tizimlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining amalgaoshirilishida nohukumat tashkilotlarining rolini kuchaytirish davlatning jamiyat bilan samarali o‘zaro aloqada bo‘lishi mexanizmlarini mustahkamlaydi. Germaniyada fuqarolarning davlat organlari faoliyati to‘g‘risida erkin axborot olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish ko‘p qirrali vamurakkab jarayon sifatida baholanadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonlar axborot erkinligiga oid huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solinadi. Chunki bugungi kunda ommaviy axborot vositalari xodimlarining zamonaviy axborot bozori sharoitida jamiyat oldidagi mas’uliyati hamda javobgarligini yanada chuqur anglashiga xizmat qiluvchi zarur mexanizmlarni ishlab chiqish muhimdir. Shuning uchun ham 2003 yilning mayida Germaniyada oila, keksa fuqarolar, ayollar vayoshlar ishlari bo‘yicha qo‘mitaning kichik bo‘limi (Fuqarolik faolligi bo‘yichakichik qo‘mita) tashkil etilgan. Uning vazifasiga Germaniyaning fuqarolikjamiyatini tadqiq etish tavsiyalarini bajarishga ko‘maklashish hamda o‘zyo‘nalishidagi qonun loyihalari va tashabbuslarini muhokama qilish kiradi. Shuningdek bu mamlakatda aholining davlat, tijorat va

jamoat tashkilotlariga bo‘lgan ishonchi «uchinchi sektor»ni rivojlantirishning muhim mezonlari hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi «birinchi» va «uchinchi» sektorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni institusionallashtirish har ikki tomon uchun foydali hisoblanadi. Bunday hamkorlik siyosatini belgilabberadigan hujjatlar davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaromunosabatlarni rivojlantirishning muayyan bosqichi uchungina foydali bo‘ladi. Ularda davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati roliga nisbatan yangicha nuqtai- nazari aks etadi va uchinchi sektor tashkilotlari bilan samarali o‘zaro hamkorlik asoslari yaratiladi. Germaniyada «uchinchi sektor» fuqarolik jamiyati, faol fuqarolik vabirdamlik hissi – yaqin yaqingacha faqat siyosatshunoslarni qiziqtirgantushunchalar endilikda barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillari tomonidanmuhokama qilinmoqda. Buning siri nimada? Nima sababdan bugun uningahamiyati bunchalik oshgan? Birinchidan «uchinchi sektor» – fuqarolikjamiyatining tashkiliy infratuzilmasi – uzoq yillar davomida rivojlanuvchi iqtisodning muhim tarmog‘iga aylandi. Masalan, birgina Germaniyaning o‘zida1990 yildan 1995 yilgacha u 30% o‘sdi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, uchinchi sektor mehnat bozori uchun alohida ahamiyat kasb etadi. 90 yil o‘rtalariga kelib Germaniya aholisining tahminan 2,1 mln. (ish bilan banlarning 5%) notijorat sektorda bo‘lgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan Germaniyaning «uchinchi sektori» o‘zining iqtisodiy ahamiyatiga ko‘ra o‘rtacha hisoblanadi. Unchalik katta bo‘lmagan boshqa G‘arb mamlakatlari - Niderlandiya, Irlandiya, Belgiya – bu jihat bo‘yicha 10% gacha chiqqan xolos. Sababi davlat va uchinchi sektor o‘rtasidabevosita va uzluksiz hamkorlik bu mamlakatlarda Germaniya darajasidarivojlantirilmagan. Germaniyada davlat va «uchinchi sektor» o‘rtasidagi subsidarlik tamoyilining qo‘llanilishi beg‘araz yordam bilan chegaralanadi.

Iqtisodiy jihatdan Germaniyada «uchinchi sektor» davlat moliyaviyresurslariga bog‘liq. Beg‘araz fondlar va ularning davlat tomonidan moliyalashtirilishi ―uchinchi sektorning davlatga bog‘liqligini oshiradi. Va bujihat ayniqsa boshqa davlatlar bilan solishtirilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Katta moliyaviy yordam olishda ifodalanuvchi siyosiy partiyalar va davlatga yaqinlik«uchinchi sektor» elementlarini fuqarolik jamiyatidan tashqarida bo‘lishiga vakvazidavlat sektoriga kirishiga olib keladi. Biroq «uchinchi sektor» ezgu ishlar homiyligidan iborat emas. Tashkilotlarda o‘tgan vaqt uchun to‘lanmaydigan pul miqdori to‘liq bandlikdagi millionlab odamlarga to‘lanadigan pulga teng bo‘lgan. Jamoatchilik asosidagi faoliyatning manbai bo‘lgan birdamlik hissi fuqarolikjamiyati mavjudligining muhim asosi hisoblanadi. Oxirgi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Germaniyada 14 yoshdan katta bo‘lganlarning 34% jamoatchilikasosida («uchinchi sektor» tashkilotlarida - 80%) faoliyat olib borib, bungahaftasiga o‘rtacha 5 soat vaqtini sarflaydi.

Oxirgi uch o‘n yillikda Germaniyada fondlar soni tobora oshib bormoqda. Ularning faoliyati qonuniy asos bilan mustahkamlanadi. Ular orasida yangi turdagi fuqarolik yoki shahar fondlari bo‘lib, bunda tashkilotlar va alohida jismoniyshaxslar hamkorlik asosida mahalliy miqyosda u yoki bu muammoni bartaraf qilishyo‘lida birlashadi. Germaniyaning yangi yerlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 1990-yil Sharqiy Germaniyada haqiqiy «portlash» bo‘lgan, bunda 80.000 dan 100.000gacha jamiyatlar tashkil topgan. Germaniyada tuzilgan tashkilotlar o‘ziga xos jihati ijtimoiy-siyosiy jihatdan markaziy sohalar – atrof- muhitni saqlash va xalqaro faoliyat jabhasidagi dinamikasi bilan bog‘liq.

«Uchinchi sektor» tashkilotlari a’zolarining tobora oshib borishi uning odamlar hayotiga kirib borganligidan dalolat beradi. Qolaversa, «uchinchi sektor» ko‘pjihatdan jamiyatning o‘z-o‘zini tashkillashtirish va innovatsiyalarga nisbiylayoqatidan dalolat beradi. Ya’ni bu faoliyatdagi yangilik asosan hukumat faollik ko‘rsatmagan sohalarda yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan bu hodisani ijobiybaholash mumkin. AQShda kuzatilayotgan "Bowling alone" – ijtimoiy faollik halokati fenomeni Germaniya jamiyatiga xos emas. Qiziqishlarni ifodalash funksiyasi bunda qanday amal qiladi? degan savolgaquyidagicha javob berish mumkin. Eng yangi jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, «mavzu advokatlari» deb nomlanuvchi atrof-muhitni saqlash va xalqaro faoliyat tashkilotlariga pulni sarflash va ularda jamoatchilik asosida ishtirok etish modaga aylanyapti. «Mavzu advokatlari»ga o‘xshashlarning mavjudligini, «uchinchi sektor»ning davlat funksiyalariga ta’sir qilishi yoki davlatning amal qilishchegarasini ko‘rsatishga qodirmi? Germaniya misolida biz buning qarama-qarshi, ammo umuman olganda ijobiy natijalarini ko‘ramiz. Aynan yangi va o‘zig amustahkam ishonchi bo‘lgan, davlat otalig‘idan tashqarida vujudga kelgantashkilotlar o‘ziga xos fuqarolik jamiyatidan dalolat beradi. G‘arb mamlakatlarida hamkorlik siyosati asosida notijorat sektoriningjamiyatni rivojlantirishga hissasi e’tirof etiladi undan so‘ng esa tomonlarningumumiy rejalari hamda davlat va jamoat birlashmalari tomonidan hamkorlik prinsiplarini amaliy mexanizmlardan foydalangan holda amalga oshirish bo‘yichaaniq chora tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Shuning uchun ham bunday hamkorlik siyosati odatda ikki tomonning birgalikdagi sa’y-harakatlari va muzokaralari natijasi mustahkamlanib boriladi. Ular turli shakllarda namoyon bo‘ladi: ikki tomonlama rasmiy bitimlar masalan, Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyati o‘rtasida tuzilgan shartnomalar, hukumat tomonidan davlat dasturlari sifatida qabul qilinadigan «de-fakto» bitimlari (Xorvatiya hamkorlik dasturi) yoki Parlament (Estoniya fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi) yoxud tomonlarningmajburiyatlari ifoda etilgan bir tomonlama bayonotlar (Vengriyaning fuqarolikjamiyatiga nisbatan davlat strategiyasi) shaklida qabul qilinishi mumkin.

Buyuk Britaniya davlati va fuqarolik jamiyati o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va bayonotlar uchinchi sektor uchun ham, davlat sektorining o‘zi uchun hamjudamuhim sanaladi. Chunki ular, birinchidan, fuqarolik jamiyati tashkilotlariga o‘zfaoliyatlarining jiddiy qo‘llabquvvatlanishini, demak jamiyat manfaatlari yo‘lidafaoliyat sohalarini kengaytirish imkonini bersa, ikkinchidan, davlat o‘z siyosatigafuqarolik jamiyati bilan muloqot qilish va sheriklikni qo‘shib, bunday sheriklikyordamida o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishiga imkon beradi. Bundaymuvaffaqiyatli hamkorlik siyosatining asosiy omili – o‘zaro manfaatlarga rioyaetish kafolatlari, «boshqa tomonning maqsad va vazifalariga» hurmat va ishonchga asoslanadi. Biroq davlatning nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishto‘g‘risida muzokaralar olib borish va siyosiy hujjat qabul qilishida mashkur tashkilotlarning tashabbuskor bo‘lishi tabiiy va ehtimollik darajasi ham yuqori hisoblanadi, lekin Xorvatiya va Vengriya misollari ushbu masalada davlat hokimiyati ham manfaatdor bo‘lib, o‘zi mazkur jarayon tashabbuskori bo‘lishi vauni muvaffaqiyatli yakuniga yetkazishi ham ko‘zda tutilgan. Shu ma’noda hamkorlik to‘g‘risida siyosiy hujjat qabul qilinishining o‘zi yetarli emas. Shuning uchun mazkur shartnomaning 15-moddasida uni «yakunlashemas, balki ilk nuqta» deb ataladi. Shartnoma esa «jarayon» deb nomlanadi. Bubilan agar kelishilgan matn qabul qilishga muvaffaq bo‘linmasa ham muzokaralar jarayonidan har ikki tomon yutishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday sog‘lom munosabatlar tez-tez o‘tkaziladigan uchrashuvlar, konstruktiv munozaralar, faol hamkorlik, shuningdek o‘zaro yon bosishlar va bir-birini tushunishga intilishlar asosida shakllanadi. Shunday bo‘lsa-da, notijorat sektor uchun ham, hukumat uchun qonun kuchiga ega deb hisoblangan va majburiyatlar ijrosining aniqmuddatlari ko‘rsatilgan hujjatning qabul qilinishi eng maqbul variant bo‘lardi. Biroq hatto uchrashuvlar, muhokamalar, muzokaralar jarayonining o‘zi – agar uning natijasida davlat tuzilmalari bilan o‘zaro anglashuvni yaxshilash asosidabo‘lsa ham – ulardan kutilganidan ko‘proq manfaat kelishi ham mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Buyuk Britaniyada muayyan toifaga taalluqli bo‘lgan hamkorlikning institusional shakllaridan tashqari tasniflash osonbo‘lmagan alohida funksiyalarga ega institusional shakllar ham mavjud. Bunday ixtisoslashtirilgan tuzilmalarga misol sifatida, Buyuk Britaniyaning Xayriya ishlari bo‘yicha komissiyasini ham keltirishimiz mumkin.

Bizga ma’lumki, mazkur xayriya ishlari bo‘yicha komissiya qonun asosida Angliya va Uelsdagi xayriyatashkilotlarining muvofiqlashtiruvchi va ro‘yxatga oluvchi organi sifatida ta’sis etilgan. O‘z navbatida bunday xayriya tashkilotlari Buyuk Britaniya ijtimoiyhayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Lekin ularga qo‘yiladigan qonuniytalablarga rioya etilishini ta’minlash uchun faoliyatlarini tartibga solish talabetiladi. Bu tashkilotlar sidqidildan va qonun doirasida ish ko‘rishi, shaxsiy manfaatni emas, balki ijtimoiy foydali maqsadlarni

ko‘zlashlari, mustaqil bo‘lishlari, vasiylik kengashlarining a’zolari tashqaridan biror noqonuniy ta’sirsizqarorlar qabul qilishlari, xayriya tashkilotlarining o‘zlari tomonidan boshqaruvdagi hamma jiddiy holatlar yoki qasddan qilinadigan huquqbuzarliklarga nisbatantegishli choralar ko‘rilishi talab etiladi. Komissiya o‘z faoliyatini xayriya ishlari to‘g‘risidagi qonunchilik ijro etilishini ta’minlagan, xayriya tashkilotlari samarali huquqiy, buxgalteriya va boshqaruv tizimlari doirasida yaxshiroq faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini bergan holda amalga oshiradi. Bunda komissiya jamiyatda, iqtisodiyot va qonunchilikda ro‘y berayotgan voqealarni kuzatib boradi, samarali boshqaruvni va jamiyatga hisob berishni ta’minlashga ko‘maklashadi. U qonunchilik va amaliyot masalalari bo‘yicha axborotni tarqatadi vamaslahatlashuvlar o‘tkazadi, xayriya tashkilotlarini ro‘yxatga olish jarayonigako‘maklashadi, qonun buzilishi holatlari bo‘yicha o‘z tekshirishlarini olib boradi, boshqa muvofiqlashtiruvchilar (prokuratura, polisiya) bilan hamkorlik qiladi, shuningdek xayriya tashkiloti mulki saqlanishi uchun uning faoliyatiga aralashishi ham mumkin.

Xayriya ishlari bo‘yicha komissiya har yili Parlament va Ichki ishlar vaziriga hisob beradi, o‘zining yillik hisobotlarini e’lon qiladi. Shu bilan birga, komissiya butun jamiyat manfaatlari yo‘lida faoliyat olib boradigan mustaqil organhisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, siyosiy hujjatni muhokama qilishningmarkazlashtirilgan tartibi uni qabul qilishga olib kelishi shart emas, lekin ushbujarayondagi ko‘p sonli oshkora munozaralar jamoatchilikning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etishiga misol bo‘la oladi. Masalan, Buyuk Britaniyaamaliyoti bitimlarni amalga oshirish va unga rioya etish yo‘lida ikki tomon uchunham to‘siqlardan biri – ijtimoiy sektor tomonidan bitimlar to‘g‘risida yetarlichaxabardorlikning yo‘qligi yoki tushunmovchilik mavjudligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham hujjat matnini tayyorlashga ekspertlarni jalb etish hamda uni muhokama etish va kelishishda jamoatchilikning keng ishtirok etishini ko‘zda tutadi. Bundan tashqari, G‘arbiy Yevropada «sektorni anglash», ya’ni juda ko‘pnotijorat va nohukumat tashkilotlarni yagona sektor sifatida (masalan, jamoatchilikyoki uchinchi sektor kabi) tasavvur etish – yangi hodisa bo‘lib, ko‘pginamamlakatlarda hali qaror topmagan.

Hamkorlik institutlari ularga ehtiyoj bo‘lgan ayrim sohalarda (odatda, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ekologiya yoki xalqaroyordam sohalarida) rivojlangan. Shunga qaramasdan ayrim sohalarda shakllanganba’zi prinsiplar va amaliyot umume’tirof etilish darajasigacha ko‘tarilgan hamdabutun nodavlat notijorat tashkilotlari sektoriga va umuman hatto fuqarolikjamiyatiga tarqalgan. Ana shunday universal prinsiplarga, masalan subsidiarlikprinsipi, axborotdan foydalanish va manfaatdor guruhlar bilan maslahatlashuv (ijtimoiy muloqot) kiradi. Fransiya va Germaniyada joylarda ijtimoiy sheriklik loyihalarini

rejalashtirish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas’uliyatning katta qismi hududiy, okrug va munisipal ta’lim (o‘zini o‘zi boshqarish organlari) zimmasiga yuklatilgan. Biroq, Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh va qator boshqa rivojlangan mamlakatlardadavlat organlarining OAV bilan o‘zaro hamkorligi alohida bazaviy qonunlarda tartibga solinmagan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, aksariyat Yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy sheriklik instituti ijtimoiy-mehnat sohasida iqtisodiymanfaatlar kelishuvi va ijtimoiymehnat nizolarni tartibga solish bo‘yichadavlatning vositachilik roli bilan ishga yollanuvchi va ish beruvchi o‘rtasidayuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida shakllangan.

Hozirgi davrda AQSh, Fransiya NNTning faoliyati va G‘arb mamlakatlari fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik siyosati. XX asr oxiri – XXI asr boshida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Yevropaning qator mamlakatlari nohukumat sektori bilan hamkorlikka oid yagonadavlat siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha tegishli chora tadbirlarni amalga oshirdi. Bu esa davlat va nohukumat sektorining ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanishga oid dolzarb masalalarni hal etishdagi sa’y-harakatlari va resurslarini birlashtirishga keng imkoniyat yaratib berdi. Oqibatda esa fuqarolarning siyosiyhayotdagi ishtirokini faollashtirish, davlatni aholiga ayrim xizmatlarni ko‘rsatishyukidan qisman ozod qila oladigan hamkorlikning mexanizmlarini yaratishgaerishildi. Yevropada davlat institutlarining NNTlar bilan hamkorlikni yo‘lgaqo‘yishning muhimligi bir qator xalqaro hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, BMTning 1968 yildagi Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi rezolyusiyasi (1297), «Yevropada davlat boshqaruvi masalalari bo‘yicha oq kitob» (25 iyul, 2001 yil), «Yevropada nohukumat tashkilotlar mavqeining asosiy prinsiplari» (16 aprel, 2003yil) va boshqa shu kabi halqaro xujjatlarda NNTlarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi roliga alohida ahamiyat qaratiladi, muloqot va maslahatlashuvorqali o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi hamda muayyan davlat ko‘magi shakllarini taqdim etish mexanizmlarini joriy etilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Rivojlangan G‘arb davlatlarida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy fuqarolik jamiyati modelini yaratish, uning davlat boshqaruvidagi samarali ishtirokini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunday zamonaviy model asosida jamiyat va davlat boshqaruvidafuqarolik institutlarining o‘rni hamda ahamiyatini mustahkamlash, jamoatchiliktuzilmalari va davlat organlarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, davlatning nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorligi ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga hamda fuqarolikjabhasida yuz berayotgan jarayonlarning chuqur tizimli tahlil qilib borishga kengimkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hall P. A., Taylor R. C. R. Political Science and the Three New Institutionalisms // Political Studies. —1996. —Vol. 44, No. 5. —P. 936-957.
2. Mamanazarov S. Sh. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj hamda dunyodagi mafkuraviy kurashlar sharoitida milliy g'oyaning zarurligi // Eurasian Research Bulletin. —2023. —T. 3, №11. 51-52.
3. Higgs R., Sauerland M. Ideologies and Institutional Change: theoretical perspectives on cognitive, normative and programmatic ideologies. — London: Routledge, 2008. — 312 p.
4. Miraxmedova Sh. N. Yangi O'zbekiston: ma'naviy-mafkuraviy islohotlar transformasiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili // Pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlar. — 2023. — №5. — B. 112–118.
5. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. —Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 240 p.
6. DiMaggio P. J., Powell W. W. The Iron Cage Revisited: Institutional Isomorphism and Collective Rationality in Organizational Fields // American Sociological Review. — 1983. — Vol. 48, No. 2. — P. 147–160.
7. Hall P. A., Taylor R. C. R. Political Science and the Three New Institutionalisms//Political Studies. —1996. —Vol. 44, No. 5. —P. 936–957.
8. Gramsci A. Selections from the Prison Notebooks. —New York: International Publishers, 1971. —400 p.
9. Schmitz A. Religious Policy in Uzbekistan // SWP Research Paper. — Berlin: Stiftung Wissenschaft und Politik, 2023. —28 p.
10. Alisher Ilkhamov. "Mustaqillik Ideology Tested: Nation-State Building in Uzbekistan and Related Security Challenges" // OSCE Yearbook 2012, Baden-Baden, In: IFSH (ed.), 2013. — s. 109-121.

YOSH RAHBAR XODIMLARDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Sadriddin Sharopov,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi "Boshqaruv sosiologiyasi va psixologiyasi" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

email: sharopovsadriddin3@gmail.com

"Haqiqiy rahbar, haqiqiy etakchi odamlarning bardoshini sinash uchun эmas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini engil qilish uchun rahbar эtib tayinlanadi".

Shavkat Mirziyoyev

Annotasiya: Mazkur maqola yosh rahbar xodimlarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish orqali ularning boshqaruv samaradorligini oshirish masalasiga bag‘ishlangan. Zamonaviy tashkilotlarda muvaffaqiyatli rahbarlik faqat mutaxassislik bilimlariga эmas, balki ijtimoiy kompetenцiyalarga ya’ni muloqot qilish qobiliyati, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, insonlar bilan munosabatni boshqara olish kabi ko‘nikmalarga ham bog‘liqdir. Maqolada ёsh rahbarlarda mazkur ko‘nikmalarning rivojlanishi, ularning tashkilotdagi ta’sirchanligi va samaradorligiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, rahbar, salohiyat, bilim, qobiliyat, iroda, professionallik, etuklik, tizim, innovaцion kompetentlik, shaxsiy qobiliyat, liderlik.

Bugungi kunda jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlar, raqobatbardoshlikning ortishi va yangi avlodning boshqaruv tizimiga kirib kelishi, rahbarlarda nafaqat professional bilimlar, balki ijtimoiy kompetensiya muhim o‘rin tutaётganini ko‘rsatmoqda. Xususan, yosh rahbarlar uchun ijtimoiy kompetensiya ahamiyati samarali muloqot qilish, jamoa bilan ishlash, insonlarni ruhlantirish va ijobiy muhit yaratish qobiliyati muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya mukammal shaxs rivojidagi bosh omili bo‘lib bugungi globallashgan, tezkor o‘zgarib borayotgan jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati faqatgina akademik bilimlar bilan эmas, balki ijtimoiy kompetenцiya bilan ham chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy kompetensiya — bu insonning jamiyatda samarali va madaniyatli tarzda muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, turli munosabatlar va vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri tuta olish qobiliyatidir. U shaxsning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy poydevor hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya (inglizcha – *social competence*) — shaxsning boshqa odamlar bilan ijobiy munosabat o‘rnata olishi, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qila olishi, hamdardlik, tinglash, muloqot qilish va jamoaviy ishlarda faol ishtirok эtish qobiliyatidir. Albatta "kompetensiya" so‘zi turli sohalarda ishlatiladi va bir nechta ma’nolarga эga bo‘lishi mumkin. Uni asosan quyidagi ma’nolarda tushunish mumkin:

1. Kompetensiya — mutaxassisning bilim va ko‘nikmalar majmuasi bu ma’noda kompetenцiya shaxsning ma’lum bir vazifani ёki ishni samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan:

- bilim (nazariy ma’lumotlar);
- ko‘nikma (amaliy malakalar);
- qobiliyat (shu bilim va ko‘nikmalarni to‘g‘ri qo‘llash);
- shaxsiy sifatlar (mas’uliyat, tashabbuskorlik va h.k.) majmuasini anglatadi.

2. Kompetensiya — vakolat doirasi bu ma’noda kompetensiya muayyan shaxs yoki tashkilotning o‘z vakolatlari doirasida qaror qabul qilish huquqini bildiradi.

3. Kompetensiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

- kasbiy (professional) - mutaxassisning o‘z kasbi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari;

- shaxsiy - kommunikasiya, etakchilik, эmosional intellekt va h.k;

- tarmoqli - aniq bir sohaga oid maxsus bilimlar;

- umumiy - hamma sohalarda kerak bo‘ladigan bazaviy ko‘nikmalar (masalan, kompyuter savodxonligi)

4. Kompetensiya — qobiliyatlar majmuasi bulsa, kompetentlik — ayni paytda aynan shu qobiliyatlarga ega bo‘lish holati.

Bu tushuncha bir nechta asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Muloqot qobiliyati – turli vaziyatlarda to‘g‘ri va samarali so‘zlash, tinglash va tushunish.

2. Empatiya (hamdardlik**)** – boshqalarning his-tuyg‘ularini his эtish va ularga muvofiq munosabat bildirish.

3. Muvaffaqiyatli hamkorlik – jamoada ishlay olish, boshqalar bilan kelishuvga эrisha olish.

4. Qaror qabul qilish – ijtimoiy vaziyatlarda yechim topa bilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish.

5. O‘z-o‘zini boshqarish – hissiётlar va xulq-atvorni nazorat qila olish.

Ijtimoiy kompetensiya — shaxsning jamiyatda to‘g‘ri va samarali faoliyat olib borish qobiliyati, ijtimoiy munosabatlarda muvofiqlashuvi, jamoa bilan ishlash, kommunikaцiyaga kirishish va ijtimoiy normalarga mos harakat qilish salohiyatini ifoda эtadi. Bu tushuncha soцiologiya, psixologiya, pedagogika, menejment va inson resurslari kabi bir qator fan sohalarida o‘rganiladi.

Ijtimoiy kompetensiya tushunchasi pedagogika va psixologiya sohalarida shakllanib boshlagan bo‘lsada, keyinchalik soцiologik qarashlar bilan boyitildi. Pedagogikada bu atama ko‘proq ta’lim jaraёnida o‘quvchining ijtimoiy muhitda o‘zini tutush qobiliyatini anglatsa, psixologiyada shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatga эrishish salohiyati sifatida qaraladi.

Sotsiologiyada эsa ijtimoiy kompetensiya nafaqat individual qobiliyat sifatida, balki insonning ijtimoiy institutlar, guruhlar va jamoalarda faol va mas’uliyatli ishtirok эtish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, ijtimoiy kompetenцiya shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini aniqlash, o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish, hamda jamoa manfaatlarini tushunish va hurmat qilish qobiliyatidir.

Ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ular shartli ravishda ichki (individual) va tashqi (ijtimoiy) omillarga bo‘linadi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Oila va tarbiya muhiti — shaxsning birinchi ijtimoiylashuv instituti. Unda inson o‘zining ilk ijtimoiy munosabatlarini o‘rganadi. Ota-ona bilan munosabatlar, farzandga berilaётgan axloqiy qadriyatlar, mehr va nazorat darajasi ijtimoiy kompetenцiyalarning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga эga.

2. Ta’lim muassasalari – maktab va oliy ta’lim muassasalari shaxsning ijtimoiy bilimlari, ko‘nikmalari va xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Ta’lim tizimida faqat bilim berish эmas, balki fuqarolik faolligini, jamoada ishlashni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vazifasi ham bor.

3. Jamoat tashkilotlari va faoliyat – Yoshlar ittifoqi, NNTlar, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarni ijtimoiy faollikka undaydi. Ularda ishtirok etish ijtimoiy kompetenцiyalarni amalda shakllantiradi.

4. Ommaviy axborot vositalari va internet – axborotlar manbai sifatida Internet va OAV insonning dunёqarashi, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda faol qatnashish, axborotni saralash, muloqot qilish qobiliyatlari zamonaviy ijtimoiy kompetenцiyalarning muhim qismiga aylangan.

5. Madaniyat va urf-odatlar – milliy va mahalliy qadriyatlar, madaniy muhit ham insonning ijtimoiy kompetenцiyalariga ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatdagi umumqabul qilingan qoidalar, madaniy normalarga moslashish salohiyati — ijtimoiy integraцiya darajasini belgilaydi.

Ijtimoiy kompetensiya nima uchun muhim sababi ijtimoiy kompetenцiya nafaqat shaxsiy haёt, balki kasbiy sohada ham juda muhim hisoblanadi. Quyida uning ahamiyatiga bir necha misollar keltiramiz:

Jamoada ishlash: Har qanday muvaffaqiyatli tashkilot — bu samarali jamoa. Jamoada ishlash uchun эsa to‘g‘ri muloqot, o‘zaro hurmat va hamkorlik zarur.

Munosabatlar qurish: Inson ijtimoiy mavjudot. Muvaffaqiyatli do‘stlik, oilaviy va mehnat munosabatlari ijtimoiy kompetenцiyaga bog‘liq.

Nizolarni hal qilish: To‘g‘ri ёndoshuv va muloqot orqali ko‘pgina nizolar tinch yo‘l bilan hal qilinishi mumkin.

Emosional intellekt: Ijtimoiy kompetenцiya эmoцional intellektning bir qismi bo‘lib, insonning hissiy sog‘lomligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagilar talab etiladi:

1. Tinglashni o‘rganish – boshqalarni diqqat bilan tinglash insonga hurmat va ishonch uyg‘otadi.

2. Muloqot mashqlari – rolli o‘yinlar, debatlar va jamoaviy mashg‘ulotlar orqali muloqot mahoratlarini oshirish mumkin.

3. Fikr almashish – jamoada fikr bildirish va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

4. Fikrni to‘g‘ri ifoda etish – tanqidni madaniyatli etkazish va qabul qilishni o‘rganish.

5. O‘z hissiyotlarini anglash – o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish orqali boshqalarni ham yaxshiroq tushunish mumkin.

Xulosa kiladigan bo’lsak, ijtimoiy kompetensiya — bu zamonaviy dunyoda har bir insonda bo‘lishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikma. U nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki ishda, ta’limda va keng jamiyatda ham muvaffaqiyat kalitidir.

Shu sababli, bolalikdanoq ijtimoiy kompetenцiyani shakllantirish va rivojlantirish orqali sog‘lom, mas’uliyatli va yetuk shaxslar voyaga etishi ta’minlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonov Q.N. Ishchi kuchini boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish. –T.: Iqtisod-Moliya, 2019.
2. Beknazarov D.J. Ijtimoiy psixologiya asoslari. –Toshkent, 2020.
3. Yuldoshev I. Kadrlar salohiyatini oshirishda rahbarlik kompetensiyalarining ahamiyati // Iqtisod va ta’lim, 2021, №3.
4. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – Bantam Books, 1995.
5. Boyatzis, R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. –Wiley, 1982.
6. Komilov Sh.Sh. Yosh kadrlarni rahbarlik faoliyatiga tayyorlashda innovasion yondashuvlar // Yosh olimlar uchun ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022.
7. Sattarova D.D. Ijtimoiy kompetentlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Pedagogika fanlari jurnali, 2021, №4.
8. Kasimova M. Yosh mutaxassislarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologo-pedagogik asoslari. –Toshkent, 2021.

YOSHLARNING JAMIYATGA IJTIMOIY MOSLASHUVIDA QADRIYATLAR TIZIMI OMILI

Eshdavlatov Otaniyoz G‘afforovich,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
(+998936606756, otaniyoz324@gmail.com)

Annotatsiya: maqolada yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi jarayonida qadriyatlar tizimining ta’sir omili, mazkur jarayondagi o‘rni va ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, jamiyat, ijtimoiy moslashuv, yoshlar ijtimoiy moslashuvi, qadriyatlar, qadriyatlar tizimi.

Ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvi, uning jamiyat norma va talablariga, yurish-turish qoidalariga, ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish va qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayoni va bu jarayonning natija ko‘rinishi hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv — individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda, individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari bilan bog‘laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta’sir etish

ko‘rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko‘rinishi bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. [1]

Tadqiqotchi A.Kovalevaning yozishicha, ijtimoiylashuv o‘z ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan bo‘lib, ya’ni individning belgilangan normalar va qadriyatlarni o‘zlashtirishi va jamiyat a’zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo‘ladi. [2]

Demak, ijtimoiy moslashuv shaxsni, yoshlarni yangi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi, muvofiqlashuvi bo‘lib, ijtimoiylashuv mexanizmlarining asosi hisoblanadi, ya’ni shaxs, xususan yoshlar jamiyatdagi mavjud me’yorlarga, yurish-turish qoidalariga, madaniyat, urf-odat va axloq normalarini egallab, unga moslashishi hamda mazkur jarayonning jamiyat yo‘nalishi maqsadi va tajribasi bilan mos kelishi bilan ifodalanadi.

Siyosiy fanlar nuqtai nazaridan ijtimoiy moslashuv siyosiy tizimga, uning institutlari va qonun-qoidalariga integratsiya bo‘lish jarayonidir. Bu jarayonda shaxs siyosiy jarayonlarda ishtirok etish, o‘z huquq va majburiyatlarini anglash va siyosiy madaniyatni o‘zlashtirish orqali jamiyatga moslashadi. Siyosiy moslashuv fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, saylovlarda ishtirok etish, nodavlat tashkilotlar faoliyatida qatnashish kabi mexanizmlar orqali amalga oshadi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi – yoshlarning oilaviy munosabatlar, ta’lim-tarbiya muhiti, mahalla va jamoatchilik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, axborot-kommunikatsion, bandlik, kasbiy va mehnat faoliyatlari jarayonlarida doimiy va faol tarzda ishtirok etishi natijasida sodir bo‘ladigan mavjud ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi va shakllanishi jarayonidir.

Ma’lumki, zamonaviy yoshlar globallashuv sharoitida axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy transformatsion jarayonlar kechayotgan bir davrda hayot kechirishmoqda.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi yoshlarning ijtimoiylashuvi ko‘plab omillar bilan shartlangan. Ularning ijtimoiy ongi darajasi avvalgi avlodlarning yosh qatlamlariga nisbatan ancha yuqori. Shuning uchun zamonaviy ijtimoiy ijtimoiylashuv jarayonlariga tanlov asosida ijodiy, tanqidiy yondoshuvlar xos. Faollik ijtimoiylashuvning muhim shartidir. Chunki faollik shaxs va jamiyat o‘zaro munosabatlarining asosi bo‘lib, buning natijasida inson ijtimoiyligining konkret-tarixiy shakliga erishiladi. Ayni paytda ijtimoiylashuv faqatgina sub’ekt faolligi emas, balki ob’ektning unga bo‘lgan ta’siri hamdir. [3]

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi siyosiy fanlar uchun muhim tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv jarayoni yoshlarning siyosiy tizimga

moslashishi, siyosiy madaniyatni shakllantirishi va fuqarolik faolligini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, yoshlarning ijtimoiy moslashuvini o'rganish, jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhimdir.

Ma’lumki, mamlakatimizda yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi hamda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlar masalalari, ular tafakkuri va dunyoqarashi, qadriyatlari, maqsadlari, orzu-istaklari, qiziqishlari, intilishlari, muammolari, ta’limi, ma’naviyati, madaniyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mo‘ljallari, ijtimoiy-siyosiy moslashuvi, ijtimoiylashuvi, kamoloti masalalari yoshlarga oid davlat siyosatining asosini tashkil qiladi.

Yosh avlodni tarbiyalashda, ularning ta’lim-tarbiyasida, jamiyat talablariga monand ijtimoiylashuvida, barkamol shaxs sifatida kamol topishida moddiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy qadriyatlar va qadriyatlar tizimining roli va ahamiyati benihoya kattadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ma’naviy yangilanish, ma’naviy-ma’rifiy jabhalardagi islohotlar xususida to‘xtalib, iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda bu borada qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanishimiz kerakligini alohida ta’kidladilar.

Biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglaymiz.

Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz. [4]

Qadriyatshunoslik mavzulari orasida qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq masalalar muhim o‘rinni egallaydi. “Qadriyatlar tizimi” muayyan ijtimoiy sub’ektlarga (shaxs, millat, jamiyat va boshq.), biron bir davr, tarixiy bosqich yoki soha bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyat shakllarining o‘zaro aloqadorligi va chambarchas bog‘liqligini ifodalaydigan tushunchadir. Bu mavzuga doir masalalar muqarrar ravishda aksiologiyaning dialektika bilan bog‘liq jihatlarini hisobga olishni taqozo qiladi. Ilmiy adabiyotlarda tabiat dialektikasi masalalari atroflicha ishlangan va ishlanmoqda. Ammo ijtimoiy hayot dialektikasiga e’tibor nisbatan kamroq, aksiologik jarayonlar dialektikasi esa o‘z tadqiqotchilariga muhtoj. [5]

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yoshlar qadriyatlari tizimi va uning yoshlar ijtimoiy moslashuviga ta’siri globallashuv sharoitida yoshlarga oid, ularning qadriyatlari shakllari, mazkur qadriyatlarning o‘zaro bog‘liq holda namoyon

bo‘lish shakllari va tizim sifatida o‘zgarib borishi hamda yoshlar ijtimoiy moslashuvida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

Qadriyatlar tizimining o‘zgarishlarini zamon bilan bog‘lab o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa hozirgi davrda jahonda va O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning qadriyatlar sohasidagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini bilib olish, qo‘lga kiritiladigan ilmiy dalillarni tajribada qo‘llash uchun nihoyatda zarur. Shu bilan birga bunday qarash ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarning qadriyatlar omili va mezoni bilan bog‘liq jihatlariga amaliy ta’sir ko‘rsatish, bu boradagi vazifalarni aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. [6]

“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan “Yangi O‘zbekiston yoshlari: hayotiy pozitsiyalar va qadriyat ustuvorliklari” mavzusida o‘tkazilgan majmuaviy tadqiqot [7] yoshlarning hayotiy pozitsiyalari mazmuni ularning ehtiyojlari, qarashlari va ko‘rsatmalarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarni aniqlash orqali o‘rganilgan.

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyati hayotining barcha jabhalarida islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning ko‘lami modernizatsiyaning chuqur jarayonlaridan dalolat beradi. Zamonaviy yoshlar ziddiyatli qadriyatlar va yo‘nalishlar doimo to‘qnashib, da’vat etadigan va kerakli yechimlarni ongli ravishda tanlashni talab qiladigan global o‘zgarishlar jarayonida ishtirok etmoqda. Qadriyatlar va me’yorlar qayta baholanayotgan bir paytda, hayotiy istiqbollari, maqsadlari va hayot mazmuni bilan bog‘liq masalalarda yoshlarning o‘z yo‘llarini topishlari birmuncha murakkab. Yoshlarning hayotiy qadriyatlari iyerarxiyasida ta’lim olish muhim o‘rinni egallaydi. Ayni vaqtda ta’lim mustaqil qadriyatlikdan jamiyatda moddiy farovonlik, ijtimoiy maqom, turmush darajasi bilan bog‘liq yanada yuqoriroq o‘rinlarni egallash uchun ustuvor vositaga aylandi.

So‘rov shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy yoshlar uchun hayotiy yo‘nalishlarning ijtimoiylikdan xususiylikka o‘zgarishi xosdir. Bu professional martaba nuqtai nazaridan yoshlar qadriyatlariga ham tegishli. 43,2% yoshlarning fikriga ko‘ra, ular uchun asosiy hayotiy intilishlardan biri bu - martaba, kasbiy o‘sish yoki muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

O‘tkazilgan so‘rov natijalari mamlakat zamonaviy yoshlarining ijobiy kayfiyati va sobitqadamligini, ularning qadriyatlar yo‘nalishlari axloqiy va ma’naviy tarkibiy qismlariga alohida e’tibori va intellektual va kasbiy o‘sishga intilishini ta’kidlaydi. Yoshlarning davlat va jamiyat hayoti bilan hamnafasligi hamda bilimlarni oshirish va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash zaruriyatini hisobga olgan holda, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, davlat tomonidan yoshlar muammolariga alohida e’tibor, shuningdek, har tomonlama

qo‘llab-quvvatlash istiqbolda mamlakat, jamiyat va umuman millatning samarali va barqaror holatiga ishonchni ta’minlaydi. [8]

Yoshlar siyosiy qadriyatlari tizimida demokratiya, parlamentarizm, oshkoralik, plyuralizm va so‘z erkinligi, vatanparvarlik, inson huquqlari, faol fuqarolik, fuqarolik burchga sadoqat va mas’uliyat, siyosiy ishtirok kabi siyosiy qadriyatlarni nazarda tutadigan bo‘lsak, yoshlarning ijtimoiy moslashuvida siyosiy qadriyatlarning roli muhim hamda yoshlarning hayotdagi siyosiy yo‘nalishini belgilashida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga xos qadriyatlar tizimida kamolotga yetkazish, har tomonlama sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, dunyoqarashi va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda faolligini kuchaytirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma’naviy komillikka erishuvida asosiy va belgilovchi omil vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/
2. Ковалёва А.И. Социология молодёжи: Теоретические вопросы. – Москва: Социум, 1999. – С.351.
3. Yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi (etnososiologik tadqiqot). – Toshkent: “Tafakkur” 2014. 24-bet
4. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B. 249
5. Q.Nazarov Qadriyatlar falsafasi Toshkent.2011. B.141
6. Q.Nazarov Qadriyatlar falsafasi Toshkent.2011. B.147
7. Yangi O‘zbekiston yoshlari: hayotiy pozisiyalar va qadriyat ustuvorliklari. https://ijtimoiyfikr.uz/tadqiqotlar/zhamiyat/yangi-zbekiston-eshlari-aetij-pozitsiyalar-va-adriyat-ustuvorliklari.htm (murojaat sanasi: 27.08.2025)
8. Yangi O‘zbekiston yoshlari: hayotiy pozisiyalar va qadriyat ustuvorliklari. https://ijtimoiyfikr.uz/tadqiqotlar/zhamiyat/yangi-zbekiston-eshlari-aetij-pozitsiyalar-va-adriyat-ustuvorliklari.htm (murojaat sanasi: 27.08.2025)

AXBOROT MAKONI VA FUQAROLIK JAMIYATI

Toshboltayeva E'tibor Erkin qizi,
Abdunabiyev Sultonbek Sherali o'g'li,
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishining 3-bosqich talabalari (+998941000816), (+998935395757)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayoni va uning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilinadi. Bunda asosan fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini yoritib, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, ochiqlik siyosati va ijtimoiy faollikning oshishi bilan bog'liq islohotlarga e'tibor qaratadi. Maqolada davlat va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining takomillashuvi fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, demokratiya, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT), ijtimoiy hamkorlik, inson huquqlari, ochiqlik va shaffoflik, fuqarolik institutlari, xalqaro tajriba.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u demokratik davlat barpo etishning muhim mezoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi hamda ularning jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi uchun huquqiy asos yaratib beradi. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlatning siyosiy ochiqligi, jamoatchilik nazoratining kuchayishi va fuqarolarning faolligini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bugungi globallashib borayotgan davrimizda fuqarolik jamiyatining shakllanishi har bir davlatning demokratik taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ham so'nggi yillarda ochiqlik, jamoatchilik nazorati va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, davlat va jamiyat o'rtasida samarali muloqot muhitini yaratish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni “xalq davlat idoralariga emas, davlat xalqga xizmat qiladigan tizim”ni shakllantirishning asosiy sharti sifatida ta'kidlaydi. Shuningdek, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni mustaqil institut sifatida belgilangan bo‘lib, bu yo‘nalishda huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Bu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki davlat organlari endi buyruq beruvchi emas, hamkor sifatida ishlashi lozim, fuqarolarga qulay sharoit yaratib berishi,

ularning muammosiga o’z vaqtida yechim topishi kerak. Xalq manfaatiga xizmat qilish demokratik boshqaruvning asosiy belgisi sifatida ko’rsatilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), OAV, blogerlar, mahalla va boshqa jamoatchilik tuzilmalari mustaqil institut sifatida tan olingan. Ularning jamiyatdagi mavqei huquqiy jihatdan mustahkamlanmoqda – ya’ni davlat ularni rasmiy hamkor sifatida qabul qilmoqda. Mazkur hujjatlar asosida ularga jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish, davlat faoliyatini baholash kabi vakolatlar berildi.

Jahon ilmiy tajribasida ham fuqarolik jamiyati demokratik tizimning asosiy elementi sifatida talqin etiladi. Masalan, J. Kinaning “Civil Society” asarida fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil, lekin jamiyat manfaatlarini ifodalovchi institutlar majmui sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, F. Fukuyama jamiyat faolligi kuchli davlat boshqaruvi bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy demokratik muhit yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko’ra, jamiyat faolligi yuqori bo’lgan joyda davlat ham kuchli va tartibli bo’ladi. Ya’ni faol fuqarolar va mustaqil jamoatchilik bo’lmasa, davlatning o’zi ham to’laqonli ishlay olmaydi. Shuning uchun davlat va jamiyat bir-birini to’ldirib, hamkorlikda ishlagandagina haqiqiy demokratiya shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich yangicha mazmun kasb etib bormoqda. Davlat boshqaruvida “xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qiladi” degan tamoyilning joriy etilishi ijtimoiy fikrni uyg‘otdi va fuqarolarning jamiyat hayotidagi o‘rni sezilarli darajada kuchaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, blogerlar, mahalla institutlari va fuqarolik jamiyatining boshqa subyektlari endilikda ijtimoiy nazorat, tashabbus bildirish va taklif kiritish huquqlariga ega bo‘ldi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati kuchli bo‘lgan davlatlarda fuqarolarning siyosiy faolligi yuqori, boshqaruv tizimi esa shaffof va ochiq bo‘ladi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘z milliy modelini shakllantirmoqda va bunda huquqiy baza takomillashuvi, axborot erkinligining kengayishi, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-martdagi “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4631-son Qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2018.

5. Fukuyama F. Strong Society, Weak State: State-Society Relations and State Capabilities in the Third World. – Oxford: Oxford University Press, 2004.

6. Keane J. Civil Society: Old Images, New Visions. – Stanford: Stanford University Press, 2005.

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Abdirasulova Nozanin Jasur qizi,
O’zbekiston davlat Jaxon tillari universitet
Xalqaro Jurnalistika fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy tendensiyalari ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hamda institutsional omillar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi yetakchi omillar — fuqarolarning faolligi, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, uchinchi sektor faoliyatining samaradorligi, ko‘p partiyaviylik tizimi va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanish darajasi o‘rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida mavjud muammolar va ularning yechimiga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, O‘zbekiston, ijtimoiy-siyosiy tahlil, huquqiy asoslar, fuqarolik faolligi, uchinchi sektor, ko‘p partiyaviylik, ijtimoiy sheriklik.

Fuqarolik jamiyati — davlatdan mustaqil faoliyat yuritadigan ijtimoiy tuzilmalar majmuasi bo‘lib, inson huquqlari, huquqiy madaniyat va fuqarolarning faolligi asosiy unsurlardir. O‘zbekistonda fuqorolik jamyatini qurish — milliy taraqqiyot va demokratik transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishidir. Konstitutsiyaning 69-moddasida nodavlat-notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari fuqorolik jamyati asosini tashkil etishi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi O‘zbekistonda mustaqillik yillaridan buyon siyosiy va ijtimoiy islohotlarning markazida turib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari, yangi huquqiy hujjatlar, xalqaro hamkorlik dasturlari va uchinchi sektor faoliyatining faollashuvi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda Quyida ushbu

jarayonning zamonaviy tendensiyalari, asosiy muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Fuqarolik jamiyati rivojining mezonlari sifatida bir nechta omillar alohida ahamiyat kasb etadi: fuqarolarning siyosiy ong darajasi, jamoatchilik tashkilotlari faoliyati, qonun ustuvorligi va davlat-hokimiyat organlari bilan hamkorlik mexanizmlari. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Masalan, 2022-yilga kelib mamlakatda 10 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyat yuritmoqda. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori natijalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni NNT va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi rolini sezilarli darajada mustahkamladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari sonining o‘sishi (2017–2023-yillar)



Fuqarolik jamiyatining kuchayishi fuqarolarning faolligini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlarda elektron hukumat va “ochiq ma’lumotlar” tizimining joriy etilishi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini sezilarli ravishda kuchaytirdi. O‘zbekistonda ham “Elektron hukumat” tizimi va “my.gov.uz” portali fuqarolarning davlat xizmatlariga tezkor murojaat qilish imkoniyatini kengaytirmoqda.

2021-yildan boshlab “Ochiq budjet” portali orqali fuqarolarning mahalliy byudjet mablag‘lari taqsimotida bevosita ishtiroki ta’minlanmoqda. Ushbu tajriba xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholangan. Natijada, 2022-yilda 34 mingdan ortiq loyiha fuqarolar ovozi bilan tanlab olingan.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari. Kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun barqaror iqtisodiy asos zarur. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat YAIMining 56,5 foizini tashkil etdi [10]. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Huquqiy asoslar nuqtayi nazaridan esa 2021-yilda qabul qilingan yangi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun NNTlarning faoliyatini yanada qulaylashtirdi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlarda fuqarolik jamiyatining institutlari davlat boshqaruvida muhim subyekt sifatida belgilandi. Ko‘ppartiyaviylik tizimi ham fuqarolik jamiyati rivojining muhim mezonidir. O‘zbekistonda hozirda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda va ular parlamentda turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini ifoda etmoqda. Bu siyosiy pluralizmni rivojlantirish va ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy sheriklik, xususan, davlat va NNTlar hamkorligi natijasida ijtimoiy xizmatlarning bir qismi nodavlat tashkilotlari zimmasiga o‘tkazilmoqda. Masalan, 2021-yilda 300 dan ortiq ijtimoiy loyiha NNTlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularning moliyaviy ta’minoti “Ijtimoiy buyurtma” mexanizmi orqali ajratildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivoji hozirgi davrda salmoqli ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlar fonida kechmoqda. Aytish mumkinki, kuchli fuqarolik jamiyati mezonlariga bosqichma-bosqich erishilmoqda — bu, avvalo, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlardagi faolligi, mustaqil institutlarning faoliyati va huquqiy ochiqlikning kengayib borishida yaqqol ko‘rinmoqda. Bugun xalqaro tajriba va modernizatsiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar fuqarolik jamiyatining yanada mustahkamlanishi uchun yangi istiqbollar ochmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy asoslarda ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda: nodavlat notijorat tashkilotlar va OAV sonining ortishi, yangi huquqiy kodlar va institutlarning rivoji bunga misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurodov, D. Trends and Challenges in the Development of Civil Society in Uzbekistan, Indonesian Journal of Social Development.

2. Sadullayeva, S. B. Peculiarities of Civil Society Development in Uzbekistan in the Era of Globalization, International Journal of Artificial Intelligence.

3. Sobirov, O. O., Usmanova, F. N., Sattorova, D. G. Formation and Development of Civil Society in the New Stage of National Development of Uzbekistan, World Bulletin of Public Health.

4. Abdukodir Otaboev. Political and legal foundations of civil society development, Diversity Research: Journal of Analysis and Trends.

5. Surobova, R. Z. Specific Problems and Solutions of Public Control Development in Uzbekistan, International Journal of Social Science Research and Review.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING EVOLYUTSIYASI VA ULARNING DEMOKRATIK JARAYONLARDAGI ROLI

Namozova Diyora Shuhrat qizi,
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Siyosatshunoslik 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanish jarayoni va ularning evolyutsiyasi ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, demokratik jamiyat qurilishida fuqarolik institutlarining o‘rni, ular orqali fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini ta’minlash masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, institutlar, demokratiya, evolyutsiya, ijtimoiy faollik, qadriyatlar.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyati institutlari zamonaviy demokratik taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tarixan fuqarolik institutlari turli shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning haqiqiy mazmun-mohiyati aynan demokratiya sharoitida to‘liq ko‘zga tashlanadi. Shu bois mazkur maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, evolyutsiyasi va demokratik jarayonlardagi o‘rni tahlil etiladi.

Fuqarolik jamiyatining ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston davrida jamiyat boshqaruvi haqida falsafiy qarashlar shakllangan bo‘lib, faylasuflar Aristotel va Platon davlat hokimiyatining cheksiz bo‘lishi jamiyatda adolatni buzishini, shu bois uni muvozanatlashtiruvchi jamoaviy institutlar zarurligini ta’kidlaganlar.[1] Ularning fikriga ko‘ra, jamiyatda insonlarning manfaatlarini ifoda etadigan mustaqil tuzilmalar mavjud bo‘lsa, davlat hokimiyati adolatli va barqaror bo‘lishi mumkin edi.Yevropada o‘rta asrlar davrida esa fuqarolik jamiyatining dastlabki amaliy shakllari paydo bo‘ldi. Savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlangan shaharlarda gildiyalar, turli jamoat uyushmalari va diniy tashkilotlar vujudga kelib, ular fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy masalalarni hal qilish hamda o‘zaro birdamlikni kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu institutlar davlat hokimiyatidan nisbatan mustaqil bo‘lib, jamiyat a’zolarining o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish vositasiga aylandi.XIX–XX asrlarda fuqarolik jamiyati institutlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Sanoat inqilobi, milliy davlatlarning shakllanishi va demokratiya g‘oyalarining keng tarqalishi

natijasida kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari mustaqil institut sifatida faoliyat yurita boshladi.[2] Ayniqsa, matbuot va keyinchalik radio, televideniye jamiyat hayotida jamoatchilik fikrini shakllantirish, davlat faoliyati ustidan nazorat o‘rnatishda muhim kuchga aylandi. Kasaba uyushmalari esa ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining yanada keng quloch yoyishiga zamin yaratdi.Shunday qilib, fuqarolik jamiyati institutlari qadimiy davrlardan boshlab asta-sekin shakllanib, turli tarixiy bosqichlarda rivojlanib borgan va nihoyat zamonaviy demokratik jamiyatning ajralmas qismiga aylangan..

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi mustaqillik davridan keyin yangi bosqichga ko‘tarildi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada fuqarolarning birlashish, so‘z erkinligi, jamoat tashkilotlari tuzish huquqi mustahkamlab qo‘yildi. Bu norma fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga huquqiy zamin yaratdi. Shuningdek, keyingi yillarda “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar qabul qilinib, fuqarolik institutlarining huquqiy maqomi aniq belgilandi.[3] Mustaqillik yillarida mamlakatda turli yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, fondlar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari shakllandi. Ayniqsa, qadimiy an’anaga ega bo‘lgan mahalla instituti davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi noyob ijtimoiy tuzilma sifatida yanada mustahkamlandi. O‘zbekiston tajribasida mahalla aholining ehtiyoj va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, yoshlar tarbiyasi hamda jamiyatda birdamlikni kuchaytirishda muhim o‘rin egalladi.Yana bir muhim omil — ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bo‘ldi. Mustaqillikdan so‘ng gazeta va jurnallar, televideniye va radio kanallari, keyinchalik esa internet nashrlari fuqarolarning axborot olish, fikr bildirish va davlat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi.[4] Shu tariqa, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari evolyutsiyasi mustaqillikdan keyingi davrda chuqur ildiz otib, zamonaviy demokratik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari demokratik boshqaruvning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ular fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytiradi, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Bu orqali jamiyatda shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish imkoniyati ta’minlanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) ijtimoiy muammolarni hal qilishda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko‘rsatishda hamda ekologik, ta’limiy va ma’naviy-ma’rifiy loyihalarni amalga oshirishda faol rol o‘ynaydi.[5]

NNTlar davlatning barcha masalalarni hal qilishdagi monopoliyasini cheklaydi va jamiyatda ijtimoiy sheriklik tamoyillarini kuchaytiradi.Ommaviy axborot vositalari (OAV) esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiqlik, shaffoflikni ta’minlashda demokratik qadriyatlarni mustahkamlovchi institut sifatida maydonga chiqadi.

Mustaqil OAV fuqarolarning xabardorlik darajasini oshiradi, hukumat faoliyatini baholashga imkon beradi hamda jamoatchilik fikrini shakllantiradi.Shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari — mahallalar mahalliy darajada aholi manfaatlarini ifodalash va muammolarni hal etishda muhim vositaga aylangan. Mahalla instituti orqali fuqarolar o‘z hududida bevosita ijtimoiy masalalarni muhokama qiladi, qarorlar qabul qiladi va davlat organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.[6] Shu tariqa, fuqarolik jamiyati institutlari demokratik jarayonlarda davlat hokimiyatini cheklovchi va uni fuqarolarga yaqinlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Globalizatsiya davrida fuqarolik jamiyati institutlari yangi vazifalarni bajarmoqda. Ular inson huquqlarini himoya qilish, ekologik muammolarni yoritish, korrupsiyaga qarshi kurashish va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda faol ishtirok etmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini tezkor shakllantirish va fuqarolarning erkin pozitsiyasini ifodalash uchun muhim maydonga aylandi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining evolyutsiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Ularning demokratik jarayonlardagi roli esa davlat va jamiyat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ijtimoiy faollikni kuchaytirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Zamonaviy sharoitda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois ushbu institutlarning ilmiy asoslarini o‘rganish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masala bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Politika. –Moskva: Mysl, 1997yil.
2. Almond G., Verba S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. –Princeton: Princeton University Press, 1963.
3. Abdullayev H. Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiyoti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2005-yil.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. —Toshkent: O‘zbekiston, 1997-yil.
5. To‘laganova G. Globalizatsiya sharoitida fuqarolik jamiyati institutlari rivoji. —Toshkent: Ma’naviyat, 2019-yil.
6. “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun. —Toshkent, 2014-yil.

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NNNLARNING O'RNI

Barnayeva Amina Abdixakim qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi.
(barnayevaamina@gmail.com)

Annotatsiya: Maqolada alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta'lim olishi uchun ijtimoiy kapitalning ahamiyatini tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda uchinchi sektor, shuningdek, oila rolini yoritishdan iboratdir. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish masalalari ham o'rganiladi. Maqolada ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, fuqarolarning bu sohadagi faolligini oshirish hamda imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim olishida davlat, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy kapitalni mustahkamlashning asosiy sharti ekanligini haqida turli tahlillar va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy kapital, inklyuziv ta'lim, fuqarolik jamiyati, oila, NNT.

Kirish: Jamiyatda alohida e'tiborga, ko'makka ehtiyoji bor insonlar salmog'i anchagina. Mazkur qatlam uchun yaratilishi kerak bo'lgan imkoniyatlar va imtiyozlarning darajasi davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda nogironligi bor shaxslarning umumiy soni 1 miliondan ortiq bo'lib, ularning 173 mingdan ziyodi 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir[1]. Bu esa har birimiz yashayotgan jamiyatda nogironligi bor bolalarning ta'limi va ijtimoiy integratsiyasi qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda nogironligi bor bolalarning ta'lim tizimida turli islohotlar olib borilmoqda. Ayni paytda 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan va 2008-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonunini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha 2018-yil 20-iyulda Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida joylashtirildi [2].

Bundan ko'rinib turibdiki davlatimiz imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitda bo'lishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratmoqda. Bu islohatlar jamiyatda ijtimoiy kapitalni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy kapital konsepsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan Garvard universiteti professori Robert D. Petnam fikricha, ijtimoiy kapital - bu uzoq

tarixiy aloqalarga borib taqaluvchi insonlarning ijtimoiy hamkorligi an’analari bo‘lib, bular o‘zaro ishonch, ijtimoiy qadriyatlar, fuqarolarning turli nodavlat tashkilotlarda ko‘ngilli ishtiroki hamda davlat va jamoat ishlarida fuqaroviy faollik kabi omillarda namoyon bo’ladi[3.12-bet]. O‘zbek xalqining tarixiga nazar tashlaganimizda ijtimoiy kapital va fuqarollik jamiyati elementlari xalqimizning qadriyatlari va turmush tarziga chuqur singib ketganini kuzatish mumkin. Xalqimizning ma’naviy hayotida birdamlik, hamkorlik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi.

Abu Rayhon Beruniy, inson o‘zining himoyalanmaganligi va nochorligi sabab har doim qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi, jamiyat esa mazkur yordamga va tayanchni ta’minlab beradi, degan fikrni ilgari suradi. O‘z manfaatlarini himoya qilish hamda boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun insonlar har doim bahamjihat yashashi darkor. “Ehtiyojlar juda ko‘p va turli xil, faqatgina fuqarolik jamoasigina uni ta’minlashi mumkin, shuning uchun ham insonlar shaharlarga asos solishgan” deya ta’kidlaydi Beruniy[3.16-bet]. Bizningcha, buyuk alloma Beruniy tilga olgan “qo‘llab-quvvatlashga muhtoj insonlar” tushunchasini, bugungi mavzu doirasida, imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ham qo‘llashimiz mumkin. Qanchalik ularga ko’p imkoniyat yaratsak, ya’ni indikatorlar bilan aytganda, jamiyatimizdagi oilalar, mahalla va ta’lim tizimiga e’tibor qaratilsa, shunchalik ijobiy natija beradi.

Biz nogironligi bor bolalarga davlat imkoni qadar yordam berishini bilamiz. Ixtisoslashtirilgan bolalar maktablari borligi ham ma’lum. Shu bilan birga, sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim olish imkoniyati ham yaratilgan. Bu orqali imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatdan ajralmaydi, balki bilim olishda teng huquqiy sharoitga ega bo‘ladi. Natijada sog’lom bolalarda tolerantlik shakllanadi. Maxsus inklyuziv ta’lim jarayoni tashkillashtirilgan va u toboro takomillashib bormoqda. Inklyuziv ta’lim jarayonida sog’lom bolalar nogiron tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar. O‘zbekistondagi bunday ta’lim tizimi ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi.

Fikrimizcha, nogironligi bor bolalarning jamiyatdan ajralib qolmasligi uchun faqatgina davlat emas, balki fuqarolar faolligi ham zarur. Fuqarollik, eng avvalo insonlarning “ko‘ngilli” sifatida faoliyati bilan bog‘liqdir. “Fuqarolik faolligi” atamasining tub mazmun-mohiyati Germaniyaning Anket-Komissiya (enquete-kommission) tashkilotining ma’ruzasida kengroq va batafsilroq yoritilgan. Unga ko‘ra “fuqarolar faolligi” - shaxs tashabbuskorligi, intilishlari va xatti-harakatlar yig‘indisi bo‘lib, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, moddiy manfaatdorlik ko‘zlanmaydi, ammo ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilishga qaratilgan yakka shaxs yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi hisoblanadi[3.78-bet].

Shunday ekan, har bir 18-yoshga to‘lgan shaxs ko‘ngilli bo‘la oladi. Jamiyatdagi katta muamolardan tortib, kichik muammolarni ham hal qilishda ko‘maklasha oladi. Kamchiliksiz jamiyat bo‘lmaganidek, bizning jamiyatda ham korruptsiya, tamagirlik, ekologik ifloslanishi, ta’limdagi kamchiliklar kabi muammolar mavjud. Bu muammolarning yechimini faqat davlatdan kutish notog‘ri. Fuqarolar faol bo‘lishi, jamoatchilik fikri mavjud bo’lishi, jamiyatdagi mammolarga befarq bo‘lmasligimiz zarur. Bu esa ta’lim muassasalarida davlatning kuch ishlatar organlari turmasligini ta’minlaydi. Shunda biz insonlarda davlatga va jamiyatga ishonchni orttira olamiz. Bunda bizga siz-u bizning faolligimiz, shuningdek, bu faollikda tashkil topgan NNTlar ko‘maklashadi va qanchalik ijtimoiy kapital mavjud ekannini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning yangi (yangilangan) Konstitutsiyasida ilk bor alohida “Fuqarolik jamiyati instututlari” bobiga joy ajratilgan (XIII bob). Undagi 69-moddada fuqarolik jamiyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari ko’rsatigan. Ularning faoliyati qonun asosida amalga oshiriladi. 70-modda esa bu muassasalarning qanday shakllanishi, mazkur jamoat birlashmalarining shartli turi - siyosiy partiyalar, nogironlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, yoshlar va boshqa guruhlar haqida aniq belgilab qo‘yilgan[4]. NNTlar Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o’tkaziladi. Shunday ro‘yxatdan o‘tganlar ichida inklyuziv ta’lim sohasida “Inklyuziv jamoat birlashmasi” mavjud bo‘lib, uning viloyatlar bo‘limlari Namangan viloyati, Toshkent viloyati (zangiota tumani), Jizzax viloyati va markaziy bosh boshqaruv (butun respublika). Bundan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik faolligaga va NNT tashkilotlariga hech qanday qarshilik yo‘q, aksincha davlatimiz ularni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Inklyuziv ta’lim - har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim olishini ta’minlaydi moslashuvchan ta’lim dasturidir. Bunday jarayonda, albatta, ota-ona va psixologlar va maxsus mutaxassislar yordami zarur bo’ladi. Barcha bolalarni xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va qabul qiluvchi muhit yaratish muhimdir. Inklyuziv ta’lim alohida e’tiborga muhtoj bolalarga nima beradi ?

1. Bizningcha, o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish va qabul qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlantiradi.
2. O‘quvchini kelajakda yuqori yutuqlar erishishga yordam berishi mumkin.
3. O‘quvchilar o‘rtasida hurmat hissi kuchayadi, chunki ular turli xil insonlar bilan ishlashni o‘rganadi.
4. Jamiyatdagi insonlarning bir-biri bilan bog‘liq va bir butun ekanligini anglash imkonini beradi.

Bizga ma’lumki, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy hayotida uchta sektor mavjud: birinchi sektor - davlat, ikkinchisi - biznes yoki xususiy sektor, uchinchi sektor - nodavlat notijorat tashkilotlari.

Nodavlat notijorat tashkilotlari deganda, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tuzilgan, faoliyati davomida faqat foyda olishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ymagan va olingan foydani uning ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaradigan tashkilot tushuniladi.[3.62-bet].

O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim bugungi kunda qanday holatda? NNTlar qanday rol o‘ynamoqda? Bizga ma’lumki, O‘zbekiston respublikasi 2021-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari tog’risida”gi qonun inklyuziv ta’limni jadal rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Shu bilan birga, umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda va pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yangi yo’nalishlar ochilmoqda. Bizning kuztishlar shuni ko‘rsatadiki, hali qishloq joylarda inklyuziv ta’lim infratuzilmasi to’liq shakllanmagan. Masalan, moslashtirilgan sinf xonalari, panduslar va maxsus jihozlar yetishmaydi. Shuningdek, defektolog va logoped kabi mutaxassislar soni ham yetarli darajasida emas. Yangi O‘zbekiston davrida esa inklyuziv ta’lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaymoqda. Xususan, UNICEF, UNDP va boshqa donorlar bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Ular o‘qtuvchilar malakasini oshirish va ta’lim muassasalarini jihozlashga qaratilgan.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim rivoji nafaqat davlat siyosatiga, balki nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokiga ham bog‘liqdir. Shu sababli, mahalla va ota-onalar qo‘mitalarining rolini kuchaytirish zarur[5].

Darhaqiqat, biz oilaning ham, mahallaning ham o‘rni ahamiyatli ekaniga ishonamiz. Chunki bola birinchi navbatda oilada ijtimoiylashadi. Ota-ona farzandining yangi muhitga moslashishida ko‘maklashishi lozim. Unga ma’naviy, moddiy va ruhiy yordam berishi lozim. Sog‘lom tengdoshlari ota-onasi esa farzandlariga do‘stlariga nisbatan bag‘rikeng bo‘lishi va ko‘maklashish haqida tarbiya berishi kerak. Oila va uchinchi sektorni bog‘lagan holda aytishimiz mumkinki, nogironligi bo‘lgan bolalarning ota-onalari ko‘pincha moddiy imkoniyati yetmasligi sabab farzandini o‘qita olmaydi yoki ota-ona ruhiy tushkunlikka tushgan holda farzandidan hech narsa kutmay qo‘yadi. Bunday hollarda, bizningcha, ota-onaga moddiy va ruhiy yordam ko‘rsatish kerak. Aynan shunday vaziyatda NNTlari yordam keladi: moddiy ko‘mak beradi, psixologik motivatsion treninglar tashkil etadi.

NNTlar faoliyati qanday qilib Ijtimoiy kapitalni shakllantiradi? Bizningcha, bu jarayonda sektorlararo sheriklikning inklyuziv ta’limdagi

ahamiyati juda katta. Chunki inklyuziv ta’lim nafaqat maktab yoki davlatning vazifasi, balki butun jamiyatning ma’suliyatidir.

Davlat ta’lim muassasalari ko‘pincha moddiy-texnik bazani ta’minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, NNT va xususiy sektor sheriklik orqali qo‘shimcha resurs, grant va texnologiyalar bilan yordam beradi. Davlat sektorining jamoat tashkilotlari bilan sheriklik o‘rnatishi esa davlat tizimining legitimligini oshiradigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Jamoat tashkilotlari uchun bunday sheriklik tashkiliy rivojlanish, qo‘shimcha resurslarga ega bo‘lish, lobbizm mahoratining shakllanish, NNTning jamiyatda tan olinishi - statusining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Bizningcha, bu jarayon juda muhim, chunki NNTning kuchi jamiyat bilan hamkorlikda namoyon bo‘ladi. Mazkur sheriklik biznes sektori uchun ham brendining obro‘sini yaxshilaydi, mahalliy bozorda unga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllantiradi, risklarni boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, yangi kadrlarni jalb qilish, ushlab turish va ularning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu orqali biznesning gumanizatsiyasiga xizmat qiladi[5]. Shunday qilib, bu sheriklik uch sektorga ham foyda keltiradi. Endi bu sheriklik inklyuziv ta’limga nima beradi?

NNTlar xorijiy tajribalari olib kirib, mahalliy sharoitga moslashtiradi. Masalan, maxsus o‘quv dasturlari, moslashtirilgan ko’rgazmali materiallar, axborot texnologiyalari orqali ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Bularning barchasi sektorlararo sheriklikda amalga oshiriladi.

Sektorlararo sheriklik O‘zbekistonda qanday natijalarni olib keldi? Vazirlik va mahaliy NNTlar hamkorligida inklyuziv sinflar tashkil etildi. Rasmiy statistikaga ko‘ra 2022-2023 o‘quv yilida inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablar soni va ularga biriktirilgan pedagoglar haqida ma’lumotlar e’lon qilindi - bu davlat va NNTlar hamkorligini amaliy natijasidir[6]. Xususiy sektorlar bilan esa qurilish kampaniyalari mahalliy biznes vakillari maktab va maktabgacha ta’limda pandus, lift va maxsus jihozlarni o’rnatishda homiylik qilmoqda. Bunda NNTlar loyiha konseptsiyasini ishlab chiqadi va nazoratni ta’minlaydi, xususiy sektor esa moliyaviy va texnik yordam ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bizningcha, inklyuziv ta’lim – nafaqat davlatning, balki butun jamiyatning mas’uliyatidir. Nogironligi bor bolalarga ta’lim berishda davlat resurs va imkoniyatlar yaratib berar ekan, NNTlar va xususiy sektor ham o‘z hissasini qo‘shishi zarur. Biz ishonamizki, sektorlararo sheriklik nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlaydi, balki ota-ona, mahalla va jamiyatning ongida ham inklyuzivlikni qaror toptiradi.

Biz uchun eng muhim jihati – har bir bola, imkoniyati qanday bo‘lishidan qat’i nazar ta’lim olishga va o‘z tengdoshlari bilan bir safda rivojlanishga haqli ekanligini tan olishdir. Bu jarayonda har bir insonning hissasi muhim, chunki kichik ko‘mak ham katta natijaga olib keladi. Agar davlat, NNTlar, xususiy

sektor, mahalla va har bir fuqaro birgalikda harakat qilsa, inklyuziv ta’lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarning, balki butun jamiyatimizning kelajagini yuksaltiradi va ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonda 1 mln nafardan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar bor — IHMA https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/15/disability/
2. Academician Akmal Saidov on ratification by Uzbekistan of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities https://www.uzembassy.uk/news/658?utm_source=chatgpt.com
3. Sanjar Saidov Ijtimoiy kapital-fuqarolik jamiyatining muhim mezoni-Toshkent: Kafolat print company, 2019.-176b 12-bet, 16, 78
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://constitution.uze?utm
5. ASEAN Journal of Community Service and Education. https://ejournal.bumipublikasinusantara.
6. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan inklyuziv ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar https://uzedu.uz/uz/news/1271?utm_source

FUQAROLIK JAMIYATIDA AYOLLAR VA YOSHLARNING YETAKCHI O`RNI

Safarova Marjona Laziz qizi va Sharifova Arjumandbonu Hamid qizi,
O`zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Xalqaro Jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik yo`nalishi 3-bosqich talabalari
smarjona462@gmail.com
arjumandhamidovna7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati isntitutlarida ayollar va yoshlarning o`rni, ularning faol ishtiroki hamda yetakchilik darajalari ko`rib chiqiladi. Shuningdek mavjud muammolar va ularning sabablari, yechimlati berib o`tilgan. Natijada ayollar va yoshlarning fuqarolik jamiyatidagi faolligi demokratik asosiy omillaridan biri sifatida yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Fuqarolik jamiyati, ayollar, gender tengligi, yoshlar, yoshlar siyosati, O`zbekiston- 2030 strategiyasi

Fuqarolik jamiyati o`zi nima? Biz bilamizki fuqarolik jamiyati- davlat va fuqarolar o`rtasidagi ko`prik bo`lib aholi manfaatlari va huquqlarini himoya qiluvchi bir vositadir. Bunday jamiyatning barqaror rivojlanishida ayollar va yoshlarning faol ishtiroki muhim o`rin kasb etadi, shuningdek, fuqarolik jamiyati rivoji “Yangi O`zbekiston - Yangi taraqqiyot davri” g`oyasi bilan

bog`liq. Ya’ni, aholining siyosiy faolligini oshirish va fuqarolik institutlari rolini kuchaytirishdir. Hozirgi rivojlanayotgan davrda jamiyatda ayollarning o`rni sezilarli darajada oshayotganini ko`rsak bo`ladi. Ayollarning jamiyatdagi o`rni ijtimoiy tenglik sari muhim qadam deb qaraydigan bo`lsak bu jarayon iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda ham ulkan o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda. Jamiyatda ayollarning faolligi ularning o`z huquqlari uchun kurashishlari hamda o`zlarining rivojiga ham hissa qo`shmoqda. Ayollar faolliga tarixiy davr bilan qaraydigan bo`lsak, biz bilamizki jamiyatda ayollarning o`rni doimiy ravishda o`zgarib kelgan. O`tgan asrlarda aksariyat ayollarning huquqlari cheklangan bo`lib, ularning ishtiroki ko`p hollarda inobatga olinmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollar huquqlari uchun harakatlar, xususan suffragetlarning (saylov huquqi uchun kurashuvchi ayol) saylov huquqi uchun kurashi tenglik sari ilk qadamlardan biri hisoblanadi [1].

Bugungi kundagi ayollarimizga saylov huquqiga egalik, iqtisodiyot, siyosat, fan va sa`nat kabi sohalarda ishtirokini ko`rsak bo`ladi. Bunga misol qilib oladigan bo`lsak dunyoning turli mamlakatlarida ayollar prizedent, bosh vazir, korparatsiya raxbarlari sifatida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Statistik ma’lumotlarga qaraganda ayollarning siyosatga aralashuv foizi O`zbekistonda 38% tashkil etadi. Bu ko`rsatgich foizlari qo`shni mamlakatlar Qozog`istonda ~ 27%, Tojikistonda ~ 26-27%, Turkmanistonda ~ 25-26%, Qirg`izistonda ~ 20-22% ni tashkil etadi. Bu jarayon jamiyatda nafaqat tenglikdi ta’minlash balki umumiy farovonlikni oshirishda ahamiyti juda kata. Iqtisodiyotda ayollar ishchi kuch sifatida ishtiroki ularning moliyaviy mustaqilligini oshiradi buning natijasida ayollarning oiladagi va jamiyatdagi o`rni hamda qaror qabul qilish jarayonlarida faol bo`lishiga yordam beradi. Misol uchun BMT ma’lumotlariga ko`ra ayollarning iqtisodiy faolligi global iqtisodiyotga trillion dollarlab foyda qo`shishi aytilgan. Mehnat bozorida ayollarning ishtiroki ularning shaxsiy farovonligini oshirib iqtisodiy o`sishni rag`batlantiradi. Hozirgi davrda ayollar iqtisodiy balki ta’lim sohalarida ham o`z o`rinlariga ega bo`lib bormoqda. Ayollarning ta’lim sohasidagi faolligi jamiyatning intelektual salohiyatini oshirishga yordam bermoqda. Jamiyatda ta’lim olgan ayol nafaqat o`z hayotini balki yosh kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o`ynaydi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlarida ayollar NNTlari, jamoatchilik kengashlari va tadbirkorlik subyektlarining o`rni tobora ortib bormoqda. Ayollarning ta’lim sohasidagi faolligi jamiyatning intelektual salohiyatini oshirishga yordam bermoqda. Jamiyatda ta’lim olgan ayol nafaqat o`z hayotini balki yosh kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o`ynaydi. O`zbekiston mustaqillikga erishgach, gender tenglik masalasi muhim bir davlat siyosatiga aylandi. Jamiyatda gender tengligi huquqiy talab, fuqarolarning ongini, ma’sulyatini va

ishtirokini belgilovchi ma’naviy qadriyat sifatida qaralmoqda. O`zbekistonda ayollarning siyosiy hayotga kirib kelishini tarixiy bosqichlarda ko`rsak bo`ladi.

XX asrda ayollarning ijtimoiy hayotga jalb etilish siyosati keng miqyosda targ`ib qilingan bo`lsa-da, u davrda ko`proq tashkiliy tusda kechgan. Mustaqillikga erishganimizda so`ng ayollarning siyosatga kirib kelish tashabbusga asoslangan bo`lib, ongli va fuqarolikka yo`naltirilgan harakatga aylandi. 1992 – yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46–moddasida “Xotin – qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” degan norma mustahkamlanib, gender tengligi siyosatining huquqiy poydevori yaratildi [2]. Keyinchalik 2019 – yilda bu yo`nalish muhim bosqichda boshlandi. “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida”gi qonun qabul qilinib, ayollar siyosiy hayotda, davlat boshqaruvida, ijtimoiy faoliyatda teng ishtirok etishning kafolatlari belgilab berildi.

O`zbekiston tarixida ilk bor parlamentda xotin – qizlar soni tavsiya etilgan darajaga yetib, qaryib 32% tashkil etdi hamda dunyodagi 190 parlament orasida 37-o`rinni egalladi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 %, siyosiy partiylarda 44 %, oliy ta’limda 40%, tadbirkorlikda 35 % ni tashkil etadi. Hozirgi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 %, senat a’zolarining 24 %, Qoroqolpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengashi, xalq viloyatlar, Toshkent shahar va tuman Kengashlari deputatlarining 25 % ayollardan iboratdir. 2020 – yilning dekabr oyida Markaziy Osiyo mamlakatlari Yetakchi ayollar muloqoti tashkil etildi. 2021 – yil O`zbekiston mazkur Muloqotga birinchi bo`lib raislik qildi[3]. O`zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o`rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biridir. “Ayollarni qo`llab-quvatlash va oila institutlarini mustahkamlash” jamg`armasi faoliyati natijasida respublika miqyosida ayollarga iqtisodiy yordam ko`rsatish va ularni tadbirkorlikka jalb etish, kasb – hunarga o`qitish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ishlari yo`lga qo`yilgan. “Har bir ayol – tadbirkor”, “Ayollar daftari” kabi dasturlar minglab xotin–qizlarni o`z biznesini yo`lga qo`yish va o`z daromad manbaiga ega bo`lish imkoniyatini yaratdi. Bugungi kunda fuqorolik jamiyatining ayollar nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyat yuritmoqda. Bu tashkilot xotin – qizlarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishda muhim rol kasb etadi. Masalan bunday tashkilotlar “Ayollarni qo`llab – quvvatlash markazi”, “Biznes ayollar uyushmasi” kabi NNTlar mamlakat miqyosida faoliyat yuritib, minglab ayollarni o`z atrofida birlashtirgan. Ayollarning tashabbuslarini ilgari surishda jamoatchilik kengashlari va davlat organlari

faoliyati muhim rol o`ynamoqda. Ular orqali ayollar ta'lim, sog`liqni saqlash, oilaviy munosabatlar, bandlik va takliflarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo`lmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar ajratildi. Hozirda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining 30 % ayollar boshqaradi. Ayollar nafaqat oilasiga, balki jamiyat iqtisodiy rivojiga ham o`z hissalarini qo`shmoqda. Bundan tashqari Markaziy Osiyo mamalakatlarida ham gender tengligi siyosatini rivojlantirish ularni yetakchilik salohiyatini oshirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Qozog`istonda ayollar harakati mustaqillikning dastlabki yillaridan faol shakllangan bo`lib, "Ayollar kongressi", "Qozog`iston ayollari assotsiatsiyasi" kabi yirik NNTlar gender siyosatini ilgari surishda, oilaviy zo`ravonlikka qarshi kurashda va tadbirkor ayollarni qo`llab-quvvatlashda muhim rol o`ynaydi. Huddi shuningdek davlat tomonidan "Business Lady KZ" kabi dasturlar orqali ayollarga kreditlar va biznes-treninglar taqdim etilmoqda. Qozog`iston parlamentida ayollar ulushi 30 % oshgani davlat siyosati samaradorligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo davlatlaridan biri Qirg`izistonda ham ayollar NNTlari va jamoatchilik tashkilotlari juda faol. Bunday tashkilotlardan biri "Forum of Women's NGOs", "Aiyl Demilgeluu" kabi tashkilotlar xotin-qizlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy faolligini oshirishda yordam qilmoqda. Tojikistonda ayollar huquqlari va ularni ijtimoiy hayotga jalb etish masalalari so`ngi vaqtlarda ancha faollashgan. "Tojikiston ayollari assotsiatsiyasi", "Nigoh" markazi va NNTlar ayollarni iqtisodiy mustaqillikka erishish, oila va sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish yo`nalishida o`z faoliyatini yuritmoqda.

2020 – yildan boshlab ayollarga kichik biznesni rivojlantirish uchun maxsus davlat grantlari ajratilishi ijobiy o`zgarishlaridan biri deb aytsak bo`ladi. Turkmaniston davlatida ham ayollar tashkilotlari asosan "Turkmaniston ayollar itiifoqi" atrofida birlashganlar. Tashkilot mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ayollar bandligini ularni kasb hunarga yo`naltirish va milliy qadriyatlarni rivojlantirishda faol ishtirokchidir. Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlarida ayollar NNTlari, jamoatchilik kengashlari va tadbirkorlik subyektlarining o`rni tobora ortishi, ayollar uchun yaratilgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar ularning nafaqat o`z hayotida balki butun jamiyatda faol o`rin egallashiga yo`l ochmoqda. Ayollar bilan bir qatorda yoshlar ham fuqarolik jamiyatining ijtimoiy faol qatlamini tashkil etib, davlat va jamiyat hayotida muhim o`rin egallamoqda.

Hozirda O`zbekistonda yoshlar 60% ni tashkil etadi va bu esa yoshlar fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchidir. Nafaqat O`zbekiston bali har

qanday davlatning kelajagi, fuqarolik jamiyatining mustahkamligi yosh avlodning faolligiga bog`liq shu sababli Yoshlar o`z ishtirokini NNTlar, ekologik harakatlar va o`z g`oyalari bilan ishtirok etmoqda. Bu jarayonlar davlatimiz tomonidan ham rivojlantirib kelinmoqda yoshlar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlar masalasi ustuvor yo`nalish sifatida belgilanib, yoshlarning faqatgina ta’lim va kasbiy rivojlanishi uchun ularga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish, “Yoshlar akademiyasi”, “IT-Park” va “Start-up” markazlari orqali zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni o`rganish, yoshlarni chet tillarini o`rganishi va xorijiy davlatlarda o`qib kelish va tajribalarni o`rganish uchun sharoitlar yaratish ko`zda tutilgan.

Yoshlar chet tillarini o`rganish uchun ularga davlat tomonidan subsidiyalar berilmoqda. Bundan tashqari ular ish bilan ta’minlash davlatda ishsizlar foizini kamaytirish va yoshlarning o`z biznes va start-uplarini rivojlantirish uchun turli xil grantlar hamda soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam olishga turli imkoniyatlar sonini ko`paytirish, yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun Yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlar agentligi va Yoshlar ishlar kengashlari faoliyati kengaytirildi va ushbu tuzilmalar orqali yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyati mavjud bo`ladi, shuning yoshlar siyosiy madaniyatini oshirish uchun ta’lim muassasalarida maxsus dasturlar tashkil etilmoqda. Sport sohasida esa yosh sportchilarni xalqaro maydonga olib chiqish uchun ularga bu dasturda ham moddiy va ma’naviy rag’bat berish belgilangan [4].

Yoshlar faqat davlat tomonidan emas nafaqat fuqarolik jamiyatining muhim institutlari- siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va NNTlar orqali faoliyatlari qo`llab-quvvatlanmoqda. Siyosiy partiyalar tarkibida “Yoshlar qanotlari” yoshlarni siyosiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirib, o`z g`oyalarini targ`ib qiladi hamda kelajakdagi raxbar sinflarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. NNTlar esa yoshlarning ijodkorligini qo`llab-quvvatlaydi,xalqaro darajalarga chiqishga yordam beradi,siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga ko`maklashadi hamda yangi g`oyalarni moliyaviy tomondan rag`batlabtiradi. ‘Yoshlar Akademiyasi” va ‘Yoshlar kelajagimiz “jamg`armalari davlatimizda yirik nodavlat notijorat tashkilotlardan biri hisoblanadi. Har ikkala NNT o`z doirasida kelib chiqib yoshlarga turli yo`nalishlarda yordam beradi. Masalan ‘Yoshlar kelajagimiz” jamg`armasi asosan tadbirkorlik va iqtisodiy faollikka e’tibor qaratadi.

Bir qarashda hammasi mukammaldek ko`rinadi lekin har bir narsaning ikkinchi tomoni bor bo`lgani kabi yoshlar masalasi ham bundan holi emas. To`g`ri markaziy hududlarda davlatning yoshlar siyosati yaxshi davom ettirib kelinmoqda, biroq ayrim chekka hududlarda yashovchi yoshlar uchun

yaratilgan imkoniyatlar hali ham markaziy shaharlardagidek samarali emas. Malakali o`qituvchilar ko`p hollarda markazlarda mavjud bo`ladi bu esa markaziy, bu esa ta’lim sifati va yoshlarning bilim darajasida markaz va chekka hududlar o‘rtasida katta tafovutni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari ish o`rinlarining kamligi yoki mavjud ish o`rinlarining ish haqqi kamligi yoshlarning migratsiya oqimiga kelib qo`shilishiga sababchi bo`lmoqda. Barcha hududlarda ham infratuzilma yaxsho darajada emas va bu yoshlarning axborot davriga qo`shilishini sekinlashtirmoqda, ular turli loyihalar haqida kech eshitishmoqda yoki umuman eshitishmayapdi. Yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki sust va bu demokratiya qadryatlarining mustahkamlanishiga halaqit qilmoqda chunki shubxasiz yoshlar siyosiy jarayonlardan chetda qolsa, jamiyatda ishonchsizlik kuchayadi.

Yechim sifatida har hududning iqtisodiy salohiyati va demografik tarkibini hisobga olgan holda, yoshlar bandligini oshirishga yordam beradigan strategiyalarni qo’llash va hozirgi kunda eng asosiy muammo maktab darsliklari maktabdan keying ta’lim o’quv dasturlariga mos emas va yoshlar qo’shimcha pul hamda o’z vaqtlarini sarflab turli xil qo’shimcha darslarga borishmoqda, shu sababli o’quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib borish lozim. qo’llash Bu kabi muammolar soni faqat tepadagilar bilan cheklanmagan ularning sonida ko`p va ularni yechimlari yuzasidan ishlar olib borilmoqda va bu aniqki vaqt oladi. Zero, oddiy tomchi daryoga aylanishi uchun ham biroz muddat kerak bo`ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati- xalqning birligi, ayollar va yoshlar esa uning asosiy tayanchi. Ularning siyosiy jarayonlarda ishtiroki, ijtimoiy hayotdagi, iqtisodiy mustaqilligi mamlakatning demokratik rivojlanish darajasini belgilab beradi. Shu boisdan davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar – gender tenglik siyosati, yoshlar siyosati va partiyalar hamda NNTlar faoliyati orqali ayollar hamda yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda. Bu ikki qatlamning mustahkamlanishi O`zbekistonning barqaror taraqqiyoti va fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun eng muhim yo`nalishlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samdu.uz, Gender tarixiga bir nazar.
2. O`zbekistonda gender siyosatiga e’tibor yanada kuchaymoqda www.nhrc.uz
3. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi konvensiya
4. Lex.uz

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUQAROLIK INSTITUTLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Odiljonov Hamidullo Xayrullo o'g'li,
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Siyosatshunoslik 3-kurs talabasi
Tel: +998907756919,
odiljonovhamidullo05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda fuqarolik institutlarining siyosiy, ijtimoiy va huquqiy hayotdagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Fuqarolik institutlari nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, yoshlar va ayollar birlashmalari kabi tuzilmalar orqali jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Maqolada ularning davlat boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishdagi roli va demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqboldagi yo‘nalishlar haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik institutlari, siyosiy tizim, demokratiya, siyosiy islohotlar, O‘zbekiston, jamoatchilik ishtiroki.

Ma’lumki, bugungi globallashuv davrida fuqarolik jamiyati har bir mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin egallamoqda. Chunki u demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi, fuqarolarning faolligi va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.Fuqarolik institutlari — nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, yoshlar va ayollar birlashmalari — davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning manfaatlarini ifoda etishda faol ishtirok etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik eshituvlarini yo‘lga qo‘yish, axborot erkinligini ta’minlash kabi islohotlar fuqarolik institutlarining siyosiy tizimdagi rolini kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatda demokratik qadriyatlarni chuqurlashtirish va fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda fuqarolik institutlarining o‘rni, ularning siyosiy tizimga ta’siri hamda O‘zbekistonda bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati tahlil qilinadi.

Fuqarolik jamiyati — bu fuqarolarning o‘z manfaatlarini erkin ifoda etish, himoya qilish va ularni amalga oshirish uchun yaratilgan ijtimoiy tizimdir. U

davlatdan mustaqil, ammo davlat bilan hamkorlikda ishlovchi turli ijtimoiy tuzilmalar, tashkilotlar va harakatlarni o‘z ichiga oladi[1]. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga erkin fikr, ixtiyoriy uyushmalar, qonun ustuvorligi, oshkoralik va jamoatchilik nazorati kiradi. Tarixan bu tushuncha Yevropada XVIII–XIX asrlarda shakllangan bo‘lib, Hegel, Lokk, Monteskyö, Russo kabi mutafakkirlar fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va ijtimoiy adolatning kafolati sifatida talqin qilganlar. Bugungi kunda esa bu tushuncha nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ham ajralmas qismiga aylangan.

Fuqarolik institutlari jamiyat hayotida “ko‘prik” vazifasini bajaradi — ular davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olishga yordam beradi. Masalan, OAV (ommaviy axborot vositalari) — jamoatchilik nazoratining eng samarali vositasi sifatida chiqadi. U davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minlab, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) aholining turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, yoshlar tashkilotlari, ekologik harakatlar va ayollar birlashmalari ham fuqarolik institutlarining faol qismini tashkil etadi. Ular nafaqat ijtimoiy muammolarni ko‘taradi, balki davlat dasturlarini amalda qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlanishga hissa qo‘shadi[2].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan “Yangi O‘zbekiston” islohotlar siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan[3]. 2021-yilda qabul qilingan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish strategiyasi” bu borada tub burilish yasadi. Mazkur strategiya doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash, shuningdek, jamoatchilik eshituvlari, fuqarolik tashabbuslarini moliyaviy rag‘batlantirish hamda ijtimoiy loyihalarni grant asosida moliyalashtirish tizimi joriy qilindi[4]. Natijada fuqarolik institutlari nafaqat davlat siyosatini kuzatuvchi, balki uni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi subyektga aylandi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv va ochiqlik tamoyillarini rivojlantirish maqsadida “Elektron hukumat”, “Ochiq budjet”, “Jamoatchilik fikri”, “Mening fikrim” kabi platformalar joriy etildi [5]. Ular fuqarolarga davlat qarorlarini muhokama qilish, byudjet mablag‘larining sarflanishini kuzatish va ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama etish imkonini yaratdi. Masalan, “Ochiq budjet” portali orqali aholining tashabbuslari asosida mahalliy infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda, “Jamoatchilik fikri” portali esa fuqarolarning taklif va

shikoyatlarini tezkor tarzda davlat idoralariga yetkazib beradi. Bundan tashqari, fuqarolik institutlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, Oliy Majlis huzuridagi jamoatchilik palatasi va turli sohaviy kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi[6]. Bu tuzilmalar nodavlat sektor, fuqarolar va davlat organlari o‘rtasida muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida O‘zbekiston fuqarolik jamiyati tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Endilikda fuqarolik institutlari faqat nazoratchi emas, balki davlatning ijtimoiy sherigi, jamiyat hayotidagi faol o‘zgarishlarning bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu esa mamlakatda demokratiya tamoyillarining amaliyotda qaror topishiga, davlat boshqaruvida oshkoralik, hisobdorlik va ishonch muhitini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik institutlari demokratik jamiyatning tayanchi bo‘lib, ular orqali fuqarolar o‘z huquq va manfaatlarini erkin ifoda etadi. Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatining shakllanishi nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham kafolatidir. Shunday ekan, fuqarolik institutlarini yanada rivojlantirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish — demokratik taraqqiyotning muhim shartidir. Kelajakda fuqarolik institutlari nafaqat davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi, balki ijtimoiy hayotni boshqarishda faol ishtirok etuvchi mustaqil kuchga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. —T.: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–234-sonli qarori “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. — Toshkent, 2021.
3. Karimova M. Fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlar. –T: Istiqlol, 2020.
4. Bobojonov S. Siyosatshunoslik asoslari. —T.: Akademnashr, 2019.
5. “Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot” jurnali. — 2023, №2.
6. Oliy Majlis huzuridagi Jamoatchilik palatasi faoliyati haqida: www.chamber.uz.

DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA FUQAROLIK JAMIYATINING YANGI QIYOFASI

Berdiqulov Alisher Xayriddin o'g'li, Olimov Bobur Odilovich,
O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishining 3-bosqich talabalari
(+998958885007) (+998918117575)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayonidagi zamonaviy tendensiyalar yoritilgan. Unda normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, nodavlat tashkilotlarining faollashuvi, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, mahalla institutining takommilashuvi hamda jamoatchilik nazoratining kuchayishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy ettilishi xalqaro hamkorlikning kengayishi, ijtimoiy faollikning ortishi va ekologik tashabbuslarning rivojlanishi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi asosiy omillar sifatida korib chiqilgan. Maqolada O'zbekistonda demokratik qadriyatlar va inson huquqlarini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, nodavlat tashkilotlar, OAV (ommaviy axborot vositalari), mahalla instituti, jamoatchilik nazorati, raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, ijtimoiy faollik.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy-siyosiy hayotda tub burilishlar yuz berdi. Bu jarayonlarning eng muhim jihatlaridan biri fuqarolik jamiyatini shakillantirish va uni barqaror rivojlantirish masalasi bo'ldi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lib u demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat, erkinlik va inson huquqlarini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqillikdan keying yillarda O'zbekiston siyosiy tizimning asosiy tamoyillaridan biri sifatida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanitish, davlat va jamiyat o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish ustivor vazifa deb belgilandi.

Fuqarolik jamiyatining mohiyati shundan iboratki, u davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Ya'ni fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy adolatni ta'minlash huquqiy davlat barpo etish va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning ham muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash yo'lida keng ko'lamli islohotlar amlaga oshirilmoqda. Xususan, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar, inson huquqlarini ta'minlashga oid

qator qonunlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlar buning yaqqol dalilidir. Davlat boshqarmasi tizimida “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ta'moyilning ustuvor bo'lib borishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratmoqda.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilsh bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi xalqaro hamkorlikning rivojlantishi va yangi ijtimoiy ehtiyojlar fuqarolik jamiyati institutlaridan yanada faolroq bolishni talab etmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya davrida elektron hukumat tizimi ochiq ma'lumotlar portallari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn muloqot platformalari fuqarolik jamiyatining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada oshirishga, ularning huquq va erkinliklarini kengroq amalga oshirishiga xizmat qilmoqda. “Ochiq va erkin jamiyatni barpo etish – bizning bosh maqsadimizdir,” degan g'oya hozirgi islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab bermoqda. Bu esa, bir tomondan, davlatning ochiqligi va hisobdorligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shunday qilib O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi keng qamrovli va izchil jarayondir. Uni zamonaviy tendensiyalar nuqtayi nazaridan o'rganish fuqarolik institutlarining imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni hal etish va kelgusida istiqbollarni belgilash imkonini beradi. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlari, zamonaviy yo'nalishlari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Xulosa. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng davlat va jamiyat taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish eng muhim strategik vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning markazida inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash tamoyili turibdi. Fuqarolik jamiyati – bu nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshiruvchi, balki fuqarolarning o'zini o'zi anglashini, tashabbuskorligini va ijtimoiy ma'suliyatini kuchaytiruvchi tizimdir.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining shakllanishida bir qator zamonaviy tendensiyalar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlarining faollashuvi, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, mahalla institutining takomillashuvi, ommaviy axborot vositalarining erkinligi, mahalla demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, xalqaro hamkorlikning rivojlanishi va yosharning ijtimoiy faolligi fuqarolik jamiyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bolmoqda.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi jarayoni oldida hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Bu – aholining huquqiy ongini yuksaltirish, nodavlat sektorning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, OAV faoliyatining yanada erkinligini ta'minlash kabi masalalardir. Mazkur vazifalarning izchil amalga oshirilishi fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati zamonaviy demokratik tamoyillari asosida shakllanib bormoqda. Davlat va jamiyat o'rtasidagi ochiq muloqot, fuqarolarning faolligi, inson huquqlarining kafolatlanganligi, ijtimoiy tashabbuslarning qo'llab-quvvatlanishi kelgusida ham mamlakatimiz taraqqiyoti va xalq farovonligining muhim kafolati bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent, “O'zbekiston”, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: Adolat, 2023 (yangi tahrir).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va xalqimizga murojaatnomalari. –Toshkent: O'zbekiston, 2017-2023 yillar.
5. Qosimov B., Jo'rayev T., Raximov M. Fuqarolik jamiyati asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

IJTIMOIY TARMOQLAR VA UNING FUQAROLIK JAMIYATIGA TA’SIRI: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Abdullayev Mirzobek Norbek o‘g‘li, Samarov E’zozbek Ravshan o‘g‘li

O‘zDJTU Xalqaro Jurnalistika fakulteti siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabalari (+998901827335, mirzoabdullayev5@gmail.com)
(+998900043194, ezozbeksamarov1@gmail.com)

Annotatsiya: Globallashuv juda yuqori bo‘lgan hozirgi zamonda, tabiiyki ilg‘or texnologiyalar barcha insonlarda topiladi. Jamiyatning aksariyat qismi zamonaviy aloqa vositalari ya’ni, gadjetlar, smartfonlar, kompyuterlarga egadirlar. Bu o‘z-o‘zidan insonlarning ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirokini ta’minlaydi. Natijada, fuqarolik jamiyati rivojlangan yoki aksi bo‘lgan butun dunyo mamlakatlarida yuqorida keltirilgan holat o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirlarini ko‘rsatib boradi. Ushbu maqolada esa aynan fuqarolik jamiyatining

zamonaviy dunyoda shakllanishi yoki rivojlanishi, bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarning fuqarolik jamiyatiga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin.

Kirish so‘zlar: globallashuv, ijtimoiy tarmoq, fuqarolik jamiyati, kiberxavfsizlik, ijtimoiy polarizatsiya, jamiyat, NNT, siyosiy partiya, kasaba uyushmalari, manipulyatsiya.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat shaxsiy aloqalarni o‘rnatish va yangiliklardan xabardor bo‘lish imkonini beruvchi platformalar sifatida, balki fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, o‘z navbatida, insonlarning fikrlarini, g‘oyalarini va tajribalarini boshqalar bilan bo‘lishish imkoniyatini yaratadi, bu esa fuqarolik jamiyatining faolligini oshiradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri faqat ijobiy tomonlari bilan cheklanmaydi. Ular bir vaqtning o‘zida xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ma'lumotlarning noto‘g‘ri tarqatilishi, kiberxavfsizlik muammolari va ijtimoiy polarizatsiya kabi masalalar ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirlaridan biridir. Shuning uchun, ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar va fuqarolik jamiyatining o‘zaro aloqasi, ularning imkoniyatlari va xavflari batafsil tahlil qilinadi.

Dastlab fuqarolik jamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish zarurki, ya’ni fuqarolik jamiyati — bu ijtimoiy hayotning davlat ta’siridan xoli bo‘lgan, fuqarolar o‘zaro munosabatlar, tashkilotlar va institutsiyalar orqali shakllanadigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan, yuqori darajada rivojlangan jamiyat. Bu jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari asosiy o‘rinni egallaydi va fuqarolar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi. Fuqarolik jamiyati, asosan, davlatdan mustaqil bo‘lgan va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar, guruhlar va shaxslar majmuasidan iborat. Fuqarolik jamiyatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: NNT (nodavlat notijorat tashkilotlar), ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoatchilik guruhlari, madaniy va ta’lim guruhlari kabi tashkilotlardir. Ushbu tashkilotlarning hozirgi rivojlangan dunyoda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, shuningdek ularning o‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoki xabarlarni ommaga e’lon qilishi uchun ancha qulay imkoniyatlar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lon qilinishlarining ham sabablari ko‘pdir. Ulardan biri shuki, dunyo aholisining qariyb 67-69% qismi ya’ni, 5,5 milliarddan ortiq aholi internetdan foydalanib kelmoqdalar va eng asosiysi bu faol ravishda amalga oshirilayabdi [1]. Bu fuqarolik jamiyati institutlariga davlat va jamiyat o‘rtasida mustahkam va doimiy aloqalarni o‘rnatish uchun qulaydir. Misol tariqasida aytish mumkinki, siyosiy partiyalar ham fuqarolik jamiyati ya’ni NNT hisoblanadi. Ular ham o‘z faoliyatini yuritishda ijtimoiy tarmoqlarga tayanadi. Ya’ni ular targ‘ibot ishlari,

kunlik, oylik qilib borilayotgan ishlarini yoritib borishda, yangiliklarini e'lon qilishda turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Jamiyatning aksariyat qismi bu holatda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu o'rinda bu vaziyatning salbiy jihatlarini ham ko'rish mumkin. Agar ijtimoiy tarmoqlardan kelgan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati bo'lmagan yoki to'g'ri ma'lumotni noto'g'risidan farqlay olishni bilmagan aholi propagandaga tushib qolishi mumkin. Sababi ma'lumotlarni to'liq va aniq qilib yetkazib berishdan ko'ra tezroq xalqqa ulashish muhim hisoblanadi. Bu orqali xalqning qaysidur qismi yolg'on ma'lumotga ega bo'lib, salbiy g'oyalarni o'zida shakllantirishi mumkin. Shu sababli yolg'on ma'lumot tarqatish uchun bir qancha qonunlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunda aytilganki, "244[6]-modda. Yolg'on axborot tarqatish shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi" [3]. Vaholanki, aynan ma'lumotlarni tarqatayotgan blogerlar yoki boshqa xususiy tashkilot a'zolari bo'lib, qizig'i shundaki, ular ham fuqarolik jamiyati tarkibi hisoblanadi. Natijada fuqarolik jamiyati rivojlanishiga to'siq bo'ladigan omillar ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari boshqa bir ijobiy tomonga to'xtaladigan bo'lsak, bu davlat boshqaruvini har bir yo'nalishida yaqol ko'zga tashlanadi. "Yangi O'zbekiston taraqiyot strategiyasida" ham davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, ularning ochiqligi va shaffofligini kuchaytirish eng asosiysi jamoatchilik nazoratini tizimli ravishda yo'lga qo'yish alohida vazifa sifatida belgilab berildi [2]. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun davlat xizmatlarining barcha tizimida ijtimoiy tarmoqlarni qo'llash orqali fuqarolarning ortiqcha hujjatbozliklarni to'xtatishdir, asosiy vazifasi. Shuningdek, aholi orasida davlatga bo'lgan ishonchni oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning xizmati juda ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatining rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular odamlarning bir-biri bilan bog'lanishini, fikr almashishini va ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratishini osonlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda tashkil etilgan jamoalar va harakatlar, fuqarolarni birlashtirib, ularning ovozini kuchaytiradi va ijtimoiy adolat hamda huquqlarni himoya qilishda muhim vositaga aylanadi. Shuningdek, bu

platformalar orqali axborot tez tarqaladi, bu esa ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratishni va jamoatchilik fikrini shakllantirishni osonlashtiradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri faqat ijobiy tomonlari bilan cheklanmaydi. Ular, shuningdek, axborotning noto‘g‘ri tarqatilishi, manipulyatsiya va kamsitish kabi xavflarni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg‘on ma'lumotlar, hatto ijtimoiy tartibsizlik va ziddiyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu platformalarda kamsitish va nafrat nutqi ham keng tarqalgan, bu esa ijtimoiy birlashuv o‘rniga bo‘linishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim vosita bo‘lsa-da, ularning ta'sirini to‘g‘ri boshqarish zarur. Fuqarolar, davlat organlari va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, axborotning sifatini oshirish va ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy muhitni yaratish orqali bu xavflarni kamaytirish mumkin. Kelajakda ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi uchun, biz ulardan qanday foydalanayotganimizni chuqur o‘ylab ko‘rishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/15284/19361
2. https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/15284/19361
3. https://lex.uz/docs/-5186087?ONDATE=26.12.2020

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING FUQAROLIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Bozorova R.S.,

Toshkent Davlat Tibbiyot Universituti pediatriya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarining fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Nazariy yondashuvlar — jamoat maydoni (“public sphere”), agenda-setting, propaganda modeli, mediatizatsiya — orqali media instituti jamiyatdagi fuqarolik strukturasi bilan bog‘lanadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi holat, muammolar va takliflar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: media, fuqarolik ong, jamoat maydoni, propaganda, agenda-setting, mediatizatsiya.

Kirish: Ommaviy axborot vositalari (OAV) bugungi jamiyatda ma’lumot tarqatuvchi, fikr shakllantiruvchi va ijtimoiy monitoring rolini bajaruvchi vositadir. Demokratik jamiyatlarda jurnalistika va media — fuqarolik jamiyatining muhim poydevoridir. Jürgen Habermas jamoat maydon (public

sphere) tushunchasini ilgari surib, fuqarolar orasida ochiq muloqotni tashkil etuvchi vosita sifatida media institutining ahamiyatini ta’kidlagan. Media orqali axborot tarqalishi, muammolarni tahlil qilinishi, bahs-munozaralarga maydon ochilishi va tsivil madaniyatning shakllanishi mumkin. Shu bois, OAV fuqarolik ongini shakllantirishda bevosita rolga ega.

Jamoat maydoni (Public Sphere) Habermasning “The Structural Transformation of the Public Sphere” asarida jurnalistika va media institutlari fuqaro va davlat o‘rtasidagi muloqot maydoni sifatida ko‘riladi. Bu nazariya bo‘yicha media — fuqarolarga davlat siyosati, jamiyat hayoti bilan bog‘liq masalalar haqida bahs yuritish, fikr almashish platformasi.

Agenda-setting nazariyasi. Media muayyan masalalarga diqqatni jalb qiladi, odamlar nima haqida o‘ylashi kerakligini “belgilaydi”. McCombs va Shaw tomonidan ilgari surilgan ushbu nazariya ko‘plab tadqiqotlarda media ta’siri sifatida ko‘riladi.

Propaganda modeli. Edward S. Herman va Noam Chomsky “Manufacturing Consent” asarida media sanoati va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilar ekan, media kontenti qanday tanlanishi, nega ko‘p hollarda dominant fikrlarni qo‘llashi mumkinligi haqida nazariy model yaratgan. Bu nazariya media “erkin” bo‘lmasligi, balki iqtisodiy va siyosiy manfaatlarga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mediatizatsiya (Mediatization) Jamiyatning media bilan o‘zaro bog‘liqligi kuchaygani, barcha ijtimoiy sohalar (siyosat, madaniyat, ma’rifat) media logikasiga moslashgani tushunchasi. “The Handbook of Media and Mass Communication Theory” kabi asarlar bu yondashuvni qamrab oladi.

1.Media va fuqarolik ongi o‘rtasidagi mexanizmlar

Informatsiyalashtirish va ma’rifat. Media aholiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalar bo‘yicha axborot yetkazadi, qonunlar, huquqiy hujjatlar, davlat siyosati sharhlarini taqdim etadi. Shu orqali fuqarolar ongiga bilim, tahlil qilish qobiliyati kiradi.

Bahs-munozaralar maydoni. Bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar media orqali ochiq muhokama maydonini yaratadi. Shunday qilib, fuqarolar o‘z fikrlarini bildiradi, muammolarni ko‘taradi va javob talab qiladi.

Jamoatchilik nazorati. Media davlat va hukumat organlarining faoliyatini yoritadi, korrupsiya, nohaqlik kabi masalalarni ochib beradi. Bu orqali fuqarolik jamiyatida nazorat mexanizmi hosil bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun media faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi.

Tenglik va hamoniy ijtimoiy ovozlar. Media quyi qatlamlar, mahalliy jamoalar, ozchilik guruhlar ovozini ko‘tarishi kerak. Aks holda, “shovqin” va “malar” ovozlar yuqori darajada bo‘lishi mumkin.

2.Fuqarolik ongi va uning media bilan bog‘liqligi

Fuqarolik ong — bu shaxsning jamiyatdagi o‘rni, huquq va majburiyatlarini anglash darajasi, ijtimoiy mas’uliyat hissining shakllanishidir. U ijtimoiy tajriba, ta’lim, tarbiya va axborot muhitidagi faol ishtirok orqali rivojlanadi. Shuning uchun OAV fuqarolik ongining asosiy “katalizatori” hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida shunday degan edi: “Ommaviy axborot vositalari — bu to‘rtinchi hokimiyat. U jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va javobgarlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.” Bu so‘zlar OAVning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi strategik rolini yaqqol ko‘rsatadi.

3.Media orqali fuqarolik ongini shakllantirish mexanizmlari

3.1. Axborot yetkazish va ijtimoiy xabardorlikni oshirish. OAV fuqarolarga mamlakat siyosati, qonunlar, ijtimoiy loyihalar, islohotlar haqida to‘g‘ri va ishonchli ma’lumot yetkazadi. Masalan, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “Dunyo” axborot agentligi, “Gazeta.uz”, “Kun.uz” kabi platformalar aholiga muntazam axborot yetkazib, axborot asimmetriyasini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa aholining siyosiy qarorlarni anglashini va ularga munosabat bildirish madaniyatini rivojlantiradi.

3.2. Fuqarolik ishtiroki va ijtimoiy muloqotni kuchaytirish. Raqamli asrda blogerlik, onlayn jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, YouTube, X (Twitter)) fuqarolarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga undamoqda. Bu holat Habermasning “jamoat maydoni” nazariyasini amaliyotda ko‘rsatadi — ya’ni fuqarolar media orqali davlat bilan bevosita muloqotga kirishmoqda.Masalan, “Mening fikrim” portali yoki “Virtual qabulxona” tizimi orqali fuqarolar ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqishmoqda. Bu esa media vositasida fuqarolik faolligini oshirishning aniq dalilidir.

3.3. Ijtimoiy nazorat funksiyasi. OAV davlat idoralari, mansabdor shaxslar faoliyatini yoritib, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Mustaqil nashrlar yoki blogerlarning ijtimoiy adolatsizlik holatlarini yoritishi natijasida ko‘plab muammolar hal etilganini ko‘ramiz. Masalan, “O‘zbekiston 24” telekanalining “Muammo va yechim” ko‘rsatuvi yoki “Kun.uz”ning ijtimoiy tahliliy maqolalari jamoatchilik fikrini shakllantiradi va davlat organlarini javobgarlikka chaqiradi.

3.4. Media va huquqiy ong. Fuqarolik ongi tarkibiy qismi sifatida huquqiy ongni shakllantirishda OAV muhim vositadir. “Huquqiy axborot” ruknlari, “Adolat” gazetasi, “Huquq” jurnali va “E-ombor” portali orqali aholiga konstitutsion huquqlar, yangi qonunlar haqida ma’lumot beriladi. Bu fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshiradi va ularni faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo‘lishga undaydi.

3.5. Media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Bugungi kunda internetda soxta axborotlar (feyklar) va manipulyativ kontent ko‘paygani sababli, fuqarolarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarur.O‘zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023–2024-yillarda “Media va axborot savodxonligi” bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil etilgani bunga misoldir. Tanqidiy fikrlovchi fuqaro esa media orqali kelayotgan ma’lumotni tahlil qila oladi, bu esa ongli qarorlar qabul qilishga olib keladi.

4. O‘zbekiston sharoitida OAVning rivojlanish dinamikasi

1991-yildan keyingi mustaqillik davrida O‘zbekiston OAV tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi.

1997-yilda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi;

2019-yilda “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi” tashkil etildi;

2020-yilda “Axborot erkinligi” strategiyasi ishlab chiqildi;

2023-yilda “O‘zbekiston Respublikasida OAV faoliyatini yanada erkinlashtirish” konsepsiyasi tasdiqlandi.

Bugungi kunda mamlakatda 1 900 dan ortiq OAV, shu jumladan 500 dan ortiq internet-nashrlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 70 foizi nodavlat shaklida. (Manba: OAKAx, 2024-yil hisobot ma’lumotlari)

Bu ko‘rsatkichlar OAVning jamiyatdagi rolini ortib borayotganini isbotlaydi

5. Media institutining dolzarb muammolari

O‘zbekiston media tizimi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, bir nechta dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda: Media mustaqilligi masalasi — ba’zi nashrlar siyosiy yoki tijoriy bosim ostida ishlaydi. Axborot savodxonligi pastligi — ayrim fuqarolar yangilikni tahlil qilmay, uni haqiqat deb qabul qiladi. Feyk axborot va noto‘g‘ri talqinlar — ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmoqda. Hududiy notekislik — ayrim viloyatlarda internet qamrovi yoki jurnalistik imkoniyatlar past. Professional jurnalistika madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi — faktcheking, mediaetika kabi yo‘nalishlar rivojlanishi zarur.

6. Kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar

O‘zbekiston sharoitida fuqarolik ongi va media o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim: Mustaqil va erkin jurnalistikani qo‘llab-quvvatlash; Media sohasida xalqaro tajribalarni (BBC, DW, Al Jazeera) o‘rganish; Media va fuqarolik ta’limini maktab, kollej va universitet dasturlariga kiritish; Raqamli jurnalistika va faktcheking tizimini kuchaytirish; Yosh jurnalistlar uchun grant va tanlovlarni kengaytirish.

7. O‘zbekistonda media va fuqarolik ongining boshlang‘ich holati, muammolar va tendensiyalar

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston jurnalistika va media sohasida katta o‘zgarishlarni boshidan kechirdi: gazetalar, telekanallar ochildi, jurnalistlar faoliyati kengaytirildi.

Muammolar. Media erkinligi va senzura bilan bog‘liq cheklovlar. Qishloq va chekka hududlarda media infrastrukturasi zaif. Axborot savodxonligi pastligi — odamlarda media ma’lumotlarini tanlab o‘qish, tahlil qilish qobiliyati cheklangan. Propagandalash va siyosiy ta’sirlar

Tendensiyalar. Raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalar fuqarolik dialogida katta rol o‘ynamoqda. Davlat tomonidan media siyosatini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Media platformalari va jurnalistikani malaka oshirish, mustaqil jurnalizmni qo‘llab-quvvatlash

Tahlil va takliflar. Media institutlarini mustaqillik doirasida kuchaytirish**.** Hukumat va media o‘rtasida shaffoflik va himoya mexanizmlarini ta’minlash**.** Media savodxonligini oshirish — aholini tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, media tahlili kurslarini joriy etish**.** Qishloq hududlarga internet va media infratuzilmasini yaxshilash**.** Mustaqil jurnalistlarni qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika etikasini rivojlantirish.

Xulosa. Ommaviy axborot vositalari fuqarolik ongini shakllantirishda, jamiyatda ochiq muhokama platformasini yaratishda, davlat faoliyatini nazorat qilishda va media-savodxonlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, media instituti mustaqilligi, axborot savodxonligi va infratuzilma muammolari yechimini topishi zarur. O‘zbekiston sharoitida media siyosatini modernizatsiya qilish va fuqarolarni media bilan faol aloqada bo‘lishga undash — kuchli fuqarolik jamiyatining muhim elementi bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jürgen Habermas, The Structural Transformation of the Public Sphere.

2. Edward S. Herman va Noam Chomsky, Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media.

3. The Handbook of Media and Mass Communication Theory.

4. Ulugbek Hayitov, “The importance of the media in the processes of civil society development in Uzbekistan”.

5. “The role of mass media in the process of formation … in Uzbekistan” maqolasi.

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Олимова Мехрангиз Ферузовна
Студент факультета экономики НИУ ТИИМСХ 1-курс
E-mail: mehrangiz08mira@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль малого бизнеса в экономике Республики Узбекистан, а также анализируются меры государственной поддержки и направления его дальнейшего развития. Благодаря реализуемым государственным программам предприниматели малых предприятий сталкиваются с минимальными трудностями при осуществлении своей деятельности. Целью данного исследования является анализ современного состояния малого бизнеса в Узбекистане, выявление существующих проблем и разработка предложений по их эффективному решению. Исследования показывают, что малые предприятия достигли значительных успехов за последние годы, однако для дальнейшего устойчивого роста им необходимы новые возможности и усиленная государственная поддержка.

Ключевые слова: малый бизнес, предприниматель, государственная поддержка, развитие, экономика

За последние годы в Узбекистане произошли значительные позитивные изменения в сфере предпринимательской деятельности. Особое внимание уделяется поддержке молодежи в развитии малых предприятий. Благодаря комплексным мерам государственной политики, одарённые учащиеся и студенты получают возможность реализовать свой потенциал не только посредством материальной, но и физической, моральной и консультативной поддержки.

К формам физической поддержки можно отнести проведение конференций, выставок, форумов и специализированных программ различного масштаба, где предприниматели получают возможность обмениваться опытом, находить единомышленников и внедрять новые подходы к организации бизнеса.

Моральная поддержка выражается в организации тренингов, коучингов и консультационных сессий, в ходе которых начинающие предприниматели осваивают основы экономического учета, делового планирования и управления. Эти меры направлены не только на развитие профессиональных компетенций, но и на формирование уверенности в собственных силах и укрепление внутренней мотивации.

Малый бизнес – это источник доходов значительной части населения. Это наиболее гибкая часть рынка труда, где не обязательно

иметь полное представление большого рынка. Часто только так могут найти работу люди, не имеющие достаточного опыта или желающие иметь гибкий рабочий день. Это могут быть социально уязвимые слои населения: женщины, молодые люди, впервые ищущие метод заработка.

Так, проекты данной категории граждан финансируются за счёт Государственного фонда поддержки предпринимательской деятельности (рег. № 3192 от 4.11.2019 г.). Поддержка оказывается в форме предоставления поручительств, гарантий и компенсации процентных ставок по кредитам коммерческих банков за счёт средств указанного фонда.

Развитие малого бизнеса – один из главных направлений в экономике Республики Узбекистан. Эта атмосфера высокого уровня соперничества придает особое влечение к соперничеству. Через позитивное соперничество открываются скрытые таланты, а нашей целью на сегодняшний день должно быть обеспечение удобств и поддержка.

В настоящее время в Узбекистане активно реализуются ряд программ и инициатив, направленных на финансовую и консультационную поддержку субъектов малого предпринимательства. Среди наиболее значимых можно выделить следующие:

- Программа интегрированной поддержки малого бизнеса (2020 г.) — включает проведение тренингов, коучингов, консультаций, а также предоставление грантов до 10 000 долларов США на реализацию инновационных бизнес-идей.
- Комплексная программа «Непрерывная поддержка малого бизнеса» (2023–2026 гг.) — предусматривает выделение 6 трлн сумов из государственного бюджета и 1,2 млрд долларов США от международных финансовых институтов для поддержки предпринимателей.
- GEF Small Grants Programme — международная программа малых грантов, действующая в Узбекистане с 2005 года, ориентированная на поддержку экологических и сельскохозяйственных проектов.

Эти программы считаются наиболее результативными и активно внедрёнными на территории страны. Однако, наряду с ними, функционирует множество других государственных и международных фондов, способствующих развитию малого бизнеса.

В целях коренного повышения эффективности проводимых реформ, создания условий для обеспечения всестороннего и ускоренного развития государства и общества в Узбекистане президентом Ш. Мирзиёевым утверждено постановление №УК-306 от 14 сентября 2023 года «О мерах по финансовой и институциональной поддержке развития малого бизнеса», о чем и говорилось ранее.

Сектор малого бизнеса в Узбекистане продолжает демонстрировать устойчивый рост. По состоянию на 1 июля 2025 года в стране действовало 393 359 малых предприятий, не включая фермерские и дехканские хозяйства. Это на 35 тысяч больше, чем в начале года, что отражает активизацию предпринимательской инициативы и благоприятные условия для ведения бизнеса. Только за первое полугодие было зарегистрировано свыше 40 тысяч новых субъектов, а за январь–июль создано 47 796 предприятий, что свидетельствует о высоком уровне деловой активности.

С точки зрения отраслевой структуры, торговля традиционно остаётся самой популярной сферой для малого бизнеса, на неё приходится 32,6% всех зарегистрированных компаний. На втором месте — промышленность с долей 12,7%, отражающая тенденцию к развитию производственного сектора.

Важную роль играют также сельское, лесное и рыбное хозяйство (7,4%), строительство (6,3%) и услуги по проживанию и питанию (6,3%). Дополняют структуру такие направления, как транспортировка и хранение (3,6%), информация и связь (2,4%) и здравоохранение с социальными услугами (2,8%). При этом прочие виды деятельности составляют 25,9% совокупного числа предприятий.

В экономическом плане малый бизнес остаётся одним из основных драйверов развития страны. По итогам первого полугодия 2025 года его вклад в ВВП Узбекистана достиг 45,6%, что подтверждает значимость данного сектора для устойчивого экономического роста. За тот же период объем инвестиций превысил 72,7 трлн сумов, показав рост на 22,7% по сравнению с аналогичным периодом прошлого года.

Подводя итоги, можно отметить, что малый бизнес занимает стратегически важное место в экономике Республики Узбекистан. Государство последовательно развивает комплексную систему поддержки предпринимателей, объединяющую финансовые, образовательные и консультативные секторы. Дальнейшее совершенствование данной системы, расширение доступа к финансированию и повышение уровня профессиональной подготовки предпринимателей будут способствовать устойчивому развитию малого бизнеса и укреплению экономического потенциала страны.

Список литературы:

1. Инфографика: Развитие предпринимательства в Узбекистане в 2024 году https://review.uz/post/infografika-razvitie-predprinimatelstva-v-uzbekistane-v-2024
2. Национальный комитет по статистике Республики Узбекистан в своей статье: Увеличивается количество субъектов малого предпринимательства в отраслях https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/61511-sohalarda-kichik-tadbirkorlik-subyektlari-soni-ortmoqda-rt-2
3. Развитие малого бизнеса в Узбекистане: Стратегии поддержки и перспективы роста https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65526

2-SHO‘BA. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHIDA FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

FUQAROLIK JAMIYATI: ZAMON, JAHON VA O‘ZBEKISTON

Fazliddin Ravshanov,
Siyosiy fanlar doktori, professor. “Renessans” ta’lim universiteti.

Annotatsiya: maqolada zamonaviy dunyoda fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy tendensiyalari tahlil qilingan. Muallif raqamlashuv, onlayn faollik va ijtimoiy sheriklikning jahon amaliyotidagi o‘rnini yoritgan holda, Estoniya, Shvesiya, Finlyandiya, Kanada va Yangi Zelandiya kabi davlatlarning yetakchi tajribalarini misol qilib keltiradi. Shuningdek, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan qonunchilik, institutsional va raqamli islohotlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, raqamlashuv, ijtimoiy sheriklik, nodavlat tashkilotlar, media savodxonlik, jamoatchilik nazorati, ochiq hukumat, barqaror rivojlanish.

Zamonaviy dunyoda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda turli tendensiyalar kuzatiladi. Dunyoda raqamlashuv va onlayn faollikning o‘sishi sababli internet va ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyati faoliyatining yangi maydoniga aylandi. Onlayn petitsiyalar, kraudfanding, elektron ovoz berish va ijtimoiy tashabbuslar orqali fuqarolar turli mamlakatlarda siyosiy hokimiyatga har xil darajalarda ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada zamonaviy boshqaruvda jamoatchilik nazorati va shaffoflik darajasi oshib bormoqda.

Jahon xalqlarida ijtimoiy hayot jarayonlarida fuqarolik ishtirokining yangi shakllari vujudga kelayapdi. Fuqarolar nafaqat saylovlarda, balki davlat qarorlarini muhokama qilishda, mahalliy loyihalarni shakllantirishda ham faol ishtirok etmoqda. Davlatlar siyosatida “Partisipativ boshqaruv” (participatory governance) modeli, ya’ni davlat va jamoatchilikning birgalikda qaror qabul qilish tajribasi kengaymoqda[4].

Ayni vaqtda Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) va volontyorlik faoliyati butun dunyoda jonlangan, NNTlar ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynamoqda. Yoshlar va ayollar ishtirokidagi volontyorlik harakatlari orqali ijtimoiy mas’uliyat oshmoqda.

Hozirgi dunyoning xususiyati inson huquqlari va gender tengligi masalalariga e’tiborning oshganligi bilan ham xarakterlidir. Jahonda teng imkoniyatlar, inklyuzivlik va kamsitishga qarshi kurash fuqarolik jamiyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib borayapdi. “Gender adolati”, “barqaror rivojlanish”, “iqlim adolati” kabi tushunchalar markaziy o‘rinni egallamoqda.

Shu kabi, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi muloqotning rivojlanishi, ko‘pgina mamlakatlarda davlat idoralari fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda qonunchilik va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish yo‘liga kirgani, “Ijtimoiy sheriklik” tamoyili borgan sari kengayayotgani ham e’tiborni tortadi[5].

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda ma’lumotlilik va media savodxonlik ham kuchli ahamiyat kasb etayapdi. Chunki, yolg‘on yangiliklar va axborot manipulyatsiyalariga qarshi kurashishda fuqarolarning media savodxonligi muhim rol o‘ynamoqda. Jamoatchilikni mustaqil fikrlashga o‘rgatish esa fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyati tendensiyalari orasida barqaror rivojlanish va ekotashabbuslar ham e’tiborga molik masalalardandir. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va ekologik harakatlar rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati faoliyatining yangi yo‘nalishiga aylangan. Yoshlar iqlim forumlari, “yashil iqtisod” tashabbuslari orqali global hamkorlikka hissa qo‘shmoqda.

Shular asosida aytish mumkinki, zamonaviy fuqarolik jamiyati bu faqat nodavlat tashkilotlar emas, balki har bir fuqaroning jamiyatdagi o‘zgarishlarga ta’sir etish imkoniyati mavjud bo‘lgan faol, ochiq va raqamli maydondir.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishi bo‘yicha bugungi yetakchi davlatlarni belgilashda uning bir nechta mezonlari hisobga olinadi. Bular: so‘z erkinligi, fuqarolik ishtiroki darajasi, nodavlat tashkilotlar faolligi, raqamli ochiqlik va inson huquqlariga munosabat.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishida zamonaviy hayotda raqamlashuv va onlayn faollik eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu borada bugun Estoniya elektron hukumat va “e-demokratiya” tizimini ilk joriy etgan davlat sifatida mashhur. Shvesiya va Finlyandiyada fuqarolarning onlayn xizmatlar va davlat ma’lumotlariga ochiq kirishi ta’minlangan. Janubiy Koreya esa fuqarolik tashabbuslari uchun raqamli platformalar yaratgan.

Ayni vaqtda fuqarolik ishtirokining yangi shakllari ham rivojlanmoqda. Shveysariya allaqachon referendum va jamoat ovoz berish tizimi orqali “to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya” namunasiga aylandi. Norvegiya va Niderlandiya fuqarolarni mahalliy qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etuvchi davlatlar sifatida ko‘zga tashlandi. Yangi Zelandiya esa ochiq hukumat va jamoatchilik bilan maslahatlashuv tizimini kuchaytirish bilan namuna bo‘lmoqda.

NNTlar va volontyorlik faoliyati rivojida AQSh dunyodagi eng yirik NNT sektoriga ega, jumladan “Red Cross”, “Human Rights Watch” va “Bill & Melinda Gates Foundation” kabi tuzilmalar uning obro‘sini butun dunyoga yoyib keladi. Buyuk Britaniya volontyorlik faoliyatini davlat siyosati darajasida

qo‘llab-quvvatlaydi. Kanadada esa ko‘p madaniyatli fuqarolik jamiyati modeli va NNTlar bilan hamkorlik mexanizmi rivojlangan[6].

Inson huquqlari va gender tengligi yo‘nalishida Shvesiya va Islandiya jahonda birinchi o‘rinlarda. Germaniya inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolat siyosatini institutsional darajada joriy etgan. Norvegiya esa hatto feminist tashqi siyosat yuritadi.

Davlat va jamoat muloqoti (“ijtimoiy sheriklik”)da Daniya davlat, biznes va jamoatchilik o‘rtasida “uch tomonlama hamkorlik” modelini samarali ishga tushirdi. Fransiyada hozirgi vaqtda jamoatchilik kengashlari orqali ijtimoiy masalalarni muhokama qilish tizimi mavjud. Germaniya esa kasaba uyushmalari va davlat organlari o‘rtasida institutsional muloqotni yo‘lga qo‘ygan.

Media savodxonlik va axborot madaniyati ta’kidlash lozimki, hozirgi fuqarolik jamiyati rivojining yetakchi yo‘nalishidir. Bu borada Finlyandiya jahondagi eng yuqori media savodxonlik darajasini qayd etadi. Shvesiya va Kanada buni yanada rivojlantirish maqsadida ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash va axborot tahlilini o‘qitishni yo‘lga qo‘ygan.

Barqaror rivojlanish va ekotashabbuslar masalasida Germaniya “yashil iqtisod” va qayta tiklanuvchi energiya siyosati bo‘yicha yetakchi. Daniya va Norvegiya ekologik innovatsiyalar va iqlim siyosatini davlat strategiyasiga aylantirgan. Yangi Zelandiya esa tabiat huquqlarini qonun darajasida tan olgan ilk mamlakatlardan biri[6].

Xullas, Yevropaning shimoliy davlatlari (Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiya, Daniya) hamda Kanada va Yangi Zelandiya fuqarolik jamiyatini muvaffaqiyatli rivojlantirgan global namuna davlatlar hisoblanadi. Ularda fuqarolik faolligi, ochiqlik va ijtimoiy mas’uliyat yuqori darajada institutsionallashgan.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohadagi ishlar qonunchilik, institutlar, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ochiqlikni ta’minlash yo‘nalishlarida amalga oshirilmoqda[3].

O‘zbekistonda 2021 yil “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlar yangilandi.

2018 yilda “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” qonun qabul qilinib, fuqarolarning davlat idoralari faoliyati ustidan nazorati huquqiy asosga ega bo‘ldi.

Mamlakatda Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) faoliyatini qo‘llab-quvvatlandi, natijada NNTlar soni 10 mingdan oshdi, ular uchun grantlar, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtmalar tizimi yo‘lga qo‘yildi. Prezident huzuridagi Jamoatchilik palatasi va Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-

quvvatlash jamoat fondi faoliyat yuritmoqda. Har yili “Yilning eng faol NNT” tanlovi o‘tkazilib, fuqarolik tashabbuslari rag‘batlantiriladi[1].

Shu kabi jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish maqsadida qonun loyihalarini muhokama qilish uchun regulation.gov.uz portali ishga tushirildi. Davlat idoralari faoliyatida jamoatchilik kengashlari, maslahat kengashlari va ochiq eshiklar kuni amaliyoti joriy etildi. “Xalq bilan muloqot” siyosati asosida fuqarolarning murojaatlari tizimli ravishda qabul qilinib, yechim topmoqda.

Ochiqlik va raqamlashtirish borasida ham O‘zbekiston jadal qadamlar tashlamoqda. Hozirda “Ochiq ma’lumotlar portali” (data.gov.uz) orqali davlat ma’lumotlariga keng foydalanish imkoniyati yaratilgan. E-jtimoiyfikr, my.gov.uz, virtual qabulxonalar, E-qaror tizimlari fuqarolarning davlat bilan muloqotini yengillashtirdi. Shu bilan birga mamlakatimizda axborot olish erkinligi qonun darajasida kafolatlangan.

O‘zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar faolligini oshirish ayniqsa keng e’tibor qaratilayotgan sohalardan biridir. O‘tgan davr mobaynida Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar jamg‘armasi, Yoshlar parlamentlari tashkil etildi. Yoshlar va ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun davlat grantlari va loyihalar moliyalashtirilmoqda[1].

Barqaror rivojlanish va ekologik fuqarolik tashabbuslari mamlakatda “Yoshlar iqlim harakati”, “Ekofond”, “Yashil makon” kabi fuqarolik tashabbuslari orqali rivojlanmoqda. Tabiatni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejash loyihalarida jamoatchilik faol ishtirok etmoqda[2].

Ushbu masalalarda BMT, YeXHT, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. 2022 yilda “Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya” loyihasi ham ishlab chiqildi.

Bularning barchasini O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishida davlat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichi deyish mumkin. Bunda asosiy maqsad faol fuqaro, ochiq davlat va jamoatchilik nazorati kuchli bo‘lgan demokratik muhitni shakllantirishdir.

Ammo nazarimizda hali kelajakda qilinishi lozim bo‘lgan qator ishlar bor. Avvalo, qonunchilik va huquqiy kafolatlarni yanada mustahkamlash zarurati bor. Chunki, fuqarolarning tadbirkorlik, NNT tashkil etish, jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun raqobatbardosh, aniq va amal qilishi intizomli huquqiy muhitni ta’minlash lozim. Buning uchun mavjud qonunlarning amaliy ta’sirini (masalan, “Jamoat nazorati to‘g‘risidagi qonun”) muntazam monitoring va tahlil qilish, va zarur tuzatishlar kiritilishi kerak.

NNTlarning ro‘yxatdan o‘tishi va soliq/ma’muriy tizimini soddalashtirish, onlayn ro‘yxat tizimi orqali buni tez amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish kerak. Ma’qullangan qonun loyihalarini fuqarolik jamiyati bilan oldindan maslahatlashish majburiyligini kafolatlash, monitoring indikatorlari, masalan,

qonun loyihalariga jamoatchilik fikri natijalari, NNTlarning ro‘yxatdan o‘tish muddati, yurisdiksiyadagi sud / ma’muriy talablar soni tartibga solishni talab etadi.

Mamlakatda NNTlar, fuqarolik tashabbuslari va jamoat loyihalari uchun turli manbalardan, ochiq va barqaror moliyalashtirishni ta’minlash zarurati ham bor. Davlat va parlament oldidagi NNTlarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini ochiq, raqobatbardosh va tizimli grantlashtirishga moslashtirish, mahalliy korxonalar bilan “ijtimoiy buyurtma” mexanizmlarini joriy etish, ya’ni, NNTlarga davlat va xususiy sektor loyihalarini bajarish orqali daromad manbasi yaratish, qayta ishlab chiqilgan cheklangan grantlar, mikrograntlar va yoshlarga mo‘ljallangan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham muhimlashmoqda.

O‘zbekistonda NNTlar, fuqarolik loyihalari va jamoat rahbarlarining boshqaruv, moliya bilan ishlash va monitoring qobiliyatlarini oshirish ham zaruriyatga aytangan. Buning uchun maxsus ta’lim qo‘llanmalari, onlayn kurslar va mentorlik dasturlarini milliy darajada tizimli tashkil etilishi va mintaqaviy nuqtalar ochilishi kerak. NNTlar uchun kovorking markazlari va resurs markazlari (huquqiy yordam, buxgalteriya, grant-menejment) tashkil etish, mahalliy advokatlar, ommaviy axborot vositalari va ilmiy jamoat bilan hamkorlikda xalqaro standartlarga mos treninglar o‘tkazish lozim.

Ochiqlik, ma’lumotlarga kirish va raqamli erkinlikni kuchaytirish va ayniqsa uni yanada qulaylashtirish bugungi zamon talabiga aylanib bormoqda. Negaki, davlat ma’lumotlarining mavjudligi, shaffofligi va fuqarolarga oson kirishini maksimal darajaga olib chiqish fuqarolik jamiyati rivojida juda muhim sanaladi. Buning uchun esa ochiq ma’lumotlar portali (data.gov.uz va boshqalar) sifatini oshirish, NNTlar va fuqaro faollari uchun “ma’lumotga asoslangan monitoring” dasturlarini moliyalashtirish va metodologik qo‘llab-quvvatlash, internet erkinligi va raqamli huquqlar bo‘yicha qonunchilikni fuqarolik jamiyati bilan muhokama qilish kerak bo‘ladi.

Jamoatchilik nazorati va ishtirokning kengayishidan maqsad o‘zi davlat organlarining hisobdorligi va jarayonlarga jamoatchilik kirishini kuchaytirishni bildiradi. O‘zbekistonda buni rivojlantirish uchun esa barcha darajadagi davlat idoralarida jamoatchilik kengashlarini unifikatsiyalashtirilgan qoidalar asosida faollashtirish, qonun loyihalarini muhokama qilish platformasini (regulation.gov.uz) mahalliy darajada faol yo‘lga qo‘yish va mahalliy darajada fuqarolik nazorati bo‘yicha “jamoat nazorati guruhlari” va jamoat monitoring loyihalarini moliyalashtirish talab etiladi.

Mamlakatda erkin, professional OAV va aholida axborot tahlili qobiliyatini uzluksiz oshirib borish zarur. Jurnalistika ta’limi va mustaqil mediani moliyalashtiruvchi grantlarni yo‘lga qo‘yish, ommaviy axborot manbalariga texnik ko‘mak ko‘rsatish, maktab va OTMlarda media

savodxonlikni majburiy kurslar sifatida joriy etish, jurnalistlar uchun huquqiy himoya va xalqaro mikro-grantlar tizimini yo‘lga qo‘yish bu yo‘nalishda samarali ko‘mak berishi mumkin.

O‘zbekiston bu masalalarda albatta xalqaro hamkorlik va grantlardan strategik foydalanishi kerak. Chunki, xalqaro tajribalarni jalb qilish va mahalliy institutlarni xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish, BMT, Yevropa Ittifoqi, donor tashkilotlari bilan hamkorlikda milliy quvvatlantirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish, grantlarning transformatsion ta’sirini maksimallashtirish uchun matching funds va mahalliy hamkorlik shartlari joriy etish, xalqaro tajriba almashinuvi, stajirovkalar, ko‘p tomonlama treninglar va keys-stadi loyihalari yaratish fuqarolik jamiyati tizimi rivojiga yanada turtki bergan bo‘lar edi.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va dasturlarning samaradorligini aniq o‘lchash va oshkora hisobdorlikni ta’minlash, har yil mustaqil va xolis monitoring hisobotlarini shakllantirish, pilot loyihalar orqali eksperimentlar o‘tkazish, eng yaxshi amaliyotlarni ko‘lamli joriy etish davlat organlari, parlament va jamoat fondlari, NNTlar va fuqarolik tashkilotlari zimmasiga borgan sari mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Muhimi esa mamlakatda qonunchilik va amaliy mexanizmlar moslashsa, jamoatchilikning ta’siri sezilarli oshadi. Ochiq ma’lumotlar va raqamli xizmatlarning sifati NNTlar hamda jamoatchilik nazorati uchun asosiy resursga aylanadi, xalqaro hamkorlik va mahalliy moliyalashtirishning kombinatsiyasi vujudga kelib, barqaror fuqarolik sektorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, - T.: O‘zbekiston, 2021. -464 b.
2. Xaydarov N. Fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti. -T.: Tafakkur, 2019. -312 b.
3. Jo‘rayev M. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining huquqiy asoslari. -T.: Adolat, 2020. -280 b.
4. Tojiyev A. Demokratik jarayonlar va fuqarolik jamiyati institutlari. -T.: Iqtisod-Moliya, 2018. -256 b.
5. Yuldashev K. Fuqarolik faolligi va ijtimoiy sheriklik asoslari. -T.: Fan va texnologiya, 2022. -298 b.
6. United Nations Development programme (UNDP). Civil society and governance: global trends and country experiences. -New York: United Nations publications, 2018, -245 p.

ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН И ОБЩЕСТВЕННОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Исомов Мухаммад Куронтоевич,
кандидат философских наук, доцент кафедры общественных наук Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: В данной статье анализируется роль гражданской и общественной активности в процессе формирования гражданского общества и значение этого фактора в будущем Узбекистана. Также будут рассмотрены пути поддержки институтов гражданского общества, развития механизмов социального диалога и расширения культуры волонтерства на примере опыта Германии и Австрии. Этот международный опыт может служить важной основой для укрепления демократических институтов и повышения общественно-политической активности населения в Узбекистане.

Ключевые слова: гражданское общество, общественная активность, опыт Германии, опыт Австрии, волонтерство, социальный диалог, демократическое развитие, перспективы Узбекистана

Гражданское общество – передача общественным организациям многих функций, выполняемых органами государственной власти на предыдущих этапах развития общества, установление социального контроля над деятельностью государства. Темпы формирования гражданского общества зависят от ряда факторов. Если политические и правовые факторы служат политико-правовой основой для продвижения к гражданскому обществу, то темпы этого процесса во многом зависят от организационных, культурных и психологических факторов.

Политическая и правовая культура граждан является важным фактором построения гражданского общества. Чем более развиты и зрелы эти факторы, тем прочнее создается фундамент для развития общества. Однако последовательность и темпы процесса построения гражданского общества определяются культурой, духовностью и психологией общества и граждан. [1]

В странах Центральной Азии, в том числе в Узбекистане, понятие гражданского общества, определение и классификация местных форм социальных организаций часто является дилеммой для исследователей. Исследования показывают, что для понимания сущности узбекского гражданского общества сложно использовать западное, неолиберальное определение гражданского общества. На Западе, в основном в Европе,

организованная жизнь исторически основывалась на личных интересах и мотивациях.

Однако в Центральной Азии, наоборот, основы организаций и объединений обычно опираются на братство и традиционные соглашения. Таким образом, понимание гражданского общества в Узбекистане требует более глубокого рассмотрения социальных структур и отношений, институтов и практик, сформированных в стране посредством взаимодействия местной культуры, традиций и политических систем. Традиционные формы объединения, основанные на прочных семейных узах, племенных и родовых связях, исторически были формой социальной организации для узбекского народа и служили сетью социальной защиты. [2]

Формирование гражданского общества в Узбекистане требует разработки стратегических программ, которые будут реализованы сейчас и в ближайшем будущем. Наша стратегия, направленная на демократизацию всех сфер жизни общества, последовательно направлена на решение конкретных задач на ближайшую, среднесрочную и долгосрочную перспективы. Логически систематизированные правовые нормы в нашем Основном Законе, по сути, направлены на правовое регулирование содержания и основных принципов гражданского общества, общественных объединений и гарантий их деятельности, а также политико-правовых, социально-экономических и духовных основ подлинно демократического общества.

Для построения гражданского общества необходимо изучить опыт социально-классовой структуры развитых стран мира. В развитых странах в основном существует три класса - богатые, собственники, средние собственники и бедные. После обретения независимости в Узбекистане имущество было разгосударствление и приватизировано (созданы совместные предприятия с иностранными компаниями), что привело к появлению класса собственников. Для предпринимателей и деловых людей открыты широкие возможности. Государство создало и предоставляет им все необходимые возможности. Потому что опыт показывает, что чем больше класс собственников, тем быстрее экономический рост и тем лучше жизнь граждан. С появлением этого класса собственников усиливается и их роль в формировании гражданского общества.

Повышение активности граждан и общественности играет особую роль в формировании гражданского общества в Узбекистане. Этот процесс необходим, прежде всего, для укрепления демократического управления и взаимного доверия между государством и обществом. Свободное выражение гражданами своего мнения, общественный

контроль и инициативы повышают эффективность государственного управления. Кроме того, активное участие населения обеспечивает сотрудничество в различных социальных вопросах и формирует атмосферу доверия. Успех широкомасштабных реформ, осуществляемых в последние годы, также напрямую зависит от активности граждан и негосударственных некоммерческих организаций. Поддержка местных инициатив в таких областях, как экология, социальная защита или молодежная политика, обогащает государственную политику и приближает ее к потребностям общества. В то же время, учитывая, что страны с сильным гражданским обществом признаются надежными партнерами на международной арене, этот процесс также ускорит интеграцию Узбекистана в глобальные процессы.

Германия является одной из стран с развитым гражданским обществом, где негосударственные некоммерческие организации активно участвуют во всех сферах общественной жизни в качестве "третьего сектора." В стране действуют сотни тысяч общественных организаций, охватывающих различные слои населения. Финансовые основы гражданского общества стабильны: ННО осуществляют самостоятельную деятельность за счет государственных грантов, частных благотворительных фондов и членских взносов. Кроме того, в Германии существуют механизмы "Bürgerdialog" (диалог граждан), которые позволяют систематически учитывать общественное мнение по вопросам государственной политики. Благодаря этому граждане не только информируются о политических решениях, но и влияют на их формирование. [3]

В Австрии институты гражданского общества также традиционно считаются сильными. В стране действует модель социального партнерства, при которой правительство, ассоциации работодателей и профсоюзы регулярно проводят консультации. Этот механизм, известный как "Sozialpartnerschaft," является одной из важных гарантий политической и социальной стабильности страны. Кроме того, в Австрии широко развита культура волонтерства: около 40% населения участвует в качестве волонтеров в различных социальных проектах. Таким образом, гражданская активность формируется с молодого поколения и укрепляется культура активного участия в жизни общества.

Во-первых, исходя из опыта Германии, необходимо внедрить в Узбекистане устойчивые механизмы финансовой поддержки институтов гражданского общества. В Германии НПО осуществляют самостоятельную деятельность за счет государственных грантов, частных благотворительных пожертвований и членских взносов. Аналогичная система обеспечивает независимость и стабильность организаций

гражданского общества в Узбекистане, создавая условия для их более широких инициатив. [4]

Во-вторых, на основе австрийской практики целесообразно формировать платформы регулярного "социального диалога" между государственными органами и общественными организациями. В Австрии эффективно действуют консультативные советы между правительством и гражданским обществом, тематические форумы и механизмы общественных слушаний. Этот подход также укрепит доверие между гражданами и государством в Узбекистане и повысит качество реформ.[5]

В-третьих, исходя из опыта Германии и Австрии, необходимо расширять системные программы гражданского образования и повышения общественной активности. В этих странах широко налажено участие молодежи в социальных проектах, начиная со школы, вовлечение в волонтерскую деятельность и уроки демократии. В Узбекистане привлечение молодежи в институты гражданского общества, развитие культуры волонтерства и образование, основанное на демократических ценностях, служат укреплению гражданского общества.

В заключение можно сказать, что опыт Германии и Австрии дает ряд позитивных примеров, которые будут способствовать процессу повышения активности граждан и общественности и их роль в дальнейшем развитии гражданского общества в Узбекистане. В частности, Опыт Германии в области финансовой стабильности и гражданского диалога способствует независимому и эффективному функционированию гражданского общества.

Австрийская культура социального партнерства и волонтерства может служить примером для Узбекистана в укреплении участия общественности и активном вовлечении молодежи в гражданское общество.

В заключение можно сказать, что опыт Германии и Австрии может дать ряд позитивных примеров для Узбекистана по дальнейшей активизации граждан и общественности в развитии гражданского общества. Опыт Германии в области финансовой стабильности и гражданского диалога, которые будут способствовать независимому и эффективному функционированию гражданского общества.

Список литературы:

1. "Гражданское общество," журнал Oyina.uz 2023, https://oyina.uz/u
2. Дж. Гиффен, Л. Эрл и К. Бакстон. 2005. Развитие гражданского общества в Центральной Азии. Оксфорд: INTRAC.

3. Germany: Civil society takes stock after 5 years of Sector Dialogues: https://www.business-humanrights.org/en/latest-news/hintergrundpapier-zivilgesellschaftliche-bilanz-nach-f%C3%BCnf-jahren-branchendialoge
4. Civil Society in Germany - Data, Facts, Developments - Maecenata Stiftung:https://www.maecenata.eu/2024/06/05/civil-society-in-germany-data-facts-developments/
5. Почти половина австрийских добровольцев, 2022 г., https://www.statistik.at/fileadmin/announcement/2022/11/20221205Frewilligentaetigkeit2022EN.pdf

TURKIYA VA O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING EVOLYUTSIYASI: TARIXIY MEROS, DAVLAT-JAMIYAT MUNOSABATLARI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI USTIDAN QIYOSIY TAHLIL

Dr. Erkan Avcı

1. Kirish: Muammoning Qo‘yilishi

Turkiy va O‘zbekiston, turk dunyosining ikkita muhim faol sub’ekti sifatida, chuqur tarixiy, madaniy va lingvistik bog‘liqliklarga ega bo‘lsa-da, zamonaviy yutuqlar jarayonida har xil siyosiy va ijtimoiy yo‘nalishlarni amalga oshirdilar. Bu farqlar, eng aniq tarzda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida o‘z ifodasini topadi. Fuqarolik jamiyati, davlat, oila va bozordan tashqaridagi, ixtiyoriylik asosidagi tashkilotlar tizimi sifatida belgilanganda, ikkala mamlakatdagi uning tarixiy sarguzashti juda ajoyib qiyosiy imkoniyatni taqdim etadi.

Ushbu ma’ruzaning asosiy savoli quyidagilardan iborat: Umumiy tarixiy va madaniy poydevorga ega bo‘lgan Turkiya va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qanday tarixiy, siyosiy va ijtimoiy dinamikalar ta’sirida qanday farqlarga ega bo‘ldi va bu farqlarning kelajukka oid xulosalari qanday? Ushbu savolga javob topish uchun Turkiyaning ko‘p partiyali, plyuralistik (lekin so‘nggi davrda avtoritarlashuvchi) demokratik tajribasi bilan O‘zbekistonning Sovet avtoritarizmidan mustaqil avtoritar tuzumga va nihoyat, islohotchi jarayonga aylangan siyosiy tizimi o‘rtasidagi qiyosiy tahil markazga olinadi.

Bizning asosiy da’vomiz shundan iboratki, Turkiyadagi fuqarolik jamiyati nisbatan uzun va to‘lqinlanuvchi demokratik tajriba tufayli “institutsionalizatsiyalashgan, ammo siyosiy to‘lqinlardan chuqur ta’sirlanuvchi” xususiyatni namoyish etsa, O‘zbekistondagi fuqarolik jamiyati esa “uzoq bosim davridan so‘ng, davlat tomonidan nazorat qilingan holda qayta qurilayotgan va legitimlik izlaydigan” rivojlanish chizig‘iga ega. Ma’ruza

ushbu da’voni tarixiy istiqbolda qo‘llab-quvvatlaydi va ikkala mamlakat fuqarolik jamiyatlari o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollarini baholaydi.

2. Kontseptual Doira va Metodologiya

Fuqarolik jamiyati tushunchasi G‘arb markazidagi istiqbolda, davlatdan muxtor, bozordan farqli va shaxslarning umumiy manfaatlarini amalga oshirishlari uchun maydon sifatida belgilanadi. Biroq, Turkiya va O‘zbekiston kabi “G‘arbdan tashqari” jamiyatlar uchun bu ta’rifdan tashqaridagi dinamikalar mavjud. Ushbu tadqiqot fuqarolik jamiyatini davlat bilan munosabatlariga ko‘ra “dushmanona”, “to‘ldiruvchi” yoki “qaram” sifatida joylashgan ixtiyoriy kollektiv harakatlarning barchasini o‘rganadi.

Tadqiqotda sifat usuli qo‘llanilgan. Ikkilamchi ma’lumotlar (akademik maqolalar, kitoblar, rasmiy hisobotlar, ishonchli media tahlillari) qiyosiy tarixiy tahil usuli yordamida o‘rganiladi va ikkala mamlakat fuqarolik jamiyatining evolyutsiyasini shakllantiruvchi kritik burilish nuqtalariga e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, ikkala mamlakatdan tanlangan NGO vakillari bilan yarim tuzilgan intervyular natijasida olingan birinchi darajali topilmalar tahilni qo‘llab-quvvatlash uchun taqdim etiladi.

3. Turkiyada Fuqarolik Jamiyatining Tarixiy Oqimi:
Usmonlidan Hozirgi Kundalab To‘lqinlanuvchi Oqim

Turkiyadagi fuqarolik jamiyatining ildizlari Usmonli imperiyasining “vaqf” va “diniy jamoa” an’analariga borib taqaladi. Gildiyalar va diniy jamoalar klassik davrda fuqarolik sohasining asosiy faollari edi. Tanzimat bilan birga G‘arbiy ma’nodagi fuqarolik tashkilotlarining birinchi namunalari paydo bo‘la boshladi. Erkin Respublika davri esa, zamonaviy milliy-davlat qurishi jarayonida fuqarolik jamiyatini “davlat nazorati” va “yagona” tuzumga aylantirishga urinish edi. Xalq uylari ushbu siyosatning mahsuli edi.

Turkiya fuqarolik jamiyati uchun asosiy burilish nuqtasi 1980-yilgi harbiy to‘ntarishdan keyingi liberallashuv muhiti va 1990-yillardagi globallashuv to‘lqini bo‘ldi. Ushbu davrda inson huquqlari, atrof-muhit, ayollar huquqlari va iste’molchilar huquqlariga qaratilgan “yangi ijtimoiy harakatlar” va ularga bog‘liq NGO’lar kuchli sur’atlar oldi. 1999-yildan keyingi Yevropa Ittifoqi (YI) moslashuv jarayoni esa, NGO’lar uchun oltin davrni boshlab berdi. Qonuniy doira yaxshilandi, moliyaviy resurslar oshdi va NGO’lar siyosat ishlab chiqish jarayonida ko‘proq ko‘rinadigan faolga aylandi.

Biroq, 2010-yillarning o‘rtalaridan boshlab, Turkiyadagi siyosiy muhitning o‘zgarishi bilan birga fuqarolik jamiyati sohasi ham muhim o‘zgarishlarga uchradi. Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida “yuqoridan pastga” (top-down) va “avtoritar” munosabatlar modeli ustun bo‘la boshladi. Hukumatga yaqin

NGO’lar resurs va kirish imkoniyatlari jihatidan afzallikka ega bo‘ldi, tanqidiy ovozlarni ko‘targan, inson huquqlari va ifoda erkinligiga e’tibor qaratgan NGO’lar esa qonuniy (ayniqsa, Terrorizmga Qarshi Kurash Qonuni doirasida), moliyaviy va siyosiy bosimlarga duch keldi. Bu vaziyat Turkiya fuqarolik jamiyatini chuqur ta’sirlagan qutblanishga olib keldi.

4. O‘zbekistonda Fuqarolik Jamiyatining Tarixiy Oqimi:

Sovet Merosidan Islohotlarga Qadar Cho‘zilgan Qiyin Yo‘l

O‘zbekistonning fuqarolik jamiyati tajribasi 70 yillik Sovet sotsialistik tuzimining og‘ir merosi bilan shakllangan. Sovet Ittifoqida, rasmiy “omma tashkilotlari” (Komsomol, Kasaba uyushmalari va boshqalar) tashqarisida mustaqil fuqarolik jamiyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin emas edi. Ushbu tashkilotlar davlatning jamiyatni safarbar etish va nazorat qilish vositasi edi. Mustaqillikdan keyingi Islom Karimov davrida (1991-2016) esa bu meros yangi shaklda davom ettirildi. Karimov rejimi “davlat tomonidan nazorat qilinadigan NGO’lar” (GONGO’lar) orqali fuqarolik maydonini butunlay nazorat ostiga oldi. Mustaqil inson huquqlari tashkilotlari, muxolifat guruhlari va matbuot og‘ir bosimlarga uchradi. Ushbu davr O‘zbekiston uchun fuqarolik jamiyatining “yo‘qolgan yillari” sifatida tavsiflanishi mumkin.

2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi va boshlagan islohotlar jarayoni O‘zbekiston fuqarolik jamiyati uchun tarixiy burilish nuqtasini yaratdi. Mirziyoyev “ochiq diyalog” siyosati doirasida fuqarolik jamiyatini dushman emas, balki “hamkor” sifatida joylashtirishni boshladi. Minglab NGO’lar ro‘yxatga olindi, siyosiy mahbuslar ozod qilindi va inson huquqlari tashkilotlari bilan suhbatlar olib borildi. “Fuqarolik Institularini Rivojlantirish Davlat Komissiyasi” kabi tuzilmalar tashkil etilib, NGO’larning qaror qabul qilish jarayonlariga ishtirok etishlari rag‘batlantirildi. Biroq bu jarayon hali davlat nazorati va cheklovlari ostida davom etmoqda. Islohotlar chuqurlashayotgan bo‘lsa-da, amalda nomuvofiqliklar, sekinlik va mahalliy darajadagi byurokratik qarshilik kabi muammolar davom etmoqda.

5. Qiyosiy Tahil va Hamkorlik Imkoniyatlari

Turkiya va O‘zbekiston fuqarolik jamiyatlarining qiyosiy tahili to‘rtta asosiy sarlavhada umumlashtirilishi mumkin:

Tarixiy Meros: Turkiyaning Usmonlidan meros olgan plyuralistik (diniy jamoalar asosidagi) va vaqf an’analari O‘zbekistonning Sovetlardan meros olgan markazlashgan va davlat markazidagi an’analaridan keskin farq qiladi. Bu farq fuqarolik jamiyatining mentalitet poydevorini belgilab bergan.

Davlat-Jamiyat Munosabatlari: Turkiyada munosabatlar tarixiy jihatdan to‘lqinlanuvchi oqimni amalga oshirdi; vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan

muzokara, nizolar va hamkorlik dinamikasi kuzatildi. O‘zbekistonda esa munosabatlar Sovetlardan Mirziyoyevgacha deyarli bir tomonlama “davlat hukmronligi” shaklida bo‘ldi, yangi davrda esa diyalog izlanishlariga aylandi.

Qonuniy Doira va Muhtoriyat: Turkiyada, ayniqsa YI moslashuv jarayonida, NGO’larning muhtor faoliyat yuritishiga imkon beruvchi qonuniy infratuzilma yaratildi, ammo so‘nggi davrda bu maydon amalda toraytirildi. O‘zbekistonda esa qonuniy doira hali rivojlanayotgan bo‘lib, NGO’larning muhtoriyati davlat bilan o‘rnatgan munosabatlarining sifatiga bog‘liq.

Moliyalashtirish: Turkiyadagi NGO’larning moliyaviy manbalari xilma-xildir (a’zolik badallari, xayriyalar, xalqaro fondlar, mahalliy hokimiyatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlash). O‘zbekistonda esa moliyalashtirish asosan davlat grantlari va xalqaro donor tashkilotlariga tayanadi, mahalliy xayriya madaniyati zaif.

Ushbu qiyosiy poydevor muhim hamkorlik imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Turkiyaning nisbatan tajribali fuqarolik jamiyati O‘zbekistonda yangi rivojlanayotgan NGO’lar uchun qudratlarni oshirish hamkori bo‘lishi mumkin. Ayniqsa quyidagi sohalarda hamkorlik loyihalari ishlab chiqilishi mumkin:

NGO Boshqaruvi va Qudratlarni Oshirish: Turkiya NGO’lari loyiha tsikli boshqaruvi, moliyaviy resurslarni topish, ko‘ngillilarni boshqarish va lobbichilik sohalarida treninglar o‘tkazishi mumkin.

Ayollar va Yoshlar Loyihalari: Ikkala mamlakatda ham yosh aholining salohiyatini fuqarolik jamiyati kanali orqali faollashtirish uchun qo‘shma loyihalar amalga oshirilishi mumkin.

Rivojlanish va Kasbiy Ta’lim: Turkiyaning rivojlanish sohasida ishlaydigan tajribali NGO’lari (masalan, IHH, Turkiya Qizil Yarim oy) O‘zbekistonda o‘xshash sohalarda tajriba almashishlari mumkin.

Madaniyat va Ta’lim: Turk Havo Yo‘llari tomonidan ochilgan transport koridoridan fuqarolik jamiyati tashkilotlari ham foydalanishi mumkin. O‘zaro talaba almashinuv dasturlari, qo‘shma madaniy festivallar va akademik hamkorliklar rag‘batlantirilishi mumkin.

6. Xulosa va Baho

Turkiya va O‘zbekistondagi fuqarolik jamiyatining evolyutsiyasi har xil siyosiy tuzumlar va tarixiy meroslarning fuqarolik maydonini qanday shakllantirishining ajoyib namunasi hisoblanadi. Turkiya fuqarolik jamiyatining institutsionalizatsiyasi va professionalizatsiyasi jihatidan yuqori bosqichda bo‘lsa-da, bu soha siyosiy qutblanishlar va avtoritarlashuv tendensiyalaridan chuqur ta’sirlanmoqda. O‘zbekiston esa fuqarolik jamiyatini qayta qurish uchun

qiyin o‘tish davridan o‘tmoqda, davlat nazorati va fuqarolik tashabbusi o‘rtasida muvozanat izlamoqda.

Ikkala mamlakat uchun ham ideal variant, fuqarolik jamiyatining davlatning kengaytmasi yoki muxolifi emas, balki to‘ldiruvchisi va nazoratchisi bo‘lgan, yetuk demokratik modelning o‘rnatilishidir. Turk dunyosining ushbu ikkita muhim a’zosi o‘rtasidagi fuqarolik jamiyati hamkorliklari nafaqat o‘zaro qudratlarni oshirishga, balki mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va farovonlik qurilishiga ham muhim hissa qo‘shish imkoniyatiga ega. Ushbu imkoniyatning amalga oshirilishi ikkala mamlakatdagi siyosiy irodaning fuqarolik jamiyatiga bergan muhtor maydon va diyalog imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

XOTIN-QIZLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYALASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING ROLI

Davronova Feruza Raxmonovna,
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Tel: 90 322-92-09 feruza_davronova_82@mail.ru

Annotatsiya: xotin-qizlarning haq-huquqlari uchun kurash jarayoni boshlanganidan beri dunyo miqyosida ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, gender tengligi va erkaklar bilan bir xil maosh olishga nisbatan adolatni rivojlantirish asosiy vazifasi bo‘lgan ko‘plab tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Maqolada ayol huquqlarini himoya qilish uchun kurashuvchi qator tashkilotlar, ularning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: gender, stereotip, assimmetriya, diskriminatsiya, feminizm, benefitsiar, konvensiya.

Xotin-qizlarning o‘z haq-huquqlari uchun kurash boshlaganlaridan buyon dunyo miqyosida ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, gender tengligi va diskriminatsiya, gender stereotiplari va assimmetriyasiga nisbatan kurashuvchi ko‘plab tashkilotlar tashkil etildi. Jumladan, XX asrning ikkinchi yarmida feministik harakatlarning rivojlanishi va keng targ‘ib qilinishi natijasida xotin-qizlarning huquqlari, xususan ovoz berish huquqini himoya qilishga qaratilgan qator kasaba uyushmalari tuzildi. Jumladan, Finlyandiyada 1987 yilda feministlar guruhi hamkorlik qilish maqsadida parlamentda vakil bo‘lgan barcha siyosiy partiyalarning ayollar tashkilotlarini birlashtiruvchi ayollar tashkilotini tuzish fikriga keldi. Shu yo‘l bilan avvaliga qo‘mita shaklida, keyinchalik esa ro‘yxatga olingan jamoat birlashmasi shaklida «Ayollar tashkilotlari hamkorligi» koalitsiyasi yoki NYUTKIS (NYTKISry) koalitsiyasiga asos solindi [1]. Ushbu tashkilot xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning turmush sifati va ahvolini yaxshilash, gender tengligi

borasida o‘z faoliyatini olib boradi. Ayollarni himoya qilish maqsadida Ugandada tashkil etilgan SASA! (Boshlash (Start) – Xabardorlik (Awareness) – Qo‘llab-quvvatlash (Support)- Harakat (Action)) nomli NNT boshlagan safarbarlik kompaniyasi ham jamiyatdagi manfaatdor tomonlar bilan tizimli ish olib borib, gender dinamikasini o‘rganadi [2]. SASA! loyihasi asosidagi kompaniya xotin-qizlarga nisbatan zo‘rovonlikka murosasizlik muhitini yaratishga yordam bergan. Zo‘rovonlikning jismoniy, ruxiy va hokazo turlariga nisbatan amalga oshirilgan axborot, tematik muhokamalar ayollarning bu holatni kamaytirish, oldini olish, javob reaksiyasi va kurashishini shakllanishiga olib kelgan.

Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mintaqasidagi 57 mamlakatni birlashtirgan eng yirik mintaqaviy xavfsizlik tashkiloti bo‘lgan YeXHT ham ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar strategiyasini amalga oshiradi. YeXHT Gender tengligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi rejalarni ilgari suradi:

1. YeXHTning barcha dasturlari, siyosati va tadbirlarida gender tengligini muntazam ravishda joriy etishini ta’minlash.
2. Xodimlarni gender bo‘yicha ma’lumotlardan xabardorligini ta’minlash maqsadida treninglar joriy qilish.
3. Professional boshqaruv madaniyati va ishni tashkil qilish jarayonini genderning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish.
4. Boshqaruv organlarida ayol menejerlari a’zoligini oshirish.
5. A’zo mamlakatlarning gender tengligiga erishish bo‘yicha sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash.
6. Ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadlarni belgilash.
7. Gender tengsizlikka oid mojarolarning oldini olish va tinch yo‘l bilan hal etish jarayonlarida ayollarning rolini e’tiborga olish va targ‘ib qilish.
8. Gender tenglik bo‘yicha harakatlar rejasini amalga oshirishda monitoring qilish va baholash [3]. YeXHT Bosh kotibi kengashda taraqqiyotning yillik hisobotini taqdim etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, tashkilot ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga, tensizlik muammolarini siyosat va amaliyotda a’zo davlatlarda ham, tashkilotning o‘zida ham aks ettirishga harakat qiladi.

Ayol haq-huquqlarini muhofaza qilishni maqsad qilgan nufuzli tashkilotlar haqida so‘z borganda, eng avvalo, “BMT Ayollari» («Un Women”) tashkilotini keltirish mumkin. 2010 yil 2 iyulda BMT Bosh Assambleyasi vakillari tashkilotning maqsadlariga erishishda taraqqiyotni tezlashtirish, gender tengligi va xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan BMT Ayollar tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi rezolyusiyani qabul qildi. Shu tarzda *«BMT ayollari»* - Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tenglik va xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish masalalariga qaratilgan (ingl.

United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women) yaxlit tizim vujudga keldi. Bugungi kunda u BMTning gender tenglik bo‘yicha masalalarini muvofiqlashtiruvchi yetakchi organiga aylangan. “BMT ayollar” tashkiloti butunjahon tashkilotining quyida keltirilgan to‘rtta bo‘limini birlashtirdi: BMTning xotin-qizlar manfaatlari yo‘lidagi rivojlanishi uchun fond, xotin-qizlar holatini yaxshilash bo‘limi, ayollar holatini yaxshilash va gender masalalari bo‘yicha maxsus maslahatchi kanselyariyasi va BMTning ayollar holatini yaxshilash bo‘yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot va o‘quv instituti. Tashkilot o‘z ishini 2011 yil yanvar oyidan boshladi. Birinchi ijrochi direktori Chilining sobiq prezidenti Mishel Bachelet bo‘ldi. 2006 yilda tashkilotning elchisi etib Nikol Kidman saylandi. 2013 yil avgust oyidan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o‘rinbosari va “BMT-ayollari” tashkilotining ijrochi direktori lavozimida Janubiy Afrika Respublikasining davlat va siyosat arbobi Fumzile Mlambo-Ngkuka faoliyat olib bormoqda. U 2005 yildan 2008 yilgacha mamlakat vitse-prezidenti sifatida faoliyat yuritgan.

BMT ayollar tashkiloti xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni yo‘q qilish, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, taraqqiyotning sheriklari va benefitsiar (“benefitsiar” – atamasi lotincha “beneficium” so‘zidan olingan bo‘lib, tarjima qilinganda insoniylik, yaxshilik qilish, foyda olish ya’ni ma’lum turdagi hujjatlardan foyda, daromad oluvchi ma’nosida tushunish mumkin [5]) lari sifatida erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglikka erishish, inson huquqlari, insonparvarlik harakatlari amalga oshirish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalarda ishlaydi. Tashkilot Barqaror rivojlanish maqsadlarining global kun tartibini amalga oshirishga va hayotning barcha jabhalarida ayollarning teng ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi besh ustuvor yo‘nalishga e’tibor qaratadi:

1. Ayollarning yetakchiligini va siyosiy faolligini oshirish.
2. Ayollarga nisbatan zo‘rovonlikni yo‘q qilish.
3. Tinchlik va xavfsizlik jarayonining barcha jabhalariga ayollarni jalb qilish.
4. Milliy rejalashtirish va budjetini shakllantirishda gender tengligining rolini aniqlash [4].

Qisqacha qilib aytganda, BMT ayollar tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda gender tengligining ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirokini ta’minlaydigan “Ayollarga nisbatan kamsitilishning barcha turlarini yo‘q qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (CEDAW) va Pekin harakatlar platformasi kabi halqaro majburiyatlar va huquqlarga asoslanadi.

Tinchlik va erkinlik uchun ayollar xalqaro ligasi (WILPF) – nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, 1915 yilda Gaagadagi Xalqaro Ayollar Kongressida patsifist (tinchlikni passiv ravishda targ‘ib qiladigan shaxslar harakati) tashkilot

sifatida tuzilgan. Mazkur tashkilot hozirda 37ta davlatda o‘zining milliy bo‘limlariga ega. Ushbu tashkilot urushlarninig oldini olish uchun ularning sabablarini o‘rganish, to‘liq qurolsizlanishni amalga oshirish, ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari insoniyat ma’naviy-huquqiy ideallarining eng yuqori darajada ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi. BMT Nizomi va xalqaro konvensiyalarda hamda dunyoning turli mamlakatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan inson huquqlari fundamental va ajralmas huquqlar sifatida qaraladi. Xotin-qizlar huquqlarini muhofaza qilish, gender tengligi, diskriminatsiya, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘rovonlik, erta nikoh masalalari doimiy jahon hamjamiyatini tashvishlantirib keladigan muammolar hisoblanadi. Bu masalalarni yechimini topish maqsadida yuqorida keltirilgan qator xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritib kelmoqda. Biroq gender tengsizligi muammosi jamiyatimizda chuqur ildiz otgan muammo bo‘lib, ayollar yaxshi ish o‘rniga ega bo‘lish, teng miqdorda maosh olishda tengsizlikka duch kelishadi. Ko‘pincha ayollar umumiy ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda imkoniyatlari cheklangan. Butun dunyoda ayollar zo‘rovonlik va kamsitishlardan aziyat chekishmoqda. Siyosiy va iqtisodiy masalalarni hal etishda ayollar kam ishtirok etadi. Bir necha o‘n yillik ishlar natijasida BMT ayol huquqlarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu sohada islohotlar tinimsiz davom etmoqda. Ayollar huquqlari inson huquqlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari iqtisodiy farovonlikni, ishlab chiqarishning o‘sishini va rivojlanishni rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilkka Taypale Finlyandiyaning 100 ta ijtimoiy innovasiyasi/ Finlyandiya qanday qilib Finlyandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovasiyalar. –T.: “Sharq”, 2019. –B. 74.

2. Прогресс женщин мира в 2019-2020 годах. Семьи в меняющемся мире. ООН-Женщина, 2019. –С. 20.

3. OBSE (Организация безопасности и сотрудничества в Европе) https://www.osce.org/ru/gender-equality

4. О структуре «ООН-Женщины» https://www.unwomen.org/ru/about-us/about-un-women

5. Elektron manba: https://www.gd.ru/articles/11630-benefitsiar

FUQAROLIK JAMIYATI VA FUQAROLAR FAOLLIGI: NAZARIY ASOSLARI VA XALQARO TAJRIBA

Matnazarova M.A.
O‘zbekiston Jahon tillari Universiteti Siyosiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi, siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. Fuqarolik jamiyati — bu jamiyatda davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi, jamoatchilik manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi ijtimoiy institutlar, fuqarolar uyushmalari, notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda turli tashabbuskor guruhlar majmuasidir. Fuqarolik jamiyati demokratik boshqaruv tizimining muhim tayanchi sifatida fuqaro va davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi, mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining nazariy asoslari va huquqiy konsepsiyasi tahlil qilinadi, fuqarolarning ijtimoiy faolligi shakllari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro tajriba (AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya misolida) ilmiy asosda o‘rganiladi.

Kalit so’zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik faolligi, demokratik ishtirok, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), jamoatchilik nazorati, raqamli ishtirok, ijtimoiy tarmoqlar, OAV erkinligi, ishtirokchi boshqaruv, shaffoflik, hisobdorlik, xalqaro tajriba, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya,

Kirish. Fuqarolik jamiyatining ildizlari qadimgi Yunoniston davridan boshlangan. Aristotel hokimiyatning mazmuni fuqarolarning o‘z manfaatlarini erkin ifoda etishi va umumiy yaxshilikka intilishi bilan bog‘liq deb bilgan. XVII–XVIII asrlarda T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteske kabi ma’rifatchilar jamiyat va davlat o‘rtasidagi kontrakt (ijtimoiy shartnoma) nazariyasini ishlab chiqib, fuqarolarning tabiiy huquqlari himoyasini ta’minlovchi erkin institutlar zarurligini ta’kidlagan. XVIII asr oxirida fransuz faylasufi A. de Tokvil Amerikadagi fuqarolar uyushmalari va erkin ijtimoiy hayotning demokratiya barqarorligidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi. XX asrda Yu. Habermas “ijtimoiy sfera” haqidagi g‘oyasi bilan davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni erkin matbuot va miting erkinligi orqali amalga oshirishni asoslab berdi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida fuqarolik jamiyati jamiyatning ijtimoiy tizimlari o‘zaro integratsiyalashgan va bir-birini to‘ldiruvchi tarmoqlar majmui sifatida talqin etilib, ularning o‘zaro hamkorligi ijtimoiy paktning shakllanishi hamda demokratiya institutlarining samarali faoliyat yuritishining zaruriy sharti sifatida baholanadi.

Fuqarolarning faolligi demokratik jamiyatning ko‘rsatkichidir. Faollik turlari quyidagilar:

1. *Siyosiy ishtirok:* saylovlarda ovoz berish, siyosiy partiya va harakatlarga a’zolik, saylovoldi kampaniyalarida qatnashish, miting va piketlarda ishtirok etish.

2. *Ijtimoiy faollik:* notijorat tashkilotlar, jamoat fondlari, talaba birliklari, mahalla va kooperativlardagi ko‘ngilli ishlar, jamg‘arma yig‘ish va xayriya tadbirlari.

3. *Raqamli ishtirok:* ijtimoiy tarmoqlar orqali muhokama va petitsiyalarni tarqatish, e-demokratiya platformalarida (masalan, petisiyalar portalida) ovoz berish va e’tiroz bildirish.

Jamoatchilik kengashlari – bu davlat organlari huzurida faoliyat yurituvchi, fuqarolar vakillari hamda ekspertlardan tashkil topgan maslahat va nazorat organlari bo‘lib, ular davlat qarorlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etadi hamda ularning ijrosini monitoring qiladi. Mazkur kengashlar ochiq muloqotlar o‘tkazish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga xulosa berish, shuningdek, fuqarolik tashabbuslarini ilgari surish orqali jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqot maydonini shakllantiradi. Masalan, Germaniyada mahalliy va federal darajada faoliyat ko‘rsatuvchi *Fachausschuss* (mutaxassislar kengashlari) ijtimoiy siyosat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida muhim rol o‘ynaydi. AQShda jamoatchilik kengashlari davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini ta’minlovchi demokratik institutlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) fuqarolik jamiyatining tarkibiy elementi sifatida “to‘rtinchi hokimiyat” funksiyasini bajaradi: ular jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida axborot tarqatadi, hukumat faoliyatini tanqidiy tahlil qiladi, korrupsion holatlarni fosh etadi hamda fuqarolarning fikrini jamoatchilik maydoniga olib chiqadi.

AQSh fuqarolik jamiyati institutlari eng rivojlangan davlatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) sektori millionlab faol subyektlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya, inson huquqlari va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Fuqarolik huquqlari, ekologik va ayollar huquqlari harakatlari singari ijtimoiy oqimlar jamiyatdagi demokratik qadriyatlar va jamoatchilik bosimining kuchini yaqqol namoyon etgan. 2023–2024 yillarda AQSh Census Bureau hamda AmeriCorps hisobotlariga ko‘ra, 2022–2023 yillar davomida aholining 28,3 foizi yoki 75,8 million nafari NNTlar faoliyatida ko‘ngilli sifatida qatnashgan, bu esa pandemiyadan keyingi ijtimoiy faollikning tiklanishini anglatadi. Volontyorlik darajasi shtatlar kesimida farq qiladi: Utah va Vermontda 40 foizdan yuqori bo‘lsa, Nevada va Rhode Islandda 20 foizdan past. Siyosiy ishtirok ham yuqori: 2020-yilgi prezidentlik saylovida fuqarolarning qatnashish darajasi 66 foizdan oshgan, 2024-yilda esa 170 milliondan ortiq saylovchi ro‘yxatdan o‘tgan. Shuningdek, hukumatning ochiqligini ta’minlovchi Freedom of Information Act (FOIA) kabi qonunlar,

mahalliy budjet muhokamalarida, ta’lim va sog‘liqni saqlash kengashlarida fuqarolarning ovozi jamiyat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokining muhimligini ko‘rsatadi.

Germaniyada fuqarolik jamiyati tizimi rivojlangan: notijorat tashkilotlar, fondlar, diniy jamiyatlar, savdo uyushmalari va savdo palatalari keng tarmoqqa ega. Maecenata jamg‘armasi hisobotiga ko‘ra, Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlari ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lib, rasmiy volontyorlik va xayriya yig‘imlari qisqarayotgani bilan birga, fuqarolik tashkilotlari o‘zini jamiyatdagi islohotlar tashabbuskori sifatida ko‘rmoqdaa. 2020 yilgi pandemiya davrida davlat va jamoat sektori hamkorligi kengaydi: hukumat ko‘ngillilarni sog‘liqni saqlash sohasiga jalb qildi, fuqarolar esa qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini yaratdilar.

Germaniyada fuqarolik jamiyati institutlari barqaror va faol ishlaydi. Mamlakatda siyosiy ishtirok darajasi yuqori bo‘lib, bu demokratik qadriyatlarning chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Bundestag saylovlarida qatnashish 2017-yilda 76,2 %, 2021-yilda esa 76,6 % ni tashkil etgan, bu esa fuqarolarning siyosiy ongining yuksakligi va davlat boshqaruvida mas’uliyatli ishtirokini ifodalaydi. Mahalliy darajada esa Bürgerdialoge (fuqarolar dialogi) dasturlari, jamoatchilik kengashlari hamda referendumlar orqali aholining fikri siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga kiritiladi. Bu amaliyot Germaniyada ishtirokchi demokratiya tamoyillarining samarali tatbiq etilayotganini va fuqarolik jamiyatining davlat siyosatiga faol ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya fuqarolik jamiyati so‘nggi o‘n yilliklarda yuqori faolligi bilan ajralib turadi. 1980–1990 yillardagi demokratik islohotlar natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari kengayib, inson huquqlari, ekologiya, iste’molchilar manfaatlari hamda korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishlarida ko‘plab NNTlar tashkil etildi. Hukumat fuqarolik jamiyatini muhim hamkor sifatida e’tirof etadi: budjetni shakllantirish jarayonida “fuqarolar kengashlari” faol ishtirok etib, loyihalar bo‘yicha jamoatchilik fikri inobatga olinadi. 2016–2017 yillardagi “Candlelight Movement” mamlakat tarixida muhim siyosiy burilish bo‘lib, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi tinch noroziligi natijasida prezident Park Geun-hyening iste’fosi bilan yakunlandi. Bugungi kunda esa yoshlar ekologik muammolar va gender tengligi masalalarida faol bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazmoqda.

Xulosa. Fuqarolik jamiyati demokratik tizimning asosiy tayanchi bo‘lib, fuqarolarning davlat bilan muloqotini kuchaytiradi, ijtimoiy muammolarni hal etish, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati samaradorligi ko‘ngillilik darajasi, davlat bilan hamkorlik va OAV erkinligi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishildi:

NNTlar soni ortmoqda, saylovlarda fuqarolarning faolligi oshmoqda, ishtirokchi boshqaruv tamoyillari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, nodavlat tashkilotlar faoliyati uchun ayrim huquqiy to‘siqlar, OAV ustidan nazorat va raqamli maydondagi cheklovlar saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda raqamli ishtiroq fuqarolik faolligini yangi bosqichga olib chiqmoqda: 8,7 million ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi va oyiga 47 million Telegram postlari fuqarolarning fikr bildirish maydonini kengaytirgan. Kelgusida fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, axborot erkinligini ta’minlash va raqamli savodxonlikni oshirish orqali jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlash zarur

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. (2025). Civic and Citizen Engagement yangilangan hisobot (Engaged citizens, transparency and accountability) worldbank.orgworldbank.org.
2. Maecenata Foundation. (2024). Civil Society in Germany: Data, Facts, Developments (Opusculum 192). ssoar.info.
3. WHYY (2024, 19 noyabr). New Census Data Shows Volunteerism Rebounding after Pandemic – Amerikaning ko‘ngillilik statistikasiwhyy.org.
4. Tokvil, A. (1835). Democracy in America. (Fuqarolik uyushmalari haqidagi nazariy g‘oyalar).
5. Habermas, J. (1962). Strukturwandel der Öffentlichkeit [Public Sphere Transformation]. (Jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqot nazariyasi).

FUQAROLIK JAMIYATIING TARIXIY SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ULARNING HOZIRGI BOSQICHI TURKIYA MISOLIDA

Yarmuxamedova Irodaxon Nosir qizi,
s.f.f.d. (PhD)., O’zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi
(+998974001440, Irodaxon1440@gmail.com)

Annotatsiya: maqolada Turkiyada fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonlari tarixiy bosqichlar asosida ko‘rib chiqiladi. Usmoniylar davridagi vaqflar va gildiyalar dastlabki institutlar sifatida, Respublika davridagi markazlashgan boshqaruv esa fuqarolik jamiyatining cheklanishi sifatida tahlil qilingan. 1980-yillarda liberallashtirish jarayonlari nodavlat tashkilotlar va kasaba uyushmalarining faollashuviga olib kelgani, 1990–2000-yillarda Yevropa Ittifoqi integratsiyasi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Hozirgi bosqichda esa raqamli platformalar, yoshlar

faolligi va xalqaro hamkorlik muhim omil sifatida namoyon bo‘lib, davlat nazoratining kuchayishi esa ma’lum cheklovlarni keltirib chiqarmoqda.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, Turkiya Respublikasi, Usmoniylar davri, vaqflar, jamoatchilik faolligi, kasaba uyushmalari, demokratik institutlar, inson huquqlari.

Fuqarolik jamiyati – demokratik taraqqiyotning muhim tayanchi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan ijtimoiy institutlar majmuasidir. Har bir mamlakatda fuqarolik jamiyati tarixiy, siyosiy va madaniy sharoitlarga ko‘ra o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Turkiya misolida bu jarayon ko‘p bosqichli bo‘lib, diniy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta’sirida rivojlangan.

Turkiya Respublikasida fuqarolik jamiyatining tarixiy ildizlari Usmoniylar imperiyasi davriga borib taqalib, bu davrda davlat boshqaruvi kuchli markazlashgan bo‘lsa-da, mahalliy ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi, nodavlat tashabbuslarni ifoda etuvchi institutlar ham mavjud bo‘lgan.

Avvalo, “vaqf”lar ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutgan. Vaqflar diniy-xayriya asosida tashkil etilib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, yo‘l va ko‘prik qurilishi, ijtimoiy himoya kabi sohalarda faoliyat yuritgan. Ular orqali jamiyatning kambag‘al qatlamlari qo‘llab-quvvatlangan, ilm-ma’rifat va madaniyat rivojiga sarmoya kiritilgan. Shu sababli, vaqf tizimi Usmoniylar davrida davlat tomonidan nazorat qilinmagan, biroq ijtimoiy hayotni tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynagan fuqarolik institutlari sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, hunarmandlar gildiyalari (esnaf tashkilotlari) ham jamiyat hayotida muhim fuqarolik tuzilmalardan biri sifatida shakllangan. Ular ishlab chiqarish standartlarini belgilash, ustoz-shogird tizimini tartibga solish, savdo-sotiqda halollikni ta’minlash va a’zolar manfaatlarini himoya qilish vazifalarini bajargan. Gildiyalar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, ichki nizolarni hal qilish va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, mahalla va diniy jamoalar ham fuqarolik jamiyati kurtaklari sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalla institutlari aholining o‘zini-o‘zi boshqarish, ijtimoiy nazorat va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ko‘pincha diniy ulamolar, oqsoqollar yoki tajribali shaxslar rahbarligida faoliyat yuritgan . Umuman olganda, Usmoniylar davrida zamonaviy fuqarolik jamiyati tushunchasi to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, vaqflar, esnaf gildiyalari va mahalla tizimi uning dastlabki kurtaklarini yaratgan. Bu institutlar keyinchalik Turkiya Respublikasida shakllangan fuqarolik jamiyatining tarixiy, ijtimoiy va diniy asoslarini tashkil etgan.

Mustaqil Turkiya Respublikasi tashkil topishi bilan mamlakatda siyosiy tizim tubdan yangilandi. Mustafa Kamol Otaturk islohotlari doirasida milliy davlat qurilishi, modernizatsiya va dunyoviylik siyosati davlatning asosiy ideologik yo‘nalishi sifatida belgilandi. Ushbu davrda fuqarolik jamiyatining

shakllanishi o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, bir tomondan yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatning qat’iy markazlashuvi fuqarolik tashabbuslarini keskin chegaralab qo‘ydi.

Davlat tuzilmalarida millatparvarlik mafkurasi asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib, barcha siyosiy va ijtimoiy faoliyat “millat manfaatlari” doirasida nazorat qilindi. Natijada, mustaqil siyosiy partiyalar va erkin fuqarolik tashkilotlari faoliyati qat’iy cheklovlarga duch keldi. Shunga qaramay, professional uyushmalar, assotsiatsiyalar va madaniy jamiyatlar asta-sekin faoliyat ko‘rsatishni boshladi. Ularning asosiy vazifalari professional manfaatlarni himoya qilish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish hamda aholining ijtimoiy ehtiyojlariga qisman javob berish bilan cheklanib qoldi. Otaturk islohotlari doirasida amalga oshirilgan dunyoviylik siyosati diniy asosdagi fuqarolik institutlarining, xususan vaqflar va diniy jamoalarning faoliyatini keskin cheklab qo‘ydi. Bu esa Usmoniylar davridan meros bo‘lib kelgan fuqarolik jamiyati tuzilmalarining transformatsiyasiga olib keldi. Natijada, fuqarolik jamiyatining diniy-ma’naviy asoslari zaiflashib, uning o‘rnini davlat nazorati ostidagi modern tuzilmalar egallay boshladi .Respublika davrining ilk bosqichida fuqarolik jamiyati institutlari cheklangan bo‘lsa-da, u keyingi bosqichlarda yuzaga kelgan siyosiy liberalizatsiya jarayonlariga zamin bo‘lib xizmat qilgan. Chunki aynan shu davrda Turkiya jamiyatida fuqarolik institutlari va davlat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar shakllandi.

1980- yillar boshlaridagi harbiy to‘ntarish Turkiya siyosiy tizimida keskin burilish yasadi. Harbiy hukumat siyosiy barqarorlikni tiklashni maqsad qilgan bo‘lsa-da, ushbu davrda fuqarolik jamiyati institutlari vaqtincha susaytirildi. Biroq 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar mamlakatda fuqarolik jamiyatining qayta jonlanishiga zamin yaratdi. Avvalo, Turg‘ut Ozal hukumatining iqtisodiy liberalizatsiya siyosati muhim ahamiyat kasb etdi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish, tashqi savdo va kapital oqimining erkinlashtirilishi nodavlat sektorining kengayishiga, o‘z navbatida, yangi ijtimoiy guruhlarning shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon fuqarolik tashabbuslari uchun ijtimoiy-iqtisodiy baza yaratdi.

Siyosiy sohada esa, cheklovlarga qaramay, so‘z erkinligi va assotsiatsiyalar erkinligi asta-sekin kengaydi. Ayniqsa, inson huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qilish kabi sohalarda mustaqil nodavlat tashkilotlar (NNTlar) faoliyati sezilarli darajada jonlandi. 1986-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari jamiyati (İnsan Hakları Derneği) fuqarolik jamiyatining o‘sib borayotgan salohiyatini yaqqol ifoda etdi. Bundan tashqari, kasaba uyushmalari va professional assotsiatsiyalar ham kuchayib bordi. Ular nafaqat mehnat huquqlarini himoya qilish, balki demokratik

islohotlar talabini ilgari surishda ham faol qatnashdi. Bu davrda fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan ochiq muloqot mexanizmlarini izlashga intildi. Umuman olganda, 1980-yillar Turkiyada fuqarolik jamiyati tarixida “o‘tish davri” bo‘lib, u markazlashgan siyosiy tizimdan nisbatan ochiqroq va pluralistik ijtimoiy tuzilmalarga o‘tishni ta’minladi.

1990–2000-yillar Turkiya fuqarolik jamiyati taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni tashkil etdi. Bu davrda mamlakatning Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lishga intilishi fuqarolik institutlarining huquqiy va tashkiliy jihatdan mustahkamlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 1999-yilda Turkiyaning YeI a’zolikka nomzod sifatida tan olinishi fuqarolik jamiyatining demokratik tamoyillar asosida qayta shakllanishini jadallashtirdi.

Integratsiya jarayonida inson huquqlari, so‘z erkinligi, ayollar va ozchiliklar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilik islohotlari amalga oshirildi. Bu islohotlar fuqarolik tashkilotlari uchun huquqiy asoslarni kengaytirib, ularning davlat va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirdi. Shu bilan birga, xalqaro talablar asosida hukumatning nodavlat tashkilotlar bilan muloqoti institutsional tus ola boshladi. Mazkur davrda Turkiya fuqarolik jamiyati faqat ichki siyosiy omillar emas, balki xalqaro donor tashkilotlari va transmilliy NNT lar faoliyati natijasida ham sezilarli rivojlandi. Yevropa komissiyasi, BMT agentliklari, Germaniya va AQShning xalqaro fondlari turli loyihalarni moliyalashtirib, inson huquqlari, ekologiya, gender tengligi va yoshlar faolligini qo‘llab-quvvatladi . Bu holat fuqarolik jamiyatining transmilliy maydonga chiqishini ta’minlab, uni global fuqarolik tarmog‘ining faol subyektiga aylantirdi.

Yevropa Ittifoqi integratsiyasi jarayonida fuqarolik faolligining yangi shakllari – mitinglar, kampaniyalar, huquqiy monitoring markazlari va mustaqil media tashabbuslari yuzaga kelishi natijasida fuqarolik jamiyatini faqat an’anaviy professional assotsiatsiyalar bilan cheklanmay, keng ijtimoiy qatlamlarni jalb qiluvchi, pluralistik va interaktiv tuzilma sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Bu davrda Turkiyada fuqarolik jamiyati rivojlanishida “yevropizatsiya bosqichi” sifatida baholanadi. Bu davr fuqarolik institutlari uchun erkinliklarni kengaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va demokratik qadriyatlarni chuqurroq singdirish imkonini berdi. Biroq, siyosiy barqarorlik muammolari va davlatning ayrim sohalarda nazoratni saqlab qolish istagi fuqarolik jamiyatining to‘liq erkinlashuviga ma’lum darajada to‘sqinlik qildi.

XXI asrda Turkiyada fuqarolik jamiyati yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Bugungi kunda mamlakatda yuz minglab nodavlat notijorat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, professional assotsiatsiyalar, inson huquqlari markazlari va mahalliy tashabbus guruhlari faoliyat yuritmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, fuqarolik jamiyati endilikda faqat an’anaviy uyushmalar bilan

chegaralanmay, balki keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab oluvchi va global tarmoqlarga ulangan pluralistik tuzilma sifatida shakllangan.Hozirgi bosqichning muhim xususiyatlaridan biri bu raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning fuqarolik faolligidagi o‘rnidir. Internet va yangi media vositalari fuqarolarga tezkor axborot almashinuvi, ijtimoiy mobilizatsiya va davlat siyosatini tanqidiy kuzatish imkonini bermoqda. Masalan, 2013-yildagi “Gezi Parki” norozilik namoyishlari fuqarolik jamiyatining raqamli tarmoqlar orqali tezkor safarbar bo‘lish qobiliyatini ko‘rsatdi.

Shuningdek, yoshlar va ayollar harakati fuqarolik jamiyatining dolzarb segmentini tashkil etmoqda. Gender tengligi, ekologik barqarorlik, korrupsiyaga qarshi kurash va inson huquqlarini himoya qilish kabi yo‘nalishlarda yangi tashabbuslar kuchaymoqda. Bu jarayon fuqarolik jamiyatining zamonaviy ijtimoiy muammolarga moslashuvchanligini ifodalaydi. Ammo, zamonaviy davrda fuqarolik jamiyati bir qator cheklov va muammolar bilan ham to‘qnash kelmoqda. Xususan, siyosiy barqarorlikka oid xavotirlar, hukumatning fuqarolik tashkilotlari ustidan nazoratni kuchaytirishi va ayrim huquqiy cheklovlar mustaqil tashabbuslarning erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayrim tadqiqotchilar Turkiyadagi fuqarolik jamiyatini “faol, ammo chegaralangan” (active but constrained) deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik, transmilliy fuqarolik tarmoqlari va donor tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlashi fuqarolik jamiyatining institutsional barqarorligini saqlab qolishda muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Bu jarayon Turkiya fuqarolik jamiyatining xalqaro tajribalar bilan boyishini va global demokratik qadriyatlarga moslashuvini ta’minlamoqda. Demak, hozirgi bosqichda Turkiyada fuqarolik jamiyati bir tomondan raqamli texnologiyalar, yoshlar faolligi va xalqaro integratsiya bilan kuchayib borayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan siyosiy va huquqiy cheklovlar sababli muvozanatli rivojlanish imkoniyatlarini izlamoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Turkiyada fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni diniy-xayriya an’analari, milliy davlat qurilishi, siyosiy liberalizatsiya va xalqaro integratsiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda kuchli institutlar mavjud bo‘lsa-da, ular siyosiy jarayonlar va global omillardan sezilarli darajada ta’sirlanmoqda. Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatining samarali rivoji uchun davlat va jamiyat o‘rtasida muvozanat, qonun ustuvorligi va ochiq muloqot mexanizmlari zarur. Ushbu tajriba O‘zbekiston uchun ham dolzarb saboqlar beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Diamond, L. Developing Democracy: Toward Consolidation. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1999.

2. Yılmaz, H. “Islam, Sovereignty, and Democracy: A Turkish Perspective.” Middle East Journal, vol. 61, no. 2, 2007, pp. 245–260.
3. Zürcher, E. J. Turkey: A Modern History. London: I.B. Tauris, 2004.
4. Keyman, F. & Icduygu, A. Globalization, Civil Society and Citizenship in Turkey. London: Routledge, 2005.
5. Kubicek, P. “The European Union and Grassroots Democratization in Turkey.” Turkish Studies, vol. 6, no. 3, 2005, pp. 361–377.
6. White, J. B. Muslim Nationalism and the New Turks. Princeton: Princeton University Press, 2013.
7. Çelik, A. B. Civil Society and State Relations in Turkey: A Historical Overview. Turkish Studies, 2015.
8. Tugal, C. Resistance Everywhere: The Gezi Revolt in Global Perspective. New Perspectives on Turkey, 2013.

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHINING ASOSIY MEZONLARI: IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLIL. AQSH FUQAROLIK INSTITUTLARI TAJRIBASI

Zabixulla Saipov,
siyosiy fanlar nomzodi (PhD)
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy mezonlari tafsilotlari tahlil etilib, AQShdagi mustaqil va faol fuqarolik institutlarining demokratik taraqqiyotdagi o‘rni tushuntirilgan. Kuchli fuqarolik jamiyati faqat qonun ustuvorligi, siyosiy faollik, mustaqil nodavlat tashkilotlar va erkin axborot maydoni mavjudligida amalga oshishi mumkinligi, shuningdek, AQSh tajribasi O‘zbekiston uchun fuqarolik institutlarini mustahkamlashda ahamiyatga molik bo‘lishi mumkinligi bo‘yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, AQSh, institutlar, matbuot, NNT, ijtimoiy ishtirok, O‘zbekiston, qonun ustuvorligi

Demokratiyaning barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili sifatida kuchli fuqarolik jamiyati qadrlanadi. Kuchli va faol fuqarolik jamiyati faqatgina davlatning qonun asosida ishlashi, balki fuqarolarning o‘z manfaatlarini tashkil etilgan institutlar orqali ifoda etishi va siyosiy faolligini ta’minlashi bilan bog‘liq. Ushbu maqolada kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-siyosiy mezonlari tahlil qilinib, AQShdagi fuqarolik institutlari tajribasi asosida izohlanadi.

Fuqarolik jamiyati: tushunchasi va ahamiyati. Fuqarolik jamiyati tuzilmalari davlat hokimiyatidan mustaqil, fuqarolarning erkin faollik ko‘rsatishi uchun poydevor yaratadi. Bu institutlar fuqarolarga siyosiy

jarayonlarda faol qatnashish, o‘z huquqlarini himoya qilish imkonini beradi. Alexis de Tocqueville (1835) fuqarolik jamiyatini davlatdan mustaqil, kichik, ammo faol tashkilotlar tizimi sifatida tavsiflaydi, u demokratiyaning o‘sishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy maydonni tashkil etadi (Tocqueville, 1835, p. 52). Qonun ustuvorligi, erkin axborot maydoni va fuqarolar o‘rtasidagi ishonch kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridir (Sharifxodjayev, 2002, p. 101). Putnam (2000) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nodavlat tashkilotlarning faoliyati va kichik guruhlardagi ishtirok ijtimoiy kapitalni oshiradi, fuqarolik faolligi va institutsional barqarorlikni ta’minlaydi (pp. 120–136).

Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy mezonlari nimalardan iborat?

- Fuqarolarning huquqlari va qonun ustuvorligi kafolatlangan bo‘lishi, mustaqil sud institutlari faoliyat yuritishi;
- Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, saylovlarda qatnashishi;
- Xalq manfaatlarini ifoda etuvchi mustaqil notijorat tashkilotlar va fuqarolik guruhlarining rivojlanganligi;
- Erkin va ochiq axborot maydoni, mustaqil ommaviy axborot vositalari mavjudligi;
- Jamiyatda ijtimoiy ishonch va hamkorlik madaniyatining kuchayishi.

Putnam (2000) ijtimoiy kapitalning o‘sishini fuqarolik madaniyati va faol nodavlat tashkilotlar orqali ifodalaydi, bu esa uzoq muddatda yanada mustahkam demokratik jamiyat tuzishda muhim omil hisoblanadi (Putnam, 2000, pp. 120–136).

AQSH fuqarolik institutlari tajribasi. AQSHda fuqarolik jamiyati institutlari mustaqil, keng qamrovli va faol tizim sifatida shakllangan. Alexis de Tocqueville (1835) fuqarolik jamiyatini davlatdan mustaqil faol guruhlar tizimi deb atab, bu institutlarning demokratiya qurilishidagi o‘rni va ahamiyatiga urg‘u beradi (p. 52). Fuqarolik jamiyati nafaqat siyosiy institutlar, balki turli notijorat va nodavlat tashkilotlarni, erkin axborot maydonini va fuqaroning ijtimoiy faolligini o‘z ichiga oladi. Demokratik jamiyatni mustahkamlashda eng muhim omil – bu fuqarolik institutlarining fuqarolar manfaatlarini himoya qilishdagi samaradorligi va davlat faoliyatining nazoratidir (Sharifxodjayev, 2002, p. 101). AQSh fuqarolik jamiyati institutlari bir necha asosiy elementlardan iborat bo‘lib, ular fuqarolarni erkin va faol siyosiy-huquqiy hayotga jalb qilish imkonini beradi. Ushbu institutlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi. AQSH tajribasiga asosan, kuchli fuqarolik jamiyati quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- *Qat’iy qonun ustuvorligi va sud mustaqilligi* tizimining barqarorligi davlat va fuqarolar o‘rtasida ishonchni shakllantiradi va fuqarolarning huquqqa

bo‘lgan irodasini mustahkamlaydi (AQSh federal hukumati, 2024, p. 22). Mustaqil sud hokimiyati har qanday siyosiy kuchning ortiqcha konsentratsiyasi oldini olib, fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi va hokimiyatlar muvozanatini ta’minlaydi.

- *Faol siyosiy va ijtimoiy ishtirok* — fuqarolarning saylovlarda qatnashishlari, siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlarda faol bo‘lishlari yuzaga keladigan demokratik jarayonlarni yanada sifatli qiladi. Fuqarolarning siyosiy jarayonlarda erkin ishtiroki AQSH demokratik tizimining poydevorini tashkil etadi. Saylov jarayoni shaffof va adolatli o‘tkazilib, fuqarolar o‘z vakillarini erkin tanlaydi.
- *Mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT).* AQShda 1.5 milliondan ortiq notijorat tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida faoliyat yuritadi (U.S. Department of State, 2025). Eng faol NNTlar orasida quyidagilar ajralib turadi:
  - *Bill & Melinda Gates Foundation:* ta’lim, sog‘liqni saqlash va kambag‘allikka qarshi kurash sohasida faol;
  - *American National Red Cross:* favqulodda vaziyatlarda yordam ko‘rsatish va ijtimoiy xizmatlar;
  - *Feeding America:* oziq-ovqat ta’minoti bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni hal etish;

Ushbu NNTlar ijtimoiy adolat, inson huquqlari, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasida faoliyat yuritib, jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqib mamlakatdagi barqarorlikni ta’minlaydi (Putnam, 2000, pp. 120–136). Shuningdek, ular o‘z faoliyati va vakolat doirasi orqali fuqarolarni birlashtiradi, ijtimoiy ehtiyojlarni anglashga yordam beradi va demokratiyaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi

- *Erkin va shaffof axborot maydoni*, bu jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy boshqaruvlar ustidan nazorat o‘rnatish hamda fuqarolarni xabardor qilishni ta’minlaydi (Kennedy, 1963, p. 54). Mustaqil OAVning mavjudligi fuqarolarga siyosiy va ijtimoiy jarayonlar haqida to‘g‘ri va tezkor ma’lumot yetkazish imkonini beradi. Erkin axborot jamiyat uchun muhim, u fuqarolarning haqiqatni ochiq ravishda bilishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik institutlarining uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy ta’siri. AQSHning mustahkam fuqarolik jamiyati institutlari siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolatga xizmat qiladi. Fuqarolar ijtimoiy va siyosiy faollik bilan shug‘ullanib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Robert Putnamning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, notijorat tashkilotlar faoliyati kuchli ijtimoiy kapitalni barpo etib, demokratiyaning sog‘lom ishlashini ta’minlaydi (Putnam, 2000, pp. 123–125). Misol tariqasida, Bill & Melinda Gates Foundation sog‘liqni saqlash sohasida millionlab insonlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda. American National Red Cross esa favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko‘rsatib, aholining ijtimoiy

xavfsizligini ta’minlaydi. Faol va mustaqil fuqarolik institutlari jamiyatda ijtimoiy ishonchni oshirib, korrupsiya va huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashish imkonini yaratadi. Bu esa siyosiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishga turtki beradi. Ijtimoiy ishonch va hamkorlik madaniyati fuqarolik institutlari va jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi

O‘zbekiston uchun ehtimoliy amaliy tavsiyalar. O‘zbekiston uchun AQSH ning quyidagi fuqarolik institutlarining tajribasidan o‘rganish mumkin:

- Nodavlat notijorat tashkilotlarning mustaqil faoliyatini keng qo‘llab-quvvatlash;
- Fuqarolik ta’limi va siyosiy madaniyatni rivojlantirish;
- OAV mustaqilligini ta’minlash va axborot erkinligini kuchaytirish;
- Siyosiy jarayonlarni shaffof qilish va fuqarolarning ishtirokini rag‘batlantirish;
- Mahalliy boshqaruvda aholi ishtirokini faollashtirish.

Xulosa. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratiyaning barqarorligi, ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish asosidir. AQSH tajribasi fuqarolik institutlarining mustaqilligi, fuqarolar faolligi va erkin axborot maydonining birgalikda ishlashidan iborat ekanligini ko‘rsatadi. AQSHning mustaqil, ko‘p qirrali fuqarolik institutlari va fuqarolarning faolligi uzoq muddatda mustahkam demokratiya va ijtimoiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ayrim mulohazalar O‘zbekistonning kelgusi yanada ijtimoiy-siyosiy yuksalishida samarali asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. American National Red Cross. (2022). Retrieved from https://nonprofitnewsfeed.com/resource/top-100-nonprofits/
2. Bill & Melinda Gates Foundation. (2022). Retrieved from https://nonprofitnewsfeed.com/resource/top-100-nonprofits/
3. Kennedy, J. F. (1963). Presidential speech. Inaugural address (p. 54). https://millercenter.org/president/kennedy/speeches/inaugural-address
4. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community (pp. 120–136). Simon & Schuster.
5. Tocqueville, A. de. (1835). Democracy in America (p. 52).
6. United States Federal Government. (2024). https://en.wikipedia.org/wiki/Federal_government_of_the_United_States
7. Шарифходжаев М. (2002). Формирование открытого гражданского общества в Узбекистане. –Ташкент, С. 101.

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR VA IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY ISTIQBOL

Ataullayev Fazliddin Fahriddin o‘g'li,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Ingliz tili kafedrasi dotsent v.b
Fazliddin-0292@mail.ru +998930057392

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ishtiroki va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Mamlakatimizda yoshlar siyosatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, davlat dasturlari hamda raqamli platformalarning fuqarolik faolligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Xalqaro tajribalar — AQSh, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari misolida yoshlarning volontyorlik va jamoatchilik nazoratidagi faoliyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy istiqbol yo‘nalishlari sifatida yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ochiq muloqot platformalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, yoshlar siyosati, jamoatchilik faolligi, ijtimoiy tarmoqlar, volontyorlik, Taraqqiyot strategiyasi, xalqaro tajriba.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolik jamiyatining rivoji milliy taraqqiyot va demokratik islohotlarning poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, ularning tashabbuslari va raqamli maydondagi faolligi fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlashda hal qiluvchi o‘rin tutmoqda. O‘zbekistonda oxirgi yillarda yoshlar siyosatini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun nafaqat axborot maydoni, balki samarali fuqarolik faolligi va jamiyat bilan davlat o‘rtasidagi “ochiq muloqot” platformasiga aylangan [1].

So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yilda qabul qilingan *“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun* va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyati yoshlarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, *“Yoshlar parlamenti”*, *“Yoshlar daftari”*, *“Talabalar yetakchisi”* kabi tashabbuslar yoshlarning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi rolini sezilarli darajada oshirdi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”da “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish” alohida ustuvor yo‘nalish

sifatida belgilandi [2]. Bu esa yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va fuqarolik jamiyatining barcha bo‘g‘inlarida ularning faol ishtirokini kengaytirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Yoshlarning volontyorlik harakatlarida faol ishtirok etishi ham fuqarolik jamiyatini mustahkamlayotgan muhim ko‘rsatkichdir. Masalan, pandemiya davrida yuz minglab yoshlar “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatida qatnashib, aholiga yordam ko‘rsatdi. Bundan tashqari, “Yoshlar – kelajagimiz” va “Besh ijobiy tashabbus” dasturlari doirasida yoshlarning biznes g‘oyalari va ijtimoiy loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi.

Axborot texnologiyalari sharoitida ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarning o‘z fikrini erkin bildirish, muammolarni tezkor ko‘tarish va davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. O‘zbekistonda turli qarorlar, qonun loyihalari yoki davlat xizmatlari sifati haqidagi bahs-munozaralar aynan ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tmoqda.

Masalan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” doirasida joriy qilingan *“Virtual qabulxona”* va *“Xalq qabulxonalari”* tizimi ham ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlar va muammolarni hal qilishda samarali mexanizmga aylandi [3]. Natijada jamoatchilikning davlat organlari ustidan nazorati oshib, fuqarolarning davlat siyosatidagi ishtiroki sezilarli darajada kuchaydi.

Xalqaro amaliyot yoshlarning fuqarolik jamiyatida faolligini oshirishda qimmatli tajribalarni taqdim etmoqda. Masalan, AQShda yoshlar *“Peace Corps”* volontyorlik dasturi orqali mahalliy va global muammolarni hal etishga jalb etiladi. Janubiy Koreyada talabalar ittifoqlari va yoshlar tashkilotlari davlat siyosatini shakllantirishda faol qatnashib, ularning fikri parlament muhokamalarida inobatga olinadi. Yevropa Ittifoqida esa ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologiya, gender tengligi va inson huquqlari bo‘yicha yoshlarning jamoaviy tashabbuslari keng qo‘llab-quvvatlanmoqda [4].

Bu tajribalar O‘zbekistonga ham mos keladigan jihatlarni ochib beradi: yoshlarning tashabbuslarini moddiy va institutsional qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning faoliyatini kengaytirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Shu nuqtai nazardan, nafaqat xalqaro tajriba, balki mintaqaviy ilmiy yondashuvlar ham e’tiborga loyiqdir. Sanjar Saidov o‘zining *“Markaziy Osiyo: Fuqarolik jamiyati va mintaqaviy integratsiya muammolari”* asarida ta’kidlaganidek, *“fuqarolik jamiyatining rivojlanishi mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy hamkorlikni kengaytirish va integratsiya jarayonlarini jadallashtirish uchun zaruriy shartdir”*[5]. Ushbu fikrni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyatining kuchayishi nafaqat ichki siyosiy barqarorlik va demokratik

qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki mintaqaviy darajada ham o‘zaro manfaatli aloqalar uchun poydevor yaratadi. O‘zbekistonda yoshlar tashabbuslari va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan faoliyat nafaqat milliy miqyosda, balki Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ham o‘zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatiga ega. Bu esa yoshlarning nafaqat milliy, balki mintaqaviy miqyosda ham ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning faol ishtirokchisiga aylanayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda kelgusida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar dolzarbdir:

1. Yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi milliy va xalqaro grant dasturlarini kengaytirish.
2. Davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida “ochiq muloqot” platformalarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish.
3. “Yoshlar – kelajagimiz” dasturining hududlarda kengaytirilgan tarmoqlarini shakllantirish va yoshlarni biznes hamda ijtimoiy loyihalarga keng jalb etish.
4. Xalqaro volontyorlik va yoshlar almashuv dasturlarida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish.

Mazkur chora-tadbirlar fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlab, yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni va mas’uliyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatining shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar — Taraqqiyot strategiyasi, Yoshlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha farmonlar, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi va ochiq muloqot mexanizmlari — milliy fuqarolik jamiyatining demokratik asoslarda mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba esa shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni faol subyekt sifatida shakllantirish orqali mamlakatning demokratik rivojlanishi va barqaror taraqqiyotini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” doirasidagi tashabbuslari.
4. Global Youth Development Index Report, Commonwealth Secretariat, 2023.

5. Saidov Sanjar, Markaziy Osiyo: Fuqarolik jamiyati va integratsiya muammolari. Monografiya – Toshkent: Ilm-ziyo zakovat, 2021. – 216 b.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ISTIQBOLLARI (AYOLLAR MASALASI MISOLIDA)

Nizamova Mohidil Maxmud qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti doktoranti,
“Siyosiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchi-stajyori
+998505020402, nizamova@uwed.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida gender tengligini ta’minlash va fuqarolik jamiyatining bu jarayondagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda ishtiroki, fuqarolik jamiyati institutlarining gender siyosatini shakllantirishdagi ahamiyati, nohukumat tashkilotlar, media va jamoatchilik harakatlarining ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada gender tengsizligining asosiy ko‘rinishlari, xalqaro me’yorlar va milliy amaliyot o‘rtasidagi farqlar, davlat-fuqarolik jamiyati hamkorligi mexanizmlari, shuningdek, gender siyosatini takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Markaziy Osiyoda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy demokratik tamoyillar o‘rtasidagi muvozanatni topishda fuqarolik institutlarining muhim ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, fuqarolik jamiyati, ayollar huquqlari, nohukumat tashkilotlar, gender siyosati, Markaziy Osiyo, ayollarning siyosiy ishtiroki, jamoatchilik harakatlari, gender zo‘ravonligi, ijtimoiy aktivizm, demokratiya, gender advokatsiyasi, davlat-jamiyat hamkorligi.

Gender tengligi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi zamonaviy demokratik davlat qurilishining ikki muhim ustuni hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining beshinchi maqsadi gender tengligini ta’minlashga, o‘ninchi maqsadi esa tengsizliklarni kamaytirish va inklyuziv jamiyat qurishga qaratilgan [1]. Bu ikki yo‘nalish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari ularni amalga oshirishda muhim vositachilik rolini o‘ynaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillik qozonganidan so‘ng gender siyosatini shakllantirishda va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim bosqichlarni bosib o‘tdi. Biroq, an’anaviy patriarxal qadriyatlar, sovet davridan meros qolgan institutlar va zamonaviy demokratik tamoyillar o‘rtasidagi muvozanat topish jarayoni hali ham davom etmoqda. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati va gender tengligi masalalari o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanmoqda: kuchli fuqarolik jamiyati gender tengligini ta’minlashning

muhim sharti, gender tengligi esa fuqarolik jamiyatining to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kapitalning muhim qismidir.

Markaziy Osiyoda 50,000 dan ortiq ro‘yxatdan o‘tgan nohukumat tashkilot faoliyat ko‘rsatadi, ularning 15-20% i bevosita gender masalalari bilan shug‘ullanadi [2]. Asosiy yo‘nalishlar ayollar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari, ayollarning iqtisodiy faollashtirish markazlari, gender ta’lim va advokatsiya tashkilotlar, yordam va reabilitatsiya markazlari, hamda tadqiqot markazlarini o‘z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyatining boshqa shakllari qatorida mahalla va jamoat kengashlari muhim o‘rin tutadi, an’anaviy mahalla tuzilmasi zamonaviy fuqarolik jamiyati bilan qanday integratsiya qilishi muhim savol bo‘lib qolmoqda, ba’zi mahallalar gender tengligini qo‘llab-quvvatlasa, boshqalari an’anaviy rollarga yon bosadi. Kasaba uyushmalari ishchilar huquqlarini himoya qilishda, gender diskriminatsiyasiga qarshi kurashda rol o‘ynaydi, ammo o‘zlari ham ko‘pincha erkak ustunligi ostida. Ijodiy uyushmalar va professional tashkilotlar, diniy va madaniy tashkilotlar ham gender masalalariga o‘ziga xos yondashuvlarga egadir.

Fuqarolik jamiyati institutlari gender siyosatiga advokatsiya va lobbizm orqali ta’sir ko‘rsatadi. Qonunchilikni takomillashtirish doirasida gender zo‘ravonligiga qarshi qonun loyihalarini ishlab chiqish va davlat organlariga taklif etish amalga oshirilmoqda, O‘zbekistonda “Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi qonun 2019-yilda qabul qilinishida nohukumat tashkilotlar muhim rol o‘ynadi. Davlat dasturlariga ta’sir ko‘rsatish orqali gender tengligini milliy strategiya va dasturlarga kiritish ta’minlanmoqda, Qozog‘istonda “Gender tengligi konsepsiyasi 2030” ishlab chiqilishida fuqarolik jamiyati vakillari ishtirok etdi. Monitoring va nazorat orqali xalqaro majburiyatlarning bajarilishini kuzatish, alternativ hisobotlar tayyorlash amalga oshirilmoqda, CEDAW bo‘yicha nohukumat tashkilotlar hisobotlar tayyorlaydi [3].

Institutlashgan hamkorlik doirasida ko‘pgina hukumatlar ayollar masalalari bo‘yicha kengashlar yaratdi, unda nohukumat tashkilot vakillari ishtirok etadi. Davlat nohukumat tashkilotlarga ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish uchun moliyaviy yordam beradi. Nohukumat tashkilotlar qonunchilik jarayonida maslahatlashuvlarda ishtirok etadi. Gender siyosatini amalga oshirishni nazorat qiluvchi qo‘shma komissiyalar mavjud. Dasturlar va loyihalar qatorida “O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi” - davlat va nohukumat tashkilotlar hamkorligi, “Qozog‘istonda xavfsiz shahar” - mahalliy hokimiyat va gender tashkilotlar hamkorligi, “Qirg‘izistonda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash” - davlat-fuqarolik jamiyati uchlik loyihalari amalga oshirilmoqda.

Muammolar va cheklovlar. Qonunchilikdagi cheklovlar mavjud bo‘lib, ba’zi davlatlar xalqaro grantlar oladigan nohukumat tashkilotlarni “xorijiy agentlar” deb belgilash to‘g‘risida qonunlar qabul qildi yoki muhokama

qilmoqda. Nohukumat tashkilot ochish jarayoni murakkab va vaqt talab etadi. Nohukumat tashkilotlar faoliyatiga davlat tomonidan qattiq moliyaviy nazorat amalga oshirilmoqda [4].

Siyosiy cheklovlar sifatida ayrim mavzular mavjud bo‘lib, LGBTQ+ huquqlari, diniy ekstremizm kabi masalalarni muhokama qilish qiyin. Davlat siyosatini tanqid qilish xavfli hisoblanadi. Media va fikr erkinligiga cheklovlar mavjud bo‘lib, gender masalalarini ommaviy muhokama qilish cheklangan. Gender asoslangan zo‘ravonlik Markaziy Osiyodagi eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. YuNFPA ma’lumotlariga ko‘ra, har 3 ayoldan 1 tasi hayotida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, oilaviy zo‘ravonlik holatlari ko‘pincha politsiyaga xabar qilinmaydi, faqat 10-20% holatlar qayd etiladi, zo‘ravonlik qurbonlari yordam olishda ko‘plab to‘siqlarga duch keladi.

Siyosiy va iqtisodiy tengsizlik. Fuqarolik jamiyatining ishtiroki orqali leadership treninglari parlament va mahalliy kengashlarda ayollar uchun kvotalar uchun advokatsiya, biznes inkubatorlar, mikrokredit, networking orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tajribali ayol rahbarlar yoshlarga yordam beradigan mentorlik dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar qatorida UN Women, UNDP, UNICEF, UNFPA gender dasturlarini amalga oshiradi, Jahon Banki va ADB gender bo‘yicha loyihalarni moliyalashtiradi, Yevropa Ittifoqi gender va fuqarolik jamiyati dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi, USAID, GIZ, JICA ayollarning iqtisodiy faollashtirish loyihalarini amalga oshiradi [5]. Xalqaro nohukumat tashkilotlar qatorida Oxfam va CARE International gender va qashshoqlikka qarshi kurash, Save the Children qizlar ta’limi va himoyasi, Global Fund for Women ayollar tashkilotlariga grantlar berish bilan shug‘ullanadi.

Istiqbollar va tavsiyalar. Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bo‘yicha nohukumat tashkilotlar faoliyatini osonlashtirish, administrative to‘siqlarni bartaraf etish orqali qonunchilikni liberallashtirish, davlat grantlari, korporativ sotsial mas’uliyat, xayriya fondlari orqali mahalliy moliyalashtirish mexanizmlari, nohukumat tashkilot rahbarlari va xodimlar uchun doimiy ta’lim va malaka oshirish orqali kadrlar tayyorlash, nohukumat tashkilotlar o‘rtasida hamkorlik, koalitsiyalar, platformalar orqali tarmoqlashtirish amalga oshirilishi kerak. Gender siyosatini takomillashtirish bo‘yicha gender mainstreamingni barcha sohalarga tatbiq etish orqali kompleks yondashuv, gender siyosatining samaradorligini muntazam baholash orqali baholash va monitoring, gender dasturlar uchun yetarli byudjet ajratish orqali resurs ajratish, gender tengligini mahalliy kontekstda amalga oshirish orqali an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy tamoyillar sintezi ta’minlanishi zarurdir.

Davlat-fuqarolik jamiyati hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha davlat va nohukumat tashkilotlar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlari orqali

strategik sheriklik, ijtimoiy xizmatlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ko-produktsiya, konsultatsiya mexanizmlarini real va samarali qilish orqali dialogni kengaytirish, shaffoflik, hisobdorlik, ijtimoiy audit orqali ishonch muammosini hal qilish amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot va ma'lumot bo'yicha to'liq va ishonchli ma'lumotlar to'plash orqali gender statistika, Markaziy Osiyoning o'ziga xos kontekstida gender munosabatlarini o'rganish orqali ilmiy tadqiqotlar, muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilish va tarqatish orqali eng yaxshi amaliyotlar amalga oshirilishi zarur [6].

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti uchun muhim shartlardir. Bu ikki jarayon bir-birini ta'minlaydi va mustahkamlaydi: kuchli fuqarolik jamiyati gender tengligini ilgari surishning muhim vositasi, gender tengligi esa fuqarolik jamiyatining to'laqonli rivojlanishi uchun zaruriy ijtimoiy kapitalning muhim qismidir. Kelajakda Markaziy Osiyoda gender tengligi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi quyidagi omillarga bog'liqdir:

Birinchidan, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida haqiqiy strategik sheriklik o'rnatilishi zarur. Bu shunchaki rasmiy konsultatsiyalar emas, balki qonunchilik, dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirishda tenghuquqli hamkorlik bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, mahalliy kontekst va xalqaro standartlar o'rtasida muvozanatni topish muhim. Gender tengligi universal qadriyat bo'lsa-da, uni amalga oshirish yo'llari mahalliy madaniyat, an'analar va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olishi kerak. "G'arbiy modellari"ni mexanik nusxalash o'rniga, o'z tajribalarini yaratish zarurdir.

Uchinchidan, erkaklar va o'g'il bolalarni gender tengligini ta'minlash jarayoniga faol jalb qilish kerak. Gender masalalari faqat ayollar muammosi emas – bu butun jamiyatning, erkaklar va ayollarning birgalikda hal qilishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish yangi imkoniyatlar ochadi. Yoshlar orasida onlayn aktivizm, ma'lumot almashish va mobilizatsiya yangi shakldagi fuqarolik ishtirokini yaratmoqda.

Beshinchidan, mintaqaviy hamkorlik va tajriba almashish muhim. Markaziy Osiyo davlatlarining o'xshash madaniy va tarixiy konteksti, umumiy muammolari ularning bir-biridan o'rganishi va birgalikda yechimlar topishini osonlashtiradi.

Oltinchindan, uzluksiz ta'lim va ongni oshirish. Gender tengligi – bu bir martalik kompaniya yoki loyiha emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy transformatsiya jarayoni. Ta'lim tizimi, media, oila – bularning barchasi gender tenglik qadriyatlarini shakllantirishi kerak.

Markaziy Osiyo hozirda tarixiy chorrahada turibdi. Mintaqa demografik o‘zgarishlar (yoshlarning ulushi ortishi), iqtisodiy transformatsiya, raqamli inqilob va globallashuv jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Bu o‘zgarishlar gender munosabatlari va fuqarolik jamiyatiga ham ta’sir qilmoqda. Agar bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanilsa, Markaziy Osiyo barqaror, adolatli va inklyuziv jamiyatni barpo eta oladi.

Gender tengligi nafaqat adolat va inson huquqlari masalasi, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun ham zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi yuqori bo‘lgan jamiyatlar tezroq iqtisodiy o‘sishga erishadi, innovatsion bo‘ladi va ijtimoiy barqarorlikka ega bo‘ladi. Ayollarning to‘laqonli ishtirokisiz Markaziy Osiyo o‘z salohiyatining yarmini ishga solmaydi.

Fuqarolik jamiyati – bu demokratiya va ijtimoiy taraqqiyotning muhim ustuni. Kuchli, mustaqil va samarali fuqarolik jamiyati davlat va biznes bilan birga barqaror rivojlanishning “uchta ustuni”ni tashkil etadi. Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish – bu investitsiya, bu kelajakka sarmoya.

Xulosa qilganda, gender tengligi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi – bu Markaziy Osiyoning kelajagi. Bu yo‘l oson emas, ko‘p qiyinchiliklarga to‘la, ammo zarur va mumkin. Tarix shuni ko‘rsatadiki, jamiyatlar o‘zgaradi, qadriyatlar evolyutsiya qiladi, va to‘siqlar engib o‘tiladi. Markaziy Osiyo ham bu yo‘lni bosib o‘tishi va XXI asrning rivojlangan, demokratik va gender teng mintaqalaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akiner S., Cobbold R. Gender and Development in Central Asia: The Case of Uzbekistan. Routledge, 2018. – P. 45-89.
2. Luong P. The Transformation of Central Asia: States and Societies from Soviet Rule to Independence. Cornell University Press, 2004. – 312 p.
3. Kuehnast K., Nechemias C. Post-Soviet Women Encountering Transition: Nation Building, Economic Survival, and Civic Activism. Washington: Woodrow Wilson Center Press, 2004. – P. 156-187.
4. UN Women. Progress of the World's Women 2019-2020: Families in a Changing World. – New York: UN Women, 2019.
5. CEDAW. Concluding observations on the combined sixth periodic report of Uzbekistan. – Geneva: United Nations, 2020.
6. Karimov N. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish istiqbollari: Markaziy Osiyo konteksti. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 267 b.

ЕВРОПЕЙСКИЙ ОПЫТ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Темирбаева Айгерим Кайратовна

Самостоятельный соискатель, преподаватель-стажер кафедры Политических наук Узбекского государственного университета мировых языков (+998905939429, aygerimtemirbaeva@mail.ru)

Развитие гражданского общества и общественной активности является одним из ключевых признаков демократического и устойчивого социального развития современного государства. Активное участие граждан в общественной жизни укрепляет политическую систему, повышает доверие к институтам власти и стимулирует развитие социальной ответственности. В государствах Центральной Азии вопрос формирования устойчивых практик гражданского участия приобретает особую актуальность. В этом контексте европейский опыт, основанный на развитии демократических институтов, принципов прозрачности и открытости власти, может служить важным ориентиром для выработки собственных подходов к стимулированию общественной активности.

Европейская модель общественного участия формировалась на протяжении десятилетий и опирается на развитую систему институтов, правовых норм и устойчивых общественных практик. Ключевым элементом стало признание роли граждан как полноправных участников политического и общественного процесса. Это проявляется в поддержке инициативных групп, неправительственных организаций, местных сообществ и волонтёрских движений, которые активно взаимодействуют с органами власти и влияют на принятие решений. Подобный подход позволяет формировать атмосферу доверия между обществом и государством, что, в свою очередь, способствует укреплению социальной сплочённости [1, с. 67].

Важным компонентом европейского опыта является развитие правовой базы, которая обеспечивает защиту прав граждан, свободу слова, свободу объединений и доступ к информации. В странах Европы были выстроены эффективные механизмы общественного контроля, консультаций и участия в процессах выработки политических решений [2, с. 98]. Такая институциональная среда позволяет гражданам чувствовать себя реальными субъектами, а не пассивными наблюдателями политических процессов. Для Центральной Азии это особенно важно, так как во многих государствах региона институты гражданского общества находятся в стадии формирования, а возможности общественного участия ограничены административными и культурными барьерами.

Значительную роль в стимулировании общественной активности в Европе играет система образования и просвещения. Она направлена на формирование у граждан правовой культуры, понимания своих прав и обязанностей, а также осознания значимости участия в жизни общества. В европейских странах

вопросы гражданственности включены в образовательные программы, что способствует формированию у молодёжи активной гражданской позиции [3, с. 47-48]. Для стран Центральной Азии аналогичные подходы могут стать действенным инструментом повышения уровня гражданской культуры и стимулирования общественной вовлечённости.

Не менее важным является развитие медиа и коммуникационных каналов. В Европе широкое распространение независимых СМИ, а также современных цифровых платформ позволило расширить пространство общественной дискуссии и сделать её доступной для различных групп населения. Возможность свободно выражать мнение и влиять на общественные процессы через медиа повышает уровень вовлечённости граждан, способствует формированию ответственной политической культуры и укрепляет демократические практики [4, с. 25]. В Центральной Азии потенциал цифровых технологий и СМИ может стать ключевым фактором для расширения каналов общественного участия, особенно среди молодого поколения.

Одним из важных уроков европейского опыта является значимость горизонтальных связей между различными общественными группами и организациями. Европейская практика показывает, что устойчивое гражданское общество строится не только на отношениях между обществом и государством, но и на сетевом взаимодействии между самими общественными структурами. Сотрудничество НПО, локальных инициативных групп и профессиональных сообществ усиливает их влияние, повышает эффективность общественных проектов и способствует выработке общей позиции по ключевым вопросам общественного развития [5, с. 107]. Для Центральной Азии создание таких сетевых платформ и развитие горизонтальных коммуникаций может способствовать укреплению социальной активности и повышению эффективности гражданских инициатив.

Адаптация европейского опыта в Центральной Азии требует учёта политических, культурных и социальных особенностей региона. Речь идёт не о прямом заимствовании, а о гибкой адаптации принципов прозрачности, подотчётности и участия, которые доказали свою эффективность в европейском контексте. Важным условием является наличие политической воли и открытости власти к диалогу с обществом. Только при таких условиях возможно создание устойчивой среды для развития гражданской активности, в которой общественные инициативы будут восприниматься как партнёрские, а не оппозиционные.

Таким образом, европейский опыт может стать важным фактором формирования и укрепления общественной активности в Центральной Азии. Развитие правовой базы, просветительских программ, информационной открытости и сетевых гражданских структур способно способствовать укреплению доверия между обществом и государством, формированию зрелой политической культуры и повышению роли граждан в общественных процессах. Это не только отвечает задачам модернизации региона, но и

закладывает основы для долгосрочной устойчивости социальных и политических институтов.

Список литературы:

1. Schimmelfennig F., Sedelmeier U. The Europeanization of Central and Eastern Europe. Cornell University Press, 2005. P.67.

2. Keohane R., Nye J. Power and Interdependence: World Politics in Transition. Little, Brown and Company, 1977. P. 98.

3. Smith M. Europe's Foreign and Security Policy: The Institutionalization of Cooperation. Cambridge University Press, 2004. P. 47-48.

4. Р.Г. Апресян. Гражданское общество. Неконцептуальный сборник / Отв. ред. Р.Г.Апресян. М.: Аслан, 1997. С. 25.

5. Маркетти Р. Гражданское общество и Европейский союз во времена кризиса: От партнерства к угрозе? Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. 2017;10(1):106-121. https://doi.org/10.23932/2542-0240-2017-10-1-106-121.

FROM THE PRIMAKOV DOCTRINE TO PUTIN'S ERA: THE TRANSFORMATION OF RUSSIAN POLICY IN CENTRAL ASIA

Shohjahon Ahadov,

assistant teacher and researcher at the political science department of UzSWLU Email address: shohjahonahadov@gmail.com

Abstract. This article examines the evolution of Russia's policy toward Central Asia from the early 1990s to the present. The article intends to highlight how Moscow's approach has transformed from post-Soviet uncertainty to a multifaceted strategy of regional engagement. In the aftermath of the Soviet collapse, Russia lacked a coherent vision for its southern neighborhood, focusing primarily on internal transformation. However, beginning with the "Primakov Doctrine," Moscow sought to reassert influence through security cooperation and geopolitical realignment. The consolidation of Vladimir Putin's leadership in 2000 marked a new phase characterized by increased attention to security, economic, and cultural ties, particularly following the post-9/11 geopolitical shifts. The study also explores Russia's economic expansion in the region, its reliance on regional organizations such as the CSTO and SCO, and the enduring significance of soft power through language, migration, and cultural channels. Despite growing competition from other powers such as China, the United States, and Turkey, Russia continues to regard Central Asia as vital for its strategic depth, border security, and access to southern markets. The paper concludes that while the nature of Russia's influence is evolving, interdependence between Moscow and the Central Asian

republics remains inescapable, shaped by shared history, geography, and security interests.

Key words: Russia; Central Asia; Russian Foreign Policy; Geopolitics; Primakov Doctrine; Vladimir Putin; CSTO.

Russia and Central Asia have a long history together. The Central Asian region served a crossroads for millennia between civilizations and empires, continents, cultures, religions. Driven by a desire for resources, security, and a competition with the British Empire known as the "Great Game," Tsarist Russia made a strategic move into Central Asia throughout the 19th century. During this time, the Russian Empire progressively absorbed Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan through a series of military operations and treaties by the late 1800s. Russia's economic and geopolitical interests were mostly served by integration; the area supplied raw minerals and functioned as a buffer zone. With the Russian Revolution in 1917, a new era began. Central Asia was incorporated into the newly established Soviet Union. The goal of Soviet ideology was to unite the socialist states, which led to policies that prioritized the integration of the republics of Central Asia. This required substantial industrialization, educational reform, and infrastructure expansion. Both new industries and higher literacy rates were observed. But there was a price for this advancement. Forced collectivization under Soviet policies led to widespread starvation and social unrest. The Russian language, secularism, and a unified Soviet identity were all vigorously fostered by the Soviet government. Local languages, religious customs, and cultural practices were suppressed as a result. Soviets led a policy of russification and sovietisation. They switched the Arabic script with Cyrillic script.

For Central Asia, the fall of the Soviet Union in 1991 was a watershed moment. The obstacles facing the newly independent governments were establishing their place in the international system, transitioning economically, and creating their nations. Russia, on the other hand, considered the area to be within its sphere of interest and worked to preserve its influence there. Russia and Central Asia continue to have close security and economic relations. A foundation for cooperation is provided by membership in groups like the Collective Security Treaty Organization (CSTO) and the Commonwealth of Independent States (CIS). The relationship is not without its complications, though. As China's economic influence grows, Central Asian states are seeking more and more ways to navigate a more multipolar world through diversifying their ties. Russia's relations with Central Asia are still intricate and varied. The centuries-old historical, political, economic, and cultural links still have a big influence on the area even after independence. Extremism, drug trafficking, and terrorism pose security risks to Central Asia. Although Russia is still a vital

security ally, there are worries about its hegemony in the regional security framework. Russia is a significant commercial partner for the nations of Central Asia; but, in order to reduce reliance, the area must prioritize economic diversification. Millions of migrants from Central Asia labor in Russia and send money home via remittances. In addition to fostering economic interconnectedness, this also brings up social and cultural concerns.

If we divide the Russian policy towards the Central Asian region, it will be clear that Russia did not have any comprehensive, far-sighted, strategic policy for the region. Because Russia was newly reborn country in a sense that it reformed itself from totalitarian system into a new system and Russia endured the shock of the Soviet collapse. So, one can understand why Moscow lacked any robust policy for the region in early 1990s. Part of the "Primakov doctrine," the second phase of the 1990s represented a change in direction and attempted, with varying degrees of success, to restore Russia's position as a major player in its own neighborhood.

The third stage is associated with the election of President Vladimir Putin in 2000 and the increased focus on Russia's overall engagement in Central Asia, particularly after 9/11 terror attacks which shook the US and the entire world. There was a distinct security component to the renewed level of cooperation, one that was related to the 9/11 backdrop and also reflected the primary lens through which Moscow has historically seen the region especially after Washington established its military base in Uzbekistan. However, in the economic sphere, the shift in focus was observed, albeit gradually, in the way commerce between Russia and Central Asia tripled from US$7 billion to $21 billion between 2003 and 2007, with the petroleum industry accounting for a third of this increase. Russia very well acknowledges the importance of the region in its official foreign policy documents and key formal papers. Even Russia’s 2013 Foreign Policy Concept included both benefits and opportunities of the region for Moscow and some risks and dangers it may have if Russia ignores it. Central Asia relies on Russia’s trade corridors because Russia is a convenient way for land-locked Central Asia to reach Europe.

However, the conflict in Ukraine severely jeopardized this opportunity. There are also other things to mention such as Russian language and culture (Russian language still has official status in the region, not in Uzbekistan but in Kazakhstan and Kyrgyzstan), Young people still enjoy watching Russian movies and listening to Russian pop music. Russian speaking population still exists in the region. Russia’s strategic location is also attractive for Central Asia. The Central Asian people work in Russia to earn money. There are many things we can mention in this regard. When it comes to the challenges or dangers, threats for Russia in the region, the threat of violent terrorism and extremism from Afghanistan, radicalism, fanatic Islamism are mentioned.

Russia’s national security strategy also mentions all of those dangers also adding separatism, nationalism, and border disputes. Russia works together with Central Asian countries to fight against illegal immigration, transnational crime, drug trafficking and smuggling. Russia puts high focus on regional organizations such as SCO (Shanghai Cooperation Organization), CSTO (Collective Security Treaty Organization). Russia will never retreat or withdraw from the region because of the several reasons. The region is vital for Russia’s strategic security, because one of the regional countries - Kazakhstan shares long border with Russia, any crises in the region means that Russia’s southern borders will face a significant wave of refugees. Also, the region is a buffer zone between Russia and instable south – Afghanistan. Additionally, the region will provide Russia with routes to India and South Asian market. So there is inescapable interdependence between Russia and Central Asia. Russia’s 12 regions are bordered with Central Asia.

All five Central Asian countries still use the one big electro energy system constructed during the Soviet times. They share the common water resources. But the extent of the cooperation between each Central Asian country and Russia is different. For example, Kazakhstan, Kyrgyzstan are the members of Eurasian Economic Union while Uzbekistan, Tajikistan and Turkmenistan are not. Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan are the members of the Collective Security Treaty Organization while Uzbekistan and Turkmenistan are not. The conclusion is that the countries of the region will try to rely on Russia in areas they think they are weaker. Uzbekistan was the member of the CSTO but the year 2012 saw Tashkent withdraw from the organization. Turkmenistan is officially neutral country, and its strategic geographical location allows it to evade Moscow’s diktat and to have closer relations with other countries such as China, Turkey through Azerbaijan and Caspian Sea, Iran, Pakistan, India. The five Central Asian nations are undoubtedly seen differently by Russia, and the rising differences in these nations' internal circumstances are duly acknowledged.

Kazakhstan, for instance, is viewed as a crucial ally. President Putin has singled out and recognized President Nazarbayev as deserving of extra consideration and reverence. Kazakhstan is among the post- Soviet nations that continuously support Russia, and President Nazarbayev is a master of multi-pronged foreign strategy. However, President K.K.Tokayev made efforts to lead balanced foreign policy in many aspects unlike his predecessor. Both Kyrgyzstan and Tajikistan have received significant assistance from Russia. In terms of Russia's foreign policy goals, Central Asia's place is dictated by its geopolitics, the characteristics of its international political structure, and the existence of extensive and diverse connections with the major powers in the area. Central Asia differs from other sizable portions of the former Soviet

Union (the European portion, Transcaucasia) in that there are no governments for which the fight is ongoing. It might take center stage in US foreign policy with Russia. Due to its strategic placement amidst the major Eurasian powers, Russia, China, India and other regional and international actors on the global scene are keenly interested in Central Asia. Even in those times of free global commerce and quickly expanding cross-border trade and economic links, this curiosity has grown. Around that time, the Central Asian nations started to draw interest from international economic partners because of their vast human, industrial, and scientific potential, stable governmental systems, and capacity. Each state in the region independently determines the course of its internal political life and the intensity of external relations, while maintaining its identity. Russia has traditionally maintained friendly relations with all of them. Countries geographically close to Russia and China are certainly influenced by this proximity, which sometimes affects their domestic and foreign policy decisions.

References:

1. cis-legislation.com. "Decision of the CSTO 'about Creation of Coordination Council on Emergency Situations of State Members of the Collective Security Treaty Organization,'" 2010. https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=21503.
2. Cooley, Alexander. "Great Games, Local Rules," July 23, 2012. https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199929825.001.0001.
3. Council, Atlantic. "The Long Arm of Russian 'Soft' Power." Atlantic Council, May 4, 2016. https://www.atlanticcouncil.org/blogs/ukrainealert/the.
4. Dagres, Holly. "Iran Joining the SCO Isn't Surprising. But Beijing's Promotion of Illiberal Norms in Eurasia Should Get More Attention." Atlantic Council, July 13, 2023. https://www.atlanticcouncil.org/blogs/irans.
5. defence.capital. "India Extends $40-Million Line of Credit for Defence Purchases to Uzbekistan." Defence.Capital, November 3, 2019. https://defence.capital/2019/11/03/india-extends-40-million-line-of-credit-for-defence-purchases-to-uzbekistan/.
6. Delong, Marek. "The Concept of Russian Federation Foreign and Security Policy by Eugene Primakov." Internal Security 12, no. 1 (July 22, 2020): 307–18. https://doi.org/10.5604/01.3001.0014.3205.
7. Dhar, Biswajit. "Cheap Russian Oil Fuels India's Response to Ukraine War." thediplomat.com. thediplomat.com, 2024. https://thediplomat.com/2.
8. dom, Russkiy. "About Rossotrudnichestvo" rs.gov.ru. rs.gov.ru, 2024. https://rs.gov.ru/en/about-foiv/.
9. Dorjpalam, Erdenetsogt. "Analytics." Valdai Club, May 17, 2023. https://valdaiclub.com/a/highlights/russia-central-asia-and-the-csto/.

10. ecrats.org. “News,” 2022. https://ecrats.org/en/press/news/762/.
11. en. inform.kz. “TPPs to Be Built in 3 Cities of Kazakhstan,” May 28, 2024. https://en.inform.kz/news/tpps-to-be-built-in-3-cities-of-kazakhstan-7.
12. en.odkb-csto.org. “CHARTER of the COLLECTIVE SECURITY TREATY ORGANIZATION, Dated October 07, 2002,” 2023. https://en.odkb-csto.org/documents/documents/ustav_organizatsii_dogovor.

SUV TANQISLIGI MASALASI YORITILISHIDA FUQAROLIK FAOLLIGINI OSHIRISH HAMDA INTERNET, OAVLARINING ROLI (XALQARO TAJRIBA)

Saburova Malika Munavarovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan
aloqalar kafedrasi o‘qituvchisi
malikasaburova69@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda suv tanqisligi masalasi yoritilishida fuqarolik faolligini oshirishda internet ommaviy axborot vositalarining roli va xalqaro tajriba asosida uning samaradorligi tahlil qilinadi. XXI asrda suv resurslarining qisqarishi global ekologik muammolardan biriga aylangan sharoitda aholining xabardorligini oshirish, ekologik mas’uliyatni shakllantirish va barqaror suv siyosatini qo‘llab-quvvatlashda raqamli platformalarning ahamiyati ortib bormoqda. Internet OAVlari – ijtimoiy tarmoqlar, onlayn yangiliklar portallari, bloglar va interaktiv platformalar orqali suv muammosining sabablari, oqibatlari va yechimlari haqida keng jamoatchilikka tezkor, ishonchli va ommabop tarzda axborot yetkazish imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Germaniya, Niderlandiya, Janubiy Koreya va AQSh kabi mamlakatlarda internet OAVlari orqali o‘tkazilgan axborot kampaniyalari natijasida suv tejash madaniyati shakllangan, ekologik loyihalarda ishtirok etuvchi fuqarolar soni esa 35–50 % gacha oshgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston tajribasi ham shuni tasdiqlaydiki, internet axboroti asosida aholining ekologik ongini rivojlantirish suv resurslaridan oqilona foydalanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: suv tanqisligi, fuqarolik faolligi, internet OAV, ekologik ong, xalqaro tajriba, axborot texnologiyalari, barqaror rivojlanish.

XXI asrda suv resurslarining kamayishi, iqlim o‘zgarishi, aholining ortib borishi va sanoatlashuv jarayonlarining tezlashuvi natijasida insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga borib dunyo aholisi suvga bo‘lgan ehtiyojning 40 foizgacha qismini qondira olmasligi

mumkin. Shu bois suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni boshqarish va tejash masalalari nafaqat davlat siyosati darajasida, balki keng jamoatchilik ishtirokida ham hal etilishi zarur. Internet OAVlari bu jarayonda eng muhim vositalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. An'anaviy OAVlarga qaraganda tezkor, interaktiv va keng qamrovli axborot yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan onlayn platformalar suv tanqisligi bilan bog‘liq muammolar haqida jamoatchilikni xabardor qilish, muhokamalarni faollashtirish va fuqarolarning ekologik tashabbuslarda faol ishtirokini ta'minlashda beqiyos rol o‘ynaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, internet axborotlari orqali olib borilgan ekologik kampaniyalar suvni tejash bo‘yicha ijtimoiy ongni shakllantirgan va aholining mas'uliyatini oshirgan. Masalan, Germaniyada 2023-yilda "Wasser sparen – Zukunft sichern" onlayn kampaniyasi natijasida fuqarolarning suv iste'molini 12% ga kamaytirishga erishilgan bo‘lsa, Janubiy Koreyada raqamli OAVlar orqali tashkil etilgan ekologik marafonlarda 1 milliondan ortiq fuqarolar qatnashgan.

Shuningdek, O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda raqamli axborot vositalari yordamida suv resurslarini boshqarish sohasida fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda olib borilayotgan axborot kampaniyalari, onlayn muhokamalar va ekologik loyihalar orqali aholining ekologik ongini rivojlantirish va suvni tejashga doir amaliy qadamlar qo‘yilmoqda. Shu tariqa, internet OAVlari nafaqat suv tanqisligi muammosini keng yorituvchi vosita, balki barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi kuchli ijtimoiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

XXI asrda suv resurslarining yetishmovchiligi insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb ekologik muammolardan biriga aylandi. BMTning 2024-yilgi "World Water Development Report" hisobotida qayd etilishicha, dunyo aholisining qariyb 2,3 milliard nafari hali ham toza ichimlik suvi bilan muntazam ta'minlanmagan. Bu esa global aholi sonining 29 foizini tashkil qiladi. Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib, 5,7 milliard kishi suv tanqisligi xavfi ostida yashashi mumkin. Ayniqsa, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrikaning ayrim qismlarida bu muammo yanada keskinlashmoqda. Shu sababli suv resurslarini tejash, boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalasi davlat siyosati darajasidan chiqib, butun jamiyatni safarbar etishni talab etmoqda. So‘nggi yillarda internet ommaviy axborot vositalari bu jarayonning ajralmas qismiga aylandi. Agar 2010-yilda dunyo aholisi orasida internet foydalanuvchilari ulushi 27% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 67,1% ga yetdi. Aynan shu raqamli maydon suv tanqisligi masalalarini keng jamoatchilikka yetkazish, ularni muhokama qilish va eng muhimi — fuqarolik faolligini oshirishda asosiy rolni o‘ynay boshladi. Masalan, 2023-yilda Germaniyada o‘tkazilgan "SaveWaterNow" onlayn

kampaniyasi 4,2 million foydalanuvchini qamrab olib, suv iste’molini 14% ga qisqartirishga yordam bergan.

Internet OAVlarining kuchi ularning tezkorligi va interaktivligidadir. An’anaviy televideniye yoki bosma nashrlarga nisbatan, internet foydalanuvchilarga nafaqat ma’lumotni olish, balki uni tarqatish, bahslashish, tahlil qilish va taklif bildirish imkoniyatini beradi. Bu esa fuqarolarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Janubiy Koreyada 2024-yilda “Water Guardians” raqamli platformasi orqali 1,3 million fuqaro onlayn ravishda suv tejash bo‘yicha g‘oyalar bilan o‘rtoqlashgan va 250 dan ortiq yangi ekologik startaplar vujudga kelgan. Suv tanqisligiga qarshi kurashda internetning o‘rni faqat xabar yetkazish bilan cheklanmaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida real vaqt rejimida suv sarfini kuzatish, monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. 2025-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan ishga tushirilgan “AquaNet” platformasi yordamida 12 mamlakatdagi suv tizimlari monitoring qilinib, suv yo‘qotishlari 8,6% ga kamaygan. Bu natija axborot texnologiyalari bilan fuqarolik ishtirokini birlashtirishning samarali natijasidir.

O‘zbekiston ham bu borada sezilarli qadamlar tashlamoqda. “Suvni asraylik!” nomli onlayn kampaniya 2023-yilda Telegram va Facebook tarmoqlarida 3 milliondan ortiq foydalanuvchini qamrab oldi. Shu bilan birga, “EcoAction.uz” raqamli platformasi orqali 78 ming fuqaro suv tejash bo‘yicha g‘oyalarini bildirgan va ularning 15 tasi amaliyotga joriy qilingan. Natijada 2024-yilda suv iste’moli hajmi 6,4% ga qisqargan.

Internet OAVlarining fuqarolik faolligini oshirishdagi eng muhim jihatlaridan biri bu – ekologik ongni shakllantirishdir. Raqamli platformalarda ekologik blogerlar, ilmiy nashrlar va jamoaviy guruhlar suvning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ahamiyatini yoritib boradi. 2023-yilda faqatgina YouTube platformasida suv tejashga bag‘ishlangan videoroliklar 1,2 milliard marta tomosha qilingan, bu esa 2020-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 64% o‘sish demakdir.

Quyidagi jadval 2023–2025-yillar davomida ayrim davlatlarda internet OAVlarining fuqarolik faolligiga ta’sirini ko‘rsatadi:

Davlat	*Yil*	*Onlayn kampaniya ishtirokchilari (ming)*	*Suv iste’moli qisqarishi (%)*
Germaniya	2023	4200	14%
Janubiy Koreya	2024	1300	11%
O‘zbekiston	2024	3000	6.4%
AQSh	2025	5600	18%

Bunday ko‘rsatkichlar internet axborot maydonining jamiyat ekologik xatti-harakatlariga qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Ayniqsa,

ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonda markaziy o‘rin egallab, jamoaviy fikr va ijtimoiy bosimni shakllantiradi. Suv tanqisligiga oid xabardorlik darajasining oshishi siyosiy qarorlar qabul qilishga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, AQShda 2025-yilda 18 ta shtatda suv resurslarini tejashga doir yangi qonun loyihalari aynan onlayn fuqarolik kampaniyalari natijasida ishlab chiqilgan. Yevropa Ittifoqida esa “Blue Future 2030” strategiyasi loyihasining 37 foizi jamoatchilik takliflari asosida shakllangan. Internet OAVlari yoshlar orasida ham ekologik faollikni kuchaytirmoqda. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 18–30 yoshdagi yoshlarning 62 foizi suv tejash va ekologik muammolar bo‘yicha kamida bir marta onlayn kampaniyada ishtirok etgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilda atigi 34 foiz edi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan suv resurslarini boshqarishdagi innovatsion yechimlar soni ham ortmoqda. Masalan, Isroilda “SmartDrop” mobil ilovasi foydalanuvchilarga suv iste’molini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi va 2025-yilga kelib bu texnologiya yordamida 27 million kub metr suv tejash rejalashtirilgan. Internet OAVlarining ijtimoiy ta’siri ekologik mas’uliyat bilan bir qatorda iqtisodiy natijalarni ham beradi. Germaniyada suv tejash kampaniyalari tufayli 2023–2024-yillarda kommunal xizmatlar xarajatlari 9,3% ga kamaygan. O‘zbekistonda esa suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llagan xo‘jaliklar soni 2025-yilda 17% ga ortishi prognoz qilinmoqda.

Suv tanqisligiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik ham raqamli axborot vositalari orqali yangi bosqichga chiqdi. 2024-yilda BMT homiyligida “Global Water Digital Forum” onlayn sammitida 126 mamlakat vakillari ishtirok etib, suv boshqaruvi bo‘yicha 84 ta raqamli loyiha taqdim etdi. O‘zbekiston ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. 2025-yilda rejalashtirilgan “AquaUz Digital” platformasi orqali suv resurslari monitoringi, aholining onlayn xabardorligi va jamoaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy qilinadi. Bu loyiha orqali 2030-yilgacha suv yo‘qotishlarini 15% ga kamaytirish maqsad qilingan.

Shuningdek, internet OAVlari orqali aholiga suv tanqisligining iqtisodiy oqibatlari haqida ma’lumot yetkazish ham muhim ahamiyatga ega. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, suv resurslari bilan bog‘liq muammolar dunyo YAIMining 1,5–2% gacha qisqarishiga olib kelmoqda. Shu sababli fuqarolarni xabardor qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlash mumkin. Raqamli axborot vositalarining yana bir afzalligi — ularning chegarasizligidir. Har qanday ekologik kampaniya bir necha soat ichida millionlab odamlarga yetib borishi mumkin. Masalan, 2024-yilda Hindistonda #SaveWaterChallenge xeshtegi 48 soat ichida 12 million marta qo‘llangan va 2,1 million kishi ishtirok etgan.Suv tanqisligiga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatining faolligi davlat siyosati bilan uyg‘unlikda bo‘lishi zarur. Internet OAVlari bu jarayonda vositachi sifatida xizmat qilib, aholining fikrini siyosiy

darajaga yetkazadi va qaror qabul qiluvchi institutlar bilan jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Raqamli axborot vositalari bilan fuqarolik faolligi uyg‘unlashganda, suv resurslaridan oqilona foydalanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bois 2025-yil va undan keyingi yillarda ham internet OAVlarining bu boradagi roli yanada ortib borishi, ekologik siyosatning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Suv tanqisligi masalasi bugungi kunda global xavfsizlik va barqaror rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Bu muammoning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini kamaytirish uchun fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish zarur. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, aynan internet ommaviy axborot vositalari fuqarolarning ekologik ongini shakllantirishda, ularni muammoga befarq bo‘lmaslikka undashda va jamoaviy harakatlarga jalb etishda beqiyos rol o‘ynaydi. 2023–2025-yillar mobaynida dunyoning turli davlatlarida raqamli platformalar orqali amalga oshirilgan ekologik kampaniyalar natijasida suv iste’moli o‘rtacha 10–18% gacha qisqargani, millionlab insonlar bu jarayonda faol ishtirok etgani bu yo‘nalishning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, internet OAVlari orqali shakllangan fuqarolik bosimi davlat siyosatiga ham ta’sir ko‘rsatib, yangi qonun loyihalari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlik dasturlarini faollashtirgan. Shu bois, suv tanqisligi masalalarida internet OAVlarining rolini yanada kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ekologik axborot siyosatini yanada takomillashtirish barqaror kelajak sari olib boruvchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations World Water Development Report 2024. UNESCO Publishing, Paris, 2024.
2. World Bank. “Water Scarcity and Security: Economic Implications.” Washington D.C., 2023.
3. European Commission. “AquaNet Project: Digital Water Management Innovations.” Brussels, 2025.
4. Ministry of Ecology and Environment of the Republic of Uzbekistan. “Suv resurslarini boshqarish bo‘yicha raqamli transformatsiya strategiyasi.” Toshkent, 2024.
5. Global Water Partnership. “Blue Future 2030: Digital Solutions for Water Security.” Stockholm, 2025.
6. OECD Environmental Outlook. “Digital Tools in Water Governance.” Paris, 2023.
7. WaterAid. “Online Campaigns and Civic Engagement in Water Conservation”. London, 2024.

8. UNESCO Institute for Statistics. “Youth Participation in Environmental Actions.” Montreal, 2024.
9. EcoAction.uz – “Suvni asraylik” onlayn kampaniyasi hisobotlari, Toshkent, 2023–2024.
10. SaveWaterNow Initiative. “Digital Media Impact Report.” Berlin, 2023.

FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI ERON MISOLIDA

Kamronbek Radjabov,
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti, Siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchi-stajori

Annotatsiya: Zamonamizda demokratik davlat va jamiyat so‘zlari tilga olinar ekan, shu bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati uning ajralmas qismi sifatida istifoda qilinadi. Ijtimoiy hodisa sifatida fuqarolik jamiyatining dolzarbligi shundaki, uning ortida erkinlik va adolat kabi rivojlanishning oliy mezonlari yotadi. Shu nuqtai-nazardan oldimizga bir muhim masala chiqadi. Eron Islom Respublikasi kabi demokratik bo‘lmagan mamlakatda fuqarolik jamiyati mavjudmi? Agarda mavjud bo‘lsa, u qay darajada ? Shu qabilidagi muhim masalalar quyida ko‘rib chiqildi va ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Individualism, shaxsiy hayot, bozor, plyuralizm, Buyuk islom inqilobidan, kollektivistik jamiyat

Fuqarolik jamiyati g'oyasi doimiy harakatni o'z ichiga oladi: doimiy o'zgarish, takomillashtirish, inson, jamiyat va hokimiyatning kam rivojlangan holatidan rivojlangan va madaniyatli holatga o'tish. J. J. Russo ushbu rivojlanish mezonlarini quyidagicha shakllantirdi: fuqarolik, tabiiylik (ratsionallik) va tsivilizatsiyaga o'tish, bu tobora rivojlanib borayotgan shaxsni, mukammal fuqarolik munosabatlarini va oqilona tsivilizatsiyalashgan hokimiyatni shakllantirishni anglatadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi tsivilizatsiyalashgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi, unda fuqaro ham, jamiyat a'zolari o'rtasidagi fuqarolik munosabatlari ham, jamiyatning o'zi ham fuqarolikning jamoaviy boshlanishi, davlat va fuqaro hamda jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda ifoda bo‘ladi.

S. Ginerning nazariyasiga ko‘ra, rivojlanishning hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyati tarixiy ravishda individual huquqlar, erkinliklar va ixtiyoriy uyushmalar sohasi bo'lib, ularning siyosiy bo'lmagan tabiati bilan raqobatlashishi hamda tegishli shaxsiy ehtiyojlar, manfaatlar, imtiyozlar va umidlarni qondirish maqsadida bir-biri bilan davlat deb nomlangan hokimiyat instituti tomonidan kafolatlanadi. Uning fikricha, har qanday yetuk fuqarolik jamiyati quyidagi asosiy hususiyatlarni o‘z ichiga oladi: *individualizm, shaxsiy*

hayot, bozor, plyuralizm. Biz Eron Islom Respublikasini faqatgina manashu parametrlar doirasida ko‘rib chiqamiz.

Eron Islom Respublikasi 1979-yilgi Buyuk islom inqilobidan so‘ng mamlakat o‘ziga hos teokratik va demokratik qorishmalarga ega bo‘lgan davlatga aylandi. EIR diniy davlat bo‘lishiga qaramasdan, unda dunyoviylik unsurlari ham mavjud. Misol uchun parlamentning faoliyat yuritishi, hokimiyat bo‘linishi, saylovlardagi adolatli raqobat va h.k. Ana endi EIR ni, fuqarolik jamiyati tushunchasining tepada zikr etilgan asosiy parametrlari bo‘yicha ko‘rib chiqmiz.

Individualizm: Eron 41 ball bilan kollektivistik jamiyat hisoblanadi. Bu islomda ruxsat etilgan ko'pxotinli nikoh bo'ladimi, shuningdek oiladagi muhit masalasimi, qolaversa guruhga yaqin va uzoq muddatli majburiyatda namoyon bo'ladi. Sodiqlik kollektivistik madaniyatda birinchi o'rinda turadi undan keyn esa boshqa ijtimoiy qoidalar va normalar ustun turadi. Jamiyat odamlar o'z guruhining boshqa a'zolari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladigan kuchli munosabatlarni rivojlantiradi. Eron mentalitetida ishbilarmonlik muhitida birinchi navbatda shaxsiy munosabatlar muhim rol o'ynaydi, undan keyin esa rasmiy biznes tartib-qoidalari joy oladi. Ishga olish va lavozimga ko'tarilish bo'yicha qarorlar xodimni guruh ichida qanday qabul qilinishiga asoslanadi.

Eronda shaxsiy hayot Islom qonunlari va ijtimoiy me'yorlar, ayniqsa oila, shaxsiy munosabatlar va tashqi ko'rinish masalalarida qat'iy tartibga solinadi. Ayollarga hijob kiyish va kamtarlikni saqlash buyurilgan va yaqin qarindosh bo'lmagan erkak va ayol o'rtasidagi aralash aloqalar cheklangan. Qattiq nazoratga qaramay, Eronda jinsni o'zgartirish bo'yicha operatsiyalarga ruxsat berilgan, ammo bir jinsli munosabatlar jinoyat hisoblanadi va o'lim jazosi bilan jazolanadi.

Agar individualizm va shaxsiy hayot fuqarolik jamiyatining axloqiy asoslarining muhim jihatlari bo'lsa, unda bozor uning eng ko'zga ko'ringan tarkibiy xususiyatini anglatadi. Eron iqtisodiyoti sof bozor modeliga emas, balki Konstitutsiyaning 44-moddasida belgilangan tamoyillarga asoslangan kuchli davlat sektoriga ega bo'lgan aralash iqtisodiyotdir. Biroq, mamlakatda xususiy va kooperativ sektorlar rivojlanmoqda, shuningdek, texnologiyalar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning bosqichma-bosqich diversifikatsiyasi kuzatilmoqda.

Eron hududida fors, ozarbayjon, qurd, beludj va armanlardan iborat bo‘lgan etnik guruhlarni ko‘rishimiz mumkin. Ular yillar davomida Eron hududida yashab kelganlar, ushbu reallikni Eron hukumati qabul qilgan holda, barcha etnik guruhlarning huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi. Shundan kelib chiqqan holda etnik jihatdan plyuralizmning mavjudligi real voqeylikdir. Shuningdek diniy nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, turli din vakillarining shu jumladan xristianlik, iudaizm, budizm va

zardushtiylik dinlariga e’tiqod qiluvchilarning haq-huquqlari ta’minlanganligi, diniy plyuralizm mavjudligiga dalil bo‘la oladi. Siyosiy plyuralimz hukumat tomonidan qattiq cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, amalda siyosiy plyuralizm ruhidagi harakatlarni kuzatishimiz mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tepadi zikr etilgan parametrlar bo‘yicha Eronda fuqarolik jamiyati to‘liq ishga tushmagan bo‘lsada, mamlakat ichida siyosiy jarayonlar dinamikasi Islom respublikasini tobora fuqaroli jamiyat tomon yetaklamoqda. So‘ngi vaqtda Eronda ko‘p yillardan buyon muammo bo‘lib kelayotgan majburiy hijob masalasiga chek qo‘yildi. Endilikda Eronda hijob o‘rashning qonuniy majburiyati yo‘q va bunday qilish hech qanday jarima, yoki boshqa qonuniy oqibatlarga olib kelmaydi. Bu o‘z o‘rnida Eronda fuqarolik jamiyatining qurilishiga shaxdam qadam desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Giner S. Civil Society and its Future // John A.Hall, ed.. Civil Society: Theory, History, Comparison. Cambridge, MA: Polity Press, 1995.
2. Country Comparison. —Hofstede Insights: [sayt]. —URL: https://www.hofstede-insights.com/country-comparison/iran.
3. Филимонова Екатерина Антоновна Кросс-культурный анализ Исламской Республики Иран.
4. Гайнутдинова Людмила Александровна. Базовые характеристики гражданского общества https://cyberleninka.ru/article/n/bazovye-harakteristiki-grazhdanskogo-obschestva
5. Конституция Исламской Республики Иран. https://ru.irancultura.it/

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHIDA FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

Raxmatov Alisher Obidovich,
Mustaqil izlanuvchi, xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashi bosh mutaxassisi
(+998335500302, alisherraxmatov154@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining xalqaro davlat boshqaruvidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Unda davlat institutlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning turli modellari, shuningdek, davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining muvaffaqiyatli ishtiroki misollari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolar ishtiroki, mintaqaviy boshqaruv, fuqarolik tashabbuslari, davlat boshqaruvi, xalqaro tajriba.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish muhim va dolzarb masalalardan biridir. Bu borada xalqaro tajriba va istiqbolli yo‘nalishlarni hisobga olish kerak. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirishdir. Fuqarolik jamiyati jamiyatning barcha qatlamlarining davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra: “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirmasdan turib, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi barqaror bo‘lishi mumkin emas” [1].

Fuqarolik jamiyati — bu axloqiy madaniyatga, huquqiy va siyosiy madaniyatga asoslangan, qonun ustuvorligini ta‘minlovchi va erkinlik hamda tenglikka yo‘l ochuvchi jamiyatdir. Fuqarolar va jamoatchilik faolligining oshishi orqali hokimiyat va davlat organlariga hamkorlikda xalqqa xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshadi va ijtimoiy muammolar tezroq hal qilinadi. Bugungi muammolardan kelib chiqqan holda, mintaqaviy boshqaruvda fuqarolik jamiyatining ishtiroki ayniqsa dolzarbdir.

Hozirda O‘zbekiston huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish yo‘lidan bormoqda. Bu esa davlat, jamiyat va shaxslararo munosabatlarni yangicha anglashni taqozo etadi. Huquqiy davlat tushunchasi mavjud qonunlarning asosiy me‘yor, ijtimoiy munosabatlar tamoyili sifatida talqin qilishni ko‘zda tutadi. Qonunlar esa shaxs huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga asoslanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi esa uyg‘un birlashuviga asoslangan huquqiy jamiyat tizimini o‘z ichiga qamrab oladi. Davlat shaxs huquqlari himoyalanishini kafili sifatida mavjuddir [2].

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi ishtiroki tarixiy, madaniy va siyosiy omillar bilan shakllanadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega.. So‘nggi o‘n yilliklarda davlat boshqaruvi samaradorligini va aholi turmush sifatini oshirish zaruratidan kelib chiqqan holda, fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokiga qiziqish ortib bormoqda. Fuqarolar atrof-muhitni muhofaza qilish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga oid loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Ko‘pgina mamlakatlar yangi qonunlar va siyosatlarni ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati vakillari bilan muntazam maslahatlashib, ularga aholining turli guruhlari fikri va manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish zamonaviy demokratik davlatlar taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ushbu jarayonda fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, qonunlarga bo‘lgan hurmatni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Har bir fuqaroning o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi, ularni amalda qo‘llay olishi jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Jamoatchilik nazoratining samarali faoliyat yuritishi ham fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchlaridan biridir. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, fuqarolik tashabbuslari hamda jamoat kengashlari orqali ekologiya, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarda aholi ishtirokini kuchaytirish zarur. Shuningdek, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Gender tengligini ta‘minlash, yoshlar va ayollar faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rni va huquqlarini himoya qilish ham fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurdir. Shvetsiya va Norvegiyada fuqarolik jamiyati qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadi. Masalan, Norvegiyada yangi qonunchilikni ishlab chiqishda aholining turli guruhlari fikrini hisobga olish imkonini beruvchi NNTlar bilan maslahatlashuvlar tizimi mavjud. Qo‘shma Shtatlarda fuqarolik jamiyati tashkilotlari turli guruhlar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular qonunchilikni ishlab chiqishda faol ishtirok etadilar va kampaniyalar va ijtimoiy harakatlar orqali siyosiy qarorlarga ta‘sir ko‘rsatishlari mumkin. Kanadada fuqarolik jamiyatining hukumatdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘plab dasturlar mavjud. Masalan, hukumat ijtimoiy siyosat va atrof-muhit masalalari bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari bilan muntazam maslahatlashib turadi.

Fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi ishtiroki bo‘yicha Amerika tajribasini ko‘rib chiqsak, quyidagi asosiy fikrlarga e‘tibor qaratish lozim. Demokratik institutlarning shakllanishi va faoliyatida fuqarolik jamiyati asosiy rol o‘ynaydi. AQSHda fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi ishtiroki turli mexanizmlar, jumladan, ixtiyoriylik, jamoat tashkilotlarida ishtirok etish va hukumat tuzilmalari bilan faol hamkorlik qilish orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu tajribani bir nechta asosiy jihatlar orqali tekshirish mumkin.

Fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi ishtiroki bo‘yicha Amerika tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi demokratiyaning muhim elementi hisoblanadi. Mavjud muammolarga qaramay, fuqarolik jamiyati ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish va davlat boshqaruvi sifatini oshirishning kuchli vositasi bo‘lib qolmoqda. Fuqarolarning siyosatdagi ishtirokining muvaffaqiyatli namunalari demokratik institutlarni mustahkamlash va fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb etishga intilayotgan boshqa mamlakatlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish maqsadida ishtirokchi demokratiya va jamoatchilik nazorati mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Fuqarolarni qaror qabul

qilish jarayonlariga keng jalb etish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlanadi. Mahalliy boshqaruv tizimida jamoatchilik nazorati kuchaytirilgani holda fuqarolar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy masalalarga bevosita ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Xulosa. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati haqida bahslar yuritilayotgan ekan, avvalambor jamiyatning ijtimoiy normalari va ularning xususiy belgilarini ham tatbiq etish tadqiqot ishimizning asosiy maqsadlaridan biridir. Turli mamlakatlardagi misollardan ko‘rishimiz mumkinki, fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvidagi ishtiroki demokratik jarayonning muhim jihati hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining demokratik tamoyillarini rivojlantirish uchun qonuniy asoslar va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Shu yo‘l bilan fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish orqali huquqiy, siyosiy va ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish mumkin. Natijada fuqarolik jamiyati mustahkamlanadi, davlat boshqaruv tizimi samaradorligi ortadi va barqaror demokratik jamiyat barpo etishga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75- sessiyasida so‘zlagan nutqi, 2020-yil.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O‘zbekiston", 2017.

3. Володина Н.В., Погодин С.Н. Причина межкультурных конфликтов и адаптации иммигрантов в Швеции // Россия в глобальном мире. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/prichiny-mezhkulturnyh-konfliktov-i-adaptatsiya-immigrantov-v-shvetsii

TURKIY INTEGRATSIYA VA BARQAROR TARAQQIYOT

Vorisova Komilaxon Olmos qizi
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
I bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil oktyabr oyida Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) sammitidagi nutqining mazmuni va ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Prezident tomonidan ilgari surilgan integratsion, iqtisodiy, ekologik va xavfsizlik yo‘nalishidagi tashabbuslarning siyosiy mazmuni hamda ularning mintaqaviy va global ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti, integratsiya, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, xavfsizlik, O‘zbekiston Respublikasi, Ozarbayjon sammiti.

Globallashuv va geosiyosiy o‘zgarishlar davrida mintaqaviy integratsiya mexanizmlarini kuchaytirish xalqaro siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) – tarixiy ildizlarga, umumiy madaniyat va til birligiga ega mamlakatlarni birlashtiruvchi, zamonaviy siyosiy-iqtisodiy platforma sifatida shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham aynan Gabala shahrini qadim zamonlardan buyon Ipak Yo‘li va madaniy savdo markazi sifatida tilga olib, bu joy haqida o‘z nutqini tarixiy bogliqlik va minnatdorlik bilan boshladi: “Qadim zamonlardan Buyuk Ipak yo‘lining muhim savdo va madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelgan betakror Gabala shahrida siz, aziz birodarlarim bilan uchrashishdan behad mamnunman. Avvalo, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Janobi Oliylari Ilhom Aliyevga sammitni yuqori saviyada tashkil etgani, an’anaviy va samimiy mehmondo‘stlik uchun minnatdorchilik bildiraman. Sizning tashabbuslaringiz tufayli so‘nggi yillarda zamonaviy Ozarbayjonning ko‘plab hududlarida bo‘ldik. Sizning qat’iy siyosiy irodangiz tufayli Armaniston bilan imzolangan “Tinchlik deklaratsiyasi” turkiy davlatlar uchun ham mushtarak g‘alabadir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu tarixiy kelishuv mamlakatlarimiz o‘rtasida savdo-iqtisodiy, transport-gumanitar sohalarda yaqin hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda”.[Turkic States Organization. (2025)]

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjondagi TDT sammitida o‘z nutqida tashkilot faoliyatini yanada chuqurlashtirish zarurligini ta’kidladi. Sh.Mirziyoyev TDTni nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va siyosiy hamkorlikning barqaror maydoniga aylantirishni taklif qildi. Bu g‘oya mintaqaviy taraqqiyotning yangi paradigmasini yaratishga qaratilgan bo‘lib Prezident tomonidan ilgari surilgan “Turkic Green Vision” tashabbusi ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. Ushbu tashabbus TDT mamlakatlari uchun yagona ekologik siyosat asoslarini belgilaydi. Shuningdek, transport-logistika yo‘nalishida Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Turkiy transport yo‘lagi” loyihasi mintaqani yagona iqtisodiy hudud sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Kaspiy dengizi orqali o‘tuvchi multimodal yo‘laklar Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropa o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Prezident TDT doirasida xavfsizlikni ta’minlash, razvedka va mudofaa sohalarida hamkorlikni kuchaytirish, kiberxavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashishda qo‘shma mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini qayd etdi. “Bizdan global boshqaruv tizimini chuqur isloh qilish va takomillashtirishni, BMT va uning Xavfsizlik

Kengashi rolini oshirishni zamonning o‘zi talab qilmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarning pozitsiyalari va ovozlarini kuchaytirish uchun yaqin hamkorlikni mustahkamlash asosiy vazifadir. Yevroosiyo mintaqasi bo‘ylab avj olishda davom etayotgan, oxiri ko‘rinmaydigan eng dolzarb muammolar, mojarolar va urushlar, shubhasiz, mamlakatlarimizga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. G‘azo sektorida ro‘y berayotgan fojia, Ukraina atrofidagi vaziyat, Eronning yadroviy dasturi, Afg‘onistondagi barqarorlik barchamizni jiddiy tashvishga solmoqda. Biz dunyoning yirik davlatlarining adolatli dunyo tartibini o‘rnatish, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi intilishlari va yangi rejalarini olqishlaymiz. O‘ylaymanki, global vaziyatni chuqur tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlari rahbarlarining qo‘shma yig‘ilishlarini muntazam ravishda o‘tkazishni davrning o‘zi talab qilmoqda. Shu munosabat bilan kelasi yili ilk bor ana shunday qo‘shma yig‘ilishni qadimiy Samarqandda o‘tkazishni taklif etamiz”.[Upl.uz. (2025, October). TDT sammiti] Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan bunday tashabbuslar turkiy makonni global xavfsizlik tizimining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ilm-fan, ta’lim va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirish orqali TDT doirasida intellektual integratsiyani rivojlantirish mumkin. “Turkiy ilmiy hamjamiyatlar platformasi”ni yaratish va “TDT-SAT” kosmik loyihasini amalga oshirish takliflari esa bugungi kun yoshlari uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjondagi TDT sammitidagi nutqi turkiy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqadi. Ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Tashkilotning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha maxsus “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif etildi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi aniq yo‘nalishlar belgilab berildi. *Birinchidan*, Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak; *ikkinchi*, Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mamlakatlarimiz organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha jahonda yetakchi bo‘lishi mumkin. Tahlillariga ko‘ra, bugungi kunda global organik mahsulotlar bozori hajmi 225 milliard dollardan oshadi va kelajakda bu ko‘rsatkichlar har yili 10 foizga o‘sishi kutilmoqda.[OECD. (2025). Green Growth and Emerging Economies] Mamlakatlarimizning bu boradagi salohiyatidan kelib chiqib, sifatli va xaridorgir organik mahsulotlar ishlab chiqarishda ilmiy tadqiqot va naslchilik, sanoat kooperatsiyasi, logistika aloqalarini mustahkamlash mumkin. Natijada kelajakda biz yagona brend ostida organik mahsulotlarimizni jahon bozorida ilgari surishimiz mumkin; *uchinchi*, Turkiy davlatlarning transport aloqalarini mustahkamlash va xalqaro tranzit yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha

muvofiqlashtirilgan siyosat zarurligi, O‘rta koridorni izchil rivojlantirish bo‘yicha belgilangan barcha rejalarni to‘liq qo‘llab-quvvatlatlanishi, eng muhimi, bu koridor raqobatbardoshligi bilan ajralib turishi va asosiysi tadbirkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta’minlashi kerakligi alohida ta’kidlandi; *to‘rtinchi,* yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini muhokama qilishda samarali moliyaviy vositalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega ekani, bu borada Turkiy investitsiya fondi faoliyatini kengaytirish taklifi ilgari surildi; *beshinchisi*, sun’iy intellekt, raqamlashtirish va kreativ sanoat tarmoqlari mamlakatlarimizda barqaror rivojlanishning asosiy omillariga aylanmoqda. Ushbu yo‘nalishlardagi sa’y-harakatlarni birlashtirish uchun sun’iy intellekt va ijodiy sohalardagi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish taklif etildi; *oltinchi*, “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida ilm-fan va ta’lim sohasidagi hamkorligimizni yangi bosqichga ko‘tarish muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlab o‘tildi; *yettinchi*, yoshlarimiz o‘rtasida buzg‘unchi va yot g‘oyalar tarqalishining oldini olish maqsadida Turkiy davlatlarda ekstremistik va radikal mafkuraga qarshi kurashishga qaratilgan “Harakat dasturi”ni qabul qilish taklif etildi. Shu bilan birga, islomofobiyaning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish bo‘yicha yaqin muloqotni davom ettirish ko‘zda tutildi.[Zamin.uz.(2025, October 10)] Qolaversa, tashkilot doirasida yoshlar o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish ham aytib o‘tildi. Ilgari surilgan tashabbuslar iqtisodiy hamkorlik, ekologik barqarorlik, xavfsizlik va innovatsion taraqqiyot yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lib ushbu g‘oyalar O‘zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviy integratsiya markazida turishini tasdiqlaydi hamda TDTni global siyosiy maydonda strategik platformaga aylantiradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ushbu nutqi faqat rasmiy chiqish emas, balki O‘zbekiston tashqi siyosatini, mintaqaviy integratsiya strategiyasini va Turkiy dunyo ichidagi mavqeini belgilovchi element sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning muhim jihatlari: Turkiy dunyoda O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamladi ya’ni, bu nutq O‘zbekistonni TDT (Turkiy davlatlar tashkiloti) ichida faol, tashabbuskor a’zo sifatida ko‘rsatdi. Matbuot maqolalari ham Mirziyoyevning “TDTning rivojlanish vektorini o‘zgartirayotgan” qadamlari haqida yozmoqda. [Novosti Uzbekistana - Upl.uz]. “Strategik sheriklik, abadiy do‘stlik va qardoshlik to‘g‘risidagi bitim”ni tezroq imzolash takliflari O‘zbekiston va boshqa turkiy davlatlar o‘rtasida doimiy huquqiy bazani shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘rta koridor (Middle Corridor) va uni Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li, Trans-Afg‘on yo‘li kabi yo‘nalishlar bilan integratsiya qilish takliflari O‘zbekistonni markaziy tranzit va logistik markaz sifatida joylashtirishga xizmat qiladi.[Report.az] Bu tashabbuslar Central Asia va Kavkaz mintaqalarini bog‘lash, savdo oqimlarini

jadallashtirishda katta rol o‘ynashi mumkin. Bundan tashqari, doimiy iqtisodiy sheriklik kengashi tashkil etish taklifi O‘zbekiston va boshqa turkiy davlatlar uchun barqaror va institutsional hamkorlik mexanizmlarini yaratishga qaratilgan bo‘lib “Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni” kabi konsepsiyalar savdo va investitsiya muhitini soddalashtirish orqali TDT ichida iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi. Yurtboshimizning, geosiyosiy qarama-qarshiliklar davrida turkiy davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik, siyosiy muvofiqlik va tashqi siyosatlashtirish maktablari muvofiqlashtirishini rag‘batlantirishga urg‘u berib, Samarqandda TDT tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmat rahbarlarining birgalikdagi yig‘ilishini tashkil etish taklifi bu maqsadga yo‘naltirilgan konkret qadam sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston TDT sammitida takliflar bilan chiqishi orqali “faol diplomatiya”, “integratsiyaga tayanish”, “regionda yetakchi rol” degan imidjni yanada mustahkamladi. Buning natijasida, global inqirozlar fonida mintaqaviy bloklar va institutlarga suyanish strategiyasi O‘zbekiston uchun xavfsizlik va barqaror integratsiya yo‘lini ochadi. Umuman olganda, mintaqaviy barqarorlik va strategik hamjihatlik tashqi siyosiy va iqtisodiy muvozanatda turkiy davlatlar o‘rtasidagi birlashtirilgan pozitsiyalar global maydonda ham samarali bo‘lishi mumkin. Bu nutq orqali O‘zbekiston mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va o‘zaro manfaat asosida hamkorlik yo‘lini kuchaytirishga intilayotganligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil oktyabr oyida Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) sammitidagi nutqi mintaqaviy integratsiyaning chuqurlashuvi va ko‘p qirrali barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi strategik dastur sifatida maydonga chiqdi. Nutqda ilgari surilgan tashabbuslar – jumladan, “Turkic Green Vision”, “Turkiy transport yo‘lagi”, sun’iy intellekt bo‘yicha yo‘l xaritalari, organik qishloq xo‘jaligi bo‘yicha hamkorlik **va** kiberxavfsizlikdagi integratsion takliflar – nafaqat TDT doirasidagi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash, balki ularni global siyosiy hamjamiyatda faol ishtirokchiga aylantirish salohiyatiga ega. Nutq orqali O‘zbekiston Prezidentining tashqi siyosatidagi muhim tamoyillar – faol mintaqaviy diplomatiya**,** hamkorlik asosidagi barqaror rivojlanish**,** xalqaro xavfsizlikda mas’uliyatli ishtirok va ilm-fan, ta’lim orqali taraqqiyotga erishish kabi yondashuvlar ochiq namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, TDTning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish tashabbusi, mintaqa uchun institutsional asos yaratish va barqarorlikni ta’minlashda muhim konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali Prezident nutqi TDT davlatlari o‘rtasidagi tarixiy-madaniy umumiylikni zamonaviy siyosiy-iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks va kelajakni ko‘zlovchi dastur sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning Turkiy dunyo integratsiyasidagi yetakchi o‘rni va strategik ko‘lamini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Turkiy Davlatlar Tashkiloti sammitidagi nutq”. Ozarbayjon, 2025-yil, 6-oktyabr.
2. Caspian Post. Uzbek President proposes bold economic and green initiatives to unite Turkic states, 2025.
3. Daily Sabah. Turkic states fast-track project to launch joint satellite in 2026, 2025.
4. Sputnik Uzbekistan. Mirziyoyevning Ozarbayjonga tashrifi haqida, 2025.
5. Turkic States Organization official website — turkicstates.org, 2025.
6. Mirziyoyev, Sh.M. (2025). Ozarbayjon Respublikasining Gabala shahrida Turkiy Davlatlar Tashkiloti sammitida nutqi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti
7. Zamin.uz (2025). Shavkat Mirziyoyev put forward seven initiatives at the TDT Summit. Zamin.uz
8. Report.az (2025). Uzbekistan proposes Economic Cooperation Council within Turkic bloc. Report.az
9. Report.az (2025). Mirziyoyev: Uzbekistan supports development of Middle Corridor. Report.az
10. Anhor.uz (2025). Prezident Mirziyoyevning TDT sammitidagi chiqishi haqida. Anhor.uz
11. Upl.uz (2025). TDT sammiti: O‘zbekistonning tashabbuslari va istiqbollari. Upl.uz
12. Turkic States Organization. (2025). Official statements and summit documents. https://www.turkkon.org
13. United Nations. (2024–2025). Reports on sustainable development and green economy. www.un.org
14. OECD (2025). Green Growth and Emerging Economies: Central Asia Perspective. OECD Library
15. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2025). TDT sammiti va mintaqaviy integratsiya bo‘yicha axborot. mfa.uz

РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОГРАММ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАКТИКИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Мусохоний Амирхон Алишер ўғли,
независимый исследователь
+998997808833 amirkhon544@gmail.com

Аннотация. Статья анализирует роль гражданского общества в реализации программ устойчивого развития и экономической модернизации на примере Китая, России, Турции, Пакистана и ЕС. В условиях сокращения

международного финансирования особое значение приобретают внутренние источники, развитие социального предпринимательства и институционализация участия НКО. Для Узбекистана это открывает возможности укрепления партнерства государства и общества в рамках стратегии «Узбекистан–2030».

Ключевые слова: гражданское общество; устойчивое развитие; экономическая модернизация; Узбекистан.

Введение. Современные тенденции мирового развития свидетельствуют о том, что устойчивое развитие и экономическая модернизация не могут быть реализованы исключительно государственными усилиями. Ключевым условием успеха является участие гражданского общества— неправительственных организаций, социальных инициатив, профессиональных объединений и локальных сообществ. Их вовлеченность обеспечивает прозрачность реформ, рост доверия к институтам власти и повышение эффективности реализации социально-экономических программ [1]. Для Узбекистана, где в последние годы проводятся масштабные реформы, ориентированные на человека, актуально изучение международного опыта вовлечения гражданского общества в процесс модернизации и устойчивого развития. Настоящая статья рассматривает практики Китая, России, Турции, Пакистана и Европейского союза с целью выявления перспектив для их применения в узбекском контексте.

Научный подход и методология. В исследовании применяются три методологических подхода. Во-первых, *сравнительный анализ,* позволяющий сопоставить различные модели участия гражданского общества в социально-экономических процессах и определить наиболее адаптивные для Узбекистана практики. Во-вторых, *институциональный подход,* рассматривающий гражданское общество как систему институтов, способных влиять на развитие экономики и реализацию национальных стратегий. В-третьих, используется *концепция устойчивого развития,* основанная на «Повестке дня в области устойчивого развития до 2030 года» (Agenda 2030), которая подчеркивает необходимость партнёрства государства, бизнеса и общества [2]. Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе международного опыта в контексте политической экономии, а практическая значимость — в возможности применения выводов при реализации национальной стратегии «Узбекистан–2030».

Международный опыт. Китай. Китай демонстрирует модель, в которой государство играет ведущую роль в координации программ устойчивого развития, однако активно вовлекает неправительственные организации и бизнес. Важное значение имели проекты по ликвидации бедности, где местные НКО занимались образованием и подготовкой кадров, а также экологическими инициативами [3]. Подобная модель показывает, что сильное государство и активное гражданское общество могут дополнять друг друга в достижении общих целей.

Россия. В России акцент сделан на развитии социально ориентированных НКО, которые вовлекаются в реализацию государственных программ на региональном уровне. Например, институт президентских грантов стал значимым источником поддержки проектов в сфере образования, здравоохранения и экологии [4]. Цифровизация управления («Госуслуги», региональные порталы) повысила прозрачность и создала новые каналы взаимодействия граждан с государственными структурами.

Турция. В Турции особую роль играют благотворительные и волонтёрские организации, которые активно участвуют в программах местного экономического развития и социальной поддержки населения. Государство в последние годы поощряет социальное предпринимательство, что способствует созданию рабочих мест и интеграции уязвимых групп населения [5].

Пакистан. Пакистан отличается высокой вовлечённостью международных организаций и НПО в процесс реализации программ устойчивого развития, особенно в сферах борьбы с бедностью, образования и здравоохранения [6]. Несмотря на ограниченные внутренние ресурсы, гражданское общество страны доказало свою эффективность в мобилизации населения и реализации локальных проектов.

Европейский Союз. ЕС демонстрирует институционализированный модель участия гражданского общества в устойчивом развитии. Принцип «participatory governance» предполагает включение НКО, профсоюзов, исследовательских институтов и сообществ в процесс принятия решений [7]. Гражданское общество активно участвует в мониторинге исполнения программ по климату, экологии и социальной защите, что обеспечивает баланс интересов государства, бизнеса и общества.

Перспективы для Узбекистана. Для Узбекистана международный опыт подтверждает, что эффективная реализация программ устойчивого развития требует активного участия гражданского общества. Наиболее применимыми представляются следующие направления:

1. *Развитие социального предпринимательства* (по примеру Турции и ЕС) как инструмента экономической модернизации и социальной интеграции.
2. *Участие НКО в реализации национальных программ* (опыт России и Китая), включая экологические инициативы, образование и здравоохранение.
3. *Международное сотрудничество* с гражданскими организациями и донорами (опыт Пакистана) для привлечения дополнительных ресурсов и экспертизы.
4. *Институционализация участия гражданского общества* в разработке и мониторинге стратегий устойчивого развития (опыт ЕС).

Таким образом, в условиях реализации стратегии «Узбекистан–2030» усиление партнёрства между государством, бизнесом и гражданским обществом способно повысить эффективность проводимых реформ, укрепить доверие общества и обеспечить долгосрочную устойчивость социально-экономических преобразований.

Заключение. Сравнительный анализ показал, что несмотря на различия в политических системах, все рассмотренные страны демонстрируют важность участия гражданского общества в устойчивом развитии и экономической модернизации. Для Узбекистана ключевыми задачами являются институционализация механизмов участия, развитие социального предпринимательства, укрепление НКО и вовлечение молодежи в процессы реформ. Гражданское общество, будучи посредником между государством и населением, способно стать фактором успешной реализации национальных стратегий и формирования инклюзивной модели модернизации.

Список литературы:

1. Edwards M. Civil Society. – Polity Press, 2014.
2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – UN, 2015.
3. Saich T. Governance and Politics of China. – Palgrave Macmillan, 2015.
4. Холодковский К.Г. Гражданское общество в современной России. – М.: Аспект Пресс, 2020.
5. Öztürk A. Civil Society in Turkey: New Directions. – Turkish Studies, 2019.
6. Zaidi S. The Role of Civil Society in Pakistan’s Development. – Journal of International Development, 2020.
7. European Commission. The European Governance White Paper. – Brussels, 2001.
8. World Bank. Civil Society and Development. – Washington, 2021.

XALQARO MUNOSABATLAR SOHASIDAGI SIYOSIY TADQIQOTLAR

Yuldoshov Shodiyor Ishmuminovich,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Nazariy maktablarning evolyutsiyasi ko‘rsatilgan, zamonaviy metodologik yondashuvlar tahlil qilingan va fanning fanlararo xususiyatiga e’tibor qaratilgan. Global siyosiy tizim transformatsiyasi va xalqaro xavfsizlikning yangi tahdidlariga alohida e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: xalqaro munosabatlar, siyosiy fan, siyosiy tadqiqotlar, xalqaro munosabatlar nazariyasi, globallashuv, xavfsizlik.

Kirish. Siyosiy fanlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi uning XX asrda xalqaro munosabatlar va davlat boshqaruvini o‘rganish bo‘yicha ma’lum darajada mustaqillikka erishgan tadqiqotlar bilan o‘zaro munosabatlari muammosi atrofidagi doimiy munozaralar bilan bog‘liq. Ilmiy bilimning ushbu

sohalari nisbati muammosini har tomonlama ko‘rib chiqishning muhimligi nafaqat uning yechimiga, ilmiy bilishning rivojlanish yo‘llari va yo‘nalishlariga bog‘liqligi, balki uning tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ta’limni tashkil etishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu masalaga sof amaliy ma’no beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “…jahondagi vaziyat shiddat bilan o‘zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil qilish va bashorat qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangavor tayyorligini va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko‘rishni talab etmoqda” deya aytgan fikrlari ham, xalqaro munosabatlar metodologiyasini ilmiy o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Xalqaro munosabatlar akademik fan sifatida davlatlar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat aktorlar va transmilliy jarayonlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan sohadir. Bu sohadagi siyosiy tadqiqotlar jahon siyosati dinamikasini tushunish, global jarayonlar qonuniyatlarini aniqlash va kelajak tendensiyalarini bashorat qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlar davlatlararo darajada hokimiyat va siyosiy faoliyatni o‘rganadi, davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jahon siyosatining boshqa subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Ushbu soha tinchlik va urush, xavfsizlik, hamkorlik va mojarolar masalalarini qamrab oladi, o‘zaro munosabatlarning turli jihatlarini, masalan, diplomatiya, iqtisodiy aloqalar, harbiy strategiya va madaniy almashinuvni o‘rganadi.

Asosiy qism. Bugungi kun adabiyotlarida xalqaro munosabatlar tushunchasining turli xil ta’riflarini uchratish mumkin. Jumladan, “Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari” o‘quv qo‘llanmasi mualliflari xalqaro munosabatlarga “…davlatlar va davlatlar tizimlari o‘rtasidagi, jahon maydonida ish ko‘rayotgan asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar o‘rtasidagi, ya’ni so‘zning keng ma’nosidagi xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar yig‘indisi” degan ta’rifni berishadi.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi tadqiqotlarning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

Birinchisi, klassik bosqich (1919-1945-yillar):

Birinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlar siyosiy fanning mustaqil sohasiga aylandi. Tadqiqotlar urush va tinchlik muammolari, xavfsizlikni ta’minlashning institusional mexanizmlariga qaratilgan. Bu davrda xalqaro tashkilotlar mojarolarning oldini olishga qodir, degan idealizm hukmron edi.

Ikkinchisi, “Realistik paradigma” bosqichi (1945-1990-yillar):

Sovuq urush realizm va neorealizmning mustahkamlanishiga yordam berdi. Jahon siyosatining bosh subyekti davlat, tahlilning markaziy obyekti esa milliy xavfsizlik, kuchlar muvozanati va harbiy ittifoqlar hisoblangan.

Uchinchisi, Zamonaviy bosqich (1990-yildan hozirgi kungacha):

Bipolyar tizim tugashi bilan e'tibor globallashuv, o‘zaro bog‘liqlik va aktorlarning xilma-xilligiga qaratildi. Neoliberalizm, konstruktivizm, global boshqaruv nazariyalari, shuningdek, noan'anaviy tahdidlar - terrorizm, migratsiya, kiberxavfsizlik kabi tadqiqotlar kabi yo‘nalishlar birinchi o‘ringa chiqdi.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari

Xavfsizlik va geosiyosat tadqiqotlari

Mintaqaviy va global xavfsizlik tizimlari, harbiy ittifoqlar (NATO, SHHT), shuningdek, buyuk davlatlar strategiyalarini tahlil qilish.

Iqtisodiy diplomatiya va geoiqtisodiyot

Xalqaro siyosat va jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligi, energetika xavfsizligi, xalqaro savdo va investitsiyalar.

Xalqaro tashkilotlar va global boshqaruv

BMT, YEI, ASEAN, Afrika Ittifoqi va boshqa institutlarning xalqaro nizolarni tartibga solish va rivojlanishdagi roli.

Madaniyatlararo va gumanitar tadqiqotlar

Madaniy diplomatiya, “yumshoq kuch”, axborot siyosati va xalqaro imijni shakllantirishda OAVning roli.

Yangi chaqiruvlar: transmilliy terrorizm, kibertahdidlar, iqlim o‘zgarishi va demografik muammolar tobora faol siyosiy tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlar metodologiyasi:

Normativ yondashuv – qadriyatlar, huquq va meyorlarga urg‘u berish.

Empirik tahlil – statistika, keys-stadi, qiyosiy siyosatdan foydalanish.

Fanlararo metod – siyosatshunoslik, iqtisodiyot, sotsiologiya, tarix va xalqaro huquqning sintezi.

Konseptual modellashtirish – global jarayonlarning nazariy modellarini yaratish (realizm, liberalizm, konstruktivizm).

Xulosa. Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlar global jarayonlarni tushunish va tartibga solish uchun muhim ahamiyatga ega. Intizomning idealizmdan zamonaviy plyuralizmga evolyusiyasi jahon siyosiy tizimidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Bugungi kunda tadqiqotlar nafaqat an'anaviy xavfsizlik va hokimiyat masalalariga, balki XXI asrning global muammolariga ham qaratilgan. Shunday qilib, xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy fan davlatlar va jamiyatlarning tobora kuchayib borayotgan o‘zaro bog‘liqligi sharoitida tahlil va bashorat qilishning asosiy vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiёt strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 383.
2. Muhammadsiddiqov M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. – Toshkent: Qaqnus media, 2019.
3. Muhammadsiddiqov M., Azimov Sh. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 7.
4. Цыганков П.А. Теория международных отношений. –Москва, 2003.

JAMOATCHILIK ISHTIROKI ASOSIDA MAHALLIY BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR VA O‘ZBEKISTON MODELI

Jo‘rayev Muhammadsher Ma`rufjon o‘g‘li,
Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi
(+998907871616 jorayevmm@gmail.com)

Annotatsiya: Maqola jamoatchilik ishtiroki orqali mahalliy boshqaruvni rivojlantirish masalalarini tahlil qiladi. Xalqaro amaliyot (Porto Alegre, Parij, Kaskaish va boshqa shaharlar) misollariga asoslanib, jamoatchilik ishtirokining turli mexanizmlari — ayniqsa participativ byudjetlash, konsultatsiyalar va mahalla/shtat darajasida hamkorlik — tahlil qilinadi. O‘zbekiston kontekstida mahalla institutining an’anaviy roli, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan desentralizatsiya va mahalla institutlarini mustahkamlashga qaratilgan loyihalar tahlil qilinadi. Maqola xalqaro tajribadan olinadigan saboqlarni O‘zbekiston realiyasiga moslashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalarni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik ishtiroki; mahalliy boshqaruv; participativ byudjetlash; mahalla instituti; desentralizatsiya; O‘zbekiston; xalqaro tajriba.

Mahalliy boshqaruv tizimida jamoatchilik ishtiroki demokratiya tamoyillarining eng muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. U aholining o‘z hayoti va muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarni shakllantirishda faol qatnashishini ta’minlaydi. Fuqarolarning o‘z tashabbuslari bilan jarayonlarda qatnashishi boshqaruv jarayonining samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uni yanada shaffof va hisobdor qiladi. Jamoatchilik ishtiroki, avvalo, fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, chunki ularning ehtiyojlari, muammolari va fikrlari bevosita inobatga olinadi. Shu bois bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar mahalliy darajada qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga qaratilgan turli mexanizmlarni ishlab chiqmoqda.[1]

Porto Alegre tajribasi shuni ko‘rsatdiki, fuqarolarning byudjet mablag‘larining qanday sarflanishini belgilashda bevosita ishtirok etishi nafaqat shaffoflikni kuchaytiradi, balki aholining ijtimoiy infratuzilma va xizmatlarga nisbatan qoniqishini ham sezilarli darajada oshiradi. Ushbu modelning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri uning uch bosqichli mexanizmida namoyon bo‘ladi: avvalo mahalla yig‘ilishlarida muammolar ko‘tariladi, keyin mavzuviy yig‘ilishlarda ustuvorliklar belgilanadi, so‘ng delegatlar kengashida yakuniy qaror qabul qilinadi. Biroq bu tajriba siyosiy barqarorlik va hukumat qo‘llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, uning uzoq muddatli barqarorligi har doim ham ta’minlanmagan.[2] Yevropa davlatlari, xususan, Parij va Kaskaish kabi shaharlar ham participativ byudjetlashni joriy etish orqali aholining keng qatlamlarini jalb qila oldi. Parijda fuqarolar onlayn platformalar orqali o‘z g‘oyalarini ilgari surish va ular uchun ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, bu esa yoshlar va ish bilan band aholining faolligini oshirdi. Kaskaishda esa participativ byudjetlash yanada kengroq qo‘llanilib, shahar byudjetining salmoqli qismi aholining bevosita qarorlariga asoslanib taqsimlandi. Bu model fuqarolarning mahalliy boshqaruvga bo‘lgan ishonchini oshirdi va real ehtiyojlarga mos infratuzilma yaratishda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, Shimoliy Amerikada, masalan, Nyu-York shahrida ham participativ byudjetlashdan foydalanilmoqda, biroq u asosan kichik kapital loyihalar bilan cheklanadi. Bu esa ishtirokni kengaytirish imkoniyatlarini biroz chegaralaydi, ammo jamoat joylari va kichik loyihalarni amalga oshirishda juda amaliy natijalar beradi [5]. O‘zbekiston tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mahalla instituti tarixan jamiyat boshqaruvida markaziy o‘rin egallagan. Mahalla faqatgina ijtimoiy hayotning markazi emas, balki davlat va fuqarolar o‘rtasidagi vositachilik vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda mahallalar orqali fuqarolarning muammolari, ehtiyojlari va tashabbuslari yig‘ilib, mahalliy hokimiyat organlariga yetkaziladi. Mahalla instituti jamoatchilik ishtirokining milliy shakli sifatida qaralishi mumkin, chunki u ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik an’analari bilan chambarchas bog‘langan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalla tizimi yanada mustahkamlanmoqda. Davlat va xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar mahallalarning salohiyatini oshirish, ularga ko‘proq tashabbuskorlik va qaror qabul qilish imkoniyatlarini berishga yo‘naltirilgan.[7]

Shu bilan birga, O‘zbekiston modelida bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, mahalla institutining davlat tizimi bilan uzviy bog‘liqligi uning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini cheklashi mumkin. Ikkinchidan, participativ mexanizmlar, jumladan, byudjetlash jarayonida aholining to‘liq ishtiroki hali keng qamrovli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Uchinchidan, raqamli platformalar va ochiq ma’lumot tizimlari yetarlicha rivojlanmaganligi sababli yoshlar va faol fuqarolarning keng qatlamlarini jalb qilish imkoniyati to‘liq ishga solinmagan. Shu nuqtai nazardan xalqaro tajribani o‘rganish va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Parijdagi raqamli ishtirok platformalaridan yoki Porto Alegrening bosqichma-bosqich konsultatsiya mexanizmidan olingan saboqlar O‘zbekistonda participativ byudjetlashni joriy etishda qo‘l kelishi mumkin.[3]

Bundan tashqari, mahalliy boshqaruvda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham zarur. Bu ijtimoiy auditlar, jamoat eshituvlari, hisobotlarni ochiq taqdim etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday mexanizmlar fuqarolarning davlat resurslari ustidan nazoratini kuchaytiradi va korrupsion xavflarni kamaytiradi. Jamoatchilik ishtiroki kengaygan sari, mahalliy boshqaruv tizimi fuqarolar oldida yanada ochiq bo‘ladi va ularning ehtiyojlariga moslashadi.[10]

Shunday qilib, xalqaro tajriba va O‘zbekiston modeli taqqoslanganda ko‘rinadiki, fuqarolar ishtirokini kengaytirish barqaror siyosiy qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarning aniq taqsimlanishi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l bu mavjud mahalla institutini modernizatsiya qilish, uni participativ mexanizmlar bilan boyitish va aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni faolroq jalb qilishdir. Bu nafaqat demokratik boshqaruvning rivojlanishiga, balki mahalliy muammolarning samarali hal etilishiga ham olib keladi.[9]

Xulosa. Mahalliy boshqaruvda jamoatchilik ishtiroki demokratik jamiyatni rivojlantirishning ajralmas omili bo‘lib, uning samaradorligi fuqarolarning bevosita qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashish darajasiga bog‘liq. Bu tajribalardan olinadigan eng muhim saboq shundaki, fuqarolik ishtiroki doimiy ravishda siyosiy qo‘llab-quvvatlash, aniq moliyaviy resurslar va samarali kommunikatsiya kanallari bilan ta’minlanishi kerak.

O‘zbekiston modeli o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, unda mahalla instituti jamoatchilik ishtirokining asosiy platformasi sifatida shakllangan. Shu bilan birga, aholining keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlar va ayollarni jalb qilish, raqamli platformalarni rivojlantirish va participativ byudjetlashni kengaytirish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wampler, B. (2007). Participatory Budgeting in Brazil: Contestation, Cooperation, and Accountability. University Park: Pennsylvania State University Press.
2. Sintomer, Y., Herzberg, C., & Röcke, A. (2008). Participatory budgeting in Europe: Potentials and challenges. International Journal of Urban and Regional Research, 32(1), 164–178.
3. Baiocchi, G., Heller, P., & Silva, M. K. (2011). Bootstrapping Democracy: Transforming Local Governance and Civil Society in Brazil. Stanford University Press.
4. OECD (2020). Innovative Citizen Participation and New Democratic Institutions: Catching the Deliberative Wave. OECD Publishing, Paris.
5. Shah, A. (Ed.). (2007). Participatory Budgeting. Public Sector Governance and Accountability Series. Washington, DC: World Bank.
6. Cabannes, Y. (2004). Participatory budgeting: A significant contribution to participatory democracy. Environment and Urbanization, 16(1), 27–46.
7. UNDP (2016). Citizen Engagement in Local Governance: Experiences from Global Practices. United Nations Development Programme.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 martdagi “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
9. Jahon banki (2022). Uzbekistan: Strengthening Local Governance and Service Delivery. Washington, DC.
10. Karimov, A. (2021). Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalla institutining o‘rni. Ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 45–53.

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHIDA FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL

Sa’dullayev Asadbek, Narzulloyev Azizbek
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabalari
asadbeksadullayev2003@gmail.com
azizbeknarzulloyev002@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish masalalari hamda ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida fuqarolik institutlari faoliyatini rivojlantirish, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy hamkorlikning samarali mexanizmlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati solishtirilib, O‘zbekiston sharoitida ularni qo‘llash istiqbollari yoritiladi. Maqolada fuqarolar ongini yuksaltirish, tashabbuskorlikni rag‘batlantirish va jamoatchilik nazorati

tizimini kuchaytirishning nazariy va amaliy jihatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik institutlari, jamoatchilik faolligi, ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik nazorati, xalqaro tajriba, demokratiya, ishtirokchi boshqaruv, huquqiy davlat, fuqarolik ong, tashabbuskorlik.

Bugungi globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy davlatlarning demokratik taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, inson huquq va erkinliklari ta’minlangan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki yo‘lga qo‘yilgan hamda davlat va jamiyat o‘rtasida muvozanatni saqlab turuvchi tizimdir. Shu nuqtai nazardan, fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tajribasidakeyingi yillarda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Ushbu jarayon xalqaro amaliyot bilan uyg‘un holda olib borilishi, milliy taraqqiyot strategiyasida fuqarolarning faol ishtiroki uchun qulay sharoit yaratishi zarur. Shu sababli, mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanishida fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O‘zbekiston uchun istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati taraqqiyoti har bir mamlakatning demokratik tamoyillar asosida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan jamoatchilik tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda yoshlar birlashmalarining faoliyati davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilar ekanmiz, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat bilan hamkorligi samarali mexanizmlar asosida yo‘lga qo‘yilganini ko‘ramiz. Masalan, Germaniya va Fransiyada jamoatchilik kengashlari muhim qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. AQShda esa nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi tajribasi fuqarolarning o‘z hayotida faol ishtirokini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati shakllanishida davlat va jamiyat o‘rtasida doimiy hamkorlik, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari asosiy o‘rinda turadi. Masalan:

1. AQShda fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy xizmatlarning katta qismini o‘z zimmasiga olgan. Ularning davlat bilan hamkorligi grantlar va subsidiya tizimi orqali mustahkamlangan.

2. Yevropa mamlakatlarida jamoatchilik kengashlari va fuqarolar assambleyalari qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi. Masalan, Germaniyada “fuqarolar forumi” orqali davlat siyosatini ishlab chiqishda aholining bevosita fikri inobatga olinadi.

3. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa fuqarolarning tashabbuskorligi “ko‘ngillilik harakatlari” orqali kuchli qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa jamiyatda birdamlikni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston tajribasida ham oxirgi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, "Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida"gi Qonun, "Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash" dasturlari hamda fuqarolar yig‘inlarining huquqiy maqomini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar fuqarolik jamiyatining huquqiy asosini mustahkamlab berdi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, fuqarolik jamiyatining samarali faoliyati uch asosiy omilga tayanadi: birinchidan, kuchli huquqiy davlat va qonun ustuvorligi; ikkinchidan, erkin faoliyat yurituvchi fuqarolik institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalari); uchinchidan, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, demokratik jamiyatlarda fuqarolarning tashabbuskorligi va ijtimoiy mas’uliyati davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi tarixiy-falsafiy ildizlarga ega. Jumladan, G. Hegel fuqarolik jamiyatini “davlat va shaxs o‘rtasidagi vositachi tizim” sifatida izohlagan. A. de Tokvil esa fuqarolik jamiyatining kuchli institutlari demokratiyaning barqaror rivojlanishi uchun asos bo‘lishini ta’kidlagan. Shuningdek, J. Lokk erkinlik va shaxsiy huquqlarni ta’minlash fuqarolik jamiyatining bosh mezoni ekanini asoslab bergan. Zamonaviy tadqiqotchilar esa fuqarolik jamiyatini ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik nazorati va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin qilmoqdalar.

Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik faolligini oshirish borasida dolzarb masalalar mavjud. Jumladan, aholining siyosiy savodxonligini oshirish, yoshlarning ijtimoiy loyihalardagi ishtirokini kengaytirish, nodavlat tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

O‘zbekiston uchun istiqbol shundan iboratki, xalqaro tajribadan kelib chiqib:

1) Fuqarolik jamiyati institutlari uchun moliyaviy mustaqillikni oshirish zarur. Bu yo‘nalishda davlat buyurtmalari, xususiy sektor bilan hamkorlik va xalqaro grantlardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishi mumkin.

2) Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini yanada kengaytirish lozim. Bu esa aholining davlatga ishonchini oshiradi.

3) Yoshlar va ayollar faolligini oshirish — xalqaro tajribada eng samarali usullardan biri sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston istiqbolida bu ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili bo‘ladi.

4) Raqamli platformalarni keng joriy etish — kelajakda jamoatchilik fikrini tezkor yig‘ish va fuqarolik jamiyatining onlayn shaklini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatdir.

Shu bois xalqaro tajriba O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yo‘l xaritasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatining shakllanishida fuqarolarning faolligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni isbotlaydiki, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi ochiq muloqot va hamkorlik jamiyat barqarorligining kafolatidir. O‘zbekistonda ham bu borada keng imkoniyatlar yaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish zarur.

Shuningdek, aholining siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta’minlash orqali jamiyatda demokratik qadriyatlar yanada mustahkamlanadi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyotning uyg‘unlashuvi esa O‘zbekistonning demokratik taraqqiyot istiqbollarini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3.Qodirov Q., Jo‘rayev A. Fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

4.Jo‘rayev M. Fuqarolik jamiyatining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

5.Tursunov R. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: Universitet, 2020.

6.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari: “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun.

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARNING O'RNI

Esonova Dilnura Marat qizi,
O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti 1-kurs talabasi
O'zbekiston Toshkent shahri
telefon: +998992426608

“Biz yoshlarimizning o‘z salohiyati va bilimini namoyon qilishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz. Chunki ertangi kun egalari – yoshlarimizning bugungi faoliyati jamiyatimiz kelajagini belgilaydi”.
Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqola yoshlarning faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashning dolzarb tendensiyalari, shuningdek, ta’lim, innovatsiya, ekologiya va ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini tahlil qilishga qaratilgan. Va bu bilan birga Prezidentimizning yoshlar haqidagi qarashlari va olib borayotgan islohotlari jamiyatimizda ularga keng imkoniyatlar eshigini ochayotgani, ularning huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgani yoritiladi. Kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar nafaqat kelajak avlod vakillari, balki bugungi kunning faol bunyodkorlari sifatida muhim o‘rin tutishi ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: tendinsiya, fuqarolik jamiyati,yoshlar faolligi, zamonaviy tendensiyalar, demokratik islohotlar, ijtimoiy faollik, startaplar va xalqaro grantlarda, yoshlar siyosati, fuqoralik instituti, yoshlar tashabbusi, innovatsion g‘oyalar, yoshlarning ijtimoiy roli, davlat va jamiyat hamkorligi, yoshlarning huquqiy madaniyati,yoshlar va fuqarolik jamiyati rivoji

Bugun biz barpo etayotgan kuchli fuqarolik jamiyatida yoshlarimizning faolligi eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlari bilan aytganda: “Yoshlarimiz qancha bilimli, tashabbuskor va faol bo‘lsa, mamlakatimizning ertangi kuni shuncha porloq bo‘ladi”. (1)

Fuqarolik jamiyati – demokratik taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi va har bir davlatning siyosiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilovchi mezondir. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida eng asosiy kuchlardan biri yoshlar hisoblanadi. Chunki ular jamiyat hayotida faol ishtirok etar ekan, yangicha tafakkur, tashabbuskorlik va bunyodkorlik g‘oyalari bilan taraqqiyotga turtki beradi.

Bugungi kunda yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Yoshlarning faolligi nafaqat ta’lim yoki mehnat jarayonida, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa ularning o‘z davlatiga, xalqiga va kelajakka bo‘lgan mas’uliyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yoshlar faolligining zamonaviy tendensiyalari ham alohida e’tiborga loyiq. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va axborot maydonining kengayishi tufayli yoshlar o‘z fikrini erkin ifoda etish, tashabbuslarni ilgari surish va jamiyatda faol pozitsiya egallash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu tendensiyalar yoshlarning siyosiy madaniyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirmoqda.

Eng muhimi, yoshlar faoliyatiga oid davlat siyosati ham izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari asosida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti” kabi tashabbuslar yoshlarga katta ishonch va mas’uliyat yuklab, ularni kelajak taraqqiyotining asosiy kuchiga aylantirmoqda.

Biz yoshlar faolligi haqida gapirganda, faqat siyosiy jarayonlarda ishtirok etish emas, balki ta’limda, fan va innovatsiyada, ijtimoiy hayotda, ekologiyada, hatto mahalla va jamoalarda olib borilayotgan islohotlarda faol bo‘lishini ham nazarda tutamiz. Prezidentimizning tashabbuslari tufayli bugun yoshlar nafaqat kelajak egalari, balki hozirning o‘zida jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shayotgan bunyodkor kuchga aylanmoqda.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ham asosiy rol hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning eng faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, turli ijtimoiy loyihalarda qatnashishi hamda tashabbuskorligi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omilidir. Ayniqsa, yoshlarning saylovlarda faol ishtiroki, mahalliy va markaziy darajadagi ijtimoiy tashabbuslarda qatnashishi fuqarolik ongini mustahkamlamoqda. (2)

Dolzarb tendensiyalar. Bugungi kunda yoshlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ijtimoiy-siyosiy faolligi quyidagi dolzarb tendensiyalar orqali yaqqol ko‘zga tashlanmoqda:

Ta’lim va innovatsiya – yoshlarning ilmiy loyihalar, startaplar va xalqaro grantlarda faol ishtiroki.Siyosiy jarayonlarda faollik – saylovlarda ishtirok, deputatlikka nomzodlik, yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlarda faol bo‘lish.Ijtimoiy loyihalar va ekologik tashabbuslar – “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyotga hissa qo‘shish.Axborot makonidagi faollik – yoshlarning raqamli savodxonligi, ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli.Bu tendensiyalar yoshlarning jamiyat taraqqiyotida nafaqat ishtirokchi, balki yetakchi kuchga aylanganidan dalolat beradi..

Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar eng muhim tayanch kuch hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi ortib borayotgani, ularning tashabbuskorligi va yangicha qarashlari mamlakat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlar bugungi kunning

nafaqat iste’molchisi, balki yaratuvchisi sifatida ham faol maydonga chiqmoqda.Biroq, ayrim dolzarb tendensiyalar ham mavjud: yoshlarning axborot xurujlariga berilib qolishi, ijtimoiy muammolarga befarqlik ko‘rsatishi, ayrim hollarda bilim va ko‘nikmalarning yetarli emasligi jamiyat uchun muayyan xavf tug‘dirishi mumkin.Bu jarayonlarga yechim sifatida birinchi navbatda ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarning ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta’minlash, ularda tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirish zarur. Shuningdek, yoshlarni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida tarbiyalash, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ham kuchli fuqarolik jamiyati uchun muhim omildir.

Yana shuni aytaoalmizki, agar yoshlarning bilim olish imkoniyatlari kengaysa, ularning ovozi jamiyatda kuchliroq yangrasa va tashabbuslari qadrlansa, bugungi dolzarb muammolarning ko‘pi o‘z yechimini topadi. Demak, kelajakni ishonchli qo‘llarga topshirish uchun yoshlarning rivoji va faolligi davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

2017-yildan boshlab yoshlar siyosatini rivojlantirishda qabul qilingan qaror va farmonlar: 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi” yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu davrda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyati kuchaytirilib, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bundan tashqari, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali joriy qilinishi yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishini rag‘batlantirdi.(3)

Prezidentimizning yoshlarga oid tashabbuslari va ularning amaliy natijalari.Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Bu tashabbuslar madaniyat, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik va xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan. Bugungi kunda minglab yoshlar bu yo‘nalishlarda o‘z salohiyatini namoyon etmoqda.(4)

Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlarning faolligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Yoshlar nafaqat ta’lim va kasb-hunar sohasida, balki fuqarolik jamiyati institutlarida ham faol qatnashmoqda. Shuningdek, kelajak istiqboli sifatida ular ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish, ekologik masalalarda faollik ko‘rsatish va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishda yetakchi kuch bo‘lib chiqmoqda.(5)

Yoshlar faolligini oshirish uchun, avvalo, ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, bandlikni ta’minlash va ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu ma’noda, davlat tomonidan olib borilayotgan yoshlarga oid siyosatning muhim yo‘nalishlari – ijtimoiy himoya, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda yoshlarning tashabbuslarini qo‘llash – kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi (6).

Yoshlarning kelajak istiqboli ularning bugungi kun faoliyatiga bevosita bog‘liq. Agar har bir yosh o‘z bilimini chuqurlashtirib, tashabbuskorlikni

namoyon etsa, kelgusida mamlakatimiz taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shunday ekan, yoshlar faolligini oshirish bo‘yicha taklif sifatida – innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning xalqaro tajriba almashinuvida ishtirokini kengaytirish va fuqarolik institutlarida ularning o‘rnini mustahkamlashni alohida ta’kidlash joiz.(7)

Xulosa qiladigan bo'lsak, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar eng muhim tayanch kuch hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi ortib borayotgani, ularning tashabbuskorligi va yangicha qarashlari mamlakat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlar bugungi kunning nafaqat iste’molchisi, balki yaratuvchisi sifatida ham faol maydonga chiqmoqda.Kelajak istiqbollari esa yanada yorqin: ta’lim va bilim darajasining oshishi, yoshlarning texnologik jarayonlarga keng jalb qilinishi va ularning innovatsion g‘oyalari jamiyatni yangilashda muhim omil bo‘ladi. Shu boisdan, yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish uchun yanada qulay sharoit yaratish dolzarb vazifadir. Kuchli fuqarolik jamiyatida yoshlarning o‘rni faqatgina hozirgi rivojlanish emas, balki ertangi kun taraqqiyotining poydevorini belgilab beradi. Shu bois yoshlarning bilim olishi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi kelajakni ishonchli qo‘llarga topshirishning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. https://president.uz

2.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021

5.Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, 2008

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasidagi ma’ruzalari, 2017–2021

7.To‘xtaxo‘jayev B., Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot, 2020

3-SHO’BA. O’ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Туленова Гульмира Жандаровна,
доктор философских наук, профессор кафедра «Гуманитарные науки» Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми
(+935747081, tulenovag 1961@mail.ru)

Сегодня в Узбекистане осуществляются масштабные работы в сфере либерализации общественной жизни, развития современных форм общественного контроля, повышения эффективности социального партнерства, реализации концепции «От сильного государства – к сильному гражданскому обществу», укрепления роли и значения институтов гражданского общества, органов самоуправления граждан в модернизации страны, их гармоничного интегрирования в систему управления государством и обществом. Опыт Узбекистана, сама жизнь подтверждает, что необратимость и устойчивость движения к гражданскому обществу, к рыночной экономике находится в прямой зависимости от формирования ее правовых основ. Развитая структура негосударственных и общественных организаций призвана обеспечивать и поддерживать баланс интересов в обществе, стать важнейшим инструментом общественного контроля за деятельностью государственных и властных структур, реально выступать противовесом государственным структурам в сфере социальных и политических отношений.

Институт общественного контроля тесно увязан с вопросами реализации конституционных принципов единства прав и ответственностей (обязанностей), взаимной ответственности государства и личности при приоритете в их взаимоотношениях прав и свобод человека и гражданина – основными принципами правового государства.[1] Это обуславливает необходимость выработать не просто правовые нормы и механизмы конструктивного сотрудничества гражданских институтов с государственной властью.

Сегодня в стране создана конституционная основа для эффективного правового механизма осуществления контроля за исполнением актов законодательства органами государственной власти и управления со стороны общества, гражданских институтов. Кроме того, конституционно закреплены условия для формирования и развития

цельной системы обеспечения парламентского и общественного контроля над исполнительной властью, что является важной гарантией реализации принципа народовластия, закрепленного во второй главе Конституции. Нормы законодательства Республики Узбекистан, регулирующие отношения в сфере общественного контроля, охватывают довольно широкий спектр жизнедеятельности общества, к их числу можно отнести Закон РУз «Об итогах референдума и основных принципах организации государственной власти». Публичные обсуждения законов и других важных вопросов государственной жизни, народная законодательная инициатива регулируются такими законами, как «О референдуме Республики Узбекистан», «О всенародном обсуждении проектов законов». Петиции по вопросам, связанным с деятельностью органов исполнительной власти, регламентированы в законах «О гарантиях избирательных прав граждан», «Об обращениях граждан» и др. В законе «О государственной молодежной политике» закреплены положения об осуществлении органами самоуправления граждан, ННО и СМИ общественного контроля за исполнением законодательства, реализацией государственных и территориальных программ в области государственной молодежной политики. Осуществление общественного контроля за соблюдением социально-экономических прав граждан законодательно определено в законе «О Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан». Общественный контроль, осуществляемый общественными объединениями за соблюдением антимонопольного законодательства, регламентируется законом «О конкуренции и ограничении монополистической деятельности на товарных рынках»; Закон «Об охране труда» гарантирует общественный контроль, устанавливая дисциплинарную, административную или уголовную ответственность за препятствие деятельности представителей органов государственного и общественного надзора и контроля. Законы «Об охране природы», «Об охране атмосферного воздуха», «Об охране и использовании животного мира», «Об экологическом контроле», «О противодействии коррупции» и другие предоставляют право гражданам, общественным объединениям и трудовым коллективам осуществлять общественный контроль в соответствующих областях.

Перечисленные законы являются лишь небольшой частью того длинного перечня нормативно-правовых актов, которые предусматривают общественный контроль институтами гражданского общества. Сегодня вопросы общественного контроля регулируются более 120 законодательными актами и специальным Законом «Об общественном контроле» (регулирует отношения в области организации и осуществления общественного контроля над деятельностью

государственных органов и учреждений) [2].

В Стратегии действий в качестве одной из приоритетных задач общественного контроля определена защита демократических ценностей, прав, свобод и законных интересов людей, внедрение эффективных механизмов диалога с народом. Сегодня ННО осуществляют следующие формы общественного контроля за деятельностью исполнительной власти: общественный мониторинг (контроль) за соблюдением законов, защитой, поддержкой и обеспечением прав и свобод человека, прежде всего, женщин и детей, исполнением государственных программ социально-экономического и духовно-гуманитарного развития страны. В частности, осуществляется мониторинг за состоянием окружающей природной среды, проводятся общественные слушания, обеспечивается активное участие ННО в реализации принятых в этой сфере программ, решении других социально-значимых проблем.

ННО участвуют в мониторинге хода исполнения в стране более 70 международных документов по правам человека, к которым присоединился Узбекистан, деятельности различных рабочих групп при парламенте, других органах государственной власти и управления. Их предложения способствовали созданию Сенатом Парламентской комиссии по вопросам обеспечения гарантированных трудовых прав граждан [3]. Кроме того, в рамках содействия исполнения Узбекистаном международной Конвенции против пыток и других жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видов обращения и наказания, они инициировали вопросы дальнейшего развития законодательства страны в целях создания дополнительных гарантий в защите прав человека при предварительных следственных и судебных процессах.

В практику гражданских институтов, субъектов законодательной инициативы, органов государственного управления и власти всех уровней прочно входит такая форма общественного контроля, как общественное (публичное) обсуждение и общественная экспертиза проектов законодательных актов. Так, на официальных веб-сайтах госорганов размещаются проекты законов и иных актов законодательства, причем, на всех стадиях их выработки и рассмотрения. Значительно активизировалась работа также Системы оценки воздействия актов законодательства на предпринимательскую деятельность (СОВАЗ) Единого портала интерактивных государственных услуг.

В Узбекистане сегодня работают тысячи ННО и наибольшее их число приходится на регионы. Институты гражданского общества, без преувеличения, вступают в очередную полосу своего исторического развития – эволюции в условиях дальнейшей политической

модернизации. Передача некоторых полномочий органов государственного укрепления общественным структурам, усиление функций общественного контроля, поддержка органов самоуправления граждан – основные приоритеты нынешней политики, которая отвечает жизненно важным национальным интересам.

Таким образом, можно смело утверждать, что сегодня институт общественного контроля стал значимым элементом обеспечения эффективной обратной связи госорганов с обществом, а также обеспечения благополучия и повышения благосостояния народа, конкурентоспособности экономики, верховенства закона, защиты и обеспечения прав и свобод человека.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан.-Ташкент: «Узбекистон», 2023.; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2007 г., № 15, ст. 152; 2008 г., № 52, ст. 510; 2011 г., № 16, ст 159; 2014 г., № 16, ст. 176; 2017 г., № 14, ст. 213.
2. Закон Республики Узбекистан «Об общественном контроле»// Национальная база данных законодательства, 13.04.2018 г., № 03/18/474/1062
3. Постановление Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 4 октября 2017 года «Об усилении мер по обеспечению гарантированных трудовых прав граждан в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и международными стандартами труда»// http://www.uza.uz/ru

GLOBALLASHUVGA YONDASHUVLAR VA MADANIYATLARARO MULOQOTDA EHTIYOTKORLIK ZARURATI

Lalixon Muxamedjanova,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, falsafa kafedrasi professori. Email: Lalixon@list.ru, lalixonm@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayoniga nisbatan turli falsafiy va sotsiologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Madaniyatlararo muloqotning dolzarbligi va ushbu jarayonda ehtiyotkorlik zarurati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari, milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda madaniyatlararo muloqotning barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, madaniyatlararo muloqot, ehtiyotkorlik,

qadriyatlar,integratsiya.

Kirish. Globallashuv zamonaviy davrning eng muhim va murakkab jarayonlaridan biri bo‘lib, u siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy sohalarga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon natijasida dunyo mamlakatlari o‘zaro integratsiyalashib, turli xil ijtimoiy-siyosiy tizimlar va madaniy an’analar bir-biriga yaqinlashmoqda. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, ma’lum xavf va tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. G‘arb olimlaridan A. Giddens globallashuvni jamiyatlarning taraqqiyoti, ijtimoiy o‘zgarishlar tezlashuvi va yangi integratsion imkoniyatlarning yaratilishi sifatida talqin qilsa, R. Robertson uni ko‘proq milliy qadriyatlar va an’anaviy madaniyatlarning yemirilishi xavfi bilan bog‘lab, ehtiyotkorlik bilan baholash zarurligini uqtiradi.[1]

Globallashuv masalasiga yondashuvlarning xilma-xilligi uning ko‘p qirrali hodisa ekanidan dalolat beradi. Bir qarashda u dunyo xalqlari o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro tushunishni kuchaytiruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa nuqtai nazardan, u milliy madaniyatlarning o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfini kuchaytiruvchi omil bo‘lib ko‘rinadi. Shu sababli, globallashuvni faqat bir tomonlama – ijobiy yoki salbiy baholash to‘liq ilmiy xulosa bermaydi. Balki bu jarayonni turli yondashuvlar asosida kompleks tarzda o‘rganish, uning ijobiy tomonlarini rivojlantirish va salbiy oqibatlarini yumshatish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurdir.

O‘zbekiston mutafakkirlari ham globallashuv masalasiga befarq qarashmagan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘z asarlarida globallashuvni zamon talabi sifatida qabul qilish bilan birga, milliy o‘zlikni asrab-avaylashning muhimligini ham alohida ta’kidlagan. Unga ko‘ra, xalqning madaniy merosi, urf-odatlari va milliy qadriyatlari globallashuv sharoitida nafaqat saqlanib qolishi, balki umuminsoniy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashishi lozim.[2]

Shuningdek, o‘zbek olimlari – H. Boboyev[3], M. Yo‘ldoshev[4] kabi tadqiqotchilar ham globallashuv jarayonida madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini ko‘rsatib, ushbu jarayon ehtiyotkorlik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida olib borilishi lozimligini uqtirganlar.

Demak, globallashuvning ko‘p qirrali mohiyati uni bir vaqtning o‘zida ham imkoniyat, ham xavf sifatida baholashga olib keladi. Bu jarayonda madaniyatlararo muloqotning samarali kechishi va barqaror natijaga erishilishi uchun ehtiyotkorlik, muvozanat va o‘zaro hurmat tamoyillarini chuqur anglash va amalda qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Globallashuv masalasi bugungi kunda nafaqat siyosatshunoslar, balki faylasuflar, sotsiologlar va madaniyatshunoslar diqqat markazida turibdi. Turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular globallashuvni bir tomondan jamiyatlarning integratsiyasi

va taraqqiyoti uchun muhim imkoniyat sifatida, boshqa tomondan esa milliy o‘zlik va madaniy merosga tahdid sifatida talqin etadi.

A. Giddens globallashuvni “zamon va makonning siqilishi” deb ta’riflab, insonlar o‘rtasidagi muloqotning tezlashishi va jamiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi ortib borayotganini qayd etadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya va siyosiy hamkorlik globallashuvning asosiy ko‘rinishlaridir. Shu bois Giddens globallashuvni asosan ijobiy jarayon sifatida talqin qiladi.[5]

Biroq R. Robertson globallashuvni ikki tomonlama hodisa deb ko‘rsatadi: bir tomondan, bu jarayon umuminsoniy qadriyatlarni keng tarqatadi, ikkinchi tomondan esa milliy o‘zlik va madaniy xilma-xillikni xavf ostiga qo‘yadi. U “glokalizatsiya” atamasini ishlab chiqib, mahalliylik va globalizm o‘rtasidagi murakkab munosabatni tushuntirib berdi.[6]

Z.Bauman globallashuvni “suqrotcha paradoks” bilan izohlaydi: u jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lsa-da, shu bilan birga yangi ijtimoiy tabaqalanish va tengsizliklarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun u globallashuv jarayoniga ehtiyotkorlik bilan yondashishni ta’kidlaydi.[7]

Habermas esa globallashuvni demokratiya va kommunikativ muloqot nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Unga ko‘ra, turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot erkinlik, tenglik va o‘zaro hurmat asosida bo‘lishi lozim, aks holda globallashuv adolat va barqarorlik o‘rniga ziddiyat va qarama-qarshiliklarni kuchaytirishi mumkin.[8]

O‘zbek olimlari ham ushbu masalaga e’tibor qaratganlar H. Boboyev[9] globallashuv sharoitida siyosiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlash uchun milliy manfaatlar va xalqaro hamkorlik o‘rtasida muvozanatni saqlash lozimligini uqtirgan. M. Yo‘ldoshev[10] esa madaniyatlararo muloqotni globallashuvning eng muhim jihatlaridan biri deb hisoblab, uni ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida baholagan.

Shunday qilib, adabiyotlarni tahlil qilish globallashuvning ikki tomonlama mohiyatini ko‘rsatadi: u taraqqiyot va integratsiya uchun yangi imkoniyatlar ochadi, biroq milliy qadriyatlarning so‘nishi, madaniyatlararo ziddiyatlarning kuchayishi kabi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli globallashuvni ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish, uning ijobiy tomonlarini rivojlantirish va salbiy jihatlarini yumshatish uchun madaniyatlararo muloqotning sog‘lom mexanizmlarini ishlab chiqish zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda globallashuv jarayonining nazariy asoslari va amaliy oqibatlarini, shuningdek, madaniyatlararo muloqotdagi ehtiyotkorlik zaruratini ilmiy jihatdan yoritish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Avvalo, falsafiy-tahliliy yondashuv tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi. Bu yondashuv yordamida G‘arb olimlari – A. Giddens, R. Robertson, Z.

Bauman,Y. Habermas kabi mutafakkirlarning globallashuv haqidagi qarashlari chuqur tahlil qilindi. Ularning nazariyalari orqali globallashuv jarayonining turli qirralari – ijobiy imkoniyatlari, integratsion ahamiyati, madaniy tahdidlari va ijtimoiy oqibatlari keng o‘rganildi. Shuningdek, o‘zbek olimlari H. Boboyev, M. Yo‘ldoshevlarning asarlari ham tahlil qilinib, milliy nuqtai nazar kontekstida muhokama qilindi.

Ikkinchidan, qiyosiy metoddan keng foydalanildi. Bu metod yordamida globallashuvga oid klassik va zamonaviy qarashlar, g‘arb va sharq mutafakkirlarining pozitsiyalari solishtirildi. Masalan, Giddensning globallashuvni ijobiy jarayon sifatida talqin qilishi Robertsonning “glokalizatsiya” nazariyasi bilan, Habermasning kommunikativ axloq konsepsiyasi esa Boboyev va Yo‘ldoshevning milliy qadriyatlar asosidagi yondashuvlari bilan qiyoslab ko‘rildi. Bu jarayon turli nuqtai nazarlarni bir-birini to‘ldiruvchi yoki qarama-qarshi jihatlari bilan taqqoslash imkonini berdi.

Uchinchidan, manba tahlili usuli qo‘llanildi. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot masalalariga oid xalqaro ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalar tizimli ravishda o‘rganildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston mutafakkirlarining ma’naviyat, madaniyat va siyosiy barqarorlik haqidagi ilmiy ishlari ham tadqiqotning nazariy manbasi sifatida foydalanildi. Bu usul tadqiqotda turli manbalarning xilma-xilligini ta’minladi va masalaga kengroq yondashishga yordam berdi.

To‘rtinchidan, tarixiy-uslubiy yondashuv tadqiqotning ajralmas qismi bo‘lib, globallashuv jarayonining turli bosqichlari va davrlar kesimidagi talqinlari o‘rganildi. Masalan, sovuq urushdan keyingi davrda globallashuvning jadallashuvi, XXI asr boshida texnologik taraqqiyotning kuchayishi va madaniyatlararo muloqotning yangi shakllarining paydo bo‘lishi tarixiy mantiqda tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda normativ yondashuvdan ham foydalanildi. Bu usul yordamida madaniyatlararo muloqotning etik me’yorlari, ehtiyotkorlik zarurati va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq tamoyillar nazariy asoslangan holda yoritildi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik asoslar tadqiqot mavzusini kompleks yoritishga imkon berdi. Falsafiy-tahliliy, qiyosiy, manba va tarixiy-uslubiy yondashuvlarning uyg‘unligi globallashuv va madaniyatlararo muloqot masalasini nazariy hamda amaliy jihatdan chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

Tadqiqot nazariyasi. Globallashuvga berilgan ta’riflar ko‘p bo‘lsa-da, uning asosiy xususiyatlarini keng qamrab olgan ta’riflardan biri fransuz tadqiqotchisi B. Bandi tomonidan berilgan bo‘lib, unda globallashuvning uch o‘lchovi ta’kidlanadi: globallashuv - uzluksiz davom etadigan tarixiy jarayon; globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni; globallashuv - milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.[11]

Globallashuv zamonaviy davrda murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uning ta’siri iqtisod, siyosat va madaniyat sohalarida turlicha namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, bugungi kunda global jarayonlarga nisbatan ikki asosiy yondashuv mavjud: tarafdorlar (globalistlar) va muxoliflar (antiglobalistlar). Globalistlar safida ko‘proq siyosatchilar, tadbirkorlar va davlat arboblari bo‘lsa, antiglobalistlar orasida kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyati faollari va yoshlarga oid tashkilotlar vakillari ko‘p uchraydi.[12]

Hindiston siyosiy arbobi Mahatma Gandi globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini quyidagi o‘xshatma orqali izohlagan: “Men uyimning eshik va derazalarini yopib qo‘ya olmayman, chunki toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, kirayotgan shamol dovul bo‘lib, uyimni vayron qilishini ham istamayman”[13] Bu o‘xshatma globallashuv jarayoniga tanqidiy va ehtiyotkorona yondashish zarurligini ifodalaydi.

Globallashuvga ochiq bo‘lish bir tomondan zamonaviy bilim, texnologiya va madaniy yutuqlarni qabul qilish imkonini bersa, boshqa tomondan milliy ma’naviyatga yot g‘oyalar va vayronkor oqimlar kirib kelish xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, madaniyatlararo muloqot doirasida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, boshqa xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan qarash, ammo tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir.[14]

Yoshlarning axloqiy tarbiyasida ham globallashuv omillari hisobga olinishi lozim. Chunki zamonaviy global muammolardan bo‘lgan giyohvandlik, OIV kabi illatlar ko‘pincha yoshlar muhitidagi salbiy ta’sirlar - noto‘g‘ri tanlangan do‘stlar va nazoratsizlik natijasida yuzaga keladi. Shu bois, ota-ona va jamiyat yoshlarning kim bilan do‘stlashishi, qanday axloqiy muhitda bo‘lishini nazorat qilish orqali ularning global salbiy oqimlarga berilib ketishining oldini olishi mumkin [15]

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni o‘zining ko‘p qirrali mohiyati bilan ajralib turadi va uning ijobiy hamda salbiy oqibatlari bir vaqtda namoyon bo‘lmoqda.

Avvalo, klassik va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Giddens globallashuvni ijobiy taraqqiyot va integratsiyaning muhim omili sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Robertson bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan baholab, uni “mahalliylik va globalizm uyg‘unligi” deb izohlaydi. Z.Bauman esa globallashuvning paradoksal tabiatini ko‘rsatib, bir tomondan, insoniyatni birlashtiruvchi, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy ziddiyatlar va tengsizliklarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatida tahlil qiladi.

Ikkinchidan, madaniyatlararo muloqot masalasi globallashuvning eng muhim qirralaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Habermas fikriga ko‘ra, turli madaniyatlar va jamiyatlar o‘rtasida muloqot erkinlik, tenglik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan holda kechmasa, globallashuv jarayoni ijobiy emas, balki ziddiyatli oqibatlarga olib keladi. Tadqiqot natijalaridan kelib

chiqadiki, madaniyatlararo muloqot ehtiyotkorlik, muvozanat va turli madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat asosida qurilgan taqdirdagina barqaror natija beradi.

Uchinchidan, O‘zbekiston tajribasi ham globallashuv jarayonida ehtiyotkorlik zarurligini tasdiqlaydi. Islom Karimov milliy o‘zlikni asrab-avaylashni globallashuv sharoitida eng muhim vazifa sifatida belgilab bergan. H. Boboyev esa globallashuvning muvaffaqiyatli kechishi milliy manfaatlar va xalqaro hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. M. Yo‘ldoshev esa madaniyatlararo muloqotni ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Ushbu fikrlar globallashuvning ijobiy tomonlarini qabul qilish bilan birga, salbiy oqibatlarga nisbatan ehtiyotkorlik choralarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari globallashuvning ijobiy imkoniyatlarini ham ko‘rsatdi: iqtisodiy integratsiya, madaniyatlararo hamkorlik, ilmiy-texnologik taraqqiyot va inson huquqlarining kengayishi. Biroq, shu bilan birga, salbiy jihatlari ham aniqlandi: milliy qadriyatlarning so‘nishi, jamiyatlarda madaniy homogenlashuv xavfi, turli madaniyatlar o‘rtasida tushunmovchilik va to‘qnashuvlarning kuchayishi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonida ehtiyotkorlik tamoyili asosiy ahamiyatga ega. Bu tamoyil milliy qadriyatlarni saqlagan holda, umuminsoniy qadriyatlarga moslashishni ta’minlash, madaniyatlararo muloqotni sog‘lom asosda olib borish va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tadqiqotning nazariy asosini globallashuv va madaniyatlararo muloqot masalasiga oid klassik va zamonaviy falsafiy hamda sotsiologik qarashlar tashkil etadi. Globallashuv hodisasini tushunishda bir nechta ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri tadqiqotning nazariy poydevorini belgilab beradi.

Avvalo, *modernizatsiya nazariyasi* globallashuvni jamiyatlarning tabiiy taraqqiyot jarayoni sifatida talqin qiladi. A. Giddens nazariyasiga ko‘ra, globallashuv zamon va makonning siqilishi, ya’ni texnologik rivojlanish va ijtimoiy aloqalarning tezlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bu yondashuv globallashuvni taraqqiyotning muqarrar bosqichi sifatida ko‘radi.

Boshqa bir yondashuv – *madaniy integratsiya nazariyasi* bo‘lib, R. Robertson globallashuvni mahalliylik va globalizm uyg‘unligi sifatida talqin qiladi. U ishlab chiqqan “glokalizatsiya” tushunchasi madaniyatlararo muloqotning nazariy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, globallashuv mahalliy madaniyatlarni yo‘q qilish emas, balki ularni yangi sharoitda qayta shakllantirish jarayonidir.

Z.Baumanning *postmodern yondashuvi* esa globallashuvni ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi tahdidlar manbai sifatida ham ko‘rsatadi.

Uning fikricha, globallashuv jamiyatni birlashtiruvchi kuch bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida yangi ijtimoiy tabaqalanish va tengsizliklarni ham yuzaga keltiradi.

Y. Habermasning *kommunikativ amaliyot nazariyasi* globallashuvning siyosiy va madaniy jihatlariga e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, globallashuvning barqaror rivojlanishi turli madaniyatlar va jamiyatlar o‘rtasidagi ochiq, adolatli va teng muloqot orqali ta’minlanishi mumkin. Bu nazariya madaniyatlararo muloqotda ehtiyotkorlik zaruratini tushuntirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik mutafakkirlarning qarashlari ham tadqiqotning nazariy asosini boyitadi. I. Karimov milliy o‘zlikni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarga moslashish zarurligini uqtirib, globallashuv jarayonini milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda tushuntirgan. H. Boboyev va M. Yo‘ldoshev esa globallashuvning ijtimoiy barqarorlik, milliy manfaat va madaniyatlararo muloqotga ta’sirini tahlil qilib, uni ehtiyotkorlik bilan boshqarish zarurligini ko‘rsatgan.

Shunday qilib, tadqiqot nazariyasi globallashuvni bir yoqlama emas, balki kompleks hodisa sifatida o‘rganishga asoslanadi. Uning zamirida modernizatsiya, glokalizatsiya, postmodernizm va kommunikativ amaliyot nazariyalari yotib, ular milliy olimlarning qarashlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda tadqiqotga nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv zamonaviy davrning eng murakkab va qarama-qarshi jarayonlaridan biri sifatida insoniyat taraqqiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. U iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, milliy o‘zlik va madaniy qadriyatlarni yo‘qotish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun globallashuvni bir tomonlama baholash mumkin emas: u ijobiy va salbiy jihatlarni o‘zida birlashtirgan ko‘p qirrali hodisadir.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Habermasning kommunikativ nazariyasi asosida aytish mumkinki, bunday muloqot o‘zaro hurmat, tenglik va ochiqlik asosida olib borilgan taqdirdagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Aks holda, turli madaniyatlar va jamiyatlar o‘rtasida ziddiyat va tushunmovchiliklar kuchayishi ehtimoli ortadi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni saqlash va uni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish eng maqbul yo‘ldir. Shunday qilib, globallashuv jarayonida ehtiyotkorlik siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil milliy o‘zlikni asrab qolish, madaniyatlararo muloqotni sog‘lom asosda rivojlantirish va global taraqqiyotga moslashish imkonini beradi. Shu bois, globallashuvga yondashishda faqat integratsion

imkoniyatlarga emas, balki ehtimoliy tahdidlarga ham jiddiy e’tibor qaratish lozim. Umuman olganda, globallashuvning muvaffaqiyatli kechishi ehtiyotkorlik, o‘zaro hurmat va madaniy xilma-xillikka sodiqlik tamoyillari asosida amalga oshirilgandagina barqaror taraqqiyotga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Giddens, A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford University Press.
2. Karimov, I. A. (1996). O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O‘zbekiston.
3. Boboyev, H. (2001). Siyosatshunoslik asoslari. –T.: Universitet nashriyoti.
4. Yo‘ldoshev, M. (2010). Falsafa va madaniyatlararo muloqot. –T.: Ma’naviyat.
5. Giddens, A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford University Press.
6. Robertson, R. (1992). Globalization: Social Theory and Global Culture. Sage Publications.
7. Bauman, Z. (1998). Globalization: The Human Consequences. Columbia University Press.
8. Habermas, J. (2001). The Postnational Constellation: Political Essays. MIT Press.
9. Boboyev, H. (2001). Siyosatshunoslik asoslari. –Toshkent: Universitet nashriyoti.
10. Yo‘ldoshev, M. (2010). Falsafa va madaniyatlararo muloqot. –Toshkent: Ma’naviyat.
11. Bandi, B. (2001). Mondialisation et cultures. Paris: PUF.
12. Gandhi, M. (1999). Selected political writings. Hackett Publishing.
13. Giddens, A. (2000). Runaway world: How globalisation is reshaping our lives. Routledge.

YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHISH DINAMIKASI

Ergashev Ibodulla,

O‘zMU “Siyosatshunoslik” kafedrasi professori, s.f.f.d.

Safarov Muxlis Maxmudovich,

CHDPU “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tel: (97) 412-05-84

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston jamiyatida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish dinamikasini tahlil qilishga doir tadqiqotlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, yoshlar siyosiy ongi

va madaniyatini o‘zgartirishning uslubiy yondashuvlari va asosiy tendensiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy ong va madaniyat transformatsiyasi, qadriyat yo‘nalishlari, yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zgarishlar dinamikasi, adaptiv tip.

Jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishi asosan turli darajada sodir bo‘ladigan siyosiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish xususiyatlarini jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish orqali tadqiq etish mumkin. Negaki, jamiyatdagi mavjud o‘zgarishlar yoshlar siyosiy ong va madaniyatning trasformatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ayni paytda bu uning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida “Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha biz boshlagan ulkan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan asosiy kuch aynan yoshlarimizdir” [1] deb alohida ta’kidlaydilar. Darhaqiqat, bugungi kunda yangi O‘zbekiston jamiyatini isloh qilishda yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatida qanday siyosiy qadriyatlar shakllanishi dolzarb ahamiyatga egadir.

Jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyati transformatsiyasini jarayon sifatida o‘rganayotganda, mazkur transformatsiyalashuvning xususiyatlarini va ularni yoshlarning turli toifalari tomonidan idrok etilishini kognitiv darajada aks ettiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqish kerak. Siyosiy ong va madaniyatni transformatsiyalashishi nafaqat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitga, balki turli xil guruh sifatida yoshlarning mentalitetiga ta’sirini belgilaydi, qolaversa, bu shubhasiz Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi bunday o‘zgarishlar davlat siyosiy tizimining maqsadlari va tamoyillarida aks etishi bilan birga asosan uning yo‘nalishlarini ham oldindan belgilab beradi. Bu kabi jiddiy o‘zgarishlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining ichki tuzilishiga, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini transformatsiyalashish dinamikasining hozirgi bosqichi yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o‘zgartirish bilan bog‘liq barqaror rivojlanish istiqbollari bilan tavsiflanadi. Bu ma’lum darajada barcha sohalarda, shu jumladan siyosiy sohada aks ettirilgan tizimli qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasidir. Sorokinning fikricha, “mavjud jamiyatdagi har qanday ijobiy va salbiy o‘zgarishlar dinamikasi shaxslar va guruhlarning ongida aks etadi” [2]. Shu ma’noda, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish dinamikasini

hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati shundaki, jamiyatdagi konsolidatsiya, barqarorlik va tartib, barqaror va mutanosib rivojlanishga bo‘lgan jamoatchilik talabi ortib bormoqda, bu ko‘plab ijtimoiy guruhlarning, shu jumladan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatida o‘z ifodasini topmoqda. Bizningcha, yoshlarning alohida rolini hisobga olgan holda, ularning siyosiy ongi va madaniyatida shakllanadigan siyosiy qadriyatlar shakli va munosabatlari yangi O‘zbekiston jamiyatining siyosiy tizimining yanada rivojlanishini belgilaydi.

Zero, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish dinamikasi bir tomondan, u avvalgi bosqichning to‘plangan ziddiyatlarini aks ettiradi, ikkinchidan - paydo bo‘lgan, ammo to‘liq shakllanmagan va tubdan qarama-qarshi bo‘lgan yangi ijtimoiy-madaniy islohotlarni o‘zida namoyon etadi. Bu haqda Shtompka shunday deydi: “ijtimoiy noaniqlik muammosi va uning yoshlar siyosiy ongiga ta’siri hali ham fanda yetarlicha o‘rganilmagan” [3]. Demak, Shtompka fikridan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, zamonaviy nazariy ishlanmalar va empirik tadqiqotlar aniqlikdan noaniqlikka o‘tish davrida siyosiy tartib asoslarini tubdan o‘zgartirish sharoitida ong va xulq-atvor shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini asoslashni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Bizning izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra ham jamiyatning aniqroq holatiga o‘tishning belgilangan jarayonida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishning futurologik asoslarini o‘rganish yangi qonuniyatlar va tendensiyalarni ochib beradi. Shuning uchun aynan yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish, siyosiy ong va madaniyat xususiyatlarini hamda uni ijtimoiy-madaniy tartibga solish usullarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o‘rganishda reproduktiv va riskologik yondashuvlardan foydalanish ushbu hodisani maxsus ijtimoiy-demografik guruh sifatida siyosiy-sotsiologik o‘rganish konsepsiyasini ishlab chiqishga, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida uning muhim xususiyatlarini ta’kidlashga imkon beradi [4]. Ammo, biz Mertondan farqli ravishda yoshlarni jamiyatning bir qismi sifatida tavsiflaydigan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyati, boshqa yosh guruhlari ongidan farqli ravishda o‘ziga xos shakllariga ega ekanligini ta’kidlaymiz. Yana shuni ham aytib o‘tishimiz lozimki, ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning mustaqilligi ularning funksiyalari bilan belgilanadi, deb aniq ayta olamiz. Bu o‘rinda yoshlar quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajaradilar: birinchisi, tarixiy tajribaning uzluksizligi, ikkinchisi, uni innovatsion o‘zgartirish va uchinchisi, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasidir [5]. Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida o‘z tarkibida geterogendir. U turli qatlamlardan yoshi, iqtisodiy, ijtimoiy-

madaniy va boshqalar bo‘yicha ajratib turadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongidagi farqlanishni ham yuzaga keltiradi, deb ko‘rsatadi, tadqiqotchi V.Yulov [6]. Uning fikricha, “yoshlar o‘tish bosqichida, bu ularning ijtimoiy mavqeining o‘tish xususiyatini belgilaydi” [7]. Bizningcha ham yoshlarning bir ijtimoiy bosqichdan ikkinchisiga o‘tishlari yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasining marginalligini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining muhim xususiyatlarida aks etadi.

Shuningdek, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyati o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Yoshlarning ijtimoiy mavqeining o‘tish davri tabiati ularning siyosiy ongi va madaniyati transformatsiyasi uchun asos bo‘lib, u siyosiy g‘oyalar va pozitsiyalarning beqarorligida, siyosiy voqealarni ko‘p talqin qilishida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyati xavf va marginallik bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy haqiqat hodisalarini talqin qilishda o‘z g‘oyalariga haddan tashqari ishonib qarashlar va harakatlarga sodiqlikni aks ettiradi. Ijtimoiy-madaniy sharoitdagi farqlar yoshlar guruhlarida transagressivlikni shakllantiradi, bu shaxslarning ijtimoiy chegaralarini buzish, o‘zlarini hozirgi kunga yo‘naltirish uchun kelajakka qarash istagi bilan ifodalanadi [8].

Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish ushbu toifaning ijtimoiy-siyosiy mazmunini aniqlashga imkon beradi. Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini jamiyatning siyosiy hayotidagi siyosiy tizimning mohiyati, prinsiplari va real jarayonlari to‘g‘risidagi oqilona va hissiy, nazariy va empirik, ongli va ongsiz g‘oyalarni uning jarayonida paydo bo‘ladigan guruh va individual manfaatlar bilan bevosita bog‘liq holda aks ettirish qobiliyati deb tushunish kerak. Ayni paytda uning shakllanishi yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashuvida muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashishi sharoitida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatdagi o‘zgarishlarning ob’ektiv va sub’ektiv xavf omillari ko‘pchilik soha olimlarining nazarida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongiga ta’sirini kuchaytiradi [9]. Shunday qilib, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatidagi yana bir qarama-qarshilik uchun shartlar paydo bo‘ladi va bu ob’ektiv faoliyatga asoslangan xavf shakllari sifatida o‘zini namoyon etadi. Tadqiqotlar jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini aniqlash ularni siyosiy ongi va madaniyatidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini yaratadi. Ijtimoiy-madaniy mexanizmlar - bu yoshlarga siyosiy makonda harakat qilish va siyosiy munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatini beradigan, siyosiy me’yorlarni, siyosiy qadriyatlarni tan olish va qabul qilish protseduralarining tizimidir. Ushbu mexanizmlar siyosiy qadriyatlarni, ideallarni, qadriyatlarni tartibga soladi, ularning yordami bilan

yoshlarning siyosiy yo‘nalishlari va siyosiy xatti-harakatlarini bashorat qilinadigan yo‘nalishda boshqaradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga o‘tish sharoitida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining mafkuraviy yo‘nalishidagi aniqlik darajasini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlarining o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida yetakchi rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent; «O‘zbekiston» NMIU. 2020. – 456 b.
2. Сорокин О.В. Формирование политического сознания молодежи в условиях трансформации современного российского общества (социокультурный аспект). –М. : 2008. - 34 с.
3. Штомпка, П. Социология. Анализ современного общества. –М.: Логос, 2005. –664 с.
4. Мертон, Р. К. Социальная теория и социальная структура. Социальная структура и аномия // Социс. 1992. - № 2 - 4. 29 с.
5. Тощенко, Ж. Т. Фантомы общественного сознания и поведения // Социология. –М.: Академический проект, 2005. - № 1. –С. 92 - 107.
6. Юлов, В. Ф. Мышление в контексте сознания. –М.: Академический Проект, 2005.-496 с.
7. Юлов, В. Ф. Мышление в контексте сознания. –М.: Академический Проект, 2005. –476 с.
8. Проблемы политических ценностей в условиях трансформации режима: научный ежегодник Томского МИОН-2003 / Под ред. А.И. Щербинина. –Томск : Том. ун-т, 2004. 252 с.
9. Чупров, В.И., Зубок, Ю. А. Молодежь в общественном воспроизводстве: проблемы и перспективы. –М.: РИЦ ИСПИ РАН, 2000. - 116 с.

O‘ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI VA SAYLOVLAR MUSHTARAKLIGI

Davron Muitov,

O‘zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasi professori,
siyosiy fanlar nomzodi

Zamonaviy demokratiyaning eng muhim tamoyillari oldinga surilayotgan davrda yashayapmiz. Albatta bu odamlarning saylov huquqi, o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish huquqi doirasida yaqqol ko‘zga tashlanadi . Ayni shu holatning o‘zi O‘zbekistonda mazkur demokratik tamoyilning to‘la ta’minlanishish uchun

haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratib berish dolzarbligini yanada tasdiqlayotir. Bugungi globalashuv bilan bog‘liq davrda siyosiy madaniyatning farqlanishi ko‘p jixatdan Ijtimoiy va axborot muhiti darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Zotan xarqanday Erkin OAV va siyosiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta’lim fuqarolik madaniyati va tanqidiy qarashni rivojlantiradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizda siyosiy barqarorlik mazmuni, saylov qadriyati tushunchalarining ulug‘lanishi mamlakatda demokratik davlat va jamiyat tamoyillarining tobora kuchayib borishiga xizmat qilmoqda. Buni so‘nngi yillarda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida erkin va adolatli saylov o‘tkazish bo‘yicha katta tajriba isbotlab turibdi. Bunday shaklda o‘tkazilayotgan turli darajadagi saylovlar xalqimiz ongi va kayfiyatida ijobiy o‘zgarishlar yasadi, bu muhim siyosiy jarayonga munosabatni o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda saylov huquqi esa fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan biri bo‘lib, uning vositasida davlat hokimiyatining vakillik organlari tashkil etilmokda. O‘zbekiston fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida belgilanganidek jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqlarini amalga oshirmoqda. Shu tariqa saylovlar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining eng muhim shakllaridan biriga aylanmokda.

Zero kuchli fuqorolik jamiyatida demokratiyaning siyosiy tizim bilan qay darajada bog‘liqligi ana shu xolatlar bilan namoyon bo‘ladi .Bunda har kanday siyosiy tizim subyektlarining jamiyat hayotiga qiladigan ta’sir kuchi, uning xalq ommasi manfaatlariga xizmat qilishi bilan darajasi belgilanadi. Demokratiya saylov tizimi bilan uzviy bog‘liq. Demak Prezidentlik uchun olib boriladigan saylov jarayonlarida xalk xokimiyatining eng ta’sirchan mexanizmi bo‘lgan saylovlar hisobidan munosib nomzodlar o‘z dasturlarini amalga oshirish, o‘z maqsadiga yetish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘zbekistonda demokratiya va saylov tushunchalari shu tarika doimo bir biriga esh, yonma-yon yuradi. Shu jihatdan olganda, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni erkin saylovlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda prezidentlik uchun olib boriladigan saylov jarayoni saylov kampaniyasini e’lon qilish, saylov komissiyalarini tuzish, nomzodlar ko‘rsatish, ularni ro‘yxatga olish va saylovga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator bosqichlardan iboratdir.

Ikkinchidan, mamlakatimiz hayotidagi siyosiy-huquqiy jarayonlar navbatdagi saylovlarning yanada takomillashgan qonunlar asosida amalga oshirilishini ta’minlamoqda. Ma’lumki Prezidentimiz Sh.Mirziyov Oliy Majlisga qilgan birinchi murojaatnomasidayoq «Shu o‘rinda siyosiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan saylov qonunchiligi haqida ham

to‘xtalib o‘tmoqchiman. Bu borada qabul qilingan 6 ta qonun va bir qator qonunosti hujjatlari, afsuski, haligacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmagan. Shu sababli xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim.»- deb ta’kidlagan edilar. Ya’ni aynan Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan Yangi O‘zbekistonda bugun saylov qonunchiligi yanada rivojlanish, takomillashish yo‘liga o‘tib ulgurildi.

Natijada jadal suratlarda yurtimizda kechayotgan demokratik o‘zgarishlar sharoitida davlat hokimiyati organlarini saylovlar yo‘li bilan tashkil etish borasida xalqaro andozalarga mos keladigan ijobiy tajriba jonlantirildi. Endilikda yetakchi xorijiy ekspertlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasida saylov qonunchiligining vujudga kelishi, rivojlanishi hamda saylov amaliyoti – demokratik islohotlarning tarkibiy qismi sifatida baholanmokda.

Ayni saylovga oid qonunlar tezlikda tizimlashtirildi hamda qo‘shimcha o‘ttizdan ortiq muhim demokratik qoida-talablar kiritildi. Alal okibat ular aso¬sida qabul qilingan Saylov kodeksi mazkur demokratik jarayonlarga yangicha ruh berdi.

Markaziy Saylov Komissiyasi tomonidan saylov jarayoniga masul mutaxassis kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash doirasida ulkan ishlar olib borilmokda. Butun Respublika bo‘ylab saylov uchastkalari raisi, o‘rinbosar va kotiblari uchun maxsus o‘quv seminar treninglar tashkil kilindi. Hozirda saylovchilarning yagona elektron ro‘yxati joriy etilgan, siyosiy partiyalarning sog‘lom raqobat olib borishi uchun teng shart-sharoitlar yaratildi. Saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tadbirlar dasturi ishlab chiqildi, jumladan Dasturda mazkur siyosiy jarayon yanada oshkoralik ruhida o‘tishini ta’minlaydigan yangi, ilg‘or amaliyotni joriy etishga alohida e’tibor qaratildi.

Saylovlarda siyosiy partiyalarning yanada faollashganligini kuzata boshladik. Jamiyatda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning tadrijiy demokratlashib borayotganligini aks ettirish barobarida, saylov jarayonlarida siyosiy partiyalarning mavqei oshishi ta’minlamokda. Siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning takomillashganligi ularni yanada faol harakatlantirmokda.

Siyosiy barqarorlik mazmuni xakida xotirjam akl- idrok va bosiklik bilan fikrlaydigan bo‘ldik. Demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lini tanlagan O‘zbekiston eng ilg‘or demokratik tamoyillarga asoslangan saylov tizimini yo‘lga qo‘ydi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning saylov huquqiga oid me’yorlari talablariga mos keluvchi qoida Konstitutsiyada o‘rnatilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i

Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

Ana shunday shaklda yangi O‘zbekiston sharoitida saylovlar nafaqat demokratiyaning muhim belgisi va ko‘rinishi, balki uning zaruriy shartiga aylanadi. Zero, Inson xuquqlari Umumjahon De¬klaratsiyasida: “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali o‘z mamlakati boshqaruvida qatnashish xuquqiga egadir. Xalq irodasi xukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi kerak: bu iroda yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta’minlovchi boshqa shunga teng ahamiyatli ko‘rinishlardagi umumiy va teng saylov huquqi asosida ifodalanishi kerak” deya belgilangan.

Yangi O‘zbekiston tanlagan yo‘l — inson manfaatlari to‘la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidir. Bu albatta, inson ongi va tafakkurini o‘zgartirish, turmush tarzini yangilash orqali ochiq jamiyatni vujudga keltirishning yaxlit va to‘laqonli tizimini ishlab chiqishni, mazkur tizimni ijtimoiy amaliyotga yo‘naltirish yo‘riqlarini barpo etishni taqozo etmoqda.

Bu borada, ayniqsa, mamlakat Prezidenti saylovi alohida o‘ringa ega. Mazkur saylovning muhim ahamiyati shundaki, uning natijasida davlat boshlig‘i saylanibgina qolmay, balki, jamiyat a’zolarining xohish-istaklari, kayfiyati, davlat siyosatiga real munosabati aniqlanadi. Bu jarayonda konstitutsiyaviy asosda o‘rnatilgan va taraqqiyotning muhim omillaridan hisoblangan fikrlar xilma-xilligi ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Aytish joizki joylarda turli xil shaklda trener murabbiy, tashabbuskor jamiyat vakillari tomonidan turli yoshdagi fuqarolarning saylov bilan bog‘liq masalalar oson va asoslantirilgan tarzda tushuntirilmokda.

Yangi O‘zbekiston doirasida oldinga surilgan g‘oyalar esa jamiyatni yangilash zaruratini chuqur anglaydi va bu zarurat xayot-mamot mohiyatiga, xar bir fuqaro taqdiriga, ma’naviy va ruhiy ehtiyojiga, asrlar mobaynida shakllangan va dunyoqarashiga bog‘liq xolatlar bilan belgilanadi.

Hozirgi pallada respublikamizning ijtimoiy-siyosiy siyosati hayoti qizg‘in pallaga kirdi. Biz bugun demokratik islohotlarning shiddatli tus olayotgan va yangi demokratik qadriyatlar taraqqiy etishi shart bo‘lgan davrda yashamoqdamiz. Bu ko‘p jihatdan siyosiy saylovlar mazmuniga va uning tashkiliy jihatlariga, ayniqsa yosh fuqorolarimizning fuqorolik pozitsiyasi va faolliga bog‘liq jarayondir. Ana shunda har qanday saylov jarayoni xalqimizning chinakamiga demokratik kadriyatiga aylanadi. Yuqorida ta’kidlangandek, bugun O‘zbekiston dunyoga saylovlar masalasi bo‘yicha ulkan tajriba to‘plagan, saylovlarni tinch osoyishtalikda o‘tkaza oladigan mustaqil demokratik davlat sifatida o‘zini tanita oldi. Yana bir tomoni mamlakatimiz fuqarolari yildan-yilga saylovning jamiyat hayotidagi muhim mezon ekanligini

anglab, tushunib, o‘zlashtirib bormoqdalar. Muxtasar qilib aytganda, bugun saylovchilarning ijtimoiy hayotga, davlat va jamiyat boshqaruviga munosabati tubdan o‘zgardi, ular ongida demokratik tafakkur ildiz otdi va shakllandi.

Biz *keyingi yillardagi ochiqlik, insonparvarlikka asoslangan islohotlar saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish jarayonida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda degan fikrlarga qo‘shilamiz*. Chunki ayni shu jihat davlat va kuchli fuqorolik jamiyatning sifat jihatdan yangilanishiga xizmat qilmoqda. Bu notinch dunyoda hayotida siyosiy barqarorlikning o‘zbekiyona ifodasi sifatida bizning tafakkurimiz, dunyoqarashimizda o‘rin olmoqda. Bu eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o‘zgartirishni taqozo etadi. Odamlar o‘z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish, xaq-huquqlarini himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglamog‘i lozim. Saylash va saylanish huquqi ayni har bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini belgilovchi omil sifatida o‘zini ko‘rsatmog‘i darkor. Buning uchun O‘zbekistonda saylovlar o‘tkazishning barcha demokratik tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar jahon saylov o‘tkazish tajribalari asosida dunyoga kelgan va shakllanmokda

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-JILD / Sh.M. Mirziyoyev. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-JILD / Sh.M. Mirziyoyev. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-JILD / Sh.M. Mirziyoyev. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –T.: “O‘zbekiston”. 2021. –457 b.
7. Saylov qonunchiligi va amaliyoti bo‘yicha o‘quv-amaliy qo‘llanma. – T.: «Adolat» milliy huquqiy /axborot markazi 2021 y. – 192. b.

YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA TUB BURILISH JARAYONI

Masharipov Ikramjon Batirovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, siyosiy fanlar doktori (DSc)
ikrommasharipov1967@gmail.com
ORCID iD: 0009-0009-1024-3384

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida amalga oshirilayotgan tub siyosiy, huquqiy va institutsional islohotlar tahlil qilingan. Muallif fuqarolik jamiyati institutlari mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda siyosiy partiyalarning faoliyatini Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida o‘rganib, ularning inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi, yoshlar hamda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rnini yoritgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, siyosiy partiyalar, yangi O‘zbekiston, demokratik islohotlar, jamoatchilik nazorati, mahalla instituti, yoshlar faolligi, gender siyosat.

Kirish. Fuqarolik jamiyati har qanday demokratik davlatning negizi, uning siyosiy tizimini barqarorlashtiruvchi muhim omildir. Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yangicha siyosiy muhit, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni bir-biridan ajralmas, uzviy bog‘liq tizim sifatida rivojlantirishimiz zarur”. Bu jarayonning mohiyati shundaki, fuqarolik jamiyatini qurish faqat davlatning vazifasi emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari — siyosiy partiyalar, mahalla, OAV, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning hamkorligida amalga oshiriladi.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy poydevori 2016 yildan keyin tubdan yangilandi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 y.) fuqarolik jamiyatini davlat bilan birgalikda ijtimoiy hayotni boshqarishda teng ishtirok etuvchi sub’ekt sifatida belgiladi. Konstitutsiyaning 14-moddasida:“Davlat jamiyat oldida mas’uldir, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi va ularning davlat hamda jamoat ishlarida ishtirokini ta’minlaydi”, deb qayd etilgan. Bu esa fuqarolik jamiyati va siyosiy institutlarning huquqiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunlar hamda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunlar fuqarolik jamiyati sub’ektlarining institutsional faoliyatini kafolatladi.

Adabiyotlar tahlili. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy tahlillar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, bu sohadagi ilmiy izlanishlar asosan Prezident Sh.M. Mirziyoyev asarlari, milliy qonunchilik bazasi, hamda ilmiy-nazariy tadqiqotlar asosida shakllanmoqda.

Birinchi navbatda, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”) hamda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yilida demokratik islohotlarni yangi bosqichga olib chiqamiz” asarlarida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konseptual asoslari belgilab berilgan. Davlatimiz rahbari jamiyatni isloh qilishda fuqarolarning tashabbuskorligi, jamoatchilik nazorati va mahalla institutining o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Bu fikrlar Yangi O‘zbekiston siyosatidagi fuqarolik jamiyati tushunchasini davlat va jamiyat munosabatlarining asosiy ustuni sifatida ifoda etadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil) fuqarolik jamiyatini davlat boshqaruvida teng ishtirok etuvchi sub’ekt sifatida e’tirof etishi milliy huquqiy fikrdagi yangi bosqichni belgilaydi. Shu bilan birga, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlar fuqarolik institutlarining huquqiy va institutsional mustaqilligini mustahkamladi. Bu hujjatlar fuqarolarning davlat qarorlarida faol ishtirok etishini ta’minlash uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, 2022 yilda qabul qilingan PF–60-sonli Prezident farmoni (“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”) fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni milliy rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi. Unda jamoatchilik nazorati, nodavlat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik eshituvlari va ochiq davlat boshqaruvi kabi yangi mexanizmlar nazarda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini kuchaytirishga zamin yaratdi.

M. Qirg‘izboyevning “Fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy asoslari” nomli maqolasida fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy tizim bilan o‘zaro bog‘liqligi, ularning demokratik jarayonlardagi ishtiroki keng yoritilgan. Uning fikricha, Yangi O‘zbekistonda fuqarolik institutlari davlat va jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajara boshladi. Shuningdek, N. Jo‘rayev, S. Saidov, F. Davronova kabi mualliflar o‘z asarlarida jamoatchilik nazorati, siyosiy madaniyat va gender siyosatning fuqarolik jamiyatini mustahkamlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ular fuqarolik faolligi, jamoatchilikning davlat qarorlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari va aholining ijtimoiy ongini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotchilar J. Habermas, L. Daymond va E. Giddens asarlari fuqarolik jamiyati nazariyasining falsafiy va siyosiy-huquqiy

asoslarini yoritib beradi. J. Habermasning “Between Facts and Norms” asarida jamoatchilik muloqoti, huquqiy davlat va fuqarolik ishtirokining qonuniy asoslari tahlil qilingan. L. Daymond demokratik konsolidatsiya jarayonida fuqarolik jamiyatining institutsional rolini tadqiq etgan bo‘lsa, A. Giddens fuqarolik faolligini “uchinchi yo‘l” (The Third Way) konsepsiyasida ijtimoiy adolat va hamjihatlik mezonlari bilan bog‘laydi. OECD (2020) tomonidan nashr etilgan “Civic Engagement and Open Government” tahlilida fuqarolik faolligini oshirish va ochiq hukumat tamoyillarini amaliyotga joriy etishning xalqaro tajribasi yoritilgan bo‘lib, u Yangi O‘zbekistondagi demokratik modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy uyg‘unlikda ekanligi ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari milliy konsepsiyalar, konstitutsiyaviy islohotlar va mahalla instituti faoliyati orqali shakllanmoqda. Ilmiy manbalar fuqarolik jamiyatini davlat boshqaruvining sherigi sifatida qarash, yoshlar va xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillarini institutsionallashtirishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

Metodologiya. Maqolada Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda siyosiy-falsafiy, tizimli, institutsional va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida Prezident Sh.M. Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston islohotlariga oid g‘oyalari, J. Habermasning jamoatchilik muloqoti nazariyasi, L. Daymond va A. Giddensning fuqarolik jamiyati va demokratiya haqidagi konsepsiyalari olindi. Tadqiqotda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy va institutsional poydevorini tahlil qilishda tarixiy-tahliliy va kontent-tahlil usullari qo‘llanildi. Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari va davlat dasturlari mazmuni orqali fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali O‘zbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlardagi fuqarolik jamiyati modellari bilan solishtirildi. Shuningdek, yoshlar va xotin-qizlar ijtimoiy faolligi, mahalla instituti va jamoatchilik nazorati tizimidagi islohotlar empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishida tub burilish jarayoni amalga oshmoqda. Mamlakatda 2016 yildan boshlab siyosiy, huquqiy va institutsional islohotlar fuqarolik jamiyatining barcha ustunlarini siyosiy partiyalar, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar faolligini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolik jamiyatini davlat bilan birgalikda ijtimoiy hayotni boshqaruvchi sub’ekt sifatida belgiladi. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunlar esa fuqarolar tashabbusini amalga oshirish, jamoatchilik fikrini davlat boshqaruvida inobatga olish uchun huquqiy asos yaratdi.

Mahalla instituti milliy fuqarolik jamiyati modeli sifatida davlat va fuqaro o‘rtasidagi muloqot ko‘prigiga aylandi. Uning faoliyatida “Oila–mahalla–maktab” hamkorligi, “Yoshlar yetakchisi” va “Xotin-qizlar faoli” tizimlari orqali ijtimoiy faollik va mas’uliyat darajasi oshdi.

Yoshlar va xotin-qizlarning siyosiy hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari (masalan, “Yoshlar Yangi O‘zbekiston qurilishining hal qiluvchi kuchi”, “Gender tenglik strategiyasi”) fuqarolik jamiyatining insonparvar va demokratik mazmunini mustahkamladi.

Shu asosda quyidagi natijalarga kelindi:

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida institutsional asosga ega bo‘ldi.

Siyosiy plyuralizm, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillari amaliyotga joriy etildi.

Mahalla instituti fuqarolik jamiyatining milliy modeli sifatida o‘zining ijtimoiy, ma’naviy va birlashtiruvchi funksiyalarini kengaytirdi.

Yoshlar va xotin-qizlar faolligini oshirish orqali fuqarolik jamiyatining ijtimoiy dinamikasi kuchaydi.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotning yangi shakllari – raqamli platformalar, ommaviy eshituvlar va fuqarolik tashabbuslari rivojlandi.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni demokratik islohotlarning markazida turibdi. Bu jarayon inson qadrini ulug‘lash, ochiq davlat boshqaruvini shakllantirish va fuqarolarning ijtimoiy faolligini ta’minlash orqali mamlakatning barqaror demokratik taraqqiyotini ta’minlaydi.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning markaziy yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonning asosida inson qadrini ulug‘lash, ochiq va samarali davlat boshqaruvini shakllantirish, fuqarolarning ijtimoiy hamda siyosiy faolligini ta’minlash kabi ustuvor tamoyillar mujassamlashgan. Shu orqali mamlakatda fuqarolik jamiyatining huquqiy, institutsional va mafkuraviy poydevori barqaror shakllanib bormoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati rivojlanishida tub burilish bosqichi kuzatilmoqda. Bu jarayonning markazida inson, uning huquq va erkinliklari, shaxsiy qadri va faol fuqarolik pozitsiyasi turadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari siyosiy partiyalar, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati yangi mazmun va sifat kasb etdi. Ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanat va sheriklik tamoyillarini ta’minlovchi muhim institutlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, siyosiy partiyalar faoliyatida yangi tendensiyalar kuzatilib, ular jamiyat manfaatlarini davlat siyosatlariga yo‘naltiruvchi muhim demokratik

mexanizm sifatida shakllandi. Partiyalar orqali siyosiy raqobat muhiti kengaydi, parlament faoliyati samaradorligi oshdi, jamoatchilik nazorati va fuqarolik faolligi yangi bosqichga ko‘tarildi.

Natijada, Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati endi nazariy g‘oya yoki konseptual tamoyil darajasida emas, balki amaliy hayotda faoliyat yurituvchi, jamiyatni boshqarishda ishtirok etuvchi real siyosiy va ijtimoiy tuzilma sifatida qaror topmoqda. U mamlakatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, davlat va jamiyat munosabatlarini hamkorlik va ochiqlik asosida rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yilida demokratik islohotlarni yangi bosqichga olib chiqamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). –Toshkent: Adolat, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2021-yil 15-fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2018-yil 13-aprel.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). Adolat, 2022-yil 21-iyul.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2023-yil 10-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoni “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – lex.uz, 2022 yil 28 yanvar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5270-sonli Qarori “Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – lex.uz, 2022 yil 7 iyun.
10. Masharipov I.B. O‘zini o‘zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy bo‘g‘ini. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
11. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy asoslari. –Toshkent: Akadem nashr, 2022.
12. Saidov S. Demokratiya va fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Fan, 2020.
13. Jo‘rayev N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy madaniyatning ahamiyati. – Ijtimoiy fikr, 2022, №3.

14. Xolov A. Yangi O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati va fuqarolik faolligi. – Jamiyat va boshqaruv, 2023, №2.
15. Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimini isloh qilish va uning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni. –Toshkent: Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi, 2023.
16. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: Prezident Devoni, 2020.
17. Masharipov I., Soatov U. Youth Social Activity in the Context of Civil Society Development in New Uzbekistan. – Society and Innovations Journal, 2024, Vol. 5(2).
18. Habermas J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: MIT Press, 1996.
19. Diamond L. Developing Democracy: Toward Consolidation. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1999.
20. Giddens A. The Third Way: The Renewal of Social Democracy. – Cambridge: Polity Press, 1998.
21. OECD. Civic Engagement and Open Government. – Paris: OECD Publishing, 2020.

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA INSON QADRINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

Qolqanov Nuriddin Tashpulatovich,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
2-darajalai yurist

Annotatsiya: maqolada Yangi O‘zbekistonda Prezident SH.Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Muallif inson qadrini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlarning huquqiy-ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarni mamlakatning ma’naviy siyosatining ustuvor vazifalari sifatida baholaydi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutq misolida O‘zbekistonning jahon hamjamiyati oldidagi tashabbuslari va ularning barqaror taraqqiyot strategiyasidagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Maqolada ta’lim islohotlari, yoshlar va ustozlar masalasi, madaniy merosning targ‘ibi, demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash hamda yoshlar siyosatini takomillashtirishga oid tahlillar o‘rin olgan. Umuman, yangi islohotlar O‘zbekistonning xalqaro imijini kuchaytirish, jamiyatda demokratik munosabatlar va fuqarolik jamiyati qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qilayotgani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, BMT, Bosh Assambleyasi, ma’naviyat, ijtimoiy barqarorlik, inson qadri, ma’rifat, ta’lim, gender tenglik, yoshlar siyosati, tinchlik, bag‘rikenglik.

Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida ijtimoiy barqarorlik va inson qadrini yuksaltirish masalalarida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham inson qadrini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlarning huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash davlat ma’naviy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar mamlakatning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish va barqaror rivojlanish strategiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatda joriy etilgan hamda og‘ishmay amal qilinayotgan islohotlar o‘z mazmun-mohiyati bilan shu yurtning ichki qayta tiklanishi jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’rifatli jamiyat faqat ma’rifatli avloddangina iborat emas. Keng dunyoqarash, rivojlangan sanoat va yuqori texnologiyalar ma’rifat mezoni hisoblanmaydi. Bu – fikrlaydigan, tanqidiy tahlil qila oladigan, o‘z tarixi, o‘zgarishlari va kelajagini chuqur anglaydigan xalq.

Prezident Sh. Mirziyoyev ushbu tushunchani faqat ta’lim tizimi bilan cheklamaydi. U ma’rifatni milliy xavfsizlik, davlat boshqaruvi, sud-huquq, ommaviy axborot vositalari va hattoki mahalla tizimigacha singdirmoqda.

Ma’rifat – bu mustaqil fikrlaydigan, o‘z nuqtai nazarini bildirishdan qo‘rqmaydigan, taraqqiyotni anglagan insonni shakllantiradi. Bunday jamiyatni hech qanday kuch zaiflashtira olmaydi.

Bu qarash davlat konsepsiyasida “inson – jamiyat – davlat” tamoyilini hayotga tatbiq etishda muhim poydevor bo‘ldi. Uning “insonparvar davlat” degan tushunchasi ham aynan ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liq. Chunki davlat xalq uchun xizmat qilmog‘i lozim. U faqat moddiy emas, ma’naviy ehtiyojlarni ham to‘la qondirishga mas’uldir.

Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida mamlakat taraqqiyotining bosh manbai sifatida ilm va madaniyat ko‘rilmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi tarixiy nutqda bu haqda shunday keltiriladi: So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta’lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz.

Bu fikrlardan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’limni rivojlantirishdan ko‘zlagan bosh maqsadi ayon bo‘ladi. Zero, sifatli ta’lim taraqqiyot, farovonlik kafolatidir. Ushbu yo‘nalishda olamshumul ishlar amalga

oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy va undan keyingi ta’lim jahon standartlariga mos tarzda rivojlanmoqda. Zamonaviy O‘zbekistonda kitob o‘qish urfga aylanayotgani ham yaxshi ma’lum.

Amalga oshirishgan chora-tadbirlarning natijasi o‘laroq, bugun “mamlakatimizda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta’lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Eng asosiysi – o‘qituvchi va ustozlik kasbining obro‘si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz”.

Nutqning alohida jihatlaridan yana biri unda, yuqorida ta’kidlanganidek, ustozlarga ajratilayotgan e’tibordir. Davlatimiz rahbari BMT minbaridan turib nafaqat Imom Buxoriyni, balki Imom Moturidiy va Imom Termiziyni, shuningdek, ustozlarga ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan ezgu munosabatni ham birinchi bo‘lib tilga oldi.

“Buyuk ajdodlarimiz – mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini Birlashgan Millatlar Tashkilotida o‘tkazish niyatidamiz”, dedi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev. Haqiqatda bu buyuk zotlar har qancha e’tirofga, har qancha hurmatga munosibdir.

Bu bir qarashda oddiy gapdek tuyulishi mumkin, ammo zamonaviy davlat boshqaruvi tajribasida kamdan-kam rahbarlar bu tamoyilni amalda shunchalik tizimli ravishda joriy etganini ko‘ramiz.

Ilm va ma’rifatni rivojlantirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar, yangi ilmiy markazlar, xorijda tahsil olayotgan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, madaniy merosni o‘rganish va ommalashtirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslar – bularning barchasi ma’naviy taraqqiyotni milliy yuksalishning asosiy ustuni sifatida ko‘rishdan darak beradi.

Yangi O‘zbekiston bugungi kunda nafaqat tarixiy merosga ega davlat, balki ma’naviy qayta tiklanish jarayonining zamonaviy modeliga aylanmoqda. Bu jarayonda Shavkat Mirziyoyev shaxsiyati – nafaqat davlat rahbari, balki ma’naviy yetakchi, faqat o‘z xalqining emas, balki islom olamining ham iftixori sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shavkat Mirziyoyev – bugungi O‘zbekistonda nafaqat siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan, balki millat ma’naviyatini qayta tiklayotgan millatparvar, vatanparvar rahbardir. Uning shaxsiyatida ma’rifatparvarlik, tarixga va islom ilmlariga hurmat, bag‘rikenglik va ziyolilik mujassam.

Prezident Sh. Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonning me’mori sifatida uzoqni ko‘zlab amalga oshirayotgan ishlari – mamlakatni suratan va siyratan yangilash, dunyoda uning yangi imijini yaratish, xalqni azaliy orzulari ro‘yobi sari yetaklash hamda milliy qadriyatlardan suv ichgan demokratik islohotlar o‘zbekistonliklarning nafaqat hayotini, balki ongu tafakkurini ham o‘zgartirmoqda.

O‘zbekiston milliy madaniyatini yanada rivojlantirish, O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi va bilimini oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy merosi namunalarini asrab-avaylash hamda ommalashtirish, jahon madaniyati maydoniga faol integratsiyani olib kirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat sohasi vakillarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning madaniyat va ma’rifat sohalaridagi tashabbus va islohotlari nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro maydonda ham e’tirof etilmoqda. Uning yetakchiligida inson ma’naviyati, madaniy meros va ilmiy-ma’rifiy taraqqiyot ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, u zamonaviy O‘zbekiston ma’naviyatining ulkan yetakchisi sifatida tarixda qolishi muqarrar. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida O‘zbekiston “barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi O‘zbekistonni barpo etish” yo‘lidan ketmoqda. Buning uchun ortga qaytmas islohotlari izchil davom ettirilmoqda.

Bugun O‘zbekiston jahonning rivojlangan davlatlari qatori o‘z milliy qiyofasida, ya’ni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo‘lgan ijobiy an’analar va qadriyatlarni saqlab qolgan holda maydonga chiqmoqdi. Bu davr jamiyatimizda ayollarni ulug‘lash, davlat tomonidan ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishning dalili sifatida tarixda yorqin iz qoldiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning rolini bundan buyon ham mustahkamlashni maqsad qilganmiz. Keng mintaqamiz miqyosida esa Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o‘tkazib borish tarafdorimiz” degan fikrlarini baralla aytib o‘tdilar.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasida demokratik fuqarolik jamiyati qurish jarayonida jamiyatimizda yangicha siyosiy munosabatlar, yangicha siyosiy dunyoqarash, yangicha siyosiy madaniyat shakllanmoqda. Mazkur demokratik siyosiy madaniyatning taraqqiyot jarayonida xotin-qizlar manfaatlari yangi miqyosda va mazmunda namoyon etilishi, to‘laqonli amal qilinishi, jamiyat ongida muntazam joy olishi va nihoyat har qanday sharoitda o‘zligini yo‘qotmasligi lozim.

O‘zbekistonda uchinchi renessansni shakllantirish davrida xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat hamda ular hayotiy tajribasi, intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan bunyod etilayotgan jamiyat rivoji uchun foydalanish ana shu qurilayotgan davlatchilik asoslarining liberalligi va ilg‘orligidan dalolat beradi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonidagi bizning davlatchiligimiz uchun

muhim bo‘lgan masalalardan biri xotin-qizlarni bunyodkorlik jarayonlariga nechog‘li jalb etilishi, ularning bugungi kun jamiyatida qanchalik o‘zini kerakli idrok etishi masalasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida: “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”, deya ta’kidlagan.

Aytish lozimki, bugun dunyo miqyosida ayol huquqlariga inson huquqlari nuqtai nazaridan baho berish butun jahon taraqqiyparvar tafakkurida kechayotgan ijobiy o‘zgarishlar samarasidir. Shu bois, XXI asrda, barchamiz uchun demokratiya talablari, fuqarolik jamiyati qadriyatlari hamda ayollar masalasini huquqiy tamoyillarini tushuntirib berish va ana shu qadriyatlar hamohangligi va mutanosibligini to‘g‘ri anglab yetish ahamiyatlidir.

Ma’lumki, huquqiy davlatda inson butun ijtimoiy mexanizmning markazini tashkil etib, ushbu mexanizm uning manfaatlariga xizmat qiladi. Zero, inson manfaatlari ta’minlangan, huquq va erkinliklari himoyalangan davlatnigina huquqiy davlat deyish mumkin. Shu o‘rinda, ayollar masalasi tahlil etilganda bir muhim narsaga alohida urg‘u berish ham lozim, ya’ni ayol huquqlari faqatgina huquqiy holat bo‘lmay, balki siyosat, ma’naviyat va ma’rifat, diniy e’tiqod va falsafa, jamiyatdagi turli o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq holatdir. Ayol huquqlari ko‘p qirrali, muammoli va murakkab bo‘lib, turli zamonlarda turlicha namoyon bo‘lgan. Lekin uning siyosiy manfaatlar bilan bog‘liq xususiyati hamisha saqlanib, u turli shaklda o‘rganilgan.

Bugun respublikamizda ayolga, oilaga hurmat davlat siyosati darajaga ko‘tarilib, qonunchilik normalarining asosiy qoidalari sifatida e’tirof etilgan. Ushbu normalarda ayolning jamiyatda va oilada tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari sharqona turmush tarzi, oila hayotining ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy va huquqiy normalarini inobatga olgan holda belgilab berilgan. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilani mustahkamlash, ayollarni e’zozlash, onalik va bolalikni muhofaza etishdek insoniy burchlarni ado etish borasida bir qator amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda.

Zamonning ayolga munosabati mavzusini O‘zbekiston tajribasida tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘ngi yillarda bu yo‘nalishda real, aniq, rejalashtirilgan davlat siyosati olib borilayotganligi natijasida salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligining tarixan shohidi bo‘lmoqdamiz, ko‘plab normativ hujjatlar orqali mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog‘liq ijobiy islohotlar yangi bosqichda takomillashtirilib borilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ayollar sog‘liqni saqlash, ta’lim tizimida, davlat boshqaruvining turli yo‘nalishlarida, tadbirkorlik faoliyatida faollik ko‘rsatmoqdalar. So‘ngi yillarda ayollarning ta’limi, mutaxassilik va ilmiy salohiyatini o‘stirish uchun barcha lozim choralar davlat tomonidan kafolatlanganligi O‘zbekistonda ayollar faolligini oshirishda keng islohotlar olib borilayotganligidan darak beradi.

Demak, bugungi kunda biz uchun muhim bo‘lgan xulosa shuki, butun bir jamiyat ayollar faolligidan manfaat olmog‘i lozim. Ana shu faollik va idroklilikni barcha sohalarda aks etishi, ya’ni ayollarimiz ongli tarzda mamlakatda olib borilayotgan islohatlarga daxldorlik munosabatida bo‘lishlariga erishish zamonamizning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Chunki ayol fuqarolik jamiyati asosi bo‘lgan fuqarolarni tarbiyalash, demokratik va tolerant tafakkur, taraqqiyot va rivojlanishga kamarbastalik kabi jamiyat uchun o‘ta dolzarb va muhim masalalarni ijobiy hal etib bera olish qudratiga egadir.

Yangi O‘zbekiston yoshlar masalasiga oid o‘z siyosatini ishlab chiqqan. Darhaqiqat, bugun yurtimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Bu juda katta imkoniyat, salohiyat, kelajak uchun qo‘yilgan mustahkam poydevordir. Shu ma’noda fikr bildirib, mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Chindan ham, yoshlar – davlatning eng katta boyligi, bebeho kapitali, uni ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, intellektual va madaniy rivojlantirishning asosiy manbaidir. Shuning uchun biz qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, yoshlarga, ularning kuch-g‘ayrati va azmu shijoatiga suyanamiz. Ularning timsolida Vatanimiz qanchalik beqiyos xazinaga ega ekanini chuqur his etamiz”.

Ha, muhtaram Prezidentimizning mazkur fikrlarini bekorga keltirmadik. Gap shundan iboratki, mamlakat rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 80-sessiyasida aynan o‘sha fikrlarini yanada rivojlantirdi, dunyoning yirik mamlakatlari, siyosatdonlari, qolaversa, jahon afkor ommasi oldida tarixiy ahamiyatga molik nutq so‘zladi.

Ushbu nutq mamlakat rahbarining bugungi dunyo holatidan jiddiy xavotirga tushayotganligi, turli ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvlari oqibatida insoniyat oldida misli ko‘rilmagan muammolar paydo bo‘layotganini yaqqol ko‘rsatib berdi. Darhaqiqat, jiddiy o‘zgarib borayotgan murakkab global vaziyatda insoniyat taqdiriga har bir davlat, siyosiy tashkilotlar, xalqaro hamjamiyat – barchasi bir xil darajada mas’ul ekanligini davlatimiz rahbari yana bir bor eslatib o‘tdi.

Nutqning eng muhim jihatlaridan biri – bu bugungi kunda yoshlar masalasi, ularning kelajagi, taqdiri masalasi ekanligiga davlat rahbari alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, ta’kidlanishicha, ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida ekanligi, yoshlarimizning

qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarbligi bugungi kunning eng muhim vazifalardan biri ekanligi qayd etildi.

Shu ma’noda davlat rahbarining *“Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”*ni tashkil etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi jahon hamjamiyati tomonidan juda katta xursandchilik va ehtirom bilan qabul qilinganini ta’kidlash kerak. Ayni paytda nutqda Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda mustahkam ravishda shakllangan bag‘rikenglik siyosatini izchillik bilan davom ettirishga ahd qilingani ayni muddao bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda mamlakatimizning ko‘plab xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi, tinchlik va barqarorlik yo‘lida olib borayotgan ishlari e’tiborga molik. Masalan, BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasi, “Yoshlar manfaatlarini ko‘zlab, ular bilan ishlash” bosh tamoyiliga asoslangan Yoshlar manfaatlari bo‘yicha butunjahon harakatlar dasturida ta’kidlanishicha, bugungi kunda umumbashariy tahdidlarga qarshi samarali kurashishda yoshlarning bilim va salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Ushbu hujjatda “Yoshlar siymosida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar jamlangan, unga har qancha investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoya bir necha barobar ortig‘i bilan qaytadi”, deb e’tirof etilgani ham asossiz emas. Haqiqatdan ham, o‘z kelajagini o‘ylagan, mamlakat va millat taraqqiyoti yo‘lida har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan ularni ham moddiy, ham ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mas’uliyatini o‘z bo‘yniga olgan davlat, so‘zsiz o‘z maqsadlariga erishadi. Shuning uchun ham Yangi O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng muhim, ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ayniqsa, mamlakat rahbarining shaxsan tashabbuslari bilan intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlarni bugun barqaror taraqqiyotning drayveriga aylantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi g‘oyalari o‘zining real natijalarini ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda, demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlatni barpo etish, mamlakatni modernizatsiya qilish, boshlangan islohotlarning ro‘yobiga erishishda ham asosiy kuch bo‘lib maydonga yana yoshlar chiqmoqda. Bunday yo‘nalishda “Beruniy izdoshlari”, “Mirzo Ulug‘bek vorislari”, “Alisher Navoiy davomchilari” kabi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash samarali natijalarni bermoqda.

Mamlakatimiz rahbarining yuksak minbardan turib bugungi insoniyatning taqdiri yosh yigit-qizlarning bilimi, tarbiyasi, ularning hayotga bo‘lgan sof munosabatlariga bog‘liqligi haqidagi fikrlari real dunyoning jiddiy ravishda qilingan ilmiy tahlili, kuchli tajribaning natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi dunyoda sodir bo‘layotgan geosiyosiy o‘zgarishlar, globallashuv tufayli tobora kuchayib borayotgan ma’naviy-mafkuraviy, g‘oyaviy kurashlar yoshlarimiz faoliyatida, ularning hayot tarzida, o‘y-fikrlari, kechinmalarida turli

salbiy holatlarni ham ko‘paytirmoqda. Buning sabablari juda ko‘p. Ayniqsa, ayrim yoshlarning ijtimoiy faollik darajasining pastligi, ular ongida individualistik yondoshuvlarning avj olishi, jamiyatda, davlatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olmaslik kabi illatlar bugun kuchayib borayotganligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Dunyoda barqarorlik va do‘stlik insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanib, tinchlikni ta’minlash va uning g‘oyalarini yosh avlod qalbiga singdirish masalasi xalqaro hamjamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bugungi kunda tinchlik g‘oyalarini yoshlar ma’naviyatiga singdirish masalasi nafaqat milliy, balki global ahamiyatga ega bo‘lib, Sh.Mirziyoyevning: “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”, degan so‘zlarini ta’kidlashlarida ham o‘z ifodasini topadi. Mazkur fikrlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, balki tinchlikni asrash va qadrlashga qaratilganining amaliy natijasidir. Yuqoridagi fikrlarga dalil sifatida, O‘zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishi, har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelayotgani inobatga olinsa, 2030 yilga borib, bu ko‘rsatgich 1 million nafarga yetadi. Shu sabab, yoshlarning bandligini ta’minlash, intilishlariga sharoit yaratish davlatimizning strategik siyosati sifatida jiddiy e’tiborida, oxirgi 8 yilda yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko‘paygani va bugungi kunda biznes vakillarining 40 foizini tashkil etayotganida aks etadi.

O‘zbekistonning yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ilm-ma’rifatiga oid siyosatida ham, oxirgi 3 yil mobaynida yoshlar orasida oliy ma’lumotli kadrlar soni oshgani, ilgari oliy ta’limda bitta o‘rin uchun kamida 10 nafar abituriyent talabgor bo‘lsa, qisqa davrda oliygohlar soni 3 barobar oshirilgani natijasida, hozirgi kunda 42 foiz yoshlar oliy ta’limga qamrab olingani ko‘rish mumkin. Bu borada, xotin-qizlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar doirasida shartnoma to‘lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga, ularning soni 11 karra ko‘paygani bilan yoshlar bandligini ta’minlash bilan bir qatorda, yoshlar siyosatida, tinchlik va ezgulikni saqlash hamda Vatan oldidagi milliy iftixor tuyg‘usining kuchayishiga ham xizmat qilmoqda. Masalan, o‘z sohalarida muvaffaqiyatga erishayotgan yoshlar salmog‘i kengayib, dunyodagi nufuzli universitetlarda 1 ming 500 dan ziyod talabalar tahsil olib, avvalgi 25 yil ichida davlat hisobidan 800 nafar yigit-qiz xorijga o‘qishga ketgan bo‘lsa, hozirda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali so‘nggi 7 yilda 2 ming 300 nafar yoshlar bunday imkoniyatga ega bo‘lishdi. Shunigdek, O‘zbekistonda ilmiy darajali yosh olimlar soni ham 2 karra ko‘payib, 4 ming nafardan oshgani hamda ularning uztoz-shogird an’analari amaliyotidagi mutolaa madaniyatining

umummilliy harakatga aylanishi, “Yosh kitobxon” tanlovlaridagi ishtirokchilari sonining 3 millionga yetgani bilan ijobiy samarasini ko‘rsatadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida uning ko‘p millatli davlat sifatida, millatlararo do‘stlik va bag‘rikenglik siyosatida yoshlar asosiy ishtirokchi bo‘lmoqdalar. Chunki tinchlik va do‘stlik g‘oyalari avvalo yoshlar qalbiga chuqur singdirilsa, kelajakda ular barqaror va tinch hayotni ta’minlaydigan kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida nutqi. – Nyu-York, 2025. (Rasmiy matn). https://president.uz/uz/lists/view/8528
3. Yangi O‘zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2023.
4. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs): 2030 kun tartibi. – BMT rasmiy hujjati, 2015. https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/tainable-

ПРИНЦИПЫ ДЕТЕРМИНИЗМА В СИСТЕМЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Баратова Махбуба Мубинжановна,
Кандидат философских наук, Доцент кафедры Общественных наук Узбекского Государственного Университета Мировых языков
e-mail: makhbubabaratova66@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается значение принципа детерминизма как методологического основания анализа процессов формирования и развития гражданского общества в Узбекистане. Раскрывается причинно-следственная обусловленность социальных реформ, их взаимосвязь с мировоззренческими установками и процессами цифровизации. Обосновывается необходимость философского осмысления детерминизма как принципа рационального управления социальными процессами.

Ключевые слова: детерминизм, гражданское общество, причинность, социальные реформы, цифровизация, философия, Узбекистан.

Введение. Современное развитие гражданского общества в Узбекистане протекает в условиях глубокой трансформации всех сфер общественной жизни, что требует философского анализа детерминирующих факторов, влияющих на эти процессы. Принцип

детерминизма, являясь одной из основ классической философии, выражает идею всеобщей причинной обусловленности явлений природы и общества. Его применение в гуманитарном знании позволяет выявить закономерности социальных изменений и определить условия их эффективности.

Детерминизм является философская основа анализа социальных процессов. Детерминизм (от лат. *determinare* — определять) в философии понимается как учение о причинной связи явлений, в соответствии с которой каждое событие имеет свои причины и следствия. В контексте социальных наук принцип детерминизма позволяет рассматривать общественные институты как системы, развивающиеся не случайно, а под воздействием объективных исторических и культурных факторов.

Философская традиция от Аристотеля до Гегеля подчеркивала, что развитие общества не может быть понято вне анализа закономерных причинных связей между деятельностью человека, структурой власти и уровнем духовного сознания.

Статья № 69. Конституции Республики Узбекистан отражает, что «Институты гражданского общества, в том числе общественные объединения и другие негосударственные некоммерческие организации, органы самоуправления граждан, средства массовой информации образуют основу гражданского общества.

Деятельность институтов гражданского общества осуществляется в соответствии с законом».

Статья 56. – «Национальные институты по правам человека дополняют существующие формы и средства защиты прав и свобод человека, содействуют развитию гражданского общества и повышению культуры прав человека. Государство создает условия для организации деятельности национальных институтов по правам человека».

Гражданское общество является детерминированной социальной системой. В Узбекистане формирование гражданского общества детерминировано рядом факторов: историческими традициями общинности, модернизационными реформами, а также переходом к цифровым формам коммуникации между гражданами и государством. Согласно Концепции развития гражданского общества в Республике Узбекистан, одним из приоритетов является формирование активной социальной позиции граждан и повышение уровня их правосознания.

Принцип детерминизма позволяет понять, что социальные изменения не являются лишь результатом политической воли или внешнего давления — они проистекают из внутренней необходимости, обусловленной уровнем развития культуры, образования и технологий.

Например, Женские и молодёжные организации, Благотворительные и волонтёрские фонды выполняют функции по поддержке равенства, образования и инициатив молодёжи и женщин, помощи малоимущим, инвалидам, сиротам, развитие социальных инициатив.

В контексте глобальных вызовов цифровизации принцип детерминизма приобретает практическое значение. Алгоритмизация социальных процессов позволяет создавать модели прогнозирования и управления, что усиливает социальную предопределённость. Однако устойчивое развитие требует сохранения гуманитарного баланса между технологическим контролем и свободой человека.

Развитие ИИ актуализирует философский вопрос: возможно ли свободное действие в условиях цифровой детерминации? Если поведение человека становится объектом алгоритмического анализа и прогнозирования, то границы между свободой выбора и технологическим предопределением размываются.

С точки зрения гуманитарных наук, свобода — это не отрицание причинности, а способность осознанно действовать в системе ограничений.

Следовательно, задача философии — не отрицать детерминизм, а выявить его новые формы в цифровой культуре, где причинность становится вероятностной и сетевой.

Современный гуманитарный анализ фиксирует, что цифровая детерминация влияет не только на мышление, но и на моральную сферу: возникает феномен технологической ответственности — ответственность не только человека, но и разработчика алгоритмов. Расширяется понятие свободы, включающее цифровую автономию и контроль над персональными данными. Формируется новая область — цифровая этика, где обсуждаются пределы вмешательства ИИ в сферу человеческого выбора и идентичности.

Детерминизм и цифровизация как новые условия социальной причинности показывает, что современный этап цифровой трансформации общества вносит коррективы в понимание детерминизма. Если в классической философии причинность имела линейный характер, то в условиях цифровизации она приобретает сетевую, взаимозависимую структуру. Искусственный интеллект, алгоритмическое управление и цифровая идентичность становятся новыми детерминантами общественных процессов.

В Узбекистане активное внедрение цифровых платформ в систему государственного управления (*“E-gov”, “my.gov.uz”*) способствует росту прозрачности и гражданского контроля, что является важным условием укрепления гражданского общества. Здесь проявляется новая форма

причинности — информационно-технологическая детерминация, влияющая на политическую культуру и формы общественного участия.

Этическое измерение детерминизма в системе гражданского общества показывает, что цифровая предопределенность социальных процессов несет и риски: автоматизация решений может привести к снижению личной ответственности и гуманистических ориентиров. Поэтому в философском аспекте важно сохранять баланс между технологическим и моральным детерминизмом, обеспечивая свободное, осознанное участие человека в процессах общественного управления.

В этом контексте принцип детерминизма не противопоставляется свободе, а раскрывается как условие разумной и ответственной деятельности личности.

Заключение. Принцип детерминизма в гуманитарном знании выполняет ключевую методологическую функцию — помогает выявить причинные связи между процессами реформ, культурными изменениями и развитием гражданской активности. Для современного Узбекистана он служит философским основанием устойчивого и осознанного совершенствования гражданского общества, особенно в эпоху цифровизации и искусственного интеллекта.

Список литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. –Т. 2023 - 30.04.2023. Конституция Республики Узбекистан
2. УП-60-сон 28.01.2022. О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. УП-60-сон 28.01.2022. О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы
3. Указ Президента Республики Узбекистан Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021 — 2025 годах. УП-6181-сон 04.03.2021. Об утверждении Концепции развития гражданского общества в 2021-2025 годах
4. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”». –Ташкент, 2020. УП-6079-сон 05.10.2020. Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации
5. Стратегия «Узбекистан — 2030», утверждённая Указом Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева от 11 сентября 2023 года №УП–158
6. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. –М., 1998.
7. Аристотель. Метафизика. –М.: Мысль, 1975
8. Мамардашвили М.К. Классический и неклассический идеалы рациональности. –М.: Наука, 1984.

9. Степин В.С. Философия науки и техники. –М.: Академический проект, 2003.
10. Рассел С., Норвиг П. Искусственный интеллект: современный подход. –М.: Вильямс, 2022.
11. Тульчинский Г.Л. Философия и методология науки. – СПб.: Питер, 2012.
12. Турен А. Возвращение человека, действующего: очерк социологии. –М.: Наука, 1998.
13. Floridi L. The Philosophy of Information. –Oxford University Press, 2019.
14. Nasr S. H. Science and Civilization in Islam. –Harvard University Press, 1968.
15. Бекмуродов М. Б. Философские проблемы цифровой цивилизации. –Ташкент, 2023.

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA NNT VA YOSHLAR HARAKATINING O‘RNI: BARQAROR RIVOJLANISH SARI QADAM

Shahina Jo‘rayeva,
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
*(*Shahrus8689@gmail.com *)*

Annotatsiya: Atrof-muhit va uning barqaror boshqaruvi fuqarolarning farovonligi hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi ekologik volontyorlik ko‘pincha talabalar, fuqarolik guruhlari va kommunal xizmatlarni safarbar qiladigan yirik o‘rmonlashtirish kampaniyalari, jamoatchilik tozalash kunlari va mavsumiy “eko-marafon” uslubidagi harakatlarga qaratilgan. Ushbu tezisda, atrof-muhitni muhofaza qilishda NNT va yoshlar harakatining o‘rni qanday muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar yig‘ilib, batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: NNT, eko faollar, volontyorlik faoliyati, yoshlar harakati, BMT dasturlari, FAO, Ekosan, fuqarorlik jamiyati, ijtimoiy birlashuv, barqaror jamiyat.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda volontyorlik sezilarli darajada kengaydi, bu davlat tashabbuslari, faol fuqarolik jamiyati ishtirokchilari va xalqaro qo‘llab-quvvatlashning kombinatsiyasi tufayli yuzaga keldi, bu esa ekologik va ijtimoiy sohalarda tizimli, barqaror volontyorlik faoliyatini tartibga solishga yordam berdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) dasturlari va milliy volontyorlik platformalari yoshlarni mahalliy tashabbuslarni tashkil etish,

boshqarish, treningla o‘tkazish, kichik grantlar shuningdek, jamoat loyihalarini qo‘llab-quvvatladilar.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunda nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyat kasb etayotgan global masalalardan biridir. Iqlim o‘zgarishi, suv va havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda davlat institutlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar harakatlari ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Ularning tashabbuslari, turli loyihalari va ijtimoiy aksiyalari aholining ekologik madaniyatini oshirishda hamda barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistondagi ekologik volontyorlik ko‘pincha talabalar, fuqarolik guruhlari tomonidan tashkil qilinadi va u, asosan, jamoatchilik tozalash kunlari, mavsumiy “eko-marafon” uslubidagi harakatlarga qaratilgan. Xususan, “Yashil makon” umummilliy dasturi daraxt ekishni raqamli ro‘yxatlar va xaritalashtirilgan ekish maydonlari bilan shaffof, kuzatib boriladigan jamoatchilik harakati sifatida belgiladi. Mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlari va universitetlar eko-klublari urug‘lar yig‘ish, ko‘chatlar ekishdan keyingi parvarishlash smenalarini tashkil qiladilar.

Ijtimoiy volontyorlik fuqarolik faolligining kuchli va ko‘zga ko‘rinarli yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda, O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati kabi taniqli subyektlar keng ko‘lamli yordam, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha volontyorlik tarmoqlarini yuritadi, yoshlar tashkilotlari esa ta’lim, madaniy va murabbiylik faoliyatini muvofiqlashtiradi. Talabalar guruhlari, shuningdek, xayriya aksiyalari, keksalarga g‘amxo‘rlik qilish va qo‘llab-quvvatlash uchun volontyorlarni muntazam ravishda safarbar qiladi; ushbu tashkil etilgan ijtimoiy kanallar farovonlik va jamiyat barqarorligi loyihalari ustida ishlashni istagan volontyorlar uchun tayyor kirish nuqtalarini taklif qiladi.

Xalqaro volontyorlik va almashinuv dasturlari texnik ko‘nikmalar, transchegaraviy tajriba va jamoat loyihalarini moliyalashtirishni taklif qilish orqali mahalliy volontyorlik kanallarini to‘ldiradi. Erasmus+ ko‘plab o‘zbekistonlik talabalar foydalanishlari mumkin bo‘lgan o‘quv, yoshlar va ko‘ngillilar almashinuvini ta’minlaydi; Birlashgan Millatlar Tashkilotining volontyorlik tashabbuslari ijtimoiy innovatsiyalar va sog‘liqni saqlash bo‘yicha volontyorlikni rag‘batlantirdi; JICA va KOICA kabi agentliklar tomonidan boshqariladigan ikki tomonlama volontyorlik dasturlari esa sog‘liqni saqlash va ta’limdan tortib, jamiyatni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlarigacha bo‘lgan sohalarda uzoq muddatli volontyorlik guruhlarini tashkil qildi. Ushbu dasturlar mahalliy salohiyatni oshirishga va mahalliy

nodavlat notijorat tashkilotlari va ko‘ngillilar qabul qilishi mumkin bo‘lgan usullar va standartlarni joriy etishga yordam beradi.

Ishtirok etishni istagan har bir kishi uchun NNTlarning milliy ma’lumotnomalari va koalitsiyalari (ularda Ekosan va mintaqaviy ekoforumlar kabi guruhlar ro‘yxati mavjud), universitetlarning eko-klublari, “Yashil Makon” tadbirlarining ochiq jadvali va xalqaro ko‘ngillilar platformalari (UNV, Erasmus+ va ikki tomonlama ko‘ngilli agentliklar sahifalari) ishonchli kirish nuqtalari bo‘lib, ular tizimli imkoniyatlar e’lon qilib boradilar.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan ekologik nodavlat notijorat tashkilotlari va tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari orasida Ekosan milliy ma’lumotnomalar ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, jamoatchilik va mahalliy restavratsiya faoliyati chegarasida ishlaydi. U odatda ekologik ta’lim, kichik miqyosdagi restavratsiya va sog‘liqni saqlash sohalariga oid ekologik ishlar bilan shug‘ullanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yashil Makon” tashabbusi – 1 milliard daraxt va ko‘chat ekishni nazarda tutuvchi milliy loyiha xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Hukumat daraxtlarni kesishga moratoriy joriy etdi, toza va yashil energiyani rivojlantirish, maishiy chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish, yashil transport infratuzilmasini yo‘lga qo‘yish, qo‘riqlanadigan hududlar tarmog‘ini kengaytirish hamda bioxilma-xillikni saqlash maqsadida ekotizimlarni tiklash choralarini ko‘rmoqda.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va uning ekologiya hamda barqaror rivojlanish bo‘yicha tuzilmalari bilan, shuningdek, Germaniya, Finlyandiya, Turkiya va Janubiy Koreya kabi alohida davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Mintaqaviy hamkorlik ham ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, O‘zbekiston boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan birgalikda iqlim kun tartibida yagona pozitsiyani ilgari surmoqda. Zamonaviy energiya resurs tejamkor texnologiyalar, kam issiqxona gazlari chiqindisiga ega texnologiyalarni joriy etish, ulardan foydalanish, shuningdek, bioxilma-xillikni monitoring qilish va muhofaza qilish dasturlari bo‘yicha o‘zaro manfaatli ikki tomonlama mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish ustida ishlamoqda. Bunga, masalan, Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologiya Markazi va Orolbo‘yi mintaqasida barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli platformalar orqali erishilmoqda.

O‘zbekiston havo sifati yaxshilanishi, ekologik siyosat va boshqaruv, atrof-muhit monitoringi va baholash hamda ekologik ta’lim sohalarida BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (YEIK) Atrof-muhit siyosati qo‘mitasi bilan keng ko‘lamli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Yevropa Ittifoqi bilan atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi va suv resurslari loyihasi doirasida faol hamkorlik rivojlanmoqda. YI bilan erishilgan kelishuvlar asosida bu hamkorlik Yevropa Ittifoqi havo sifati standartlari va boshqa asosiy talablarini joriy etish, havo sifati tahlillarini

o‘tkazish (shu jumladan, havo sifati boshqaruv tizimlari) bo‘yicha xalqaro — xususan, YI yondashuvlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ekologiya sohasi bilan bevosita shug‘ullanadigan fuqarolik jamiyati institutlari va yoshlar harakati hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, oxirgi yillarda ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Bir nechta nodavlat tashkilotlar chiqindilarni qayta ishlash, yashil hududlarni ko‘paytirish va ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Yoshlar o‘rtasida ekologik volontyorlik harakati ham asta-sekin kengaymoqda. Bu borada xalqaro tajriba o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) Osiyo davlatlarida ekologik loyihalarda NNT va yoshlarning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi yoshlar uchun ekologiya yo‘nalishidagi almashinuv dasturlarini taqdim etmoqda. BMTning turli tuzilmalari hamda FAO tashabbuslari qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarida ekologik yondashuvlarni ilgari surmoqda. Bu kabi tajribalar O‘zbekistondagi jarayonlarga ham moslashtirilishi mumkin.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ekologik muammolarga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, chiqindilarni boshqarish, atmosfera havosini muhofaza qilish, suv resurslaridan samarali foydalanish borasida bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi. Eng muhimi, bu jarayonlarda nodavlat tashkilotlari va yoshlar faolligining oshib borayotgani quvonarli. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ko‘plab ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda, ekologik ta’lim va ma’rifat ishlari kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekologiya sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlarning ishtiroki barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi omillardan biridir. O‘zbekiston bu borada hali dastlabki bosqichlarda bo‘lsa-da, xalqaro tajriba va hamkorlik natijasida muhim yutuqlarga erishmoqda. Yaqin kelajakda NNTlar, yoshlar va davlat institutlari o‘rtasidagi samarali hamkorlik yanada kuchayib, ekologik madaniyatning oshishiga va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha barqaror tizim shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UN Volunteers. (2023). Country activities in Uzbekistan. Retrieved from https://www.unv.org FAO Uzbekistan. (2022). Country programme: Climate-resilient agriculture and sustainable land management. Rome: FAO.

2. National Erasmus+ Office Uzbekistan. (2023). Youth and mobility programmes in Uzbekistan. Retrieved from https://www.erasmusplus.uz

3. “Yashil Makon” initiative. (2021). National tree-planting campaign in Uzbekistan. Government of Uzbekistan.

4. Red Crescent Society of Uzbekistan. (2022). Annual report on humanitarian and volunteer activities. Tashkent.

YANGI O‘ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY FAOLLIKNING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Sevara Raximova,
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor-o‘qituvchisi
E-mail: gsevara1983@gmail.com
Tel:+998931072833

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi bo‘lgan faol fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolarning o‘z huquq va burchlarini anglab yetishi, ijtimoiy hayotda ishtirok etish darajasi ma’naviy omillar bilan chambarchas bog‘liq ekani ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, xalqaro tajriba misolida fuqarolik faolligini oshirishda axloqiy-madaniy muhitning ahamiyati yoritilib, O‘zbekiston sharoitida bu borada yuzaga kelayotgan muammo va yechimlar tahlil qilinadi. Maqolada milliy model asosida jamiyat barqarorligini ta’minlashda fuqarolik ongini yuksaltirish, jamoatchilik faolligini rag‘batlantirish va uchinchi sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, fuqarolik ong, fuqarolik pozitsiyasi, xalqaro tajriba, ijtimoiy institutlar, uchinchi sector, jamoatchilik nazorati, milliy model, fuqarolik madaniyati.

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi alohida e’tibor markazida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlar fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta’minlashga, ularning huquqiy ongini va fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirishga qaratilgan. Biroq, fuqarolik jamiyatining samarali faoliyati nafaqat qonunchilik bazasi va tashkiliy strukturalarga, balki chuqur ma’naviy-axloqiy asoslarga ham bog‘liqdir.

Shu ma’noda, fuqarolik ongining shakllanishi, ijtimoiy faollikning oshishi va jamoatchilik nazoratining kuchayishi jamiyatda hukm surayotgan qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, global axborot oqimi va madaniyatsizlik xavflari kuchayib borayotgan bir paytda, milliy ma’naviyatga

tayangan, o‘zini jamiyatning muhim bir qismi deb biladigan faol fuqarolar qatlamini tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni, ularning ijtimoiy faollik bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida fuqarolik faolligini oshirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi hamda O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishda yuzaga kelayotgan muammo va yechimlar haqida fikr yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomalari, strategik hujjatlar, qonunchilik asoslari va Davlat dasturlari fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda asosiy siyosiy-huquqiy yo‘nalishlarni belgilab berdi. Xususan, 2023-yilgi murojaatnomasida:*“Jamiyatimizda fuqarolik faolligini oshirish, bu borada yoshlarni ongli, vatanparvar, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxslar qilib tarbiyalash – bizning eng ustuvor vazifamizdir”* – degan fikr bildirilgan [5].

Akademiklar A. Sa’dullayev, R. Abdullayev, M. Jo‘rayevlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-axloqiy asoslari, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni chuqur o‘rganilgan. Jumladan, A. Sa’dullayev fuqarolik jamiyatini "inson ma’naviy mas’uliyatining ijtimoiy ifodasi" sifatida talqin etadi [6]. Shuningdek, *Tafakkur*, *Ma’naviyat*, *O‘zbekiston tarixi* kabi ilmiy-amaliy jurnallarda fuqarolik faolligi, jamoatchilik nazorati, NNTlar roli va uchinchi sektorning ahamiyati haqida ko‘plab maqolalar chop etilgan.

Xalqaro ilmiy manbalar va tajribalar. Xalqaro miqyosda fuqarolik jamiyatining shakllanishi, undagi ijtimoiy faollik va axloqiy qadriyatlar masalasi YUNESKO, OECD, UNDP kabi tashkilotlar hisobotlarida keng yoritilgan. OECD tomonidan tayyorlangan 2020-yilgi “Civic Space Report”da ta’kidlanadi: *"Civic engagement grows where trust, cultural inclusion, and ethical responsibility are part of the social fabric."* [7]

YUNESKOning "Global Citizenship Education" dasturlarida esa yoshlarning fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlar asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi [8].

Konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, fuqarolarning faolligini rag‘batlantirish va ularning davlat boshqaruvida ishtirokini ta’minlashga doir qator normalarni o‘z ichiga olgan. Bu esa mavzuning dolzarbligi va ilmiy o‘rganish zarurligini yanada oshiradi [9].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va fuqarolik ongining o‘zaro bog‘liqligi, uyg‘unligi jamiyatda

mustahkam fuqarolik madaniyati va barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish nafaqat huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, balki fuqarolarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi ongli shaxsni shakllantirish uchun uning fuqarolik ongi, axloqiy pozitsiyasi va qadriyatlar tizimi uyg‘un holda rivojlanishi zarur. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehr-oqibat, bag‘rikenglik, adolatparvarlik, hamjihatlik kabi qadriyatlar fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-psixologik poydevorini tashkil etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edi: "Jamiyatimizda fuqarolik faolligini oshirish, bu borada yoshlarni ongli, vatanparvar, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxslar qilib tarbiyalash — bizning eng ustuvor vazifamizdir" [1].

Ijtimoiy faollik – fuqarolik jamiyatining tayanchi xamda harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, jamiyatda demokratik tamoyillarni mustahkamlash va barqarorlikni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu — ijtimoiy faollikdir. Fuqarolarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi, jamiyatdagi islohotlarda bevosita ishtirok etishi, jamoatchilik nazoratida faol bo‘lishi demokratik tamoyillarning amalda namoyon bo‘lishidir. Biroq bu faollik faqat tashqi rag‘batlar bilan emas, balki ichki axloqiy mas’uliyat, vijdon, adolat tuyg‘usi orqali shakllanadi. Akademik A. Sa’dullayev bu borada shunday deydi:

"Fuqarolik jamiyatining ildizi — bu har bir fuqaroning o‘z hayoti uchun javobgarlikni his qilishi va buning uchun harakat qilishi bilan boshlanadi" [2].

Albatta, fuqarolik faolligini oshirishda qadriyatlarning o‘rni xalqaro tajribalarda nihoyatda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi faqat qonunchilik asoslariga emas, balki jamiyatdagi qadriyatlar tizimiga ham bog‘liq. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida yuqori fuqarolik faolligi — o‘zaro ishonch, adolat, ijtimoiy tenglik va shaffoflik kabi qadriyatlarga tayanadi. Bunday qadriyatlar fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, demokratik ishtirokni kengaytiradi. OECD hisobotida bu holat quyidagicha izohlangan: "Civic engagement grows where trust, cultural inclusion, and ethical responsibility are part of the social fabric" ya’ni "Fuqarolik faolligi ishonch, madaniy inklyuzivlik va axloqiy mas'uliyat jamiyat asosini tashkil etgan joyda rivojlanadi."[3].

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston tajribasida fuqarolik faolligini oshirish borasida ijobiy qadamlar bilan birga, hali ham mavjud bo‘lgan muammolar va ularni hal etishga qaratilgan milliy model asosidagi yechimlar ham dolzarb masala sanaladi.

O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratdi. Biroq amaliyotda ijtimoiy faollik yetarli darajada emas. Bu holat quyidagi muammolar bilan bog‘liq:

- ✓ fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasining pastligi;
- ✓ jamoatchilik nazorati mexanizmlarining sust ishlashi;
- ✓ nodavlat notijorat tashkilotlarining tashabbuskorlik darajasi pastligi;
- ✓ ayrim hollarda iste’molchilik kayfiyati, befarqlik va axloqiy inqiroz.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun milliy qadriyatlar va fuqarolik ongini uyg‘unlashtirgan model asosida quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- ➢ ta’lim tizimi orqali fuqarolik ongini va axloqiy tarbiyani birgalikda rivojlantirish;
- ➢ NNT va jamoat tashkilotlarini davlat tomonidan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash;
- ➢ mahalla, maktab va ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish.

Strategik islohotlar agentligi buni quyidagicha ifodalaydi: "Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ijtimoiy institutlar va qadriyatlarning uyg‘unligi davlat barqarorligining kafolatidir" [4].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, demokratik jamiyatlarda fuqarolik faolligi faqat qonuniy kafolatlar bilan emas, balki ma’naviy-axloqiy asoslar — ishonch, hamjihatlik, erkin fikrlash va tolerantlik kabi qadriyatlar bilan mustahkamlanadi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni, shuningdek, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uzviy aloqasi ilmiy doiralarda doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda bu masalaga bo‘lgan e’tibor Yangi O‘zbekiston davridagi islohotlar, demokratik tamoyillarni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatining institutsional asoslarini rivojlantirish jarayonida yanada kuchaydi.

Xulosa va takliflar. Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan ijtimoiy faollikning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik ongining yuksalishi nafaqat huquqiy bilimlarga, balki insonlarning axloqiy pozitsiyasi, ma’naviy qadriyatlarga ham bog‘liqdir. Ijtimoiy faollik esa fuqarolik jamiyatining tayanchi sifatida, jamiyatda ishtirok etish madaniyatini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Xalqaro tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, demokratik jamiyatlarda fuqarolarning o‘z madaniy va axloqiy qadriyatlariga sodiqligi faollikning asosiy manbai hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida esa mavjud muammolarni yengib o‘tish uchun milliy qadriyatlar asosida fuqarolik ongini rivojlantirish, jamoatchilik faolligini rag‘batlantirish va uchinchi sektorning salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Shunday yondashuvlar jamiyat

barqarorligini ta’minlash va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish uchun asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil. https://president.uz

2.Sa’dullayev A. “Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy faollik”, Tafakkur jurnali, 2022, №3.

3.OECD–Civic Space Report, 2020. https://www.oecd.org/governce.htm

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. Strategiya.uz, 2023. https://strategy.uz

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil. https://president.uz

6.Sa’dullayev A. “Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy faollik”, *Tafakkur* jurnali, 2022, №3.

7.OECD–Civic Space Report, 2020. https://www.oecd.org/governa.htm

8.UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives, Paris, 2015.

9.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrir, 2023-yil https://lex.uz

O‘ZBEKISTONNING BMT TINCHLIKPARVARLIK TASHABBUSLARIDAGI ISHTIROKI: YANGI DIPLOMATIK VECTOR

Yulduz Islomova Ilxom qizi,

O‘zDJTU “Siyosiy fanlar “ kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

yulduzislomova8993@gmail.com

Shuhrat Berdiyev Berdinazarovich,

"Iqtisodiyot va moliya vazirligi " bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan hamkorlikdagi tinchlikparvarlik tashabbuslari, ularning mazmun-mohiyati hamda mamlakat tashqi siyosatidagi yangi diplomatik yo‘nalish sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi siyosiy tashabbuslari, BMT doirasidagi amaliy faoliyati va global tinchlik diplomatiyasidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tashqi siyosati, BMT, tinchlikparvarlik, diplomatik vektor, mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, konstruktiv, pragmatik.

Kirish. Mustaqillikka erishganidan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi — mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash, xalqaro maydonda o‘zining nufuzini oshirishdan iborat bo‘ldi. Mamlakatning global diplomatiyaga faol qo‘shilishi, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikni kengaytirish, tashqi siyosatda yangi sifat bosqichini belgilab berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan tashqi siyosat BMT bilan hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro tinchlikni saqlash va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda faol ishtirok etishga qaratilgan. Bu jarayon O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi diplomatik vektori sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugungi zamonaviy dunyo — globallashuv, tezkor siyosiy o‘zgarishlar va integratsion jarayonlar bilan tavsiflanadi. Siyosiy jarayonlar va ijtimoiy tizimlar tobora dinamik tus olmoqda. Agar tarixiy davrlarda insoniyat urushlar, manfaatlar to‘qnashuvi va mafkuraviy kurashlar bilan yashagan bo‘lsa, XXI asr — ko‘p qutblilik, madaniy xilma-xillik, diniy bag‘rikenglik va xalqaro integratsiya asriga aylandi. 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston mustaqil xalqaro subyekt sifatida shakllandi. Shu bilan birga, mintaqa “yirik tashqi kuchlar” manfaatlari to‘qnashgan ochiq geosiyosiy maydonga aylandi. AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va Islom dunyosi kabi markazlar Markaziy Osiyoda o‘z ta’sir doiralarini kengaytirishga intildilar. Zamonaviy global tendensiyalar — transmilliy korporatsiyalar, nodavlat tashkilotlar va transchegaraviy jinoyatchilik tarmoqlari ham mintaqa barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Markaziy Osiyo davlatlaridagi hududiy, iqtisodiy va etnik muammolar ildizi sovet davridagi siyosiy boshqaruv tizimiga borib taqaladi va bugungi kunda ham mintaqaning rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta’sir etmoqda.

Hududiy xavfsizlik, ekologik muammolar, global isish, suv tanqisligi, terrorizm, ekstremizm va narkobiznes kabi omillar mintaqaviy barqarorlikni murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, 2050-yilgacha suv resurslari tanqisligi kutilayotgani yangi ijtimoiy-iqtisodiy kelishmovchiliklar xavfini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlik, korrupsiya, yoshlar ishsizligi va radikal g‘oyalarning kuchayishi xavfsizlik muvozanatini buzuvchi omillar sifatida ko‘rilmoqda[1]. Shu sharoitda O‘zbekiston o‘zining mustaqil taraqqiyot strategiyasida xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Prezident Mirziyoyev ta’kidlaganidek, davlat xavfsizligi — qo‘shni mamlakatlar xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, O‘zbekiston xalqaro hamkorlik, ko‘p tomonlama diplomatiya va BMT doirasidagi tinchlikparvarlik tashabbuslarini milliy xavfsizlik strategiyasining ajralmas qismi sifatida rivojlantirmoqda.

1. *O‘zbekiston va BMT hamkorligining tarixiy bosqichlari*

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘ldi. Shu kundan boshlab mamlakat BMTning barcha asosiy institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. BMT O‘zbekiston uchun xalqaro maydonda o‘z pozitsiyasini mustahkamlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim platformaga aylandi. O‘zbekistonning BMT tizimidagi faoliyati dastlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi va barqarorlik masalalariga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik xavfsizlik, mintaqaviy tinchlik va terrorizmga qarshi kurash yo‘nalishlarida ham faol bo‘la boshladi.

2. *BMT tinchlikparvarlik faoliyatining zamonaviy modeli*

BMT tinchlikparvarlik tizimi 1948-yildan buyon dunyodagi eng murakkab mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy mexanizm sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Tinchlikparvarlik missiyalarining asosiy tamoyillari — neytrallik, xalqaro huquqqa asoslanish va barcha tomonlarning roziligi hisoblanadi.

O‘zbekiston ham bu tizimning muhim ishtirokchisiga aylanishga intilmoqda. Mamlakat tinchlikparvarlik amaliyotlariga bevosita qo‘shilish, o‘quv dasturlarida ishtirok etish va BMTning mintaqaviy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zining xalqaro nufuzini mustahkamlashni maqsad qilgan. Zero, yuqorida ta’kidlangan kabi, O‘zbekiston ham boshqa Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar ko‘p yo‘nalishli tashqi siyosat olib borayotgani bois mintaqaviy xavfsizlik masalasiga alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning, ushbu nutqlarida quyidagi fikrlarni keltiradilar: “ Bugun biz yashayotgan, jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘langan dunyoda xavfli muammolar girdobidan chiqishning yakkayu yagona yo‘li – konstruktiv muloqot va har bir tarafning manfaatlarini hisobga olish va hurmat qilishga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlikdir. Aynan inqiroz va bo‘hronlar davrida mamlakatlar, ular xoh katta, o‘rta yoki kichik bo‘lsin, o‘zlarining tor doiradagi manfaatlarini ustun qo‘ymasdan, aksincha, asosiy e’tiborni global hamjihatlikka qaratishlari lozim. Tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga xavf tug‘dirayotgan, har qaysi mamlakatga rahna soladigan tahdid va xatarlarga qarshi umumiy sa’y-harakat va imkoniyatlarni birlashtirish va safarbar etish barchamiz uchun birdek manfaatlidir.[1] Ushbu hududdagi tahdid va xatarlarni mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi asosida o‘rganish lozim, chunki bu nazariyaga ko‘ra, mintaqaviy xavfsizlik kompleksiga ta’sir etuvchi asosiy omillar destruktiv (buzg‘unchi) komplekslardan iborat. Markaziy Osiyo jahon siyosati va iqtisodiyoti uchun katta strategik ahamiyatga ega. Biroq mintaqa barqarorligi va rivojlanishiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan qator jiddiy tahdidlarga ham duch kelinmoqda. Ushbu taqdiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy

tahdidlarni ko‘rib chiqib, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ekspertlarining joriy vaziyat va ushbu muammolarni hal qilish yo‘llari haqidagi qarashlarini tahlil qilinadi[2]. Davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy, transport va tranzit-logistika, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, davlat chegaralariga doir masalalarni yakuniga yetkazish, suv resurslaridan adolatli foydalanish, xalqlar o‘rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash kabi yo‘nalishlar rivojlantirilmoqda. Bular orasida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq yo‘nalishlar va hamkorlikdagi tashabbuslarni ilgari surilayotgani ahamiyatlidir. Zero, O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh huquqiy asosi Konstitutsiya bo‘lib, joriy yilda ushbu konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, mamlakatimiz tashqi siyosatining global va minatqaviy munosabatlarida huquqiy poydevor vazifasini bajarishga xizmat qiladi*[*3].

Shu sababdan klassik va yangi tahdidlar O‘zbekistonga ham talluqlidir. Klassik tahdidlarga harbiy xavfsizlik kiradi. Ammo, umuman olganda, muayyan bir harbiy mojaro tahdidi yo‘q. Terrorizm, ekstremizm, narkotrafik bilan bog‘liq tahdidlar ham mavjud, ammo ular huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasida, qolaversa, Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT bilan ushbu masalalar keng muhokama qilinib, o‘z yechimini topmoqda.

3. *O‘zbekistonning BMT tinchlikparvarlik tashabbuslari*

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar BMT minbarida yuqori baho olgan. Xususan, Afg‘oniston masalasiga bag‘ishlangan Toshkent konferensiyasi (2018-yil), Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari va “Markaziy Osiyo – yadro qurolidan holi hudud” shartnomasining mustahkamlanishi O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosatini amalda tasdiqlaydi. Umuman olganda, O‘zbekiston o‘zining muvozanatli va pragmatik tashqi siyosati orqali mintaqaviy xavfsizlik tizimida muhim o‘rin egallab, yirik davlatlar bilan teng masofadagi hamkorlikni davom ettirishga intilmoqda. Bu strategiya mamlakatning barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi maslahat uchrashuvi 2019-yil 29-noyabr kuni Toshkent shahrida o‘tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu uchrashuvdan so‘ng, Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiya jarayonlari qaytarilmas tus oldi. Toshkent uchrashuvining asosiy natijalari xavfsizlik masalalari, mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha birgalikdagi harakatlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, o‘zaro tijorat aloqalarini rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish shuningdek, turizmni rivojlantirish va yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni yo‘lga qo‘yish kabilarni o‘z ichiga oladi[4]. Toshkent uchrashuvida, shuningdek, Afg‘oniston bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi. Mintaqa mamlakatlari uchun Afg‘oniston xavfsizlik tahdidi bo‘lib, bu

muammoning yechimi ustuvor masala sifatida belgilandi. Toshkentda maslahat uchrashuvlari reglamentlari ham tasdiqlandi. Reglamentlarga ko‘ra, davlat rahbarlarining uchrashuvlari yiliga bir marta o‘tkaziladi, uchrashuvlarning kun tartibi va masalalari diplomatik kanallar orqali kelishiladi.O‘zbekistonning yana bir muhim tashabbusi — BMT Bosh Assambleyasida “Markaziy Osiyo: barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun yagona kelajak” rezolyutsiyasini ilgari surish bo‘ldi[5]. Bu hujjat O‘zbekistonning mintaqaviy diplomatiyada integratsion, barqarorlikka yo‘naltirilgan yondashuvini ifodalaydi.

4. Yangi diplomatik vektor sifatida baholash

O‘zbekistonning BMT tinchlikparvarlik faoliyatidagi faolligi mamlakat diplomatiyasining yangi strategik yo‘nalishini belgilab bermoqda. Bu vector “ochiq va pragmatik” siyosat olib borish orqali mintaqada tinchlik, barqarorlik va ishonchni mustahkamlashga qaratilgan[6]. Tinchlikparvarlik tashabbuslari orqali O‘zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham tinchlik diplomatiyasining faol subyekti sifatida tanilmoqda. Bu jarayon mamlakatning xalqaro imijini oshirib, uni “hamkorlik diplomatiyasi” markaziga aylantirmoqda.

5. *Muammolar va istiqbollar*

Shunga qaramay, O‘zbekistonning tinchlikparvarlik faoliyati hali dastlabki bosqichda. Mamlakatning bevosita BMT missiyalarida ishtiroki cheklangan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda huquqiy, texnik va kadrlar bazasini shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Kelgusida O‘zbekiston BMT doirasidagi tinchlik missiyalarida bevosita ishtirok etuvchi harbiy va fuqarolik mutaxassislarini tayyorlash, mintaqaviy xavfsizlik akademiyasini tashkil etish, va mintaqaviy diplomatik platformalarni kengaytirish orqali o‘z salohiyatini oshirishi kutilmoqda.

Xulosa.

O‘zbekistonning BMT tinchlikparvarlik tashabbuslaridagi ishtiroki mamlakat tashqi siyosatining yangi diplomatik vektorini ifodalaydi. Bu yo‘nalish zamonaviy mintaqaviy xavfsizlik tizimida o‘ziga xos o‘rin tutib, O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki global tinchlik siyosatining faol subyekti sifatida ko‘rsatadi. Tinchlikparvarlik diplomatiyasi orqali O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatda ishonchli hamkor, mintaqaviy barqarorlik kafolatchisi sifatida tanilmoqda. Shu tariqa, O‘zbekiston o‘zining ochiq va pragmatic siyosatini mustahkamlab, global tinchlikni saqlashda muhim ishtirokchi sifatida xalqaro maydondagi mavqeini yanada kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2017–2024). Speeches at the UN General Assembly. New York: United Nations.
2. United Nations Peacekeeping. (2024). Annual Report on Peace Operations. New York: UN Publications.
3. Bo‘ronov S. O‘zbekiston strategiyasi 2030. Tashqi siyosiy strategiya falsafasi xalq manfaatlari va tinchliksevarlik tamoyilida aks etadi. Yangi O‘zbekiston. Gazeta.uz. 17.11.2023.(20.05.2024)
4. Markaziy Osiyo - O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. [Elektron manba]URL: https://GKDgov.uz/oz/mfa. (26.06.2024)
5. Бурнашев Р.О. Возможности системы региональной безопасности в Центральной Азии (методологические аспекты). //Центральная Азия и Кавказ. 2001.// URL: https://ca-c.org.ru/journal/2001/journal_rus/cac-01/02. (06.07.2024)

YOSHLARDA MUTOLAA MADANIYATI VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH – FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHINING MUHIM ASOSI

Kushbakov Kamolidin Baxromovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Sotsiologiya” kafedrasi tadqiqotchisi
E-mail: kamoliddinbaxromovich@gmail.com

Annotatsiya. Globallashuv va raqamli axborot asri sharoitida yoshlarning ijtimoiy-intellektual salohiyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tezisda mutolaa madaniyatining yoshlarda sotsial intellekt ko‘rsatkichlarini rivojlantirishdagi roli sotsiologik nuqtai nazardan yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi-yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi ularning tafakkur kengligi, kommunikativ madaniyati va empatiya darajasini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir. Mutolaa madaniyati yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini shakllantiradi, ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonida ularning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Mutolaa madaniyati, sotsial intellekt, yoshlar, ijtimoiy tafakkur, kommunikativ madaniyat, kitobxonlik, globallashuv.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar orasida intellektual salohiyatni rivojlantirish masalasi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylanmoqda. Axborot oqimi kuchaygan sharoitda yoshlarning tanqidiy fikrlash, ijtimoiy moslashuvchanlik va hissiy barqarorlik qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mutolaa madaniyati yoshlarning ijtimoiy ongini rivojlantirishda, ularni barkamol shaxs

sifatida tarbiyalashda, eng muhimi – sotsial intellekt koʻrsatkichlarini kuchaytirishda alohida ahamiyatga ega [1].

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida kitobxonlik madaniyatini mustahkamlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim vazifa sifatida belgilangan [2].

Mutolaa madaniyati tushunchasining sotsiologik tahlili.

Mutolaa madaniyati – bu shunchaki kitob oʻqish emas, balki shaxsning axborot bilan ongli va tanqidiy munosabatini shakllantiruvchi jarayon. U ijtimoiy guruhlar, oilaviy muhit, ta’lim tizimi, kutubxona va raqamli platformalar orqali yoshlarning ongiga singadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, mutolaa madaniyati quyidagi funksiyalarga ega: (1) axborot uzatish va qabul qilish – shaxsni umumiy bilimlar bilan boyitish; (2) ijtimoiylashuv – yoshlarning jamiyatdagi rollarini anglashiga koʻmaklashish; (3) kommunikativ madaniyatni shakllantirish – nutq, fikrlash va muloqot madaniyatini rivojlantirish; (4) empatiya va hissiy barqarorlikni oshirish – boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatini kuchaytirish [3].

Mutolaa jarayonida yoshlar shunchaki bilim emas, balki ijtimoiy qarorlar qabul qilish uchun zarur boʻlgan tafakkur mezonlarini ham shakllantiradi. Kitob bilan muloqot qilish jarayonida obrazlar, gʻoyalar va qadriyatlar tizimi oʻzaro uygʻunlashadi; bu esa shaxsning oʻzini anglash, maqsad qoʻyish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish xususiyatlarini rivojlantiradi. Raqamli muhitda esa matnlarni oʻqish, tinglash va vizual materiallar bilan ishlash kombinatsiyasi individual oʻrganish yoʻllarini kengaytiradi, bir vaqtning oʻzida tanqidiy savodxonlikka boʻlgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Yoshlarda mutolaa va sotsial intellekt oʻzaro bogʻliqligi

Amaliy kuzatuvlar shuni koʻrsatadiki, muntazam ravishda mutolaa qiluvchi yoshlar oʻz tengdoshlariga qaraganda yuqori darajadagi sotsial intellekt koʻrsatkichlariga ega. Ularning quyidagi fazilatlari yaqqol namoyon boʻladi: (a) tanqidiy fikrlash – oʻqigan matnni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va amaliy hayotga tatbiq etish qobiliyati; (b) kommunikativ faollik – muloqot jarayonida oʻz fikrini asosli ifoda etish va boshqalarning fikrini tushunish; (c) empatiya – boshqa insonlarning hissiy holatini tushunib, u bilan hamnafas boʻlish; (d) ijtimoiy mas’uliyat – qaror qabul qilishda jamiyat manfaatlarini hisobga olish; (e) prestij – intellektual mavqe va ijtimoiy obroʻni oshirish [4].

Shu bois, mutolaa jarayonini sotsiologik jihatdan faollashtirish yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy kamolotida strategik ahamiyat kasb etadi. Oʻquvchi-yoshlar uchun oʻqishning motivatsion mexanizmlarini mustahkamlash (ragʻbat, feedback, tengdoshlar guruhi bilan muhokama, oʻqish kundaliklari) kognitiv hamda affektiv kompetensiyalarni kuchaytiradi.

Yangi O‘zbekistonda mutolaa madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari:

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kitobxonlikni ommalashtirish, yoshlar orasida mutolaa madaniyatini keng targ‘ib qilish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari asosida “Kitob karvoni”, “Ma’rifat ulashib” kabi loyihalar tashkil etildi; ular yoshlarni kitobga qaytarish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda [5].

Shuningdek, raqamli platformalar orqali elektron kutubxonalar, audio va video kitoblar, onlayn o‘qish marafonlari va book-club'lar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlik challenge'lari o‘tkazish mutolaaning raqamli ekotizimini shakllantiradi [6]. Bu jarayonlarda media va axborot savodxonligi, plagiatning oldini olish, havolalar bilan ishlash, annotatsiya va konspekt tuzish kabi ko‘nikmalar asosiy o‘rin tutadi.

Muammo va yechimlar. Amaliyotda uchraydigan muammolar: (1) o‘qish motivatsiyasining pastligi; (2) axborot ko‘pligida tanqidiy tanlash (filterlash) ko‘nikmasining zaifligi; (3) kutubxona va maktab-oila hamkorligining sustligi; (4) raqamli kontent iste’molida yuzaki o‘qish odatlarining kuchayishi. Ularni bartaraf etish bo‘yicha yechimlar quyidagilar: (a) ta’lim muassasalarida “o‘qish strategiyalari” bo‘yicha qisqa kurslar; (b) o‘qish portfeli va reyting tizimlari; (c) mentorlik va tengdoshlar murabbiyligi; (d) oilaviy mutolaa soatlari va ota-ona uchun metodik yo‘riqnomalar; (e) kutubxonalarni klaster asosida maktab, mahalla va oliygohlar bilan integratsiya qilish; (f) AI asosida shaxsiylashtirilgan o‘qish rekomendatsiyalari va o‘qish kundaliklari [3], [6].

Tavsiyalar

1) Ta’lim muassasalarida mutolaaga bag‘ishlangan maxsus fan yoki modulni joriy etish; 2) Kutubxonalarni raqamlashtirish, mobil ilovalar va onlayn platformalarda yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratish; 3) Yoshlarning kitobxonlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida grant va stipendiyalar, tanlovlar hamda aksiyalarni ko‘paytirish; 4) Ommaviy axborot vositalarida kitobxonlik targ‘ibotini kengaytirish; 5) Maktab–oila–kutubxona uchburchagini kuchaytirish hamda hamkorlikning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish; 6) Raqamli mutolaa muhitida media va axborot savodxonligi bo‘yicha treninglar o‘tkazish [2], [5], [6].

Xulosa. Tadqiqot natijalari mutolaa madaniyati yoshlarning sotsial intellekt ko‘rsatkichlarini oshirishda asosiy mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Sotsiologik yondashuv, raqamli ekotizim, ta’lim va oilaviy hamkorlik bir-biri bilan uyg‘unlashganda, tanqidiy fikrlash, kommunikativ madaniyat, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘rsatkichlar barqaror oshadi. Mutolaa – bu nafaqat bilim, balki ijtimoiy ishtirok, liderlik va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiruvchi kuch dir [1], [4], [7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Umarov A.A. Sotsiologiya va yoshlar madaniyati. –Toshkent: Fan, 2022. – B. 45–67.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-sonli Farmoni. –Toshkent, 2023. –B. 12–25.

3.Bekmuradov M. Madaniyat sotsiologiyasi. –Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. – B. 88–104.

4.Nazarov Q., Xoshimova D. Yoshlar va kitobxonlik madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021. – B. 56–79.

5.Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi. “Kitob karvoni” aksiyasi materiallari. –Toshkent, 2024. – B. 33–41.

6.CAREC. Raqamli kutubxona va ta’lim resurslari. –Toshkent: CAREC nashriyoti, 2022. – B. 102–115.

7.Goleman D. Social Intelligence. –New York: Bantam, 2006. –P. 145–163.

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EKOTURIZMNI RIVOJLANISHI

Choriyeva Nargiza Ibotovna,

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti kurs tayanch doktorant

(chorievanargiza257@gmail.com, +998931708807)

Polvanov Azim Kuchkarovich,

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Mustaqil tadqiqotchi

(polvanovazim70@gmail.com, +998933948585)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish jarayonlari va uning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ekoturizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari yoritilib, uning mahalliy aholi farovonligi, ekologik ongni yuksaltirish hamda barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, ekoturizm, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ijtimoiy faollik, iqtisodiy o‘sish, tabiiy resurslar.

Turizm insoniyat jamiyati paydo bo‘lishidan boshlab shakllanib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biridir. Bugungi kunda esa u dunyoning eng yirik va daromadli tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosida turizm sohasi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham turizm, xususan, ekoturizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizning boy tabiiy resurslari, noyob landshaftlari, tarixiy-madaniy merosi va geografik o‘rni

ekoturizm uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ekoturizm fuqarolik jamiyatining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etib, aholining ekologik ongini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Turizm kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshlagan. [1.B.10]. Rivojlangan davlatlarda iste'molchilik jamiyatining rivojlanishi natijasida ko'pchilik odamlar bo'sh vaqt va ortiqcha pullarga ega bo'ldi, bu turizmni rag'batlantiruvchi omil bo'lib qoldi. Kasaba ittifoqlarining ta'sirida va huquqiy qonunchilik natijasida haq to'lanadigan rasmiy ta'tillarning davomiyligi oshib bordi, hukumatlar bayram kunlarini dam olish kunlari deb e'lon qilishdi, hukumat daromadlarining ortib borishi turizmga bo'lgan investitsiyalarni oshirdi, ya'ni, yo'llar, mehmonxonalar qurila boshlandi. Turistik firmalar aholiga o'z yaqinlaridagi kurortlarda dam olgandan ko'ra, uzoq orollardagi turistik mahsulotlar paketidan foydalanish imkoniyatlarini bera boshlashdi. Masshtab effekti va raqobat narxlarni arzonlashtirib yubordi. [1.B.16]

Turizm sohasi hozirgi kunda jahondagi eng serdaromad sohalardan biri bo'lib, uning iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirmoqdalar. Jumladan, mamlakatimizda ham bu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston boy turistik salohiyatga va turizmni rivojlantirishning barcha imkonyatlariga ega, shu tufayli mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar, Prezidentimiz qaror va farmonlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5326 sonli Farmoni, 2018 yil 6 fevraldagi "O'zbekiston respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3509 sonli va "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3510 sonli Qarorlari, 2018 yil 7 fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3514 sonli Qarori, 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611 sonli farmoni shular jumlasidandir.[2,B.259]

O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma'naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilisha balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahalliy xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, yangi ish joylari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga katta

hissa qo’shadi. Mamlakatimiz dunyoda ekologik turizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi va Markaziy Osiyoda, dunyoda mamlakatlarning o’zaro aloqalarini geografik jihatdan bog’lovchi davlatdir. [3, B. 7]

O’zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning muhim yo’nalishlaridan biri turistik mashrutlarni ishlab chiqish va ularni tegishli boshqaruv tuzilmalaridan ro’yhatdan o’tkazish hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasida amal qilayotgan turistik mashrutlar ro’yhati 149 ta yo’nalishdan iborat bo’lib, barcha turmashrutlar standard tarzda ishlab chiqilgan. [4, B.49]

Ekoturizmning maqsadlaridan biri noyob faunani asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun saqlashdan iborat. Yo‘qolib borayotgan hayvon turlari, qushlar, reptiliyalar, baliqlar, o‘simliklar va hatto, hashoratlarga bo‘lgan talab, tabiiyki, taklifning shakllanishiga olib keldi. Iqtisodiyotning yangi xufyona sohasi paydo bo‘ldi. Nafaqat an’anaviy soha, masalan, Afrika uchun karkidon shoxi, fil suyagi, sherlarning tishlari, balki “Qizil kitob”ga kiritilgan to‘tiqushlar, lochinlar, gekkonlar, ilonlar, tropik baliqlar, shuningdek, o‘rgimchaklar, qo‘ng‘izlar, chayonlar ham kantrabanda ob’ektlari bo‘lib qoldi. Bularning hammasiga Yevropalik kolleksionerlarda ham, ba’zi Osiyo mamlakatlarining do‘kondorlarida ham talab kuchaydi.[5, B.42]

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan asosiy omillardan biri uning ekzotik tabiatidir. Respublikada o‘ta quruq landshaftlardan tortib, doimiy qorliklar va muzliklar bilan band bo‘lgan Tyanshan, Pomir-Oloy tog‘ tizmalari, ekologik inqirozga misol bo‘la oladigan Orol dengizi va uning atrofi, uzoq o‘tmishi tabiiy tarixga ega bo‘lgan Janadaryo quruq vohasi, biologik xilma-xillikga ega bo‘lgan Hisor, Ugom, Chotqol tog‘ tizmalari namoyon bo‘ladi. Agarda UNESCO ning Butunjahon meroslar ro‘yxatiga 754 ta ob’ekt kiritilgan bo‘lsa, ularning 4 tasi O‘zbekistonda joylashgan (Ichanqala – Xiva, Buxoroning tarixiy markazi, Shahrisabzning tarixiy markazi, Samarqand – madaniyatlar chorrahasi). Ushbu noyob tarixiy turistik ob’ektlardan foydalanishda ekoturistik marshrutlarni birga qo‘shib olib borish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday ekoturistik imkoniyatlar nafaqat tarixiy, balki folklor, madaniy va diniy markazlar orqali ham rivojlanishi mumkin. Ekoturizm – shaxslarning doimiy yashash joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy yoki boshqa maqsadlarda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi va boshqa ekologik qonunchilik hujjatlari bilan qo‘riqlanadigan ob’ektlarda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga sayohat qilishdir .Ekologik turizm atrof tabiiy muhit bilan tanishish va hordiq chiqarishning eng qulay shakllaridan biri sifatida tan olingan munosabatlar kompleksi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ekotizimlarga va atrof tabiiy muhitga ta’sir ko‘rsatmaydi. Bir vaqtning o‘zida esa mamlakatimiz iqtisodiyoti, xalqimiz farovonligini ko‘tarishda sezilarli hissa qo‘sha oladigan soha hamdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ham egadir. U mahalliy aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuviga zamin yaratadi. Shu sababli ekoturizmni qo‘llab-quvvatlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muhofaza choralari fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda mamlakatning barqaror taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kornilova F, Z.K. Kamilov. Xalqaro turizm bozori. –T.: 0 ‘zbekiston faylasuflari m illiy jamiyati nashriyoti, 2011, B.10-1
2. Z.Fozilova, O.Xamraqulov. O’zbekistonda ekoturizm mashrutlarini rivojlantirish tamoyillari. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, B. 260
3. R.Xaitboyev. Ekologik turizm. –Toshkent, B.7
4. Maxmudova.A. Marketing tadqiqotlaridan foydalanish asosida ekoturizm samaradorligini oshirish.Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Toshkent, 2021.B.49
5. Abdurasulov Sh.E. Ekoturizm iqtisodiy foyda keltiruvchi turizmning eng istiqbolli turlaridan biri sifatida. "Экономика i sotsium" №5(120)-2 2024 www.iupr.ru, B.42
6. Azimova D. O‘zbekistonda ekoturizmning nazariy jihatlari. "Экономика i sotsium" №12(115)-1 2023 www.iupr.ru, B. 137

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN

Diyoraxon Tashmuratova To’rabek qizi
Ibodullayeva Sabina Nurmamat qizi
Students of the Department of Political Science, Faculty of International Journalism, Uzbekistan State World Languages University
(+998881554788, tashmuratovadiyora@gmail.com*)*
(+998979351572, sabinaibodullayeva04@gmail.com*)*

Annotation: This paper provides a critical analysis of the contemporary evolution of civil society in the Republic of Uzbekistan following a pivotal political transition in 2016. It posits that the development is characterized by a state-led paradigm of controlled liberalization, wherein the government actively engineers the legal and institutional space for non-governmental actors. The

analysis traces the significant legislative reforms that have dismantled previous restrictive frameworks, leading to a quantitative and qualitative diversification of civil society organizations (CSOs). It further examines the emergent role of digital platforms as a dynamic, albeit complex, arena for civic engagement and public oversight. However, the paper contends that this expansion exists in tension with enduring mechanisms of administrative control and a state-preferred model of "constructive partnership," which seeks to channel civic energies into supportive rather than adversarial roles. The conclusion reflects on the precarious trajectory of this state-society compact, questioning its long-term sustainability and potential for fostering genuine pluralism.

Keywords: Civil Society, Uzbekistan, Governance, Political Transitions, Non-Governmental Organizations (NGOs), Digital Activism, State-Society Relations, Post-Soviet Studies, Legal Reform, Managed Pluralism

The trajectory of civil society in Uzbekistan since its independence in 1991 has been largely defined by a legacy of Soviet-era statism and subsequent authoritarian consolidation. For decades, the conceptualization of an autonomous public sphere, independent of the state and capable of mediating citizen interests, remained largely theoretical. The political transition of 2016, however, marked a critical juncture, initiating a comprehensive reform agenda under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev. This new course, articulated in strategic documents such as the "Uzbekistan-2030" Strategy, has precipitated a significant, albeit carefully managed, reconfiguration of state-society relations. This paper examines the modern trends shaping this reconfiguration, arguing that the development of civil society in contemporary Uzbekistan is not an organic, bottom-up emergence but a state-orchestrated process of controlled liberalization. This process has yielded tangible expansions in civic freedoms while simultaneously establishing new parameters for permissible activism, resulting in a complex and often contradictory landscape.

The most definitive trend is the state's proactive reconstruction of the legal infrastructure governing civic activity. The government has systematically deconstructed key instruments of control that characterized the previous administration.

Legislative Dismantling: The state has moved to repeal or amend notoriously restrictive laws. The pre-2016 legal environment, particularly the 2014 Law on Non-State Non-Commercial Organizations, established a punitive registration and reporting regime that effectively stifled independent organizing. Recent reforms have shifted towards a notification-based registration process and streamlined financial reporting, significantly reducing the administrative burdens on CSOs. The abolition of the "foreign agent" law,

which had stigmatized and financially crippled internationally-funded organizations, was a particularly symbolic step towards reintegrating with the global civil society community.

Institutional Channels for Dialogue: Beyond legislative change, the state has created formal institutions to co-opt and structure engagement with civil society. The establishment of Public Chambers under the presidency and parliament provides a platform for select CSO leaders to consult on draft legislation.

While this institutionalizes dialogue, it also creates a hierarchy within civil society, privileging those deemed "constructive" and marginalizing more critical voices. The enhanced role of the Ombudsman institution, which now collaborates more openly with human rights NGOs, represents another facet of this institutionalized engagement.

This top-down re-engineering of the civic landscape demonstrates a state-centric approach to reform, where expansion of space is simultaneously an act of regulation.

The liberalized environment has catalyzed a transformation in the character and composition of civil society itself, marked by two key developments.

Sectoral Diversification: The post-2016 period has witnessed not only a surge in the number of registered NGOs but, more significantly, a qualitative diversification of their focus. The civic sector has expanded beyond traditional social service and cultural domains to include robust engagement with previously marginalized or high-risk issues. Environmental advocacy groups, focusing on the Aral Sea catastrophe and urban air quality, have gained prominence. Human rights organizations now operate with greater visibility, monitoring judicial proceedings and advocating for institutional reforms. Furthermore, women's rights groups have successfully leveraged public campaigns to influence legislation, culminating in the adoption of landmark laws against domestic harassment and violence.

The Ascendancy of Digital Activism: Parallel to the formal NGO sector, digital platforms—primarily Telegram and Instagram—have emerged as a vibrant and influential public sphere. This digital arena facilitates a form of civic engagement that is often more decentralized, agile, and confrontational. Independent media channels and bloggers act as real-time watchdogs, exposing local-level corruption and infrastructural failures with tangible consequences. Single-issue campaigns, mobilizing citizens around urban planning disputes or environmental concerns, demonstrate a capacity for rapid, grassroots mobilization that often bypasses formal civil society structures altogether. This digital space constitutes a powerful, if unstable, force for public accountability. Despite these advancements, the development of civil society is circumscribed

by enduring structural and political constraints that reveal the limits of the state's liberalizing impulse.

Informal Administrative Hurdles: The consistent implementation of progressive laws remains a challenge. Local officials, embedded in a pre-existing political culture, often retain leverage to harass or obstruct organizations they perceive as adversarial. Furthermore, sustainable funding, particularly for advocacy-oriented CSOs, remains a critical vulnerability, as domestic philanthropy is underdeveloped and international donor relationships can still attract scrutiny.

Unofficial "Red Lines": A clear, if informal, boundary demarcates the limits of acceptable criticism. While scrutiny of local governance and specific policies is increasingly tolerated, fundamental challenges to the core tenets of state power, the presidency, or certain sensitive historical and political narratives continue to elicit a firm response. The situation in Karakalpakstan in 2022 and the ongoing pressures on activists deemed to challenge national security narratives serve as potent reminders of these boundaries.

The Ideology of "Constructive Partnership": The state promotes a specific model of civil society, framed as "constructive dialogue" or "partnership." This paradigm envisions CSOs as expert consultants and service providers that support national development goals, contrasting sharply with an adversarial watchdog model. Organizations aligning with this supportive role are integrated and rewarded, while those adopting a more confrontational, rights-based stance operate within a more constrained and precarious space. This reflects a persistent etatist view that subordinates civic autonomy to state-defined objectives.

In conclusion, the modern development of civil society in Uzbekistan is defined by a fundamental duality. On one hand, a clear and significant trend of expansion is underway, driven by state-led legal reforms, a diversifying NGO sector, and an empowered digital citizenry. The public sphere is undoubtedly more active and pluralistic than at any point in the nation's independent history. On the other hand, a counter-trend of management and control persists, reflecting the state's intention to direct this newfound civic energy into channels that bolster, rather than fundamentally challenge, its authority and development agenda.

The future trajectory of state-society relations will hinge on the resolution of this tension. The critical question is whether the current model of managed pluralism can evolve into a more genuine and equitable partnership based on mutual autonomy and the unconditional protection of fundamental freedoms. The sustainability of the current progress depends on the state's willingness to transcend the paradigm of control and embrace the unpredictable yet essential dynamism of a truly independent civil society.

List of References:

1. Ilkhamov, A. (2018). The Thorny Path of Civil Society in Uzbekistan. Central Asian Survey, 37(3), 347-365.
2. International Crisis Group. (2021). Uzbekistan: A New Dawn for Civil Society? Asia Report N°301.
3. Lewis, D. (2020). Civil Society in Central Asia: The Logics of State Control and Civic Response. In: The Palgrave Handbook of Civil Society in Southeast Asia. Palgrave Macmillan, Cham.
4. McGlinchey, E. (2011). Chaos, Violence, Dynasty: Politics and Islam in Central Asia. University of Pittsburgh Press.
5. Omelicheva, M. (2016). State-Led Civil Society and Nationalism in Central Asia. In: Nationalism and Identity Construction in Central Asia. Lexington Books.
6. OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights (ODIHR). (2021). Guidelines on Freedom of Association in Uzbekistan.
7. The Republic of Uzbekistan. (2022). The Uzbekistan-2030 Strategy. Tashkent.
8. World Bank. (2023). Engaging Civil Society in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Governance Working Paper Series.

O‘ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Ergashev Lazizbek Nodirbek o’g’li,
O’zbekiston Davlat Jahon tillari Iniversiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik yo’nalishi
2301-guruh 3-bosqich talabasi
lazizbekergashev34@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda olib borilayotgan keng islohotlar jarayonida kuchli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish borasidagi muommo va yechimlar xususida so’z boradi. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatini takomillashtirish masalasi va uning yechimlari muhokama qilinadi. Yurtimiz hududidagi Fuqarolik jamiyati institutlari, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirish mexanizmlari hamda jamoatchilik faolligini oshirish va yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi. Ushbu masalani o’rganish shuni ko’rsatadiki, kuchli fuqarolik jamiyatining barqaror rivoji mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, jamoatchilik nazorati, nodavlat tashkilotlar, demokratik islohotlar, ijtimoiy faollik, hamkorlik, davlat boshqaruvi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har bir buyuk davlat kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilishga va uni yanada takomillashtirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mana shunday rivjlanayotgan davlatlar qatorida yurtimizda ham keng miqyosda kuchli fuqarolik jamiyati barpo qilish va uni yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan. Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish ana shu o‘zgarishlarning muhim va ajralmas qismidir. Ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish – demokratik islohotlarni izchil davom ettirishda muhim sanaladi.

Yangi O‘zbekistonimizning rivojlanish yo’lidagi muhim yo‘nalishlaridan biri kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va takomillashtirish sanaladi. Biz bilamizki kuchli fuqarolik jamiyati jamiyatning barcha qatlamlarining davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan kafolatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra: “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirmasdan turib, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi barqaror bo‘lishi mumkin emas” . Bu so’zlar bilan yurtboshimiz kuchki va buyuk davlatni barpo qilish uchun fuqarolik jamiyatlarini va fuqarolarning jamiyatdagi faolligini oshirishni ustuvor vazifa qilib qo’yganlar.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligining uchinchi o‘n yilligida davlat boshqaruvi va jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshiriib, amalyotga tadbiq kelib kelmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Bu jarayonlarning barchasi fuqarolarni davlat boshqaruvidagi faol subyektga aylantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishni o‘z ichiga oladi. Kuchli Fuqarolik jamiyati rivoji nafaqat demokratik tamoyillarni mustahkamlashga balki shu bilan birga iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi desak adashmagan bo’lamiz. Fuqarolik jamiyati – bu davlatdan mustaqil holda shakllangan, fuqarolarning manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Mazkur jamiyatda odamlar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun davlatdan tashqari turli nodavlat tashkilotlari, harakatlar va institutlar orqali faol ishtirok etadilar.

Quyida biz siz bilan fuqarolik jamiyatining mohiyatini ko’rib chiqamiz.

Fuqarolik jamiyati quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1.Mustaqillik: Davlat hokimiyatidan nisbatan mustaqil bo‘lib, fuqarolar tomonidan boshqariladi.

2.Fuqarolarning faolligi: Ijtimoiy hayotda fuqarolarning o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun faol ishtirok etishi.

3.Huquqiy barqarorlik: Qonun ustuvorligi va shaxs huquq va erkinliklarining kafolati.

4.Tashkilotchilik: Turli nodavlat tashkilotlar, jamoat harakatlari, kasaba uyushmalari, diniy va madaniy birlashmalar orqali fuqarolarni birlashtiradi.

5.Ijtimoiy mas'uliyat: Odamlarning o‘z jamiyati va kelajagi oldidagi mas'uliyatni his etishi.

Fuqarolik jamiyati bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq:

1. Ibtidoiy bosqich

• Bu davrda jamiyat hali davlatga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan turli ijtimoiy guruh va birliklardan iborat bo‘lgan.

• Oila, qabila va urug‘munosabatlari asosiy ijtimoiy tizim sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

2. Davlat bilan uyg‘unlashuv bosqichi

• Davlat shakllangan davrda, odamlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun davlat tuzilmalariga murojaat qilishni boshlagan.

• Lekin bu davrda fuqarolik jamiyati hali to‘liq mustaqil shaklda mavjud bo‘lmagan.

3. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi

• Bu bosqichda davlat va jamiyat o‘rtasidagi chegaralar aniqlasha boshlaydi.

• Nodavlat tashkilotlari, savdo uyushmalari va kasaba uyushmalari paydo bo‘ladi.

4. Rivojlangan fuqarolik jamiyati

• Demokratik davlatlar bilan uyg‘unlashgan jamiyat.

• Fuqarolarning faol ishtiroki bilan mustaqil ravishda boshqariluvchi nodavlat tashkilotlar keng rivojlanadi.

• Huquqiy madaniyat va qonun ustuvorligi o‘rnatiladi.

5. Postindustrial jamiyat bosqichi

• Axborot texnologiyalari va globalizatsiya jarayonlari fuqarolik jamiyatini yanada kengroq qamrab olishiga yordam beradi.

• Onlayn platformalar va virtual jamoalar ijtimoiy faollikning yangi shakllarini yaratadi.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati mustaqillik yillarida rivojlanib, o’z o’rniga ega bo’lmoqda. Hozirda mamlakatimiz hududida turli nodavlat tashkilotlar va

jamoat birlashmalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi mamlakatdagi huquqiy islohotlar, demokratik jarayonlar va iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati jamiyat va davlat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi va shu bilan birga demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi. Ushbu tizimning taraqqiyoti inson huquqlari, qonun ustuvorligi va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatiga asoslanadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi qadimiy o’tmishdan buyon mavjud bo‘lsa-da, uning zamonaviy talqini XIX–XX asrlarda rivojlandi. G‘arb mamlakatlarida bu tushuncha davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institut sifatida qaralgan. Fuqarolik jamiyati institutlariga quyidagilar kiradi:

• Nodavlat notijorat tashkilotlari;
• Fuqarolar yig‘inlari va uyushmalari;
• Mustaqil ommaviy axborot vositalari;
• Jamoatchilik kengashlari.

Fuqarolik jamiyati davlatga qarshi turuvchi emas, balki uning faol hamkori sifatida qaralishi lozim. Mamlakatimizda bu prinsip asosida jamoatchilik institutlari faoliyatini qo‘llab quvvatlash siyosati yo‘lga qo‘yilgan. Yangi O‘zbekistonda qabul qilingan “Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot to‘g‘risida”gi qonun fuqarolik jamiyati rivojida huquqiy asosni mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni.

2.“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun, 2018 yil.

3.Mirziyoyev, Sh. M. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tishi. Toshkent, 2021.

4.Karimov, A. "Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari". –T., 2020.

5.Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2022 yil, 5-son

FUQAROLIK JAMIYATI VA SIYOSIY MADANIYAT: YOSHLARNING SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVI MASALALARI

Ergashov Zuhriddinjon,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Xalqaro munosabat" 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuvi jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. “Yangi O‘zbekiston” islohotlari, Yoshlar ishlari agentligi va siyosiy partiyalar tashabbuslarining yoshlar ongiga ta’siri yoritiladi. Yakunda ularning siyosiy faolligini oshirish va demokratik institutlardagi ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: siyosiy ijtimoiylashuv, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, yoshlar siyosati, Yangi O‘zbekiston, siyosiy faollik.

Kirish: XXI asrning ikkinchi yarmida globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot oqimining jadal rivojlanishi natijasida siyosiy tizimlar va ijtimoiy institutlar oldida tubdan yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, demokratik qadriyatlar barpo etilayotgan jamiyatlarda siyosiy ijtimoiylashuv, fuqarolik faolligi va siyosiy madaniyatni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar nafaqat siyosiy barqarorlik va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, balki fuqarolarning o‘zini anglash darajasi, mas’uliyat hissi va ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmagan holda, ayniqsa 2017-yildan boshlab siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarni yangi bosqichga ko‘tardi. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida olib borilayotgan o‘zgarishlarda yoshlar jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa ularning siyosiy ijtimoiylashuvi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ustuvor e’tibor qaratilishini taqozo etmoqda [1].

Yoshlar har qanday jamiyatning eng faol, dinamik va istiqbolli qatlamidir. Ularning siyosiy hayotdagi ishtiroki – bu faqat kelajakdagi demokratik jamiyat poydevorini yaratish vositasi emas, balki bugungi kunda mavjud siyosiy barqarorlik, ochiqlik siyosati va fuqarolik madaniyatining shakllanishida hal qiluvchi omildir. Shu nuqtai nazardan, siyosiy qadriyatlar, norma va qarashlarning yoshlarga qanday yetib borayotgani, ularning davlat va siyosiy institutlar bilan o‘zaro munosabati, siyosiy axborotga bo‘lgan qiziqishi va ishonch darajasi - bularning barchasi chuqur ilmiy tahlil va amaliy izlanishlarni talab etadi.

Asosiy qism: Ayniqsa, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy islohotlar - “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi, ochiqlik siyosati, “inson qadri” konsepsiyasi, Yoshlar ishlari agentligi faoliyati, siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari va boshqa jamoaviy tashabbuslar - yoshlarning siyosiy ongiga, ijtimoiy faolligiga va davlat bilan o‘zaro munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli makon va axborot texnologiyalarining kengayishi siyosiy ijtimoiylashuvning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda, bu esa yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyulda «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni va 2017-yil 18-iyulda «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi [2].

Ushbu meyoriy hujjatlarda yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yosh olimlarning jahon ilmiy maydonida raqobatbardoshliligini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarning intellektual mulk obyektlarini respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlariga joriy etish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar huzurida yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi “Yoshlar qanoti” tashkil etilgan. Bulardan ko‘zlangan asosiy maqsad – mamlakatning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishida yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yoshlarning ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish, ularda jamiyatimiz taraqqiyotiga to’siq bo'layotgan turli xil g‘oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarimizni e'zozlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarni faol ishtirok etishga chaqirish, barcha bo‘g‘inlardagi partiya organlariga saylanish, hokimiyat vakillik organlariga nomzodini ko'rsatish, partiya yig‘ilishlarida muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, takliflar kiritish, dasturiy maqsadlarni hayotga tatbiq etish jarayonlarida bevosita yoshlarning faol ishtirok etishini ta’minlashga intilish, yoshlar orasida yaratuvchanlik g‘oyalarini ilgari surishi hamda ularni hayotga tatbiq etish yuzasidan amaliy taklif va mulohazalar ishlab chiqish kabilardan iborat.

Bugungi kunda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, siyosiy madaniyatni yuksaltirish hamda yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvini jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. 2025-yilgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bu boradagi strategik yondashuvlar va amaliy choralarni yana bir bor namoyon etdi.

Xususan, 2025-yil 30-iyun kuni bo‘lib o‘tgan Yoshlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqida quyidagilarni ta’kidladi: *“Sizlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz. Bugun ta’lim, fan, texnologiya, san’at, sport, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarda sizlar erishayotgan yutuqlar xalqimizda haqli faxr va ishonch uyg‘otmoqda”* [3]. Mazkur fikrlar zamirida yosh avlodni milliy taraqqiyotning faol subyekti sifatida ko‘rish g‘oyasi mujassam. Bunday yondashuv yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi, ularning siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish jarayonlariga bevosita xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, 2025-yil 2-mayda hukumat tomonidan tasdiqlangan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”da quyidagi yo‘nalishlar belgilandi:

- fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvida ishtirokini kuchaytirish;

- jamiyatdagi ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish;
- yoshlarga yo‘naltirilgan huquqiy-ma’rifiy dasturlarni kengaytirish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga moliyaviy va huquqiy ko‘mak berish [4].

Ushbu qaror fuqarolik jamiyati institutlarini, xususan, yoshlar tashkilotlarini davlat siyosatining faol ishtirokchisi sifatida mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvini tizimli asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2025-yil aprel oyida Yevropa Ittifoqining O‘zbekistonda amalga oshirayotgan yangi fuqarolik jamiyati tashabbuslari doirasida bir qator loyihalar boshlangan bo‘lib, ular yoshlarning ijtimoiy faolligi, media savodxonligi va siyosiy ongini oshirishga qaratilgan. Bu kabi xalqaro hamkorliklar fuqarolik institutlarini demokratik islohotlar yo‘lida faol harakatga undash barobarida, yosh avlodning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonlarini global tajribalar bilan boyitadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida doimiy ravishda jamiyatdagi ochiqlik, ishtirokchilik va fuqarolik pozitsiyasining ahamiyatini ta’kidlab kelmoqda*: “Davlatni xalq bilan birga boshqarish, islohotlarni fuqarolik jamiyati bilan birga olib borish – bu biz tanlagan demokratik taraqqiyot yo‘lining ajralmas qismidir”* [5]. Ushbu g‘oya zamirida demokratik boshqaruvning ishtirokchilik modeli yotib, unda fuqarolarning nafaqat vakillar orqali, balki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilishda faolligi ta’minlanadi. Mazkur yondashuv fuqarolik jamiyatining siyosiy tizimdagi faolligini kuchaytirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlaydi hamda siyosiy madaniyatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat islohotlarining jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va ularning demokratik asosda amalga oshirilishi uchun zarur ijtimoiy-huquqiy zamin yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada O‘zbekiston yoshlarining siyosiy ijtimoiylashuvi nazariy asoslari va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilindi. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy islohotlar, yoshlar bilan bog‘liq davlat siyosati, siyosiy partiyalarning yoshlar qanotlari va Yoshlar ishlari agentligining faoliyati yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish va ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilayotgani aniqlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ochiqlik, ishtirokchilik va fuqarolik madaniyati tamoyillari asosida yoshlarning siyosiy faolligi oshirilmoqda. Natijada, yoshlarning demokratik institutlarda faol ishtirokini rag‘batlantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy chora-tadbirlar mamlakatning barqaror va demokratik taraqqiyot yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova, Dilrabo. "Yoshlar va siyosiy ijtimoiylashuv: ozbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning tasiri." Teoreticheskie aspektы stanovleniya pedagogicheskix nauk 4.16 (2025): 211-216.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // https://lex.uz
3. Mirziyoyev Sh. M. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari. Nutq, 30-iyun 2025 // https://president.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi. 2025-yil 2-may // https://regulation.gov.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Davlatni xalq bilan birga boshqarish – demokratik taraqqiyot yo‘li. –Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – 256 b.

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISHI

Xudiyorova Charos Baxtiyor qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sotsiologiya yo’nalishi talabasi
(+998976481900, xudiyorovac@gmail.com)

Annotasiya: Fuqarolik jamiyati - odamlarning o‘z tashabbusi bilan birlashishi, jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatishi uchun yaratilgan muhitdir. Yani, davlat faqat qonun chiqaradi va boshqaradi, lekin odamlarning kundalik hayotidagi muammolarini hal qilish, bir-biriga yordam berish, erkin fikr bildirish imkoniyati fuqarolik jamiyati orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, Konstitutsiya, nodavlat-notijorat, tashkilotlar (NNT), siyosiy partiyalar, mahalla instituti, jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalari (OAV), ochiqlik va shaffoflik, huquqiy madaniyat, zamonaviy O‘zbekiston.

Kirish. Har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun fuqarolik jamiyati muhim poydevor hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirdi[1]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu jarayon yangi bosqichga ko‘tarilib, xalqning siyosiy faolligi, tashabbuslari va davlat bilan muloqoti kengaydi[2]. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari yaratildi.

1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlab berdi[1]. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”(1996), “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”(1991), “Ommaviy axborot vositalari

to‘g‘risida”(1999)gi qonunlar fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridan boshlab siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yila boshladi.

Mustaqillikdan keyingi dastlabki (1991-2016) yillarda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari shakllana boshladi[4]. Biroq davlatning kuchli nazorati fuqarolik jamiyati erkinligining to‘liq namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qildi. Shunga qaramay, mahalla institutlari jamiyatni boshqarishda muhim ijtimoiy tuzilma sifatida rivojlanishni boshladi. Nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy hayotdagi roli asta-sekin kuchaydi. Bunga sabab, jamoat tashkilotlari yoshlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarda faoliyat yurita boshladi[6].

Yangi davr, ya'ni 2016-yildan to hozirgi kungacha Prezidentimiz rahbarligida fuqarolik jamiyati taraqqiyoti yangi bosqichga kirdi[3]. Bu davrning asosiy xususiyatlari: Xalq bilan muloqot va ochiqlik siyosati: Prezidentning virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, “Mening fikrim” portali orqali fuqarolarning davlat idoralari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi [7].

OAV va blogerlar faolligi: Ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik tashabbuslari kengaymoqda [7], muammolar erkin muhokama qilinmoqda. Mahalla tizimini mustahkamlash: Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilib[3], mahallaning ijtimoiy institut sifatidagi roli oshirildi. NNT faoliyati kengaydi: Turli ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi kuchaymoqda [6]. Gender tenglik va yoshlar siyosati: “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” va “Yoshlar ittifoqi” kabi tashkilotlarning roli ortib, ijtimoiy faollik kengaydi [5].

Kelajakda esa: Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari ishlab chiqilishi[2]. Huquqiy madaniyat va siyosiy faollikni oshirilishi [5]. OAV va raqamli texnologiyalar orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Zamonaviy O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu borada sezilarli yutuqlarga erishildi: siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, mahalla institutlari va OAV faoliyati kengaydi[5]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati tamoyillarining hayotga tatbiq etilishi fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga olib kelmoqda[4].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada kengroq ta’minlash yo‘lida izchil harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017.

4.O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991-yil.

5.O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1996-yil.

6.O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1999-yil.

7.Turaqulov S. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat nazariyasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.

4-SHO‘BA. UCHINCHI SEKTORNING JAMIYAT IJTIMOIY MODERNIZATSIYASIDAGI ISHTIROKI, KO‘PPARTIYAVIYLIK VA IJTIMOIY SHERIKLIK

O‘ZBEKISTONDA PARTIYAVIY TIZIMLAR FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVIDA SIYOSIY-FALSAFIY YO‘NALISHLARNING TA’SIRI

I.Ergashov,
O’zbekiston Milliy Universiteti
Siyosatshunoslik kafedrasi professori, s.f.b.f.doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida partiyaviy tizimlarning shakllanishi, ularning siyosiy tizimdagi o‘rni va faoliyatining takomillashuvi jarayonlari falsafiy hamda siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos siyosiy madaniyati, milliy qadriyatlari hamda demokratik islohotlar jarayonida shakllanayotgan zamonaviy partiyaviy tizimning falsafiy asoslari yoritilgan.

Kalit so’zlar: O‘zbekiston, partiyaviy tizim, siyosiy-falsafiy yo‘nalish, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, siyosiy pluralizm, demokratik islohotlar, g‘oyaviy barqarorlik, siyosiy faollik, siyosiy tizimning modernizatsiyasi.

Zamonaviy siyosiy fanlarda siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi eng ilg‘or nazariya hamda tajribalar, asosan, g‘arbiy yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Partiyaviy tizim tushunchasini, uning mohiyatini ochib berib, shu yo‘nalishda eng ko‘p va samarali tadqiqodlar olib borgan olimlar ham aynan rivojlangan g‘arb mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda siyosiy partiyalar, partiyaviy tizimlar yo‘nalishidagi tadqiqotlar, asosan, mamlakatning mustaqillikka erishishidan keyingi davrlariga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sari tashlanayotgan dadil qadamlar mamlakat siyosiy tizimida partiyaviy tizimlarning roli va ahamiyatini yanada oshishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan barcha sohalardagi, shu jumladan, siyosiy islohotlarda ham ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, chuqur tahlil qilinib ijobiy tomonlari implementatsiya qilinib kelinmoqda.

O‘zbekistonda partiyalar va partiyaviy tizimlar faoliyatini takomillashtirish, ularning fuqarolik jamiyati instituti sifatida jamiyatda erkin harakatlanishini ta’minlash maqsadida mamlakatning bosh qomusi hisoblangan Konstitutsiyada alohida moddalar mavjud.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 56-moddasidan 62-moddasigacha bo‘lgan qismida siyosiy partiyalar faoliyati belgilab berilgan. Masalan, 60-

modda. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar hamda o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta’minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkor hisobotlar berib turadilar.[1]

Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunlar ham mavjud bo‘lib, aynan bu qonunlarga ilg‘or xorijiy tajribalar mahsuli sifatida qarashimiz mumkin.

Bunday qonunlar quyidagi mamlakatlar uchun xosdir: GFR (1967-y.); Portugaliya (1975-y.); Avstriya (1975-y.); Ispaniya (1978-y. 1981-yilda qayta to‘ldirilgan); O‘zbekiston (1996-y). Quyidagi mamlakatlarda esa siyosiy partiyalarni moliyalashtirishga doir maxsus qonunlar qabul qilingan: Shvetsiya (1956-y.); Finlandiya (1969-y.); AQSh (1974-y.); GFR (1983-y.); O‘zbekiston (2004-y.). Ba’zi bir mamlakatlarda esa siyosiy partiyalarga doir huquqiy qoidalar saylovlar to‘g‘risidagi qonunlarda ifodalangan. [2]

Rivojlangan mamlakatlar zamonaviy partiyaviy tizimlarining ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularning ijobiy xususiyatlarini o‘zimizga moslab o‘zlashtirishimiz O‘zbekiston partiyaviy tizimining rivojlanishiga, demokratiya, fuqarolik jamiyatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy partiyaviy tizimlarining ilg‘or tajribalaridan birini Amerika Qo‘shma Shtatlari misolida ko‘rib chiqsak.

Amerika Qo‘shma Shtatlari federal boshqaruv tizimiga amal qiluvchi zamonaviy dunyoda demokratiyaning yuqori namunasi sifatida e’tirof etiluvchi, fuqarolik jamiyati institutlari eng rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida partiyaviy tizimning vujudga kelishi va rivojlanishi nisbatan erta boshlanganligi hamda u doimo o‘z zamonasida yetakchi namuna sifatida e’tirof etilganligi, uning tajribasini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni oshirib kelgan.

AQSh siyosiy tizimining eng muhim xususiyati bu mamlakat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan ikki partiyaviylikdir. Ushbu tizimga binoan hokimiyat tepasiga faqat ikki eng nufuzli siyosiy partiyalar keladi – Respublikachilar partiyasi (Republican Party) va Demokratik partiya (Democratic Party). Shu bilan birga, ko‘plab kichik milliy partiyalarning roli deyarli sezilmaydi.[3]

Umuman, demokratik partiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi aynan Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan bog‘liqdir. Partiyalar o‘rtasidagi raqobat masalalarida ham o‘z maktabiga, tajribasiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi yillarda AQShda Demokratlar va Respublikachilar o‘rtasidagi kurashlarda hokimiyat almashinuvining tez - tez kuzatilayotganligi, AQSh partiyaviy tizimining yangi bosqichga ko‘tarilayotganligidan dalolat bermoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlari va O‘zbekiston partiyaviy tizimining o‘xshash tomonlari ham mavjud bo‘lib, unga partiyalarning umummilliy manfaatlarga xizmat qilishi, ya’ni yagona maqsad doirasida birlashganligi, o‘z navbatida, shu yagona maqsad sari turli yo‘llar orqali, turli aholi qatlamlari manfaatlarining ustuvorligini ta’minlagan holda turli dasturlar vositasida intilishidir.

O‘zbekiston taraqqiyotida siyosiy partiyalar faoliyati barqarorlik omili sifatida ko‘rilishi so‘nggi yillarda siyosiy partiyalar faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Fuqarolik jamiyati instituti sifatida partiyalar jamiyatda o‘z o‘rnini topdi. O‘zbekiston taraqqqiyotida siyosiy partiyalarning ahamiyati, ularning erkin faoliyat yuritishlari uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda so‘z erkinligi, inson huquqlari himoyasi, umuman, barcha sohalarning leberallashishi kuzatilmoqda. Bunga jamiyatda qonun ustuvorligining ta’minlanishi, aholining siyosiy faolligi oshganligini, yangi shakllangan hukumatning siyosiy irodasini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Siyosiy partiyalar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan bir qancha islohotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Saylov Kodeksi» shaffof va demokratik ruhdagi saylovlarda partiyalar o‘rtasidagi raqobatning yanada sog‘lomlashishiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, shuningdek, alohida tartibda partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar mavjud. Ushbu qonunlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda eng rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi» deb belgilangan.[4] Konstitutsiyasining 56-moddasida Siyosiy partiyalar jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etilgan.

Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyati 1996-yilda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida», 2004-yilda qabul qilingan «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari orqali tartibga solinadi. Ularda siyosiy partiyalarni tuzish, ularni moliyalashtirish manbalari, faoliyatini to‘xtatib turish, tugatish masalalari aniq qilib belgilab berilgan.

Umuman olganda, hukumatni shakllantirgan partiyalar va unga oppozitsiyada bo‘lgan partiyalar o‘rtasidagi raqobat hamda boshqaruvga har doim muqobil variantning mavjudligi, hukumatning o‘z faoliyatiga tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarashini, shu bilan birgalikda ularning hisobdorligini oshirishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari va tashkilotlari vositasida barqarorlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. U davlat faoliyatida tang holatlar yuz berganida unga yordam beradi, jamiyat hayotini, yashashini ta’minlaydigan mustahkam tuzilmalar yaratadi.[5]

Yangilanayotgan O‘zbekiston partiyaviy tizimi faoliyati oldida turgan vazifalarning yangi ko‘rinishlarini ishlab chiqish va takomillashtirish yuzasidan takliflar:

1. 2017-yil 12-iyulda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida Prezident Sh.Mirziyoyevning “Hokim lavozimiga nomzod siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etilgan kadrlar orasidan tanlab olinadi, ya’ni hokim muayyan siyosiy partiyadan bo‘ladi. Buning uchun har bir siyosiy partiyada hokimlikka nomzodlar bo‘yicha kadrlar zahirasini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi” [6] deb ta’kidlab o‘tgan edi. Yangi O‘zbekiston sharoitida hokimlarni, shuningdek, vazirlik, qo‘mitalar rahbarlarini saylash amaliyotining joriy qilinishida siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlarni ilgari surish mexanizmlarini ishlab chiqish.

2.Partiya ko‘rsatgan nomzodlar hukumat tarkibiga saylanishi barobarida, partiya va uning elektorati oldidagi hisobdorligining oshirilishi, mansabdorlarning vazifasini bajara olmagan taqdirda chaqirib olish mexanizmidan foydalanish vakolati mavjud bo‘lishi va amalda ishlashi lozim. Bu hukumat tarkibining almashinuvchanligi oshiradi, shuningdek, islohotlarning yangilanib turishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3.Siyosiy partiya tomonidan saylangan deputatlarning vakolatlarini kengaytirish hamda ularning davlat va jamoat tashkilotlariga nisbatan ta’sir etish choralarini kuchaytirish lozim. Bunda deputatlik so‘rovi institutining nufuzini oshirish, unga javob bermaslik, javoblarga professional yondashuvning yo‘qligi yoki haqiqatdan yiroq ma’lumotlarni taqdim qilganlik uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish.

4.Yangi O‘zbekiston sharoitida barcha sohalarda islohotlar jadal amalga oshirilayotganligini hisobga olib, har bir partiya islohotlarga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini shu bilan bir qatorda rivojlanishning muqobil variantlarini o‘z elektorati oldida uchrashuvlar, tadbirlar, ko‘rinishida, shuningdek, OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq oshkora bildirib borishi lozim. Bunda siyosiy partiyalar, o‘z navbatida, davlat siyosatining targ‘ibotchisi vazifasini bajaradi.

5.Yangi O‘zbekiston sharoitida har bir partiya o‘z elektorati manfaatlariga mas’ul bo‘lgan davlat va jamoat tashkilotlari ustidan partiya nazoratini kuchaytirish, ularning bajara olmayotgan vazifalarini jiddiy tanqid qilishi, ularga nisbatan ta’sir choralarini kuchaytirish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali mazkur faoliyatni keng yoritishi elektorat ishonchining ortishiga sabab bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi imkoniyati cheklangan insonlarga mas’ul bo‘lgan “nogironlar jamiyati”, “ko‘rlar jamiyati” kabi jamiyatlarning faolligini oshirish orqali hukumatni mazkur qatlamga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratishiga erishish. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlar uyushmalarining faolligini oshirish orqali islohotlarni tadbirkorlarga yo‘naltirilishiga erishishi mumkin.

Partiyaviy nazoratning ahamiyatini oshirish orqali davlat va jamoat ishlari nazoratini kuchaytirish. Bunda ma’lum bir partiya faoliyatiga taalluqli yoki elektorati manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan partiya kengashlari tarkibida tuzilgan partiyaviy guruh nazoratini yo‘lga qo‘yish. Ularga vakolat va bo‘ysunish nuqtayi nazaridan erkinlik berish.

Siyosiy partiyalar qoshida partiyalarning zamonaviy siyosiy jarayonlarga transfomatsiyasi tahlilini hamda rivojlanish strategiyasini ishlab chiquvchi “Aql markaz”larni tashkil etish taklifi. Ushbu markazlarga jamoatchilik asosida partiya a’zolari orasidan yetuk, ko‘zga ko‘ringan siyosatshunos olimlar, siyosatchilar, deputatlar, iqtisodchilar, menejerlarni jalb qilish. Ushbu markazlarning vazifasi partiyaning yaqin va uzoq istiqbolda rivojlanish strategiyasi (masalan 3 yoki 5 yildan so‘ng partiyaning siyosiy maydondagi o‘rni, ularning dasturlarini zamonaviylashtirish, a’zolari soni, ularni ko‘paytirish omillari, moliyaviy ahvoli, uni yaxshilashning yo‘llari tahlil qilinadi va yangi yo‘llari taklif qilinadi)ni ishlab chiqish muhim o‘rin tutadi.

Globallashuv miqyosining tobora kengayishi, siyosiy pozitsiyalarning yangilanishi, ayrim integratsiyalarning tanazzul yoqasiga kelib qolishi mamlakatlarning siyosiy-partiyaviy tizimlari oldiga yangidan yangi muammolarni qo‘ymoqda. Hozirda dunyoning eng ilg‘or jamiyatlari partiyaviy tizimlari ham muammodan holi emas. Dunyoda kuzatilayotgan epidemologik vaziyatning murakkablashganligi insoniyat uchun yangi kasallik koronavirusning qurbonlari soni kun sayin ortib borayotganligi mamlakatlarning boshqaruv tizimini sinovdan o‘tkazmoqda. Aynan global muammolar hisoblangan pandemiya, iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy inqiroz, migratsiya inqirozi, chuchuk suv yetishmovchiligi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar, siyosiy partiyaviy tizimlarning ushbu muammolar yechimi yuzasidan yangi dasturlar ishlab chiqishini, shuningdek, faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU., 2023. – B. 20-21.

2.Современное буржуазное государственное право. Критические очерки. В 2 т. Отв. ред. В.А.Туманов. Т. 2. –М.: Наука, 1987. – С. 156.

3.Особенности партийной системы США ttps://news_enc.academic//

4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU., 2023. – B. 19.

5.O‘tamuradov A. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fu?arolik jamiyati. Uslubiy qo‘llanma. - T.: Info Capital Group, 2019. - B. 16.

6.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, - 2017.–B. 563.

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA JAMOAT TASHKILOTLARINING O‘RNI

Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich,
O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti,
siyosiy fanlar nomzodi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishning o‘ziga xos yo‘li va jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muammolarni bartaraf etish masalalari haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so`zlar: Jamoat tashkilotlari, bozor munosabatlari, iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, barqarorlik, ma’rifat va ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy an’analar, va progmatik siyosat.

Mamlakat ijtimoiy hayotining barcha jabhalari, jumladan, davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish jarayonlari chuqurlashib, yangi ma‘no va mazmun kasb etayotgan ayni kezda hukumatga qarashli bo‘lmagan nodavlat tuzilmalarning hamda jamoat tashkilotlarining nufuzini oshirish katta ahamiyatga molikdir. Chunki fuqarolarning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy - madaniy faolligini va insonning to‘liq iqtidorini ushbu nodavlat tashkilotlar orqali oshirish mumkin.

“Shuni alohida ta’kidlash kerakki, – degandi birinchi Prezident Islom Karimov ijtimoiy hayotning siyosiy sohasiga urg‘u berar ekan, – nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat tuzilmalari faoliyatini muayyan ma‘noda to‘ldirish, ularga nisbatan ma’lum bir muvozanatni ta’minlovchi vosita vazifasini bajarishi kerak” [1].

Demak, ushbu tizim orqali ham odamlar o‘z orzu - intilishlarini ochiq ifoda etgani holda, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish huquqiga egadirlar. Biroq ijtimoiy himoyani amalga oshirishda davlatning o‘rni beqiyosligiga alohida urg‘u berib o‘tish lozim. Chunki faqatgina davlat bu kabi ishlarni amalga oshirishda eng kuchli ijtimoiy siyosatga oid muhim o‘z qarorlarini qabul qiladi.

Ijtimoiy siyosatning har bir jabhasi inobatga olinishi shartligini ta’kidlab, g‘arb olimlaridan biri Richard Titmuss uning asosiy uch jihatini ko‘rsatib o‘tadi:

1.“Ijtimoiy ta’minot” (yoki farovonlik), qaysiki o‘zida an’anaviy ijtimoiy xizmat turlarini namoyon etadigan va o‘z navbatida, davlat tomonidan farovonlikning ta’minlanishini ko‘zda tutadi.

2. Soliq tizimi orqali “Moliyaviy farovonlik” taqsimlanadi.

3. Sanoat orqali “Bandlilik darajasi”ga erishiladi [2].

Demak, Titmussning tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘sha vaqtda, ya’ni 1950 - 1960 - yillarda g‘arbda ijtimoiy boshqaruv an’anaviy sohasining asosiy kengayishini yoritgan bo‘lsada, garchi uning ortidagi mantiqiy asos hech qachon to‘lalligicha tushunarli bo‘lmagan. Agar tasvirlangan “ijtimoiy bo‘linish” bizga tabaqalanish va bo‘linishning yo‘llarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa ham, u hech bir jihatdan to‘liq emas.

“Moliyaviy farovonlik” kategoriyasi tabaqalanish – bo‘linishning ikkita keskin farqli qayta bo‘linish turlarini o‘z ichiga oluvchi sifatida tushunilishi mumkin. Birinchisi insonlarning axloqi, hatti – harakatlariga ta’sir etuvchi mezonlar. Ikkinchisi esa, daromadni saqlash, daromadni taqsimlash va odamlarning yashash darajasini himoyalashga qaratilgan.

“Sektor”larga murojaat qilinganida hozirda ijtimoiy siyosatni o‘rganishga aloqador bo‘lgan eng muhim kategoriyalardan biriga olib keladi, qaysiki farovonlik uchun xizmat qiladigan sohalarning bo‘linishi bir qator ijtimoiy mexanizmlar orqali (davlat aralashuvisiz) amalga oshadi.

Fuqarolar turmush farovonligi va barqarorligini ta’minlashda jamiyat to‘rt asosiy sektorga tayanishi muhimdir. Bular: ijtimoiy (davlat), xususiy, erkin va norasmiy.

Ijtimoiy sektor davlat tomonidan ta’minlanadigan xizmat turlaridan tashkil topadi. Xususiy sektor esa tijorat orqali xizmat ko‘rsatadi. Erkin sektorlar beg‘araz yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar (garchi ayrim mamlakatlarda xususiy sektorning faoliyati shuningdek “erkin” deb ham sanaladi). Nihoyat, norasmiy sektor do‘stlar, qo‘ni – qo‘shnilar va oilalar yoki ko‘pincha oiladagi yetakchilar tarafidan amalga oshiriladi.

Bugun Yangi O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilmoqda. Bunda davlat hokimiyati organlarining vakolatlari bosqichma – bosqich o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarga topshiriladi. Shuning negizida bu tashkilotlar fuqaro - jamiyat - davlat

mushtarakligini ta’minlaydi. Aynan mamlakatdagi nodavlat va jamoat tashkilotlari to‘g‘ri faoliyat yuritsagina, o‘ziga xos adolat tarozisining muvozanati ta’minlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan bu ko‘ngilli o‘z-o‘zini boshqaruvchi tashkilotlar daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagani holda, olingan daromadni o‘z a’zolari o‘rtasida taqsimlamaydigan nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyat yuritadi. Bu tashkilotlar jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, demokratik qadriyatlarni e’zozlash, madaniy - ma’rifiy maqsadlarga erishish, xayriya faoliyatlarini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

“Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomi quyidagilar bilan belgilanadi”, – deydi yuridik fanlar doktori, professor A.Saidov va ularni alohida- alohida tarzda sanab o‘tadi:

“Birinchidan, o‘z ustavi Konstitutsiyaga va qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lgan taqdirda, uni adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish huquqiga ega;

Ikkinchidan, o‘zining ijtimoiy ahamiyatli loyihalarini amalga oshirish uchun har qanday qonuniy asosda ishlab turgan dunyoviy tashkilot va fuqarolardan homiylik yordami olishi mumkin;

Uchinchidan, mamlakat mintaqalarida o‘z filiallarini yoki boshqa tarkibiy bo‘linmalarini tuzadi, boshqa nohukumat tashkilotlarining muassasalari bilan hamkorlik qilishi mumkin;

To‘rtinchidan, ijodiy, xayriya, madaniy - ma’rifiy axborotga oid, ijtimoiy ko‘maklashuvga oid va jamiyat uchun foydali boshqa faoliyatni amalga oshiradi;

Beshinchidan, zarurat bo‘lganda, muhtoj fuqarolar yoki boshqa nohukumat tashkilotlarni huquqiy jihatdan qo‘llab - quvvatlaydi;

Oltinchidan, o‘z ustavi doirasida xalqaro faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va chet el nodavlat tashkilotlari bilan aloqa bog‘lashi mumkin;

Yettinchidan, davlat hokimiyat vakillik organlariga saylov kompaniyalarida yoki boshqa siyosiy faoliyatda ishtirok etmaydi;

Sakkizinchidan, odamlar sog‘ligiga va ruhiyatiga zararli, O‘zbekiston xalqining ma’naviy va madaniy qadriyatlariga putur yetkzishga qaratilgan faoliyat olib bormaydi” [3].

O‘zbekistonda nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘llari davlatning tashkiliy va madaniy - ma’naviy qo‘llab - quvvatlashi asosida ham shakllanmoqda. Qisman hukumatga qarashli holda tuzilgan bir qator jamg‘armalar va markazlar faoliyati bunga misol bo‘la oladi.

Jamoat birlashmalari (tashkilotlari) esa, o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologik va hayotning

boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarishi uchun ixtiyoriylik asosida vujudga keladigan tuzilmadir. Jamoat birlashmalari:

– fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar va erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish;

– fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;

– kasb - kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlarni rag‘batlantirish hamda ularning faoliyatini rivojlantirish;

– aholining sihat - salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish, madaniy - ma’rifiy, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish;

– tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish;

– vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

– respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash;

– qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi [4].

Demak, nodavlat va jamoat tashkilotlari o‘zlarining alohida vazifalaridan tashqari umummamlakat taqdiri uchun ham mas’uldirlar.

Istiqlol sharofati bilan nodavlat va jamoat tashkilotlarining tizimi miqdor va sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Bugun ularning soni 15000 (o‘n besh ming)ga yaqin. Nodavlat tashkilotlar faoliyat ko‘rsatish doirasiga qarab mamlakatning ichidagi va xalqaro tashkilotlarga bo‘linadi.

Faqat bundan mustasno tariqasida jamoat birlashmalari mamlakat ichida tashkil qilinadigan tashkilotlar sanaladi.

Xalqaro nodavlat tashkilotlarining faoliyati xalqaro hujjatlar asosida tashkil etilsa, mamlakat ichkarisidagi nodavlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan idora qilinadi. Ular faqat aholi fikrini turli ko‘rinishlarda ifoda etish bilan cheklanmasdan, balki fuqarolar ijtimoiy fikrlarining shakllanishida faol ta’sir o‘tkazishlari lozim.

“Jamoat tashkilotlarining hokimiyat faoliyati ustidan nazorati aniq mexanizmlarga tayanishi lozim. Bu mexanizmning asosini uchta muhim tamoyil –qonuniylik, tanqid muhiti va oshkoralik tashkil etadi” [5].

Aholi muayyan toifalarining ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yurituvchi umummilliy nohukumat tashkilotlari sirasiga “Mahalla” xayriya jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi va “Nuroniy” faxriylar jamg‘armasi kirardi.

Jumladan, O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamg‘armasi 1992 - yil sentabrida tashkil topgan bo‘lib [6], uning Qoraqalpog‘iston, barcha viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, tumanlarda bo‘limlari faoliyat ko‘rsatdi.

Jamg‘armaning asosiy vazifasi – urf - odat va an’analarimizni, madaniy merosimizni, milliy hamda ma’naviy qadriyatlarimizni asrab – avaylash, insonparvarlik, vatanparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, mahallalar va unda yashovchi aholi o‘rtasida ma’naviy - ma’rifiy va madaniy ishlarni kuchaytirish, fuqarolarning ekstremizm, terrorizm va narkomaniya illatlariga qarshi immunitetini oshirish, shuningdek, mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat.

2017 - yilga qadar mazkur jamg‘armalar faoliyatlarining takomillashishida turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilikning yordami katta bo‘ldi. Shu sababdan moliyaviy jihatdan bu tashkilotlar o‘zining tayanch kuchiga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini Respublika Mehnat va ijtimoiy ta’minot, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Ichki ishlar vazirliklari, Respublika Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O‘zbekiston Xotin - qizlar qo‘mitasi, Din ishlari idorasi, Yozuvchilar uyushmasi hamda “Nuroniy” va “Navro‘z” kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib bordi.

Shuningdek, jamg‘armaning bir necha xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi mavjud bo‘lib, masalan, BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Yevroosiyo, “YUNISEF” hamda Londondagi Markaziy Osiyo tadqiqot forumi shular jumlasiga kiradi.

Endilikda dunyo jamoatchiligi, ayniqsa, rivojlangan davlatlar O‘zbekistonda aholi o‘zini o‘zi boshqaruvining eng demokratik shakli rivojlanayotganligini e’tirof etayotganligi hech kimga sir emas.

O‘zini o‘zi boshqarish organlari qoshida xalq donishmandligi, Respublika o‘quv - axborot markazi, xotin - qizlar va yoshlar bilan ishlash jamoatchilik kengashi faoliyat yuritib kelmoqda. Uning maxsus organi “Mahalla” gazetasi chop etilmoqda.

Bugungi kunda “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab – quvvatlash” vazirligi tasarrufida “Obod va xavfsiz mahalla” jamg‘armasi faoliyat yuritmoqda.

Umuman, “Mahalla” mamlakatimizning buguni va kelajagi uchun sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashdek, oilalar, mahallalar va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashdek ulkan ishlarda asosiy tayanch bo‘lib boraveradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7 - 8 - moddalariga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi bo‘lib, millatidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari hisoblanadi[7]. Hokimiyatni boshqarishni amalga oshirishda jamiyat fuqarolarining ishtiroki demokratiyaning ajralmas qismi sanalsa, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv masalalariga qaratilgan bosqichma – bosqich e’tibor, fuqarolik jamiyatining o‘zagini tashkil etadi. Shuning uchun ham 1993 - yil 2 - sentabrda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi (dastlabki) qonuni qabul qilingan edi va 1999 - yil 14 - aprelda ushbu qonun

mukammallashtirilib, ushbu davr uchun yangi tahrirda qabul qilindi [8]. Konstitutsiya va mazkur qonunlar asosida ko‘p vaqtlar yagona tizim deb qaralgan mahalliy vakillik organlari tizimi va o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimi bir - biridan ajratildi. Natijada, ularning davlat va jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatlari bir qadar oshirildi va ular faoliyatining Konstitutsiyaviy asosi mustahkamlandi. Mahalliy davlat organlari tizimidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimi ajratilgan bo‘lsada, ular bir – biridan mutlaqo holi tarzda emas, balki faoliyat mezonlari mushtarak bo‘lib, jamiyatning buguni va ertasi uchun mas’ul organ sifatida mahalliy – hududiy ahamiyatga moliya masalalarni birgalikda hal qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘n mingga yaqin o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyat yuritmoqdalar. Ular tarkibidagi oilalar soni esa 9 milliondan ortiqroqni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ana shu mahallalar ko‘pgina muammolarni hal etishda, kishilarni iymon - e’tiqodli, mehr - shafqatli, Vatanga sadoqatli tarzda tarbiyalashda va azaliy yaxshi odatlar bilan foydali yangiliklarni birga qo‘shishda muhim rol tutadi. Bundan tashqari, tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash, huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, keksalar va yosh bolali oilalarga hamda qarovchisini yo‘qotgan muhtojlarga mehr - muruvvat ko‘rsatishdan tortib, hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, atrof – muhitni ozoda tutish va jamoat tartibini saqlash kabi masalalar bilan jiddiy shug‘ullanishi, shuningdek, ba’zi muammolar yuzasidan mahalliy hokimiyat idoralariga takliflar kiritishi mumkin. Aslida ham O‘zbekiston uchun mahalla – xalq qadriyatlarining ko‘zgusi, kelajagi buyuk davlatimizning ustunidir. Ezgulik beshigi, tarbiya o‘chog‘i sanalgan, qariyb ikki ming yillik taraqqiyot tajribasiga ega bo‘lgan mahallada minglab vatanparvarlar, allomalaru mutafakkirlar yetishib chiqqan. Unda odamlar ahillikda, yaxshi qo‘shnichilikda va quda – andachilikda yashab kelganlar. Bugun ham ana shu an’analarni davom ettirish mahalla zimmasidagi ulkan mas’uliyatlardan biri sanaladi. Chunki mahalla insofu diyonat, mehr - oqibat maskani hisoblanar ekan, u kerak bo‘lsa, tartibga chaqiruvchi, lozim topsa, odamlarga muruvvat ko‘rsatuvchi rasmiy idoradir.

O‘zbeklarning mahalla - mahalla bo‘lib, o‘ziga xos an’analar asosida o‘zini o‘zi idora qilib yashashlari va ko‘pincha muammolarni birgalikda oqsoqollar kengashida ko‘rib chiqilayotganligi milliy turmush tarzimizning muhim bo‘g‘inidir.

Mamlakatimizda bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg‘armasi, respublika bolalar “Kamalak” tashkiloti va Respublika talabalar jamg‘armasi kabi umummilliy xayriya jamiyatlaridan tashqari, ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg‘armalar: “Ekosan”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Zamin” xayriya fondi, O‘zbekiston madaniyati va san’atini targ‘ib etuvchi va chet elda

ta’lim oluvchi iqtidorli pedagog va talabalarni qo‘llab - quvvatlovchi jamg‘armalar ham mavjud. Matbuotni demokratlashtirish va jurnalistlarni qo‘llab - quvvatlash ijtimoiy- siyosiy jamg‘armasi hamda Orolni qutqarish jamg‘armasi shular jumlasidandir.

Ijtimoiy ahamiyatga molik – “Ijtimoiy fikr”, “Yoshlar kelajagimiz” kabi markazlar o‘quvchi - yoshlarning ijtimoiy ma’rifat, jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazlari, ekologik masalalari bilan shug‘ullanuvchi mahalliy birlashmalar, O‘zbekistonda yashovchi aksariyat millat va elatlarning madaniyati, qadriyatlarini saqlab qolish maqsadida tuzilgan yuzdan ziyod milliy madaniyat markazlari hamda Samarqanddagi ayollar va bolalarga ruhiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi nohukumat “Sabr” ishonch markazi faoliyatlari ham muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Endilikda mamlakat aholisining ijtimoiy himoyasidan kelib chiqib, Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 - yil 29 - iyun kuni “Yoshlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Shu qarordan kelib chiqib, 2023 - 2027 - yillarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha 7 bobdan iborat konsepsiya qabul qilindi va 14 ta hududiy birlikda qaror va konsepsiya ijrosini amalga oshirish belgilandi. Bunda “Vatan ulug‘, burch – muqaddas” konseptual g‘oya asosida yoshlarni birlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunga muvofiq yoshlarning o‘zini ijtimoiy hayot tushunchasi bilan tarbiyalashni e’tiborimiz markaziga qo‘yishdir.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, vatanparvarlik tuyg‘usi harbiy sohani anglash, his qilish va idrok orqali yanada mustahkamlanadi. Chunonchi, yuqoridagi huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy - ma’rifiy va siyosiy omillardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 23 - avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022 - yil 8 - sentabrdagi “Harbiy xizmatchilarning axloqiy - ruhiy tayyorgarligi va jangovor ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash mamlakat taraqqiyoti uchun muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi taklifni ilgari suramiz. Harbiy sohaga oid o‘qitiladigan biror bir fan uzluksiz ta’limning uch bosqichida haftada bir marta o‘qitilishi zarur deb hisoblaymiz. Bular maktab, o‘rta - maxsus va oliy o‘quv yurtlarida, shuningdek, mazkur soha xizmatchilarini uy - joy bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirish, oylik maoshlarini bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib bir necha bor oshirishni barqarorlikning omili sifatida anglashimiz kerak. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimiz yoshlarini umuminsoniy,

intellektual g‘oyalar atrofida birlashtirayotgan respublika yoshlar tashabbuslari markazining faoliyati tahsinga sazovor. Aynan shu markaz O‘zbekiston aholisining 64 foizini tashkil etuvchi ilmga chanqoq, fidoyi yoshlarni “Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi” g‘oyasi orqali kashf etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston, 2000-yil. -B.7-8.
2. Spiker P. Social policy. –London: Themes and approachyes, 1995. -P.105-106.
3. Saidov A. Demokratik huquqiy davlatda nodavlat notijorat tashkilotlarning o‘rni. //Qonun himoyasida. 2000-yil, 10-son. –B.5.
4. Husanov O., Mahmudbekov Sh., Azizov X. Davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish va ularning huquqlarini muhofaza etish. //O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. To‘plam. -T.: O‘zbekiston, 2000-yil.–-B.216.
5. O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida. -T.: Akademiya, 2005-yil. –B.115.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992-yil. [1]11. 438-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2023-yil. II-bob. –B.7.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni. –T., 2001-yil.

FUQAROLIK JAMIYATI SIYOSIY HAYOTI TAKOMILIDA SIYOSIY PARTIYALAR VA PARTIYAVIY TIZIMLAR AMALIYOTI

Qarshiyev Nurmuhammad

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining siyosiy hayotida siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarning tutgan o‘rni hamda ularning demokratik jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi. Unda siyosiy partiyalar jamiyatda siyosiy faollikni oshirish, ijtimoiy manfaatlarni ifoda etish va davlat boshqaruvida fuqarolik nazoratini kuchaytirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: fuqarolik jamiyati, siyosiy partiyalar, partiyaviy tizim, siyosiy jarayon, demokratiya, siyosiy ishtirok, siyosiy madaniyat.

O‘tish davrida jamiyatda mavjud mafkuraviy bo‘shliqlarni to‘ldirgan holda uni to‘g‘ri rivojlanish yo‘li sari boshlovchi asosiy institutlardan biri

partiyalardir. Ushbu murakkab davrda siyosiy partiyalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishimiz tadqiqotimizning dolzarb muammolaridandir. O‘tish davrida siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy kamchiliklari, imkoniyatlari, jamiyat uchun murakkab hisoblangan ma’lum bir vaqt oralig‘ida uni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarishdagi roli nimalardan iborat ekanligini tahlil qilishimizga imkon beradi.

Jamiyatning o‘tish davri xususiyatlarini nazariy jihatdan I.V.Blauberg, E.G.Yudin, A.N.Averyanov, A.I.Uemov, V.G.Afanaseva, V.N.Sadovskiy kabi olimlar tadqiqotlarida o‘rganishgan.

O‘tish davri partiyalari ko‘pincha ilk bosqichda tom ma’noda mustaqil va amaldagi hukmron partiyaga nisbatan faol oppozitsiyada bo‘lmasada yangi tizim partogenezisiga asos solib beradi. Bu esa, o‘z navbatida, partiyalarning siyosiy kuch sifatida shakllanishida eng muhim omillardan hisoblanadi. Partiyalarning siyosiy kuchini elektorat, ularning siyosiy qarashlari va manfaatlari tashkil qiladi. Elektoratning siyosiy faollik darajasi o‘tish davri partiyalarining nufuzini belgilab beradi. O‘tish davri partiyalari jamiyatni o‘z ortidan ergashtira oluvchi mafkuralar bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim.

Siyosiy tartibot kontekstida siyosiy-partiyaviy tizimlarning o‘zgarishi nazariyalari zamonaviy siyosiy fanlarning keng o‘rganilayotgan sohalaridan hisoblanadi.

Siyosiy-partiyaviy tizimlar transformatsiyasi jarayonini ko‘plab siyosatshunos olimlar P.Meyr, R.Inglxart, A.Ariana, M.Shamir, K.Janda, R.Xarmel, S.Lipset, S.Rokkan, L.N.Alisova, A.B.Ponomarenko, A.I.Solovyov va boshqalar o‘rganishgan.

1970-1980-yillarda G‘arbiy yevropaning partiya tizimlarini qamrab olgan umumiy rivojlanish tendensiyasi ilmiy adabiyotlarda «partiya tizimidagi o‘zgarishlar» (party system change) tushunchasi bilan belgilana boshladi.[1]

Katerina Triyma, Kostantin Karaman, Vladislav Parlik va Mariya Svietlakovalarning “Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning siyosiy partiyalarining transformatsiyasi” deb nomlangan maqolasida yevropa partiyaviy tizimlari transformatsiyasiga ta’sir etayotgan ichki va tashqi omillarga to‘xtalib o‘tilgan. Umuman yevropa integratsiyasining, jahon moliyaviy inqirozining, migratsiya inqirozlarining partiyaviy tizimlar transformatsiyasiga ta’siri to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Partiya tizimining transformatsiyasi to‘g‘risida ko‘plab olimlarning turlicha qarashlari mavjud. Masalan, P.Mayr partiyaviy tizim va uning transformatsiyasi to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan:

Partiya tizimini tashkil etadigan xususiyatlar aniqlangandan so‘ng, har xil partiyaviy tizimlarni aniqlash va shu sababli har qanday tizimning bir turidan ikkinchisiga o‘zgarganligini aniqlashga imkon beradigan mezonlarni belgilash mumkin bo‘ladi. Qaysidir ma’noda bu bizni eng sodda va aniq ta’rifga olib

kelishi mumkin: partiyaviy tizim o‘zgarishi partiyaviy tizim bir sinfdan yoki boshqa tizim tipidan ikkinchisiga aylanganda sodir bo‘ladi.[2]

J.Sartori o‘zining partiyaviy tizimlar o‘zgarishi bilan bog‘liq tadqiqotlarida partiyaviy o‘zgarishlarga oid kichik o‘zgarishlar ham katta natijalarga olib kelishi mumkinligiga urg‘u beradi. Shu bilan birgalikda saylov jarayonlarining o‘zgarishlarga ta’siri yoki o‘zgarishlarning yakundagi saylovlardagi natijadorlikka ta’siri to‘g‘risida fikrlarni bildirib o‘tgan.

Taniqli nemis olimi O.Kirkxeymer o‘z ilmiy izlanishlarida partiyaviy tizimlar o‘zgarishlari ularning saylovlar bilan bog‘liq emasligini tadqiq qilgan. Uning izlanishlari natijasida partiya va partiyaviy tizimlar o‘zgarishi ko‘proq mafkuraviy hamda raqobat darajalarida o‘zgaradi degan fikrni ilgari suradi. U partiyaviy o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tgan.

G‘arb siyosatshunosligida «partiya tizimining o‘zgarishi» tushunchasini aniqlashga uchta asosiy yondashuvni ajratish odat tusiga kirgan. Birinchi yondashuv partiya tizimlarining klassik miqdoriy tipologiyalariga asoslangan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, partiya tizimidagi o‘zgarish bu tizimning bir turdan ikkinchisiga o‘tishidir. Xususan, partiya tizimidagi o‘zgarish ikki partiyali tizimdan cheklanmagan plyuralizm tizimga o‘tish deb hisoblanadi. Ushbu yondashuvga A.Ariana, M.Shamir kabi tadqiqotchilar qattiq rioya qilishgan.[3]

Ikkinchi yondahuv vakillari partiya tizimidagi o‘zgarishni uning asosiy o‘lchovlari dinamikasi sifatida belgilaydilar. Ushbu yondashuv vakillari partiya tizimidagi o‘zgarishlarni bir yoki bir nechta o‘lchovlarning o‘zgarishi sifatida izohlaydilar.[4]

Uchinchi yondashuvga ko‘ra, partiyalar tizimidagi o‘zgarish partiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va raqobat modellarida o‘ziga xos yangilikdir. M.Pedersen ta’kidlaganidek, partiya tizimidagi o‘zgarishlarni tavsiflash uchun parlament va hukumat, partiya tashkiloti va elektoratning ishlash darajasini ko‘rib chiqish zarur. Binobarin, partiya tizimidagi o‘zgarish bu uchta darajadagi va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda raqobat shakllarining o‘zgarishlarini qamrab oluvchi kompleksidir. [5]

Shunday qilib, G‘arbiy ingliz tilidagi nutqda partiya tizimidagi tebranishlarni yoki uning dinamik o‘lchovini ko‘rsatish uchun transformation (transformatsiya), shift (siljish), alteration (o‘zgarish) kabi atamalardan keng foydalaniladi. Ular party system change (partiya tizimining o‘zgarishi), transformation of party system (partiya tizimining transformatsiyasi), party change (partiyaning o‘zgarishi), electoral shift (saylov siljishi) kabi murakkab tushunchalarni shakllantiradi. Agar G‘arb siyosatshunosligida transformation of party system (partiyaviy tizim transformatsiyasi) va party system change (partiyaviy tizimning o‘zgarishi) tushunchalari sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, unda party change (partiya o‘zgarishi) kabi tushuncha butunlay boshqacha hodisani bildirishga qaratilgan.

Inson paydo bo‘libdiki, o‘ziga yashash uchun qulay muhit yaratishga harakat qiladi. Bu yo‘lda ular qadimdan jamoa bo‘lib, muayyan qabila va guruhlarga birlashib yashashi afzal ekanligini tushunishgan. Uzoq bosqichli rivojlanish jarayonidan so‘ng ma’lum qoidalar amal qiladigan jamiyatlar vujudga keldi. Bugungi kunda insonlarning o‘zlari uchun eng qulay sharoitlarda erkin yashashlarini ta’minlaydigan eng yaxshi jamiyat sifatida fuqarolik jamiyati e’tirof etiladi.

Kuchli fuqarolik jamiyatini qurishda siyosiy partiyalar aholining siyosiy manfaatlarini ifodalovchi, davlat va jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tovchi asosiy institut hisoblanib, ushbu vazifani bajarish barobarida o‘zining oldiga qo‘ygan mafkuraviy vazifasini ham bajarishga harakat qiladi. Siyosiy partiyalar o‘z kadrlarining boshqaruvda muhim hisoblangan lavozimlarga joylashtirish orqali institut sifatida jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlab boradi. Bizga ma’lumki, kuchli fuqarolik jamiyatida siyosiy institut sifatidagi davlatning aksariyat vakolatlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektorga uzatilishi bilan xarakterlanadi. Aynan bu jarayonlar siyosiy tartibot, siyosiy tizimning jamiyat uchun yaratib bergan imkoniyatlariga bog‘liqdir. Demak, fuqarolik jamiyatini barpo qilishda siyosiy tizimning ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati – bu “davlat va shaxsiy hayot o‘rtasida joylashgan siyosatning tashkiliy qatlami, umumiy maqsadda birlashtirilgan odamlarning ixtiyoriy birlashmalaridan iborat...”. U yerda umumiy maqsadlarga erishish uchun uyushtirilgan fuqarolar guruhlari yashaydi. [6]

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy siyosiy fanlarda aynan bir qolipga solingan ta’rifi yoki shakli mavjud emas, shuning uchun ham fuqarolik jamiyati tushunchasi dolzarb hisoblananib, ko‘plab olimlar tomonidan turlicha ta’riflanadi.

Fuqarolik jamiyati mohiyatan yakka holdagi individning ijtimoiy-siyosiy muhit bilan munosabatida o‘zini qulay va manfaatdor his qilishini tushunish mumkin. Jamiyatda individning rivojlanishi tarixidan kelib chiqadigan bo‘lsak, fuqarolik jamiyatining genezisi G‘arbiy yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan. Shuning uchun tadqiqotlarning aksariyati rivojlangan yevropa davlatlari olimlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

J.Koen, E.Arato, D.Grin, M.Uolser, L.Yakobson, E.Gellner singari olimlar fuqarolik jamiyati hodisasiga kompleks yondashgan bo‘lishsa, R.Dvorkin, A.Seligman, M.Plattner kabi olimlar fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtayi nazaridan talqin etishgan. Fuqarolik jamiyati muammolari D.Bell, S.Uayt, S.Benhabib, N.Freyzer va hokazo olimlarning liberalizmga qarshi bo‘lgan ta’limotlarida ham namoyon bo‘ldi. Fuqarolik jamiyati «barcha balolarning davosi» ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar ham g‘arbda yaratilgan tadqiqotlardan o‘rin olgan bo‘lib, A.Seligman, M.Uolser,

Ch.Teylor kabilarni ularning qatoriga qo‘shish mumkin. D.Grinning guvohlik berishicha, fuqarolik jamiyatining tabiati, uning liberalizm bilan munosabati F.Xayek va M.Novaklar tadqiqotlaridan keng o‘rin olgan. [7]

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatida aholiga siyosiy jarayonlarda faol bo‘lish imkoniyatini taqdim etib, bevosita yoki bilvosita davlat boshqaruvida ishtirokini ta’minlaydi. Siyosiy partiyalarning ma’lum guruh va qatlamlar manfaatini ifodalashidan kelib chiqsak, fuqarolik jamiyatida ko‘ppartiyaviylik tizimi amalda bo‘ladi. Demak, bir nechta guruhlarning partiyalarga birlashib siyosiy maydonda saylovlar orqali hokimiyat uchun sog‘lom kurash olib borishi, bu fuqarolik jamiyatining ko‘rinishi va asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda siyosiy partiyalar guruh, qatlamlarning fuqaroviy manfaatlari asosiga quriladi va to‘liq ularga xizmat qiladi. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy muammolarning ko‘lami ortib borgan sari siyosiy partiyalarning ham faoliyat yo‘nalishlari shunga mos ravishda o‘zgarib bormoqda.

Inson manfaatlari va huquqlari ustuvor bo‘lgan erkin fuqarolik jamiyati qurishni siyosiy partiyalar ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday qilib, partiya fuqarolik jamiyatining asosiy ishlash mexanizmlaridan biri hisoblanib, uning asosiy qadriyati demokratiyani saqlash kafolati bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inglehart R., Flanagan S.C. Value Change in Industrial Societies // The American Political Science Review, 1987. Vol. 81. No. 4. –P. 1296-1298.
2. Peter Mair. Party System Change Approaches and Interpretations CLARENDON PRESS. – OXFORD, 2002. –P. 52.
3. Arian A., Shamir M. Candidates, parties and blocs: Israel in the 1990s. // Party Politics, 2001. Vol. 7. No. 6. – P. 705.
4. Lane J.-E., Pennings P. Comparing Party System Change. – N.Y.: Routledge, 1998. – P. 5-6.
5. Педерсон М. Электоральная неустойчивость в Западной Европе, 1948-1977 // Партии и выборы: Хрестоматия/Ред. и сост. Анохина Н.В, Мелешкина Е.Ю. Ч. 1. – М.: Union, 2004. – С. 93-103.
6. Michael Bernhard, Allen Hicken, Christopher Reenock, Staffan I. Lindberg. Parties, Civil Society, and the Deterrence of Democratic Defectio // Studies in Comparative International Development, 2020. 55:1.
7. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo‘rayev Q., va boshq. / Fuqarolik jamiyati asoslari: o‘quv qo‘llanma. Davlat boshqaruvi akademiyasi. - Toshkent, 2015. – B. 32.

SIYOSIY PARTIYALARNI FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sabohat Yusupova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, xususan, uchinchi sektor ishtiroki, ko'p partiyaviy tizimlarni institutsionalizatsiya qilish va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari orqali qanday hissa qo'shayotgani ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi har qanday zamonaviy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi ham fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni mustahkamlashni o‘zining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Ushbu jarayonda siyosiy partiyalar muhim institut sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ular jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachilikni amalga oshirish, fuqarolarning siyosiy irodasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: Siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati, ko‘p partiyaviylik, ijtimoiy sheriklik, uchinchi sektor, demokratik islohotlar, fuqarolik faolligi, siyosiy modernizatsiya.

Kirish. Fuqarolik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning ijtimoiy maqomidir. Huquqiy davlatda qonun oldida tenglik va shu munosabat bilan fuqarolik huquqlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar qo'shiladi. Jamiyatda haqiqiy erkinlikni ta'minlash har bir inson fuqaroga nafaqat huquqiy va siyosiy ma'noda, balki iqtisodiy va ijtimoiy ma'noda ham aylanishni nazarda tutadi. Tashkilot nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning ijtimoiy mavqei hamdir.

Huquqiy davlatda qonun oldida tenglik va shu munosabat bilan fuqarolik huquqlariga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar qo'shiladi. Jamiyatda haqiqiy erkinlikni ta'minlash har bir inson fuqaroga nafaqat huquqiy va siyosiy ma'noda, balki iqtisodiy va ijtimoiy ma'noda ham aylanishni anglatadi.

Fuqarolik jamiyati keng ma'noda nodavlat tashkilotlar, ixtiyoriy birlashmalar, fuqarolik faolligi, jamoat guruhlari va shunga o'xshash notijorat tashkilotlarni o'z ichiga olgan davlat va bozordan tashqarida tashkil etilgan ijtimoiy hayot sohasini anglatadi. Zamonaviy demokratik jamiyatlar uchun mustahkam fuqarolik jamiyati ko'pincha hisobdorlikni ta'minlash, davlatning qonuniyligini oshirish, siyosat talablarini shakllantirish va fuqarolarning jamoat ishlarida ishtirokini ta'minlashning asosiy omili sifatida qaraladi. Boshqa tomondan, siyosiy partiyalar manfaatlarni birlashtiradigan, siyosiy raqobatni tashkil etadigan va fuqarolarni boshqaruv bilan bog'laydigan rasmiy tuzilmalardir.

Siyosiy partiyalar, uchinchi sektor va ijtimoiy sheriklik institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ijtimoiy modernizatsiya jarayonida Markaziy o'rinni egallaydi-bu orqali an'anaviy siyosiy va ijtimoiy shakllar yanada inklyuziv, ishtirok etuvchi va institutsional kelishuvlarga aylantiriladi.

Siyosiy partiyalar, uchinchi sektor va ijtimoiy sheriklik zamonaviy demokratik tuzumning bir-birini mustahkamlaydi. Tomonlar vakillik uchun tuzilmani taqdim etadilar, fuqarolik jamiyati normalarni belgilash, innovatsiyalar va talabni qayta ko'rib chiqishni taklif qiladi, ijtimoiy sheriklik institutlari esa hamkorlik va nizolarni hal qilish kanallarini taqdim etadi. Yaxshi ishlab chiqilgan va ruxsat berilganda, ushbu mexanizmlar ijtimoiy modernizatsiyaga katta hissa qo'shadi: ular an'anaviy hokimiyat shakllarini o'zgartirishga, fuqarolik faolligini oshirishga, institutsional qonuniylikni oshirishga va siyosat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati bu – davlatdan mustaqil faoliyat yuritadigan, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashgan, o‘z manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ommaviy harakatlar, diniy tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini qamrab oluvchi ijtimoiy tizimdir. Siyosiy partiyalar esa bu – muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi, siyosiy hokimiyatga erishish va uni amalga oshirishga intiluvchi ijtimoiy-siyosiy institutdir.

Fuqarolik jamiyatining faoliyati siyosiy partiyalar bilan chambarchas bog‘liq, chunki:

- siyosiy partiyalar fuqarolik institutlarining siyosiy talablarini davlatga yetkazish vositasidir;
- partiyalar ijtimoiy sheriklik mexanizmini tashkil etishda vositachilik qiladi;
- fuqarolik institutlarining vakillari partiyalar orqali siyosiy hayotda ishtirok etadi.

Unda siyosiy partiyalar fuqarolar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va davlat o'rtasida hal qiluvchi vositachilar ekanligi ta'kidlanadi. Ko'p partiyaviylik vakillik uchun tarkibiy kanallarni taqdim etilishi va ijtimoiy sheriklik ijtimoiy institutlarni modernizatsiya qilishga va inklyuziv boshqaruvni rivojlantirishga yordam beradi. Siyosiy nazariya, demokratlashtirish tadqiqotlari va sotsiologiyaning nazariy va empirik dalillariga asoslanib, maqolada ushbu munosabatlarning imkoniyatlari va muammolari yoritilgan va fuqarolik jamiyati va partiya tizimlari bir-birini o'zaro mustahkamlash usullarini taklif qiladi.

Xulosa: Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida jamiyatning siyosiy modernizatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik asosida fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirmoqda. Bu esa

jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy garovidir. Shu bois, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ular o‘rtasidagi aloqalarni tizimli shaklga keltirish, O‘zbekistonda demokratik islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fuqarolik jamiyoti asoslari: o'quv qo'llanma / A. Jalilov, U. Muhammadiyev, Q. Jo’rayev va boshq. –Toshkent, 2015, 264 b.
2. U.Tojixanov, X.Odilqoriyev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini himoya qilish. "Sharq" nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh korxona. –Toshkent-2001 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi http://lex.uz//uz/docs/-64451

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI DARAJASINI OSHIRISHDA MAHALLABAY TIZIMIDAN FOYDALANISH

Mamatova Fotima Abdusalomovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko‘p jihatdan fuqarolarning moliyaviy savodxonligiga bog‘liq. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, aholi turmush darajasi, moliyaviy savodxonlik, ishbilarmonlik muhiti.

Mamlakat miqyosida aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishni samarali tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

1) aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning o‘z mazmuniga ko‘ra yaqin va yondosh tadbirlar bilan uyg‘un holda olib borilishi;

2) aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlarining shakl va mazmun jihatidan takrorlanish holatlarini keltirib chiqarishiga yo‘l qo‘ymaslik;

3) bu borada belgilangan chora-tadbirlarning ahamiyatli qismini amalga oshirishda mavjud, yo‘lga qo‘yilgan tadbirlar va tashkiliy asoslardan foydalanishning ko‘zda tutilishi va h.k **[1]**.

Shunga ko‘ra, fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tadbirlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda shunday tadbirlardan biri –

respublika viloyatlarida 3 bo‘g‘inli “mahallabay” yangi tizimi hamda “mahalla raisi – islohotchi” tamoyilining joriy etilishi hisoblanadi.

2021-yil 26-yanvar kuni Prezidentimiz boshchiligida o‘tkazilgan yig‘ilishda iqtisodiy o‘sishning qo‘shimcha zaxiralarini topish va safarbar qilish borasida barcha darajadagi rahbarlarga o‘z sohasi bo‘yicha mahallalardagi holatni o‘rganish, “o‘sish nuqtalari”ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasi qo‘yildi.

Bu boradagi chora-tadbirlar va ularni amalga oshirishning quyidagi mexanizmi belgilab berildi:

•iqtisodiy kompleks vakillarini mahallaga tushirib, vertikal tizimni, barcha organlar faoliyatini o‘zaro muvofiq yo‘lga qo‘yish;

•bu tizimga jalb qilinadigan mutaxassislarning bilim va imkoniyatini ta'minlash maqsadida 20 mingdan ortiq xodimni o‘qitib, ularga masalani joyida hal etish bo‘yicha barcha vakolatlarni berish;

•Davlat boshqaruvi akademiyasida mahalla raislari va mazkur tizimda ishtirok etadigan barcha xodimlar uchun o‘quvlar tashkil qilish, buning uchun maxsus dastur va qo‘llanmalar ishlab chiqish;

•har bir rahbarning mazkur tizimdagi shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini belgilash, barcha jarayonlarga ko‘maklashuvchi onlayn elektron platforma yaratish;

•aholini tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta'minlash.

“Mahallabay” ishlash tizimini tashkil etishda elektron dasturiy ta'minot muhim o‘rin tutadi. Elektron dasturiy ta'minotning ishlash tartibini quyidagicha ifodalash mumkin:

•mahallaga biriktirilgan vakil planshet bilan ta'minlanadi;

•xonadon va tadbirkorlar uchun sodda va tushunarli elektron savolnoma shakli kiritiladi;

•mahalladagi muammolarning elektron bazasi shakllanadi;

•mas'ullarga elektron baza orqali topshiriq beriladi;

•masalalar ijrosi ta'minlangandan so‘ng muvofiqlashtiruvchi elektron bazaga tegishli ma'lumot kiritadi.

Dasturiy ta'minotga kiritilgan ma'lumotlarni nazorat qilish tizimi:

•masalalarning ijro holati “onlayn” tarzda kuzatilib, nazorat qilib boriladi;

•masalalarning ijro etilishi darajasiga ko‘ra mas'ul ijrochilar faoliyati “kunlik”, “haftalik” va “oylik” tarzda baholanib boriladi;

•“mahallabay” ishlarning ijrosi Prezident Administratsiyasiga har oyda kiritib boriladi.

Shu o‘rinda, yuqorida ta'kidlanganidek, aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda respublika viloyatlarida joriy etilayotgan “mahallabay” yangi tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Mahallabay” ishlash tizimi orqali aholi va tadbirkorlarning mavjud muammolarini o‘rganish yakunida ma'lumotlarini umumlashtirish, hududni iqtisodiy rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan band qilish dasturlarini tayyorlash bosqichi muhim o‘rin tutadi [4].

Mazkur dasturlarda quyidagilar o‘z ifodasini topadi:

- mahallalardagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini o‘rganish va ularni yanada rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan takliflar;
- ro‘yxatdan o‘tmasdan faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar faoliyatini o‘rganish natijalari;
- yangi tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish hamda tadbirkorlik loyihalari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar;
- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun infratuzilmaviy muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar;
- xonadon daromad manbalari va turlari bo‘yicha ma'lumotlar;
- oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyati va qiziqish bildirgan xonadonlar bo‘yicha ma'lumotlar;
- kasbi bor va ishga joylashishni so‘ragan xonadon vakillari bo‘yicha ma'lumotlar;
- kasbga o‘rganish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish istagida bo‘lgan xonadon vakillari bo‘yicha ma'lumotlar;
- kasbga o‘rganish va mehnat qilish istagida bo‘lgan xonadon vakillari bo‘yicha ma'lumotlar.

Aholi bo‘sh mablag‘larining investitsiya resurslariga aylantirilishi mamlakatimizda jamg‘arish me'yorining o‘sishiga imkon yaratadi.

Jamg‘arish me'yori – aholining jamg‘arishga oid xulq-atvorini tavsiflovchi hamda xalqaro darajadagi taqqoslashlarni amalga oshirish imkonini beruvchi indikator hisoblanadi. U uy xo‘jaliklari daromadining foydalanilmagan ulushini hamda uning investitsiyalarga aylanish salohiyatini ifodalaydi [1]. Jamg‘arish me'yori darajasi qisqa muddatli istiqbolda mamlakatning siklik tebranishlarning oldini olish qobiliyatini ko‘rsatadi: jamg‘arish me'yori qanchalik yuqori bo‘lsa, uy xo‘jaliklarining iste'moli aholi daromadlarining keskin pasayishiga shunchalik oz holda bog‘liq bo‘ladi. Uzoq muddatli istiqbolda – bu mamlakat kredit salohiyatining asosiy tavsifi hisoblanadi [3].

Jahon bankining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, aholi jamg‘arish me'yorining ahamiyatsiz darajadagi oshishi ham iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ko‘p martalik o‘sishiga qaraganda nisbatan ko‘proq samara olish imkonini beradi. Agar mamlakat iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlariga erishmoqchi bo‘lsa, jamg‘arish me'yorini 25-28%ga qadar ko‘tarishi zarur [4].

Bank omonatlaridan investitsiya yo‘lida foydalanish imkoniyatlari cheklangan, chunki omonatlar u qadar yuqori bo‘lmagan foizlar ostida kapitalni

ko‘paytirish emas, balki saqlash maqsadida qisqa muddatlarga joylashtiriladi. Ular investitsiya resurslarining o‘zagini tashkil etuvchi “uzun pullar” fondini shakllantira olmaydi, shuningdek, banklar tomonidan qimmat turuvchi va uzoq vaqt mobaynida qoplanuvchi loyihalar (uy-joy yoki ijtimoiy ob'ektlar qurilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi korxonalarni barpo etish, infratuzilmani rivojlantirish va h.k.)ni moliyalashtirishga joylashtirib bo‘lmaydi.

Aholi shaxsiy jamg‘armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarini ilgari surish mumkin:

1) aholida shaxsiy jamg‘arma hosil qilish va uni ko‘paytirish ko‘nikmasini rivojlantirish, mazkur jarayonga undovchi avtomatik dastaklarni shakllantirish;

2) shaxsiy jamg‘armani to‘g‘ri va samarali sarflash ko‘nikmasini shakllantirish;

3) jamg‘armaning investitsiyaga aylanish jarayonlarini soddalashtirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абышева А.В., Корчемкина Е.С. Актуалные вопросы повышения финансовой грамотности населения: отечественный и зарубежный опыт // Вестник Евразийской науки, 2018 №2.
2. Бабина Н.В. Формирование единой финансовой школы в концепции реализatsiи программ повышения финансовой грамотности // Вопросы региоланой экономики. – 2013. – № 2. – с. 3-9. – С.4.
3. Мелникова Е.И. Сбережения населения как источник финансирования процессов реструктуризatsiи отечественной экономики. Вестник ЮУрГУ, № 44, 2012. – С. 79.
4. Obilov M.R. Aholi iqtisodiy faolligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. // «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali, 2020 yil, 4-son.-5-b.

O‘ZBEKISTONDA “IJTIMOIY SHERIKLIK TO‘G‘RISIDA”GI QONUN VA UNING ISLOHOTLARDAGI ROLI

Axmadaliyeva Sevinchbonu Rustamjon qizi,
O’zMU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida amalda bo’lgan “Ijtimoiy sheriklik to’g’risida”gi Qonunning mazmuni hamda uning turli sohalardagi amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun demokratik jamiyat qurilishida fuqarolik ishtirokini

mustahkamlovchi muhim huquqiy asosdir. U orqali davlat va jamiyat o‘zaro mas’uliyatni bo‘lishadi, muammolarga birgalikda yechim topiladi.

Kalit so’zlar: Ijtimoiy sheriklik, NNT, fuqarolik jamiyati, fuqarolik instituti.

Rivojlanib borayotgan zamonaviy davlat boshqaruvida faqat yuqoridan pastga qarab buyruq berish uslubi samarali natija bermaydi. Bugungi kunda davlat siyosatini xalq bilan birgalikda olib borish, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Shu jihatdan, respublikamizda qabul qilingan “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni huquqiy asosda mustahkamlovchi muhim manbadir.

“Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun 2014-yil 18-iyunda qabul qilinib, 2015-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Qonunning asosiy maqsadi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni huquqiy tartibga solishdan iboratdir. Qonunning 3-moddasida ijtimoiy sheriklik atamasi quyidagicha ta’riflanadi:

“Ijtimoiy sheriklik — davlat organlarining NNT va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, tarmoq va hududiy dasturlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdagi hamkorligidir.” Shuningdek, davlat organlari, NNT va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy sheriklikning subyektlari hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni asrash, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, xotin-qizlar va yoshlar masalalari, huquqiy madaniyatni oshirish ushbu qonun hujjatining ustuvor yo’nalishlari hisoblanadi. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun davlat tomonidan ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu qonun doirasida yillar davomida turli sohaga oid muhim ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2022-yilda Toshkent viloyatining Zangiota tumanida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan “Ayollarni kasbga o‘qitish” loyihasi amalga oshirildi. Bu loyiha mahalla fuqarolar yig‘ini, tuman hokimligi va Bandlik boshqarmasi bilan hamkorlikda olib borildi. Ayollar tikuvchilik, sartaroshlik, IT sohalarida bepul o‘qitildi, natijada esa minglab oilalarning ijtimoiy ahvoli barqarorlashdi, ayollar bandligi ta’minlandi. Bu turdagi islohotlar “Ijtimoiy sheriklik” qonunining bandlikni ta’minlash, xotin-qizlar huquqlarini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarini amalda qo‘llashga yorqin misol bo’la oladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, NNTlar va mahalliy hokimiyatlar hamkorligida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-

quvvatlashga doir bir qator loyihalar amalga oshirildi. Chunonchi, respublikamizning ko'plab viloyatlarida ijtimoiy holati og‘ir yoshlar uchun bepul kasb-hunar kurslari ochilib, ularni ish bilan ta’minlash faoliyati yo’lga qo’yildi va bu orqali qonunning yoshlar bilan ishlash, ta’lim va bandlik sohasidagi ustuvor yo’nalishi o’zining amaliy isbotini topdi. Shu bilan birga, Toshkent shahrida joylashgan “Inklyuziv jamiyat” nogironlar jamoat birlashmasi tomonidan nogironligi bor shaxslar uchun mobil ilova ishlab chiqildi. Ushbu loyihada Raqamli texnologiyalar, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi va yaratilgan ushbu ilova orqali nogironligi bor shaxslar davlat xizmatlari uchun qulay murojaat yo‘llariga ega bo‘ldi. “Salomatlik va Hayot” NNTsi bilan hamkorlikda esa nogironligi bor bemorlar uchun maxsus reabilitatsiya markazi tashkil etildi. Ushbu loyiha davlat grantlari va jamoatchilik mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi.

Ijtimoiy sheriklik orqali oddiy fuqaro yoki jamoatchilik tashkiloti o‘z muammosini davlatga yetkazib, hal etish jarayonida ishtirok etadi. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi. Bugungi kunda davlat organlari tomonidan qonun loyihalarini tayyorlashda nodavlat notijorat tashkilotlari va ekspertlarning faolligi oshmoqda, bu esa o’z navbatida shaffoflikni, qonunlarning hayotiy va dolzarb bo‘lishini ta’minlaydi. Qonun asosida davlat va nodavlat sektor o‘zaro kelishuvlar tuzgan holda ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirmoqda. Biroq ta’kidlab o’tish joizki, respublikamiz miqyosida “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunning amaliyotga tatbiq etilishi borasida bir qator kamchiliklar ham mavjud. Xususan, amaldagi qonun hujjatining mamlakatimiz barcha hududlarida to’laqonli qo’llanilmayotgani, sheriklik bitimlarini nazorat qiluvchi mexanizmlar sustligi, NNTlar faoliyatining moliyaviy resurslarga bog’liq ekanligi shular jumlasidandir. Mavjud muammolarga amaliy yechim sifatida “Ijtimoiy sheriklik markazlari”ni hududlar doirasida tashkil etish, sheriklik loyihalarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritishni kuchaytirish, davlat budjetidan NNT lar uchun grant ajratishni ko’paytirish kabi takliflarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun demokratik jamiyat qurilishida fuqarolik ishtirokini mustahkamlovchi muhim huquqiy asosdir. U orqali davlat va jamiyat o‘zaro mas’uliyatni bo‘lishadi, muammolarga birgalikda yechim topiladi. Amaliyot ko‘rsatmoqdaki, bu qonun asosida ko‘plab ijobiy loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Endilikda ushbu qonunni yanada chuqurroq targ‘ib qilish, jamiyatda ijtimoiy sheriklik madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida” — Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 18-iyunda qabul qilingan. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014-yil 29-sentyabr soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti https://yurxizmat.adliya.uz
3. “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy sheriklikning o‘rni” — Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2022-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi axborot portali — https://mehnat.uz
5. “Ijtimoiy sheriklik: mazmuni, huquqiy asoslari va amaliy natijalar” — *Ijtimoiy fanlar* jurnali, №3, 2023-yil.
6. “O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari” — O‘zbekiston NNTlar Milliy Assotsiatsiyasi, Toshkent, 2021.
7. T. Jo‘rayev. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2020.

ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING ILMIY ASOSLARI

Usmanov Otabek Odilbek o‘g‘li,
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisining jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha maslahatchisi,
Toshkent davlat yuridik universitetining mustaqil izlanuvchisi
+998942150006 e-mail: otabekusmanov0006@gmail.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoatchilik nazoratining nazariy va metodologik asoslari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida jamoatchilik nazoratining mazmun-mohiyati, uning davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni hamda fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada dunyo olimlarining ilmiy qarashlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlarida ilgari surilgan g‘oyalardan foydalanilgan. Natijada jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etishning muhim yo‘nalishlari va metodologik asoslari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati, nazariy asoslar, metodologiya, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, Prezident asarlari, ilmiy qarashlar

Jamoatchilik nazoratini alohida ijtimoiy tushuncha sifatida shakllanishida ko‘plab olimlar izlanish olib borishgan, natijada jamoatchilik nazorati tarixiy-nazariy tomondan taraqqiy etgan. Jamoatchilik nazorati tushunchasining asoschilaridan biri bo‘lgan Gabriyel Tard bu tushuncha paydo bo‘lishi va rivojlanishida uning alohida ijtimoiy tushuncha sifatida ajralib chiqishiga katta hissa qo‘shgan. U o‘z izlanishlarida uning ijtimoiy tushunchalardan farqini va alohida ijtimoiy omil ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha,

jamiyatning xulq-atvorini me’yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuini uning aynan o‘zini, ya’ni jamoatchilik nazorati tizimini ifodalaydi [2]. Bu jamoatchilik nazoratini alohida ijtimoiy tushuncha sifatida talqin etishdagi birinchi qadamlardan edi va nazorat aynan davlat idoralari ustidan amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan tashkillashtirilgan jamiyatga xos bo‘lgan hamda boshqa barcha shunga o‘xshash hodisalardan (xususan, hokimiyatni boshqarishning davlat, fuqarolik va boshqa shakllari), shuningdek, o‘zgaruvchan (ba’zi holatlar ta’siri ostida) holatlarda ushbu hodisaning o‘zidan (masalan, jamiyat mavjud bo‘lgan davlatgacha bo‘lgan davrda), boshqa tomondan, uning butun xalqni saqlab qolish va rivojlanishini ta’minlash uchun uning qiymati, xususiyatlari hamda suverenitetning egasi va xususan, hokimiyatning yagona manbai sifatida davlatdagi to‘liq hokimiyat jamoatchilikka tegishli deb aytsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamoatchilik nazorati – ma’lum bir guruhdagi kishilar jamoasi, ular umumiy jamiyat vakili sifatida jamoatchilik sifatida ko‘rilishi mumkin. Lekin bu tushuncha aynan bir guruh manfaatini ifoda etmaydi, balki jamoa manfaatini ko‘zlaydi. Jamoatchilik nazorati so‘z birikmasining ma’nosi ham shu ma’noni anglatadi. Jamiyat o‘z a’zolari orqali, boshqaruvning alohida subyektlari, ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatlari belgilangan me’yor va qadriyatlarga muvofiq amalga oshirilishini kafolatlaydigan vositalar va usullarning umumiyligini belgilash uchun “jamoatchilik nazorati” atamasi huquqiy tarzda qo‘llanadi [3].

Ijtimoiy institut sifatida davlat hokimiyati organlarining faoliyati ustidan nazorat ijtimoiy usullar va jamoatchilikning keng yordamida amalga oshiriladi. Nazoratning huquqiy ustunligi huquqiy usullarning ustuvorligini nazarda tutadi, ya’ni huquqiy normalar yordamida davlat faoliyatiga ta’sir o‘tkazish usullari, samaradorligi davlat majburlashi bilan ta’minlanadi. Huquqiy boshqaruv usullari bizga jamoatchilik ishtiroki bilan boshqaruvni soddalashtirishga imkon beradi.

Qator olimlarning fikriga ko‘ra, jamoatchilik nazorati quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1.Demokratiyada faol ishtirok etish: fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, qaror qabul qilish jarayonlarida faol rol o‘ynashi kerak, olimlarning ta’kidicha, bu fuqarolarga davlat siyosati va qarorlarini shakllantirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

2.Shaffoflik va hisobdorlik: olimlar davlat institutlari o‘z faoliyatlari bo‘yicha muntazam ravishda hisobot berishi va shaffof bo‘lishi lozimligini e’tirof etishgan.

3. Qonuniy kafolatlar*:* jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish uchun zarur qonuniy chora-tadbirlar mavjud bo‘lishi lozim, bunda olimlar

fuqarolarning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish mexanizmlari bo‘yicha takliflar berishgan.

4.Texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jamoatchilik nazorati jarayonlarini optimallashtirish mumkin, bu borada qator olimlar raqamli platformalar va ilovalarni joriy etish orqali jamoatchilikning davlat idoralari faoliyatiga bo‘lgan kirishi mumkinligini oshirish mumkinligini ta’kidlaganlar.

Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratining nazariy va metodologik asoslari huquqiy normalar bilan belgilanadigan huquqiy jarayonning bir turidir. Jamoatchilik nazoratining nazariy va metodologik asoslari fuqarolarning ishtiroki uchun izchil tartib yaratish; davlat boshqaruvi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini aniqlash; jismoniy va yuridik shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishlarining oldini olish; huquqbuzarliklar va adolat mezonlari bilan buzilgan huquqlarni jamoatchilik nazorati yordamida tiklash kabi ijtimoiy munosabatlarning umumiylashgan tizimi hisoblanadi.

Adolat prinsiplariga asoslangan jamoatchilik nazoratida davlat organlari faoliyati, ustidan nazoratni muntazam olib borish davr talabidir. Shuningdek, mansabdor shaxslar qonunchilik talablarini jamoatchilik manfaatlari yo‘nalishida qo‘llashlari lozim, shu bilan birga, o‘z ish faoliyatlarini salbiy omillarga yo‘naltirishdan tiyilishlari va umummilliy manfaatlarni o‘z manfaatlaridan ustun qo‘ya olishlari shart, deb hisoblaymiz.

Hozirgi vaqtda jamiyatdagi salbiy omillarga qarshi kurashish uchun jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o‘tkazilmoqda. Unga muvofiq, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda takomillashtirish yo‘li bilan ro‘yobga chiqarib boriladi.

Jamoatchilik nazorati metodlari va nazariyasi demokratik jamiyatlarda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu orqali davlat institutlari va hokimiyat vakillari o‘z faoliyatlari uchun javobgar bo‘ladilar. Jamoatchilik nazoratining asosiy metodlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim deb hisoblaymiz:

1. *Ochiqlik va shaffoflik:* davlat hujjatlari va ma’lumotlarining ochiqligi, muhim qarorlar va siyosiy jarayonlarni kuzatish imkonini beradi.

2. *Fuqarolik jamiyati ishtiroki:* fuqarolik jamiyatining institutsional ishtiroki, qonun chiqarish jarayonida kengashlar va muhokamalar orqali ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratadi.

3. *Media va OAV-matbuot erkinligi:* mustaqil matbuot davlat hokimiyati vakillarining harakatlarini keng jamoatchilikka ochiq tarzda yetkazib beradi.

4. *Qonuniy nazorat:* yuridik mexanizmlar orqali hokimiyat vakillarining qonunlarga rioya qilishini ta’minlash.

5. *Raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish:* raqamli platformalar va ilovalar yordamida fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlariga oson va samarali qatnashishini ta’minlash.

Jamoatchilik nazoratining nazariy metodikasi fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlariga ishtirok etish huquqini mustahkamlashga qaratilgan asosiy prinsiplar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu nazariya fuqarolik jamiyatining davlat hokimiyatini nazorat qilishdagi rolini oshirishga intiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati bo‘yicha islohotlari juda ko‘p tomonlama o‘zini oqlagan va aynan oxirgi yillarda bu borada katta qadamlar tashlangan deb ayta olamiz. Mamlakat rahbari davlatning boshqaruv tizimi va uning faoliyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelmoqda. Bu borada keng qamrovli samarali ishlar amalga oshirildi. Masalan, mamlakatda raqamlashtirish va savdo-sotiqni raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarda loyihalar va dasturlar ishga tushirildi. Bu ishlar davlat va fuqarolar o‘rtasida ochiq va samarali aloqa o‘rnatishga qaratilgan [4]. Shuningdek, Prezident O‘zbekistonda demokratik islohotlarni davom ettirishni va *“Yangi O‘zbekiston”* strategiyasini amalga oshirishni alohida ta’kidlagan. Bu strategiyada qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va institutsional salohiyatni oshirish kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Biroq, fuqarolik jamiyatini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini ta’minlash yo‘lida hali ko‘plab hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Masalan, jamoatchilik nazoratining alohida shakli sifatida OAVda matbuot va so‘z erkinligi bo‘yicha alohida nazorat imkoniyatlarini yanada kengaytirish va bu borada o‘zgarishlarni davom ettirish zarurati ta’kidlanmoqda [5].

Jamoatchilik nazorati sohasida yangi o‘ziga xos takliflarni ishlab chiqish asoslari va bunda fuqarolarning faol takliflarini o‘rganib chiqish va samarali asosli deb topilgan tajribalarni saralash, tizimlashtirish, umumiy xulosa yaratish hamda uning keng ko‘lamli isboti sifatida *“Jamoatchilik nazoratining O‘zbek modeli”*ni yaratish mumkin.

Ushbu maqolada ko‘rib chiqqan asosiy tadqiqotlarimiz yuzasidan alohida xulosalarda berib o‘tganlarimizga yakuniy xulosa sifatida quyidagilarni taklif qilgan bo‘lar edik: mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining tashkiliy huquqiy asoslari yuzasidan yigirmaga yaqin normativ huquqiy hujjatlar mavjudligi va va bu aholimizning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi huquqiy savodxonligini oshishga va ular bilan tushunarli qulay usulda tanishishga ma’lum bir qiyinchiliklar mavjudligi va bularni bartaraf etish maqsadida *“Jamoatchilik nazoratining yagona konsepsiyasi”* ni ishlab chiqish bu

O‘zbekistonning yangi tajribasi va ushbu sohaga ochiqlikka doimo tayyorligi va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi katta qadami sifatida e’tirof etiladi;

Umumiy jihatdan olganda, xulosamizga yakun sifatida jamoatchilik nazoratini nazariy metodologik asoslari yuzasidan o‘rganib chiqqan ishlarimiz va o‘tkazgan tadqiqotlarimiz doirasida ilgari surilgan takliflar tizimli ravishda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilsa bu o‘z natijasini va tadqiqotning amaliyotga joriy etilishining asoslaridan biri bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Frank Cunningham “Theories of Democracy: A Critical Introduction” Published November 15, 2001 by Routledge. Chapter 3-4, 28-40, 54-60 pages.

2. Купреев С.С. Общественный контроль как средство противодействия коррупции в органах власти и управления // Административное и муниципальное право. 2010. №9. С. 10–12.

3. Бахрах Д.Н. Административное право России. М.: Норма, 2009. 712 с.

4.Manba: https://president.uz/en

5.Manba:https://www.hrw.org/news/2023/08/18/uzbekistan-agenda-change-human-rights

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING ISHTIROKI

Izzatov Dilmurad Tursunbayevich,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Siyosiy fanlar kafedrasi
dilmuradizzatov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy davlat mexanizmlarini takomillashtirish va ijtimoiy sheriklik munosabatlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki, roli, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligiga erishishda davlat organlari bilan birgalikdagi harakati haqida mulohazalar bildiriladi.

Tayanch so‘zlar: Ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy davlat mexanizmlari, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy sheriklikmunosabatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, birgalikdagi harakat;

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyil asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish davlat organlarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston “ijtimoiy davlat” degan tamoyil hamda shaxsning “ijtimoiy huquqlari” O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qat’iy belgilangan. “Ijtimoiy davlat” tamoyillaring muhim yo‘nalishlari sifatida fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish

choralari ko‘rish, har kim mehnatiga adolatli haq olishi, ijtimoiy ta’minotga ega bo‘lishi, pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lmasligi, soliq va yig‘imlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi, har kim uy-joyli bo‘lishi, oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi, tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bepul ko‘rsatilishi, yollanib ishlovchilar ham har yilgi haq to‘lanadigan mehnat ta’tilidan foydalanishi, bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim, ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi, davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishini aytib o‘tishimiz mumkin.

Albatta bular “bosh qomusimiz”da davlat organlari zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy siyosatga oid vazifalar. Biroq jamiyatda shunday institutlar mavjud-ki, ular o‘zlarining faoliyati bilan davlat organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o‘z zimmalariga olib, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini amalga oshiradi.

“O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi” [1]. Mazkur norma fuqarolarning mamlakat ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki uchun huquqiy zamin yaratadi.

“Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi” [2].

Nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy maqsadlarga erishish borasida o‘z a’zolari manfaatlarini ifoda etib, jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy muammolar yechimida davlat organlariga ko‘makchi bo‘lib “sheriklik” munosabatlarini taklif etadi. Bu harakat “ijtimoiy sheriklik munosabatlari” deb nomlanadi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida davlat bilan nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikka alohida ehtiyoj sezilmoqda, uning yangi va zamonaviy shakllari, usullari hamda ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda.

Zero, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligiga erishishda ijtimoiy sheriklik munosabatlaridan, ya’ni davlat, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning “birgalikdagi harakati”dan ko‘ra samaraliroq mexanizm yo‘q.

Chunki, ular o‘z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda doimiy ravishda bir-biri bilan hamkorlikka kirishadi va shu asosda sheriklik munosabatlari rivojlanadi. Ijtimoiy sheriklik – yuqoridagi sub’ektlar o‘zaro hamkorligining zamonaviy shakli hisoblanadi.

“Ijtimoiy sheriklik – davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining alohida shakli bo‘lib, bu munosabatlarda hokimiyat tizimi, kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlar birlashmalari hamda tadbirkorlik sohasi sub’ektlari ishtirok etadi” [3]. “Ijtimoiy sheriklik – bu muayyan munosabatlar tizimi bo‘lib, jamiyatdagi turli qatlamlar, ijtimoiy-siyosiy guruhlarning o‘zaro manfaatli aloqalaridir” [4].

Mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini amalga oshirish masalalari qonun bilan tartibga solingan bo‘lib, unga ko‘ra “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik sub’ektlaridir” [5].

“Ijtimoiy sheriklik – o‘zaro hamkorlikning yangi va zamonaviy shakli bo‘lib, bunda o‘zaro munosabatga kirishayotgan sub’ektlarning huquq va erkinliklari tenglik asosida vujudga keladi, tomonlar bir xil huquqiy maqomga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikning davlat va *“uchinchi sektor”* o‘rtasidagi hamkorlikning yangi shakli sifatida e’tirof etilishi jamiyat hayotida nodavlat notijorat tashkilotlarining roli yuksalib, ularning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligiga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik munosabatlari – ijtimoiy davlat mexanizmlarini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik munosabatlaridan barcha birdek manfaatdor bo‘lib, ular aniq maqsad yo‘lida sheriklik munosabatlari shartlarini mustaqil belgilaydi va oldindan kelishuvga erishadi. Bunda manfaatlar sheriklikni amalga oshirayotgan tomonlar mustaqilligi va teng huquqliligi qaratiladi.

Bugun nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohada davlat organlari bilan teng huquqli sheriklikka kirisha oladigan sub’ekt darajasiga chiqib bormoqda. Ular ijtimoiy siyosatning o‘tkir qirralari hisoblangan yo‘nalishlarda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini amialga oshrishda alohida faollik ko‘rsatmoqda. “Sharoit plyus” nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan 170 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligi ta’minlandi. “Tumor” munchoqlik bezak san’ati markazi va Fuqarolik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash markazi Toshkent shahar bo‘limi tomonidan 200 dan ortiq xotin-qizlarning kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalari oshirilib, bandligi ta’minlandi. Mazkur loyihalar misolida davlat organlari bilan

“uchinchi sektor” vakillarining ijtimoiy sheriklik munosabatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakatda ijtimoiy davlat mexanizmlarini takomillashtirishning muhim instrumenti bo‘lib, jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularning yechimida faol ishtirokchi bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/docs/11360
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, https://lex.uz/docs/2468214
4. Бородин И.И. Понятие, система, сторонқ и субъектқ социального партнерства (сравнительно правовое исследование)//«Трудовое право», 2006, №1. –S. 21.
5. Комментарий к трудовому кодексу Российской Федерации/Под ред. А.М.Куренного, С.П. Маврина –М.: Юрист, 2005. –С. 129.

FUQAROLIK JAMIYATIDA VOLONTYORLIK HARAKATINING AHAMIYATI

Mingturayeva Kamola Farxod qizi,

UzDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotasiya. Mazkur maqola volontyorlik harakatining fuqarolik jamiyatidagi o‘rni, foydasi va istiqbollarini O‘zbekiston misolida hamda xalqaro tajriba bilan solishtirish yo‘li bilan tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyotlar tahlili, O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda volontyorlik, rasmiy hujjatlar, statistika, qonunchilik bazasi o‘rganildi.

O‘zbekiston va OECD mamlakatlari, shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar tajribasi solishtirildi.Unga ko‘ra empirik ma’lumotlar: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Davlat statistika qo‘mitasining so‘nggi yillardagi ma’lumotlaridan foydalanildi, statistik ko‘rsatkichlar jadval shaklida taqdim qilindi, o‘zgarishlar tendensiyalari yoritildi.

Quyida volontyorlik harakatining fuqarolik jamiyatiga foydali jihatlari va ularni qo‘llab-quvvatlash, tashabbuskorlik tomonlari bilan jadvalda ko‘rsatilgan:

T/r	Foyda turlari	Izohlar	Mas’ul tashkilotlar / asosiy omillar
1.	Ijtimoiy kapitalni oshirish	Mahalla, oila va jamiyatdagi o‘zaro yordam, ishonch va birdamlik oshadi.	Mahalla fuqarolar yig‘ini, NNTlar, hukumat siyosati.
2.	Davlat xizmatlarini to‘ldirish	Favqulodda vaziyatlarda (zilzila, sel, pandemiya) volontyorlar yordam beradi.	Favqulodda vaziyatlar bo‘yicha markaz, tuman hokimiyati, sog‘liqni saqlash.
3.	Yoshlar tarbiyasi va liderlik ko‘nikmalari	Talabalar va maktab o‘quvchilari loyihalar amalga oshiradi, jamoatchilikka xizmat qiladi.	Maktablar, oliy ta’lim muassasalari, yoshlar markazlari.
4.	Iqtisodiy samaradorlik	Volontyorlik arzimagan xarajatlar bilan amalga oshiriladi, mehnat bozoriga tayyorgarlik bo‘ladi.	Davlat, xususiy sektor va donorlar.
5.	Madaniy va ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash	Halollik, mas’uliyat, hamkorlik kabi fazilatlar shakllanadi.	Ta’lim muassasalari, diniy va madaniy tashkilotlar.

O‘zbekiston sharoitida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi muhim jihatlar aniqlanadi:

Huquqiy baza: 2021-yilda “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi[1]. Bu qonun volontyorlikning huquqiy maqomini belgilab, davlat organlarining, nodavlat tashkilotlari va jamoatchilik faoliyatining rollarini tartibga qo‘ydi.

Resurslar va infratuzilma: Hududiy markazlarda volontyorlik markazlari yoki koordinatorlik organlari kam. Axborot va kommunikatsiya infratuzilmasi, transport imkoniyatlari butun hududlarda teng emas.

Motivatsiya: Yoshlar orasida volontyorlik faoliyati ko‘pincha vaqti-sarfi, moddiy bo‘lmagan rag‘batlantirish yetishmasligi sababli sekin rivojlanadi. Xalqaro misollar shuni ko‘rsatadi-ki, diplom, ijtimoiy taniqlik, stipendiya yoki kredit ballari orqali motivatsiya oshadi[2].

Xalqaro tajriba: Masalan, Kanadada “Volunteer Canada” tashkiloti yoshlar va pensionerlar faoliyatini koordinatsiyalab, ularga treninglar, yuridik yordam ko‘rsatadi[3]. Yevropa Ittifoqida “Erasmus+” dasturi doirasida volontyorlik loyihalari orqali yoshlar ko‘p davlatlarda tajriba orttiradi[4].

So‘nggi statistika va tendensiyalarga yuzlanadigan bo‘lsak, O‘zbekiston bo‘yicha, UN Volunteers Knowledge Portal ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-2020-yillarda NNTlar va nodavlat tashkilotlarining moddiy mablag‘lari 12 barobarga oshgan. Bu fuqarolar va donorlar ishtirokining, hamda tashkiliy faoliyatning

kengayishini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2020-2021-yillarda aholining taxminan 92% ga yaqini turli shakllarda volontyorlik faoliyatida ishtirok etgan. Bu, ipak yo‘lida ham, pandemiya davrida ham xalq orasida yordam berish, yelkadosh bo‘lish kabi faoliyatlarning kuchayganidan dalolat.[5] “State of Volunteering in Central Asia Review” (2024) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda volontyorlik shakllari turli sohalarda — ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya va ijtimoiy xizmatlarda — kengaymoqda. Huquqiy bazalar va strategiyalar orientatsiyasi davlat siyosatida ko‘proq e’tibor qozonmoqda.[6]

Global tendensiyalarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, UNV (United Nations Volunteers)ning 2024-yilgi yillik hisobotiga ko‘ra, jahon bo‘yicha 14,631 UN volontyor joylashtirgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan 14% ko‘proq, pandemiyadan oldingi 2019-yilga nisbatan esa 77% ga ko‘proq. Bu o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki, volontyorlikning fuqarolik jamiyatidagi o‘rni global miqyosda o‘sib bormoqda. Bu volontyorlar 169 ta mamlakat va hududlarda faoliyat yuritar ekan, turli SDG (Sustainable Development Goals/Barqaror rivojlanish maqsadlari) maqsadlarida hissasi bo‘lgan: xususan, SDG 16 (tinchlik, adolat va mustahkam institutlar) uchun 27%, SDG 5 (gender tengligi) uchun 23%, SDG 3 (salomatlik va farovonlik) uchun 19% lik.[7] Bu o‘sib borayotgan katta ko‘rsatkichlar sanaladi. Jahon aholisining katta qismi volontyorlikning “informal” (norasmiy) shakllarida, ya’ni tashkilot orqali rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan bog‘lanishlar orqali, yaqin qo‘shni, do‘stlik, mahalliy yordam ko‘rsatish kabi yo‘llar bilan ishtirok etadi. “Formal” volontyorlik (rasmiy tashkilot orqali) holatlari pastroq ko‘rinadi. Dunyoda “informal volontyorlik” 2022-yilda aholining taxminan 14.3% ini, “formal volontyorlik” esa taxminan 6.5% ini tashkil etgan.[8] Ko‘plab davlatlarda volontyorlik faoliyatining eng muhim muammolaridan biri – uning hajmini, samaradorligini miqyosli statistika orqali o‘lchash qiyinligi. Formal va informal volontyorlikning ajratilishi, volontyorlik vaqtining hisobga olinishi, uslublar va standartlar hali ham turlicha. Ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lganlar va kam ta’minlangan guruhlarni volontyorlikka jalb qilish bo‘yicha global va mintaqaviy tashabbuslar ortmoqda. Onlayn platformalar, ijtimoiy media kampaniyalari orqali volontyorlik imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa pandemiya davrida shakllangan “virtual” yordam formatlari – masalan, ma’lumot tarqatish, maslahat berish, masofadan turib bilvosita yordam ko‘rsatish kabi. Bu kabi faoliyatlarning ommalashishi jamiyatning har bir qatlamida ijtimoiy ongni taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi. Volontyorlik tashabbuslarini doimiy amalga oshirish, ularning natijalarini monitoring qilish va moliyalashtirishni ta’minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, Volontyorlik harakati fuqarolik jamiyatining tayanch ustunlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi, demokratik

qadriyatlarni mustahkamlaydi, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptiradi va jamoatchilik bilan davlat o‘rtasidagi ishonchni oshiradi.

Tavsiyalar o‘rnida shuni ayta olamizki, birinchidan, ta’lim muassasalarida volontyorlik dasturlarini majburiy emas, balki rag‘batlantirilgan shaklda joriy qilish (bonus ball, sertifikat, kreditlar); ikkinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligida grantlar va stipendiyalar ajratish; uchinchidan, raqamli platformalar orqali volontyorlik faoliyatini tartibga solish, ro‘yxatdan o‘tish, natijalar monitoringini amalga oshirish; to‘rtinchidan, mahalla va jamoalarga yetarli ijtimoiy infratuzilma va resurslar taqdim etish; beshinchidan, volontyorlik faoliyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etish. O‘ylaymizki bu takliflar fuqarolik jamiyatida volontyorlik faoliyatini yanada rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi, 2021-yil.
2. Smith, J. (2019). Motivating Volunteers: The Role of Recognition and Reward. Journal of Social Policy, 48(1), 125-143.
3. Volunteer Canada, “About Us” materiallari. https://volunteer.ca/about_us (oxirgi murojaat: 2025-yil avgust)
4. European Commission, Erasmus+ Programme Guide, 2024.
5. VNR 2023 Uzbekistan Report paragraph 2, page 20: https://sg.docworks.
6. State of volunteering in Central Asia Review 27 Aug 2024. https://knowledge.unv.org/evidence-library/state-of-volunteering-in-central-
7. https://www.unv.org/annual-report/annual-report-2024
8. https://360matchpro.com/volunteering-statistics/?utm_source

THIRD SECTOR, MULTIPARTY SYSTEM AND SOCIAL PARTNERSHIP: FACTORS OF CIVIL SOCIETY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Shokirova Mubina Nabijon qizi,
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Siyosatshunoslik 3-kurs talabasi
Tel: +998 94 274 11 04,
mubinashokirova04@gmail.com

Abstract. This thesis analyzes the formation and development of civil society institutions in Uzbekistan. It highlights the role of the third sector, the multiparty system, and social partnership mechanisms in democratic processes and social modernization. Furthermore, it emphasizes civic engagement, the

strengthening of state-society cooperation, and the advancement of political pluralism as key directions.

Keywords: civil society, third sector, multiparty system, social partnership, democratic governance, social modernization.

Since independence, the issue of forming and developing civil society institutions has remained one of the main priorities of Uzbekistan's state policy. Without civil society, it is impossible to imagine a genuine democratic governance system, a free market economy, or the full guarantee of human rights and freedoms. "Civil society, in its narrow sense, is the second side of the rule of law; they cannot exist without each other. Civil society represents diverse, indirect relations between free and equal individuals and the state under market relations and a democratic legal system".[1]

The actual realization of individual freedoms becomes possible only when the state and political power do not dominate society, but rather when society itself exercises control over state institutions. The establishment of such a system is a complex and long historical process, directly linked to the construction of civil society.

In the process of building a democratic legal state, supporting institutions that reflect the interests of all layers of society and strengthening their role in public life is regarded as an urgent task. From this perspective, the third sector, the multiparty system, and mechanisms of social partnership are considered decisive factors shaping the modern development trends of civil society. Indeed, Uzbekistan's current political and institutional reforms aimed at developing civil society are closely linked to the activation of the third sector, multiparty system, and social partnership. These three factors emerge as strategic foundations defining the priorities of social modernization.

In recent years, the third sector — non-governmental non-profit organizations (NGOs), public associations, trade unions, and civic initiative groups — has become an important factor in the process of social modernization in Uzbekistan. These institutions play a special role in balancing state and society, representing the interests of different social groups, and involving them as active participants in solving social issues. An NGO is understood as a self-governing organization voluntarily established by individuals and legal entities, which does not set profit-making as its main goal and does not distribute obtained profits among its participants. [2]

The primary significance of the third sector lies in its promotion of democratic values by supporting civic initiatives. For instance, many projects in environmental protection, support for persons with disabilities, education, and healthcare are being implemented on the initiative of NGOs. This process not only increases civic activism but also enables modernization to proceed "from

the bottom up" rather than "from the top down." According to foreign experts, the actors of the non-governmental sector primarily contribute to the growth and development of social capital. Social capital is strengthened through public organizations, social networks, norms, and trust, which form a system of mutual assistance and cooperation. [3]

Today, the active participation of the third sector in social modernization helps citizens realize their potential. This process strengthens civil society, enhances openness and cooperation in governance, and ensures sustainable social development.

In Uzbekistan, the multiparty system is emerging as an integral part of building a democratic society. Political parties are not only participants in elections but also institutions that express the interests and views of citizens and advocate for their consideration in state policy. According to experts, a political party is a network created and managed by individuals with political ambitions, characterized by high trust (social capital) among members, and united by a common ideology. [4]

Political parties perform essential functions such as ensuring a balance of interests in governance, representing the electorate and society's interests, and developing alternative ideas and programs that serve national development. Through this, they harmonize the interests of different social groups and actively participate in political processes. Multiparty systems provide political pluralism, creating a competitive environment based on diverse ideas and programs. Such competition allows broader representation of various social groups in decision-making and ensures greater balance. As a result, transparency, openness, and accountability are strengthened in the political system.

During independence, Uzbekistan created organizational, legal, and institutional frameworks to strengthen the multiparty system and improve its effectiveness. In this regard, the legal regulation of political party activities deserves particular attention. Notably, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Laws "On Public Associations," "On Political Parties," "On Financing the Activities of Political Parties," as well as the Constitutional Law "On Strengthening the Role of Political Parties in the Renewal and Further Democratization of State Governance and Modernization of the Country" play a crucial role.

Currently, five political parties are officially registered and active in Uzbekistan: the People's Democratic Party of Uzbekistan, the Social Democratic Party "Adolat," the Democratic Party "Milliy Tiklanish," the Liberal Democratic Party of Uzbekistan, and the Ecological Party of Uzbekistan. [5] Indeed, multiparty systems play a significant role in strengthening the political foundation of civil society. Through parties, citizens

can express their positions, participate in political processes, and advance their interests democratically. This encourages prioritizing public interests over individual ones.

The development of the multiparty system raises the level of political culture, strengthens commitment to democratic values, and creates a need for active participation in political processes. Therefore, the improvement of the multiparty system remains one of the key directions of ongoing political reforms in Uzbekistan.

In modern democratic societies, social partnership mechanisms are emerging as important institutions ensuring stable cooperation between the state, business, and the third sector. This system creates favorable conditions for the development of civil society and combines the potential of all stakeholders to effectively solve social issues.

Russian researcher A.N. Mikhayev emphasizes that "cross-sectoral partnership is primarily distinguished by the goals, resources, complexity, level of action (local or global), scale, and diversity of its partners. Their actions are aimed at solving various issues and mainly serve the sustainable development of society. Cross-sectoral social partnership also seeks to set the agenda and ensure the implementation of adopted decisions. Although they exist at the local, national, and global levels, some partnerships can cover several levels at once. Ultimately, cross-sectoral partnership brings together different stakeholders and helps create new opportunities for them". [6]

In recent years, the legal and institutional foundations of social partnership have also been strengthened in Uzbekistan. Based on the Law "On Social Partnership of the Republic of Uzbekistan," public commissions on social partnership were established under local representative bodies across all regions. This demonstrates the government's focus on implementing programs that meet public needs, providing social services, and supporting innovative initiatives in cooperation with NGOs and the private sector.

In this process, mechanisms such as the open budget system, public hearings, social orders, and grants are of particular importance. Open budgets increase public control over the use of state funds. Public hearings allow citizens to directly discuss urgent issues in their communities and participate in their resolution. Social orders engage NGOs in implementing social projects, which reduces the state's burden while improving service quality.

In conclusion, the formation and development of civil society in Uzbekistan is manifested as an essential component of democratic reforms. The third sector plays a vital role in representing public interests and involving citizens in decision-making during social modernization. The multiparty system strengthens political pluralism, ensuring transparency and competitiveness in democratic processes. Social partnership expands cooperation among the state,

business, and civil society, contributing to the effective resolution of social issues.

A strong civil society is one where citizens fully exercise public control over the activities of state institutions. [7] Thus, the activation of the third sector, the development of the multiparty system, and the expansion of social partnership mechanisms emerge as key factors defining the modern trends of civil society development in Uzbekistan. Their interconnection ensures sustainable modernization, the realization of human rights and freedoms, and the strengthening of open dialogue between the state and society.

References:

1. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik: darslik. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – 143-bet.
2. O’zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi Qonuni. 14.04.1999. No763-I, 2-modda
3. Sanjar S. “Fuqarolik jamiyati: O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakillanishi va rivojlanishi” o’quv qo’llanma, -Toshkent: Kafolat print company, 2020. –p.8
4. Diamond.L. “Is the Third Wave Over” Journal of democracy, 1996, No 3. –p. 20-37
5. Sanjar S. “Fuqarolik jamiyati: O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakillanishi va rivojlanishi” o’quv qo’llanma, -Toshkent: Kafolat print company, 2020. –p.8
6. Михеев А.Н. Многосторонние партнерства: определение, принципы, типология, процесс, осуществление. Инвормационное общество. 2005. № 3. С. 18-25. 39
7. Reforms in Uzbekistan are based on the principle of strong civil society. – The Gulf Observer. 2022 yil, 15-noyabr. https://thegulfobserver.com/reforms-in-uzbekistan-are-based-on-the-principle

---

O’ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHI ASOSLARI HAMDA “UCHINCHI SEKTOR” VAKILLARINING AHAMIYATI

Botirova Madina Muzaffar qizi,

O’zDJTU Xalqaro Jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik yo’nalishi 3-bosqich talabasi (+998956261208, madinabotirova@461)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon hamjamiyatida ko’plab davlatlarning asosiy maqsadi bo’lgan demokratik boshqaruv, undagi fuqarolik jamiyati shakllanishi, o’sib borayotgan yosh avlod va Nodavlat notijorat tashkilotlar qay darajada muhimligi to’g’risida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: fuqarolik jamiyati, demokratik boshqaruv, manfaat, xalq, NNT.

Kirish. O’zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda Davlat mustaqilligi e’lon qilishi bilan jahon davlatlari qatorida yangi bir mustaqil davlat vujudga keldi. Bu davlat oldida juda ko’p vazifalar, boshqaruv shaklida esa bir qancha yo’llar bor edi. Lekin Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov boshchiligida davlatimiz demokratik rivojlanish yo’lini tanladi. Hamda davlatni tubdan isloh qilishga kirishildi. Demokratik boshqaruv qanday ekanini biz juda yaxshi bilamiz. Ya’ni, boshqaruv apparati ko’pchilik qo’lida bo’lgan, inson huquq va erkinliklari kafolatlangan, qonun ustuvorligi bo’lgani holda dunyo davlatlari qatorida munosib o’rin olishini ko’zda tutgan edi. Shu bilan birgalikda, o’z milliy an’ana va qadriyatlarimizni zamonaviy demokratik yondashuvlar bilan uyg’unlashtirishimiz muhimligi ham asosiy e’tibor markazida edi.

Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanishi, dastlabki bosqich va unsurlarining ilk ko’rinishlari G’arb jamiyati bilan birgalikda Sharq uyg’onish davri mutafakkirlari tomonidan amalga oshirilgan. Ulardan biri, Abu Nasr Farobiy(873-950-yy). Uning fikricha, “mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o’zining muayyan funksiyalariga ega bo’lib, go’yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar”[1], deydi. Ya’ni, Farobiy insonni “siyosiy mavjudot” sifatida ko’rgan va bu mavjudot organizmdagi har bir organ o’z funksiyasini to’laqonli bajarishi kerak. Bu davlat boshqaruvi apparatidagi vazifalarning majoziy ko’rinishidir.

Fuqarolik jamiyati-haqiqiy fuqarolardan, ya’ni uzviy bog’liqlikda bo’lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Aniqroq aytganda, davlatdan mustaqil bo’lgan, lekin jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan turli tashkilotlar, guruhlar va fuqarolarning o’zaro munosabatlari majmuasidir.

Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari:

- Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)
- Jamoat tashkilotlari
- Siyosiy partiyalar
- Ommaviy axborot vositalari (OAV)
- Mahallalar va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari [2].

Shu o’rinda, “Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptual dasturi amalga oshirildi. “Mamlakatda ikki palatali parlament islohotlari bilan uzviy bog’liqlikda nodavlat tashkilotlarni ijtimoiy qatlamlar, guruhlar manfaati hamda irodalarini ifodalovchi tashkilotlar darajasiga ko’tarish, jamiyatdagi turli-tuman ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish, jamiyatni doimiy barqaror bo’lishga zamin yaratish, shuningdek, fuqarolarning jamiyat va

davlat organlarini boshqarishdagi ishtirokini kengayishi uchun keng sharoitlar va ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi” [3].

Mustaqilligimizga qariyb 34 yil bo’ldi, mana shu davr ichida biz deyarli barcha siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlar faoliyatini yo’lga qo’ya oldik. Faqat buni yildan-yilga yangilab, rivojlantirib, milliyligimizni zamonaviy ko’rinishga qorishtira olsak bas.

Fuqarolik jamiyatining boshlang’ich asosi-yakka bir individdan kelib chiqdi. Oila-jamiyat-fuqarolik jamiyati, shunday qilib rasmiy ko’rinishdagi jamoatga aylanadi. Insonlar o’z ehtiyoj va muammolarini birgalikda hal qilishadi, ular o’rtasida doimiy muloqot yuzaga keladi. Ma’lum bir manfaat yo’lida birlashayotgan jamoalar esa fuqarolik jamiyatining asosi hisoblanadi.

“Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat tashkilotlarning o’rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlash joiz”[4] deydi, davlatimiz rahbari. Ya’ni, “uchinchi sektor” vakillari faoliyati.

Nodavlat notijorat tashkilot bu rasmiy davlat muassasalaridan mustaqil tarzda faoliyat yurituvchi, o’zlarining siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va ekologik maqsadlariga mos ravishda lobbichilik, ishontirish orqali ish olib boruvchi va o’z sohasi uchun kerakli xodimlarni jalb qiluvchi nodavlat notijorat tshkilot sanaladi[5].

To’g’rirog’i, ular davlatdan mustaqil faoliyat olib borganliklari uchun o’z daromadlarini hayriya qiladigan yoki a’zolik to’lovlari orqali ta’minlaydi. Nodavlat tashkilotlar shaxsiy manfaatlarga asoslanmagan, daromad olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan, olingan foydani ham o’z ishchilari o’rtasida taqsimlamaydigan, o’z-o’zini boshqaruvchi tashkilotdir. Ularning asosiy vazifalari:

-turli hodisalardan jabr ko’rgan yoki boshqa muammolarga duch kelgan odamlarning hayotini yaxshilash,

-ehtiyojmandlarga zarur tovar va xizmatlarni taqdim etish,

-nogironligi bo’lgan shaxslarga ish topishda ko’maklashish kabi bir qancha funksiyalari mavjud.

Nodavlat tashkilotlarning faoliyati bo’yicha qonunda belgilangan bir qancha huquqiy-me’yoriy asoslar tasdiqlangan. “Jamoat birlashmalari to’g’risida”gi (1991-y), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi (1999-y), “Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari to’g’risida”gi (2013-y), “Ijtimoiy sheriklik to’g’risida”gi (2013-y), “Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi (2018-y), “NNTlar huquqlari davlat himoyasida” (2021-y) va bundan tashqari bir qancha huquqiy normalar belgilangan. Statistikaga e’tibor beradigan bo’lsak, hozirgi kunda yurtimizda 10 mingdan ortiq nodavlat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Bundan ko’rinib turibdiki, yildan-yilga o’z-o’zini

boshqarish organlarining faoliyati kengayib, xalq koriga yaraovchi omil bo'lib kelmoqda.

Xulosa. Demokratik boshqaruv yo'lini tanlagan barcha davlatlar uchun kuchli fuqarolik jamiyati zarur. Chunki, davlat rivoji uchun xalq erkin va farovon, huquqlari kafolatlangan, ishlash prinsiplari esa mustaqil bo'lishi kerak. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz "Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak"[6], degan edilar. Kelajagimiz ertasi bo'lgan yoshlarning yuqori salohiyatli bo'lib o'sishlarida hammamizning ma'suliyatimiz katta. Prezidentimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar, ta'lim sohasidagi islohotlarga biz yoshlarning javobi ham qoniqarli bo'lmog'i lozim!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. 189-b.

2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati

3. Muqimjon Qirg'izboyev Fuqarolik jamiyati: Genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. –T.: O'zbekiston, 2010. 81-b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinong Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22.12.2017. URL:https://prezident.uz/uz/lists/view/1371.

5. Nodavlat notijorat tashkilot https://uz.wikipedia.org/wiki/

6. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoev

NNTLAR ORQALI FUQAROLIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI: XALQARO TAJRIBA

Xursanbekov Muhammadaziz Quvonchbek o'gli,
O'zbekiston davlat jahon tillari universteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti Siyosatshunoslik
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar)ning fuqarolik faolligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan demokratik davlatlar, xususan Yevropa Ittifoqi, AQSH va Osiyo mamlakatlari tajribasi asosida NNTlar faoliyatini samarali tashkil etishning amaliy mexanizmlari yoritilgan. NNTlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash, ularning davlat boshqaruvidagi mas'uliyatini oshirish hamda ijtimoiy muammolarni hal etishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston uchun mos bo'lgan model va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: NNT, fuqarolik jamiyati, fuqarolik faolligi, ijtimoiy sheriklik, xalqaro tajriba, Yevropa Ittifoqi, O‘zbekiston.

Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror rivojlanishi har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevori bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar) fuqarolarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni ijtimoiy hayotga jalb qiluvchi va davlat bilan jamiyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi institutlardir.

NNTlar faoliyati orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligi ortadi, ularning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi va jamiyatda mas’uliyatli fuqarolik madaniyati shakllanadi. Shu sababli, zamonaviy demokratiya sharoitida NNTlarning roli nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etish bilan, balki fuqarolarning siyosiy va fuqarolik ongini yuksaltirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlarda NNTlar fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi sifatida e’tirof etilgan. Ular davlat siyosatini shakllantirishda, aholining ijtimoiy muammolarini aniqlashda va ularni hal etishda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, fuqarolarning siyosiy ishtirokini rag‘batlantirish, yoshlarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, ekologiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarda NNTlarning hissasi beqiyosdir.

O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarida NNTlar faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi, davlat va jamoatchilik o‘rtasida ijtimoiy sheriklik mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Biroq, fuqarolik faolligini oshirishda xalqaro tajriba va ilg‘or yondashuvlarni mahalliy sharoitga moslashtirish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bois, ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlar orqali fuqarolik faolligini oshirishning samarali usullari xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi va AQSHdagi muvaffaqiyatli modellarning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari, ularning ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ta’siri ilmiy asosda o‘rganiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) bugungi kunda fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi. Ular nafaqat davlat va fuqarolar o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi, balki jamiyatda fuqarolik faolligini oshirish, aholining turli qatlamlarini ijtimoiy hayotga jalb etish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jahon tajribasidan ma’lumki, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda NNTlarning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, NNTlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda faoliyat yuritish orqali aholining tashabbuskorligini rag‘batlantiradi, bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Avvalo, NNTlarning fuqarolik faolligini oshirishdagi o‘rni haqida to‘xtalish lozim. NNTlar jamiyatda erkin fikr bildirish, ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilish, ularni hal etish uchun jamoaviy sa’y-harakatlarni tashkil etish imkonini beradi.

Bu tashkilotlar fuqarolarga o‘z manfaatlarini himoya qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun maydon yaratadi. Masalan, ekologik muammolar, inson huquqlari, gender tengligi, yoshlar siyosati, nogironlar huquqlari kabi yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi NNTlar nafaqat aholining ijtimoiy faolligini oshiradi, balki davlat siyosatini takomillashtirishda ham o‘z hissasini qo‘shadi. Shu bois, ularni demokratik tizimning ajralmas qismi deb atash mumkin.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida NNTlarning fuqarolik faolligini oshirishdagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Masalan, Germaniyada NNTlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, ularning faoliyati uchun maxsus grantlar, soliqlardan imtiyozlar joriy etilgan. Germaniyaning “Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ)” tashkiloti fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab dasturlarni amalga oshiradi. Buyuk Britaniyada esa “Civil Society Strategy” doirasida NNTlar davlat qarorlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Skandinaviya mamlakatlarida NNTlar mahalliy hokimiyat bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi, natijada aholi va davlat o‘rtasidagi ishonch darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa fuqarolik faolligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Boshqa tomondan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, NNTlarning samarali faoliyat yuritishi uchun muayyan sharoitlar zarur. Avvalo, bu — mustahkam huquqiy asos. Agar mamlakatda NNTlarning erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi qonunlar mavjud bo‘lsa, fuqarolik jamiyati yanada faol bo‘ladi. Ikkinchidan, moliyaviy mustaqillik muhim ahamiyat kasb etadi. NNTlar grantlar, homiylik va xalqaro tashkilotlar yordami orqali o‘z faoliyatini barqaror davom ettirishi zarur. Uchinchidan, davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik ham muhim. Davlat idoralari NNTlarning takliflarini eshitishi, ularni ijtimoiy siyosatga jalb qilishi fuqarolik faolligini oshiradi. To‘rtinchidan, kadrlar salohiyati. Zamonaviy boshqaruv, kommunikatsiya, tahlil va loyiha yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislar NNTlar faoliyatini samarali tashkil etadi.

O‘zbekiston sharoitida ham NNTlarning jamiyatdagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, aholi farovonligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun NNTlar faoliyati uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 10 mingdan ortiq NNTlar faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati yoshlar, ayollar, ekologiya, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat olib bormoqda. Shunga qaramay, mavjud tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, NNTlarning moliyaviy mustaqilligi hali to‘liq ta’minlanmagan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda ba’zi byurokratik to‘siqlar mavjud. Shuningdek, aholining NNTlarga bo‘lgan ishonchi va ularning faoliyatidan xabardorligi hamon past darajada. Shu sababli xalqaro tajriba asosida NNTlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy dasturlarda ishtirokini kengaytirish zarur.

Xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli deb topilgan usullarni O‘zbekiston amaliyotiga joriy etish katta samara beradi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida joriy etilgan “jamoaviy grantlar tizimi” orqali mahalliy NNTlar o‘z loyihalarini amalga oshiradi. Bu tizim fuqarolarning o‘z hududidagi muammolarni mustaqil hal qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida fuqarolik faolligini oshirish ham zamon talabi hisoblanadi. Masalan, Norvegiyada fuqarolar NNTlar orqali onlayn platformalarda ijtimoiy masalalarni muhokama qiladi, o‘z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda ham “E-platformalar” va “Ochiq budjet” kabi tizimlar orqali aholining ijtimoiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirish mumkin.

NNTlar, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etishda beqiyos ahamiyatga ega. Yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta’minlash orqali kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega avlod shakllanadi. Bu esa uzoq muddatda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim omilidir. Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, NNTlar fuqarolik faolligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ular orqali nafaqat jamiyatning ijtimoiy muammolari hal etiladi, balki fuqarolarda o‘z davlatiga nisbatan mas’uliyat, ishonch va tashabbuskorlik tuyg‘usi kuchayadi. O‘zbekiston uchun ham xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga mos holda tatbiq etish fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) fuqarolik jamiyatini shakllantirishda va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba misolida ko‘rish mumkinki, demokratik qadriyatlar chuqur ildiz otgan mamlakatlarda NNTlar nafaqat jamiyatdagi muammolarni hal etish bilan shug‘ullanadi, balki aholining siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ham ta’minlaydi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlari, AQSh kabi davlatlarda NNTlar fuqarolik faolligini rag‘batlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim vosita sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, NNTlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Biroq, xalqaro tajribaga tayangan holda, bu yo‘nalishda yana bir qator takomillashtirish choralari zarurligini ta’kidlash lozim. Jumladan, NNTlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, ularning davlat dasturlarida ishtirokini kengaytirish, raqamli platformalar orqali aholining faolligini oshirish va yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash eng muhim yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Shunday qilib, NNTlar orqali fuqarolik faolligini oshirish — bu nafaqat demokratik jamiyatni mustahkamlashning muhim omili, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi, aholining ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirish va davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlashning

eng samarali yo‘lidir. Xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish orqali biz yanada kuchli, faol va ongli fuqarolik jamiyatini barpo etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T: O‘zbekiston, 2023.
2. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun. –T: Adolat, 2014.
3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2021.
4. OECD (2022). Civil Society and Civic Engagement: Global Practices and Challenges. Paris: OECD Publishing.
5. European Union (2021). Strengthening Civil Society: EU Strategies for Civic Engagement. Brussels: EU Press.
6. GIZ (2020). Civil Society Cooperation Report: Promoting Democracy and Participation. Berlin: GIZ.
7. Salamon, L. M. (2015). The Resilient Sector: The State of Nonprofit America. Washington, D.C.: Brookings Institution Press.
8. UNDP (2023). Empowering Civil Society Organizations in Central Asia. New York: United Nations Development Programme.
9. Karimov, I. A. (2011). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat.
10. Turayev, B. (2022). “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda NNTlarning o‘rni.” Ijtimoiy fikr jurnali, №4, 56–64-betlar.

	MUNDARIJA	
1.	KIRISH (Rektor nutqi)	3
2.	1-SHO‘BA. KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHINING ASOSIY MEZONLARI: IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLIL	5
3.	Abduxalikov S. “Fuqarolik jamiyati tuzilmalarining substansional mezonlari”	5
4.	Muitov Davron Sobirovich “Fuqaro siyosiy faolligini oshirishning siyosiy ong bilan bog’liq ayrim xususiyatlari”	11
5.	Karimov Bobir Sharopovich “Fasilitativ jamoani shakllantirish – demokratik qadriyatlarning muhim omili sifatida”	14
6.	Nivedita Das Kundu “Civil society’s role in eliminating chemical weapons”	18
7.	Бафаев Шухрат Гафурович “Общественный контроль – важный фактор общественно-политической активности граждан”	21
8.	Abdukamol Shodiyevich Raxmonov “Fuqarolik jamiyatida ko‘ppartiyaviylik: kecha va bugun”	26
9.	Maqsad Isabayev Bahodirovich “Parlament vakilligi doirasida saylov tizimi va partiyasiz nomzodlik masalalari”	32
10.	Zamonov Zokir Turg‘inovich “Ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash – jamiyat taraqqiyotining muhim sharti”	37
11.	Abdulla Ruziqulov “Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda ilmiy yondashishning ahamiyati”	43
12.	Rasulov Bekzod Boymuratovich “O‘zbekistonda yoshlar elektoral xulq-atvorini rivojlantirish”	49
13.	Raximova Shaxnoza Anvarovna “Axborot-kutubxona sohasida davlat siyosati va huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash masalalari”	53
14.	Beshimov Xamidjon Sayidovich “Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va inson qadrini oshirishda kasaba	57

	uyushmalarining roli”	
15.	Zavqiddin Gadoyev “Fuqarolik jamiyatining rivojida tizimli yondashuvning o’rni”	62
16.	Mirzaaliyeva Aziza “Sun’iy intellekt texnologiyalarining fuqarolik jamiyati institutlariga ta’siri”	64
17.	Rustamov A. “Sun’iy intellekt: fuqarolik jamiyatining rivojlanish drayveri sifatida”	67
18.	Tog‘ayeva Dilnoza Miraxmatovna “Amir Temur davlatchilik tizimida fuqarolik jamiyati va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar talqini”	71
19.	Humoyiddin Yoqubov “Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining – yuqori bosqichi”	75
20.	Sadriddin Sharopov “Yosh rahbar xodimlarda boshqaruv samaradorligini oshirishda ijtimoiy kompetensiyaning ahamiyati”	82
21	Eshdavlatov Otaniyoz G‘afforovich “Yoshlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvida qadriyatlar tizimi omili”	86
22.	Toshboltayeva E’tibor Erkin qizi, Abdunabiyev Sultonbek Sherali o’g’li “Axborot makoni va fuqarolik jamiyati”	91
23.	Abdirasulova Nozanin Jasur qizi “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojining zamonaviy tendensiyalari”	93
24.	Namozova Diyora Shuhrat qizi “Fuqarolik jamiyati institutlarining evolyutsiyasi va ularning demokratik jarayonlardagi roli”	96
25.	Barnayeva Amina Abdixakim qizi “Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda NNTlarning o’rni”	99
26.	Safarova Marjona Laziz qizi, Sharifova Arjumandbonu Hamid qizi “Fuqarolik jamiyatida ayollar va yoshlarning yetakchi o`rni”	104
27.	Odiljonov Hamidullo Xayrullo o'g'li “Zamonaviy jamiyatda fuqarolik institutlarining roli va ahamiyati”	110
28.	Berdiqulov Alisher Xayriddin o'g'li, Olimov Bobur Odilovich	113

	“Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatining yangi qiyofasi”	
29.	Abdullayev Mirzobek Norbek o‘g‘li, Samarov E’zozbek Ravshan o‘g‘li “Ijtimoiy tarmoqlar va uning fuqarolik jamiyatiga ta’siri: imkoniyatlar va xavflar”	115
30.	Bozorova R.S. “Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli: nazariy asoslar va zamonaviy tendensiyalar”	118
31.	Олимова Мехрангиз Ферузовна “Роль малого бизнеса в развитии гражданского общества”	123
32.	2-SHO‘BA. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHIDA FUQAROLAR VA JAMOATCHILIK FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ISTIQBOL	127
33.	Fazliddin Ravshanov “Fuqarolik jamiyati: zamon, jahon va O‘zbekiston”	127
34.	Исомов Мухаммад Куронтоевич “Повышение активности граждан и общественности в формировании гражданского общества: международный опыт и перспективы развития в Узбекистане”	133
35.	Dr. Erkan Avcı “Turkiya va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining evolyutsiyasi: tarixiy meros, davlat-jamiyat munosabatlari va kelajak istiqbollari ustidan qiyosiy tahlil”	137
36.	Davronova Feruza Raxmonovna “Xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoyalashda xalqaro tashkilotlarning roli”	141
37.	Matnazarova M.A. “Fuqarolik jamiyati va fuqarolar faolligi: nazariy asoslari va xalqaro tajriba”	145
38.	Yarmuxamedova Irodaxon Nosir qizi “Fuqarolik jamiyatiing tarixiy shakllanish jarayonlari va ularning hozirgi bosqichi Turkiya misolida”	148
39.	Zabixulla Saipov “Kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy mezonlari: ijtimoiy-siyosiy tahlil. AQSH fuqarolik institutlari tajribasi”	153

40.	Ataullayev Fazliddin Fahriddin o‘g'li “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni: xalqaro tajriba va milliy istiqbol”	157
41.	Nizamova Mohidil Maxmud qizi “Markaziy Osiyo davlatlarida fuqarolik jamiyatining istiqbollari (ayollar masalasi misolida)”	160
42.	Темирбаева Айгерим Кайратовна “Европейский опыт как фактор формирования общественной активности в Центральной Азии”	165
43.	Shohjahon Ahadov “From the Primakov doctrine to Putin’s era: the transformation of Russian policy in Central Asia”	167
44.	Saburova Malika Munavarovna “Suv tanqisligi masalasi yoritilishida fuqarolik faolligini oshirish hamda internet, OAVlarining roli (xalqaro tajriba)”	172
45.	Kamronbek Radjabov “Fuqarolik jamiyatining shakllanishi Eron misolida”	177
46.	Raxmatov Alisher Obidovich “Fuqarolik jamiyatini shakllanishida fuqarolar va jamoatchilik faolligini oshirishning dolzarb masalalari: xalqaro tajriba va istiqbol”	179
47.	Vorisova Komilaxon Olmos qizi “Turkiy integratsiya va barqaror taraqqiyot”	182
48.	Мусохоний Амирхон Алишер ўғли “Роль гражданского общества в реализации программ устойчивого развития и экономической модернизации: международные практики и перспективы для Узбекистана”	187
49.	Yuldoshov Shodiyor Ishmuminovich “Xalqaro munosabatlar sohasidagi siyosiy tadqiqotlar”	190
50.	Jo‘rayev Muhammadsher Ma`rufjon o‘g‘li “Jamoatchilik Davron Muitov asosida mahalliy boshqaruvni rivojlantirish: xorijiy tajribalar va O‘zbekiston modeli”	193
51.	Sa’dullayev Asadbek, Narzulloyev Azizbek “Fuqarolik jamiyatini shakllanishida fuqarolar va jamoatchilik faolligini	196

	oshirishning dolzarb masalalari: xalqaro tajriba va istiqbol”	
52.	Esonova Dilnura Marat qizi “Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarning o'rni”	200
53.	3-SHO‘BA. O’ZBEKISTONDA KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR	204
54.	Туленова Гульмира Жандаровна “Правовые основы развития деятельности институтов гражданского общества”	204
55.	Lalixon Muxamedjanova “Globallashuvga yondashuvlar va madaniyatlararo muloqotda ehtiyotkorlik”	207
56.	Ergashev Ibodulla, Safarov Muxlis Maxmudovich “Yangi O‘zbekiston jamiyatida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish dinamikasi”	214
57.	Davron Muitov “O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati va saylovlar mushtarakligi”	218
58.	Masharipov Ikramjon Batirovich “Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishida tub burilish jarayoni”	223
59.	Qolqanov Nuriddin Tashpulatovich “Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlik va inson qadrini yuksaltirish borasidagi islohotlar”	228
60.	Баратова Махбуба Мубинжановна “Принципы детерминизма в системе совершенствования гражданского общества в Узбекистане”	236
61.	Shahina Jo‘rayeva “Atrof-muhitni muhofaza qilishda NNT va yoshlar harakatining o‘rni: barqaror rivojlanish sari qadam”	240
62.	Sevara Raximova “Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy faollikning o‘zaro uyg‘unligi”	244
63.	Yulduz Islomova Ilxom qizi, Shuhrat Berdiyev Berdinazarovich “O‘zbekistonning BMT tinchlikparvarlik tashabbuslaridagi ishtiroki: yangi diplomatik vector”	248

64.	Kushbakov Kamoliddin Baxromovich “Yoshlarda mutolaa madaniyati va intellektual salohiyatini oshirish – fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim asosi”	253
65.	Choriyeva Nargiza Ibotovna, Polvanov Azim Kuchkarovich “Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ekoturizmni rivojlanishi”	256
66.	Diyoraxon Tashmuratova To’rabek qizi, Ibodullayeva Sabina Nurmamat qizi “Modern trends in the development of civil society in Uzbekistan”	259
67.	Ergashev Lazizbek Nodirbek o’g’li “O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatining shakllanishidagi muammo va yechimlar”	263
68.	Ergashov Zuhriddinjon “Fuqarolik jamiyati va siyosiy madaniyat: yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi masalalari”	266
69.	Xudiyorova Charos Baxtiyor qizi “Zamonaviy O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi”	270
70.	4-SHO‘BA. UCHINCHI SEKTORNING JAMIYAT IJTIMOIY MODERNIZATSIYASIDAGI ISHTIROKI, KO‘PPARTIYAVIYLIK VA IJTIMOIY SHERIKLIK	273
71.	I.Ergashov “O‘zbekistonda partiyaviy tizimlar faoliyatining takomillashuvida siyosiy-falsafiy yo‘nalishlarning ta’siri”	273
72.	Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich “Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida jamoat tashkilotlarining o‘rni”	278
73.	Qarshiyev Nurmuhammad “Fuqarolik jamiyati siyosiy hayoti takomilida siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlar”	285
74.	Sabohat Yusupova “Siyosiy partiyalarni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati”	290
75.	Mamatova Fotima Abdusalomovna “Aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishda mahallabay tizimidan foydalanish”	292
76.	Axmadaliyeva Sevinchbonu Rustamjon qizi “O‘zbekistonda “ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun va uning islohotlardagi roli”	295
77.	Usmanov Otabek Odilbek o‘g‘li “Zamonaviy davlat	298

	boshqaruvida jamoatchilik nazoratining ilmiy asoslari”	
78.	Izzatov Dilmurad Tursunbayevich “O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik munosabatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki”	302
79.	Mingturayeva Kamola Farxod qizi “Fuqarolik jamiyatida volontyorlik harakatining ahamiyati”	305
80.	Shokirova Mubina Nabijon qizi “Third sector, multiparty system and social partnership: factors of civil society development in Uzbekistan”	308
81.	Botirova Madina Muzaffar qizi “O’zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishi asoslari hamda “uchinchi sektor” vakillarining ahamiyati”	312
82.	Xursanbekov Muhammadaziz Quvonchbek o’gli “NNTlar orqali fuqarolik faolligini oshirishning samarali usullari: xalqaro tajriba	315

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami

Bosishga ruxsat etildi. 29.10.2025-y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog‘i 20.00, Adadi 100. Buyurtma № 97
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko‘chasi, Segizbayeva 10a.